ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 2

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 2

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.02.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.02.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШУКУРОВ АҲАД АҲМАДОВИЧ
Лисоний белгининг асимметрик дуализми С.О.Карцевский талқинида 7

МАХМАРАИМОВА ШОҲИСТА ТЎХТОШЕВНА
Ном назарияси ва лисоний рефлексия
хусусида айрим мулоҳазалар 10

JO‘RAYEV NABI NARZIYEVICH
Badiiy matnlarda obrazli tafakkur ifodasi 14

СОБИРОВА ДИЛАФРУЗ АБДУЛҲАЙ ҚИЗИ
Болалар шеъриятида зид маъноли сўзлар лингвопоэтиктаси 18

BABAYEVA MAYA AMANGELDIYEVNA
Turkman tilidagi o‘zlashma frazeologik birliklarning
etimologik tahlili va milliy-madaniy xususiyatlari 22

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Ўзбек (диний) нутқи маданиятининг лингвомаданий асослари 25

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA
O‘zbek dialektal korpusida fe’lning sintaktik kategoriyasi
(Surxondaryo viloyati shevalari misolida) 29

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi 34

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Alisher Navoiy nasriy asarlaridagi perifrazalarning morfologik xususiyatlari 38

KULTAYEVA FAZILAT
Fanda ergonimlarning o‘rganilishi xususida 45

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod idiolektida geshtaltiv xarakterdagi metaforalar 49

BOTIROVA MAXLIYO BAXODIR QIZI
Reklamalarda sifatlarning grammatik tabiati 52

BOYSARIYEVA SAODAT
Tabiiy tilni qayta ishlashda stemmizatsiya 55

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Surxon vohasi nikoh marosimi etnografizmlari 58

САДИКОВА ЭЛЬВИРА ВИТАЛЬЕВНА
Антонимия пословиц с компонентами -антропонимами
на материале сборника пословиц в.Даля 63

МУНДАРИЖА

KENJAYEV ZOHIRJON SOBIROVICH
O‘zbek tili oronimlarining tarixiy manbalarda qo‘llanishi 66

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Guljamol Asqarova she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari..... 69

TOSHPO‘LATOVA NILUFAR ABDUG‘ANI QIZI
Badiiy matnda intertekstuallikning qo‘llanishi 73

ADABIYOTSHUNOSLIK

NASIROV AZIMIDIN NORMAMATOVICH
Romanchilik taraqqiyoti va ijodiy an’analar..... 76

MIRZAYEVA AZIZA SHAVKATOVNA
Transtekstuallikning zamonaviy adabiyotshunoslikda o‘rganilishi 81

BADALOVA JAMILA
O‘zbek dramaturgiyasida ijodkorlar obrazi
(Izzat Sulton ijodi misolida)..... 85

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETINING 70 YILLIK YUBILEYIGA
Sattor Mahmatqulov (1942-2005)..... 87

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЛИСОНИЙ БЕЛГИНИНГ АСИММЕТРИК ДУАЛИЗМИ С.О.КАРЦЕВСКИЙ ТАЛҚИНИДА

Шукуров Аҳад Аҳмадович,
Термиз давлат университети доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Кишилар ўзаро алоқа-аралашув жараёнини йўлга қўйиш учун турли воситалар, имо-ишора, кўча-ҳаракати қоидалари, темир йўл, денгиз транспорти белгилари ва шу каби рамзлардан, фан "тиллари" (кимёвий реакциялар, математик амалларни ёзишда қўлланиладиган рамзлар ва ҳ.к.) тизимидан ва табиийки, тилдан кенг фойдаланадилар. Ҳатто ахборот узатишнинг энг самарали усуллари кашф этилган бизнинг давримизда ҳам тил бу жараёнда ўзининг етакчи мавқеини сақлаб қолмоқда. Бунинг сабаби шундаки, тил ҳар қандай фикрни ифодалаш ва узатиш учун лозим бўлган барча имконият ва қулайликларга эга бўлиши баробарида, фикрнинг ўзини шакллантириш қуроли ҳам ҳисобланади. Бинобарин, тил ҳақида функционал асимметрия (номутаносиблик) нуқтаи назаридан гапирадиган бўлсак, у алоқа-аралашувнинг бирламчи, асосий, юқорида кайд этилган бошқа воситалар эса иккиламчи, нутқ вазияти талабига кўра юзага келган қурилларидир.

Тил орқали эмас, предметларнинг ўзи билан алоқага киришмоқчи бўлган кишиларнинг ҳолати Ж.Свифтнинг "Гулливернинг саёҳатлари" (3-қисм, 8-боб) фантастик ҳикоясида маҳорат билан чизиб берилган: ҳар бир "донишманд" суҳбат учун лозим бўлган барча нарсаларни қопларга солиб, ўзи билан олиб юрган. Ҳолбуки, инсонлар аслида нарса ва предметлар билан эмас, аксинча, уларнинг киши онгида муайян тасаввур ҳосил қилувчи ўринбосарлари ёрдамида алоқага киришадилар. Адресатга нарса, предмет, яъни *А* эмас, балки шу *А* нинг адресат онгидаги "вакили" *В* узатилади. Бу ҳақида сўз юритар экан, Ю. Маслов шундай ёзади: "Ани алмаштирувчи ва адресатга етказувчи *В*ни биз белги деб атаймиз. "Белгили вазият" қайси шароитда мавжуд бўлишини қуйидаги қадимий лотинча ибора жуда яхши ифодалайди: "aliquid statpro aliquo" – нимани нгдир ўрнида қандайдир бошқа нарса турибди"[1].

Бироқ таъкидлаш жоизки, масалан, ҳаво бузилиши олдидан қушларнинг пастлаб учишини белги деб қараш нотўғри: бунда мулоқот вазияти ҳам, ахборот узатувчи (адресант) ҳам, ахборотни қабул қилувчи (адресат) ҳам йўқ. Бу оддий аломат, нишона. Чунки у атайин, онгли равишда узатилаётгани йўқ. "Белги эса Аҳақда ахборот бериш эҳтиёжи туғилганда бошқа бир киши томонидан шу *А* атайин *В*га, яъни уни ифодаловчи бошқа бир нарсага алмаштирилганда лингвистик мақом кашф этади"[2]. Бинобарин, ахборот алмашиниш учун қўлланиладиган воситалар тизими белгили характерда бўлади. Шунинг учун тил белгиларнинг ўзига хос тизими сифатида тавсифланади[3].

Проф. Ю.С.Масловнинг кўрсатишича, 1) белги ифодаланаётган нарса билан айнан бир нарса эмас; 2) белги ҳис этиш мумкин бўлган ***шаклга,*** яъни ифодаловчисига (Ю.С. Маслов ифодаловчини "белги экспонента" деб атайди) ва ифодаланмишига эга; 3) белгига хос асосий хусусият унинг бошқа белги (белгилар)га қарама-қарши қўйилганлигада; 4) белгининг ифодаланиши – мазмуни киши онгида акс этади[4].

Англашиладики, белги ифода ва мазмун режаларига эга семиотик ҳодиса. Бу фикр фақат соф лингвистик тадқиқотларгагина тааллуқли. Амалий тилшунослик[5] йўсинидаги тадқиқотларда эса белгининг ифода ва мазмун планлари билан бир қаторда, унинг функция плани ҳам ўрганилади ва белгини бундай ўрганиш кўплаб фанларнинг, жумладан, психология, прагматика, лингвопоэтика, нутқ маданияти кабиларнинг объектидир.

Илмий манбаларда белги деганда нимани (фонема, морфема, сўз, гап) тушуниш масаласи мунозаралигича қолмоқда. Бу ҳолат эса, муайян

[1] Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1975. – С. 24.

[2] Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1975. - С. 25.

[3] Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1975. – С. 24-27.

[4] Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1975. – С. 25-27.

[5] Рождественский Ю.С. Лекции по общему языкознанию. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 213-220.

маънода унинг фанимизда барқарорлашмаганлигидан дарак беради.

Тўғри, аксарият адабиётларда белги деб сўзни тушунадилар. Таъкидлаш жоизки, бу фикр ҳамон устивор бўлиб қолмоқда. Бунда олимлар сўзнинг ифода ва мазмун планларининг ўзаро мувофиқлиги унинг асосий фарқловчи хусусияти эканлигига ишора қиладилар[1]. Белгининг асимметрик дуализми нуқтаи назаридан қараганда, бу фикр унчалик ҳам тўғри эмас. Биринчидан, сўз, агар биз унга *тил* ҳодисаси деб қарайдиган бўлсак, нарса-ҳодисаларнинг умумий номини ифодалайди. Бинобарин, у *нутқ* сатҳидагина муайян маъно кашф этиб, сўз шакл мақомини олади. Иккинчидан, семиотик жараён ҳосиласи, яъни тугал фикр ифодаловчи лисоний унсур фикрдир (высказывание). Шунга асосланиб, проф.В.Г.Гак фикрни *тўлиқ* белги, сўзни эса *нотўлиқ*(ярим) белги деб тушуниш лозимлигига эътиборни қаратади. Чунки тўлиқ белги нутқ вазиятига бевосита мос, бир маъноли, унинг референти мазкур белгили тизимга нисбатан объектив характерга эга[2].

Бу ҳақидаги мулоҳазаларини давом эттириб, В.Г. Гак шундай ёзади: “Ярим белги фақат тўлиқ белги таркибидагина нутқ вазиятига мос келади, кўп маънолилик хусусиятига эга бўлади, унинг референти белгили тизим ичида содир бўладиган бўлакларга шартли бўлиниш натижасидир”.

Олим ўзининг ушбу мақоласида “фикр миқдоран чекланганмаганлиги учун белгилар тизимидан ташқарида бўлади” дегувчи олимлар билан бахслашиб, белгили тизимда *ички ва ташқи* тизимлилик тушунчаларини фарқлаш лозимлигини таъкидлайди. “Агар ташқи тизимлилик муайян белгили тизимдаги нарса ва предметларнинг ўзига хос систем муносабатларини акс эттирса, ички тизимлилик тил бирликлари орасидаги парадигматик ва синтагматик муносабатларга асосланади”.

Тўлиқ белги ҳам, нотўлиқ белги ҳам аслида бошқа белгилардан (масалан, йўл харакати белгилари) деярли фарқ қилмайди. Бироқ тил белгили тизим сифатида улардан ифода ва мазмун планларининг функционал хусусиятларига кўра, тубдан фарқ қилади. Энди фикрнинг кўп маънолилиги хақидаги қарашларга тўхталадиган бўлсак, В.Г.Гакнинг қуйидаги сўзлари бу масалага нисбатан берилган илмий ва асосли жавобдир: “Кўп маънолилиги билан тавсифланувчи асимметрик нотўлиқ белгиларнинг чекланган миқдоридан бир маъноли тўлик белгиларнинг чекланмаган миқдори ҳосил қилинади. Агар сунъий тизимнинг қўлланиши ифодаловчи ва ифодаланмиш орасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш ва аниқлашга қаратилган бўлса, табиий тилда номлаш асосида тушунча ва ҳукмларнинг ҳосил бўлиши билан боғлиқ таснифлаш жараёни ётади”[3].

Белгининг лингвистик, аниқроғи, семиотик тушунча тарзида эътироф этилишини Ф.де Соссюрга нисбат бериш аслида нотўғри[4]. Чунки уни илк марта *логика* терминининг, *ички ва ташқи* сўз, яъни фикр ва унинг сўз билан ифодаланиши ҳақидаги таълимотнинг асосчилари стоиклар (эр.авв. III аср) олиб кирганлар ва унда уч унсур ифодаловчи, ифодаланмиш ва объект мавжудлигини таъкидлаганлар, аммо *объект* деганда нимани назарда тутганликларини ёзиб қолдирмаганлар.

Соссюрнинг буюк хизмати тилни белгилар тизими тарзида тушунтиришга ҳаракат қилганлиги ва маълум маънода бунинг уддасидан чиққанлигидадир. Дарҳақиқат, тилда маъно ва акустик образ бирикиб кетган, унинг ҳар иккала таркибий қисми ҳам бир хил даражада руҳият маҳсулидир.

Амалий тилшунослик доирасида иш кўрувчи фанлар, чунончи, лингвопоэтика учун лисоний белгини ифода, мазмун ва функция планлари мажмуи сифатида ўрганиш характерли. Улардан бирортасини четлаб ўтиш матннинг филологик таҳлилини беролмайди. Бунинг устига, тадқиқотчи лисоний белгининг асимметрик дуализми таълимотидан ҳам хабардор бўлмоғи лозим. Акс ҳолда, “Яхши бола яхши ўқийди” каби гапларда айнан бир сифатнинг нима учун икки вазифада (аниқловчи ва тўлдирувчи бўлиб) келиши сабабларини тушунтира олиш муаммоси туғилади. Бинобарин, тадқиқотчиишининг қурилиш, категориал семантик ва функционал аспектларида лисоний белгилараро содир бўладиган номутаносиблик билан боғлиқ қонуниятларни билмоғи лозим.

С.О.Карцевский ўзининг “Лисоний белгининг асимметрик дуализми ҳақида” номли мақоласида белги ва маънонинг ҳамиша ҳам бир-бирига тўлиқ, мос бўлавермаслиги, уларнинг чегаралари барча нуқталарида ўзаро қопланмаслиги сабабини айнан бир белгининг бир неча функция бажариши ва айнан бир маънонинг бир неча белги ёрдамида ифодаланиши мумкинлиги билан исботлайди. Бу эса ҳар бир белгининг айни бир пайтда имконият тарзидаги (потенциал) омоним ва синоним бўла

[1] Гак В. Г. О двух типах знаков в языке (высказывание и слова) // Язык как знаковая система особого рода. – М.: Наука, 1967. – С. 14.

[2] Гак В. Г. О двух типах знаков в языке (высказывание и слова) // Язык как знаковая система особого рода. – М.: Наука, 1967. – С. 11.

[3] Гак В. Г. О двух типах знаков в языке (высказывание и слова) // Язык как знаковая система особого рода. – М: Наука, 1967. - С. 11.

[4] Березин Ф.М. История лингвистических учений. – М: Высшая школа, 1984. - С. 167.

олишини таъминлайди. Чунки "... у тафаккур ҳодисалари бу икки қаторининг ўзаро чатишувидан ҳосил бўлган". Шу маънода омоним ва синонимларнинг пайдо бўлишини фақат талаффузи ёки маъноси ўхшаш хорижий сўзларнинг тилимизга келиб қолиши ҳодисаси билан боғлайвериш унчалик ҳам тўғри эмас.

Тил, С.Карцевскийнинг хақли равишда таъкидлашича, икки қутб умумийлик ва яккалик, мавҳумлик ва аниқлик орасида ҳаракат қилади. Бир томондан, у лисоний жамоанинг барча аъзоларига хизмат қилса, иккинчи томондан, шу жамоанинг ҳар бир аъзоси учун ўз фикрини намоён этиш (ифодалаш) воситаси вазифасини ҳам бажаради. Бироқ бизнинг руҳий хаётимиз шакллари қанчалик "ижтимоийлашган" бўлмасин, яккаликни ижтимоиётга тақиб бўлмайди.

Тўғри, лисоний белгилар виртуал, бинобарин, умумий характерга эга. Акс ҳолда, у шахснинг инон-ихтиёрига тобе бўлиб қоларди. Аммо, шахсда (яккаликда) шахсиятнинг (умумийликнинг) аломатлари зоҳир эканлигини ҳам унутмаслик керак.

С. Карцевский, агар белгилар ҳаракатсиз бўлганда, тил ёрлиқлар йиғиндисидан бошқа нарса бўлиб қолмаслигини айтар экан, айни вақтда белгилари ўта ҳаракатчан, маълум нутқ вазиятидан ташқарида мужмал маъно ифодалайдиган тилни ҳам тасаввур қилиш қийин, деб ёзади ва бундан шундай хулоса чиқаради: "... лисоний белги табиати айни бир пайтда ўзгармас ва ўзгарувчан бўлмоғи лозим. Муайян нутқ вазиятига мослашиши керак бўлган белги фақат қисмангина ўзгариши мумкин; ўзининг ўзгармайдиган қисми туфайли у доимо ўзига ўхшаш ҳолатда қолмоғи зарур". С.О.Карцевский бизнинг эътиборимиз мазкур нутқ вазиятидаги янги, номаълум нарсага ёки эскисига қаратилишидан қатъи назар, ҳар қандай билиш жараёни учун янги ва эскининг қўлланиши муқаррарлиги, эскининг доирасига киритилган янги нарса эски турнинг янги жинси сифатида киритилиши ҳодисасини билиш ёки тушуниш учун уни билимларимиз силсиласида тасаввур қилиб кўришимиз ва координаталарини аниқлашимиз лозимлиги чунки изланаётган ҳодисани айнан шу координаталар кесишган жойда топиш мумкинлиги ҳақида ёзади ва ҳақиқий янги нарса координаталарнинг ўзи эмас, балки уларнинг ўзаро муносабати, чатишиши эканлигини.

Мақола муаллифи фикрича, айнан бир товуш (масалан, стола, паруса, жена сўзларидаги – а турли прагматик қаторларда турли маъноларни ифодалашга хизмат қилса, бунинг аксини, яъни турли парадигмада айнан бир маънонинг турли белгилар билан ифодаланганлигини (кўплик сонининг -ы, -а, -е ёрдамида берилишида; қиёсланг: столы, крестъяне) ҳам кўриш мумкин. Демак, омофония –умумийлик, омонимия эса унинг хусусий, муайян контекстдагина намоён бўладиган кўринишидир. Унинг зиди бўлган ҳодиса (гетерофония) нутқ вазияти талабига кўра қўлланади. "Бироқ бу айнан бир тамойилнинг икки томонидан бошқа нарса эмас. Бу тамойилни унчалик аниқ бўлмаса-да, қуйидагича умумлаштириш мумкин: ҳар қандай лисоний белги бир пайтнинг ўзида имконият тарзидаги омоним ва синонимлардир. Бошқача айтганда, у бир пайтнинг ўзида айнан бир белгининг кўчма маънолари қаторига ҳам, турли белгилар билан ифодаланган ўхшаш маънолар қаторига ҳам таалуқли бўлади. Бу мантиқий хулоса белгининг фарқловчи ҳарактеридан келиб чиқади".

Омонимик қаторнинг кўпроқ руҳий ҳодиса эканлиги (чунки у ассоциацияларга – тасаввур, ҳис-туйғу, фикр ва шу кабиларнинг бир-бирини эслатадиган ўзаро боғланишларига таянади), синонимик қатор эса асосан, мантиқий ҳосила эканлиги (чунки у айнан бир синфнинг муайян тури сифатида талқин этилади) ҳақидаги фикрлар ҳам С.О.Карцевскийнинг том маънодаги кашфиётларидир.

Хуллас, баён қилинганлар асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Модомики, тил белгилар тизими экан (Ф.де Соссюр), шу тизим нималигини билиш, бир томондан, тилнинг онтологик хусусиятларини чуқур идрок этиш имконини берса, иккинчи томондан, лингвистик тадқиқотлар самарадорлигини оширади ва бу билан хар бир тилга хос хусусиятларни аниқ кўрсатиш имконини яратади.

Лисоний белги дея тил ходисаларини номлаш учун қабул қилинган терминнинг қўлланиши узоқ тарихга эга бўлиб, унинг дастлабки куртаклари стоиклар тадқиқотларида ўз ифодасини топган.

Лисоний белги деганда фикрни тушунмоқ лозим. Чунки фақат фикргина нутқ вазиятини юзага келтиради.

С.Карцевский томонидан ифодаланмишнинг функция тарзида талқин қилиниши бугунги кун нуқтаи назаридан олганда тўғри эмас. Чунки ифодаланмиш лисоний белги ифодалаётган маънонинг айнан ўзидир.

Тилда омоним ва синоимлар пайдо бўлишини бирламчи асосини лисоний белги асимметрик дуализми қонунияти, яъни бир белгининг бир неча функцияни бажариши ва бир маънони бир неча белги ёрдамида ифодалана олиши ташкил қилади. С. Карцевскийнинг ушбу мақоласи ёзилганига қарийб бир аср бўлмоқда. Бинобарин, уни шарҳлаганда кейинги даврда юзага келган маз-

кур соҳага доир тадқиқотларни, масалан, В.Г.Гак., И.И.Ковтунова, Н.Маҳмудов ишларини ҳам инобатга олиш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагилар билан бир қаторда, таъкидлаш жоизки, хусусий тилшуносликлардаги хато ва камчиликларнинг сабаби умумий тилшуносликни билмаслигимиз, унда келтирилган илғор метод ва фикрларни илмий жараёнга талаблар даражасида олиб кира олмаслигимизга бориб тақалади. Маълумки, умумий тилшунослик тадқиқотчини мустаҳкам методологик назариялар билан бойитади. Шунинг учун умумий тилшуносликка доир хорижий тилларда яратилган асарларни ўзбек тилига ўгириш давр талабидир.

Resume. Ideas put forward by S.O.Kartsevsky (1884-1955), one of the brightest representativesos Paris linguistic society, regarding the asymmetric dualism of linguistic sign are generalized in this article. Fruitfulness of his ideas in working out problems not only of general linguistics, but also of applied one, and linguistic poetics taken the responsibility to restructure the status of philology as a scientific subject in particular are referred in the article as well.

Резюме. В статье обобщаются идеи С.О. Карцевского (1884-1955), одного из ярких представителей Пражского лингвистического обшества, об асимметрическом дуализме лингвистического знака; отмечается плодотворность его идей в разработке проблем не только общего, но и прикладного языкознания, в частности, лингвистической поэтики, взявшей на себя задачу востоновления статуса филология как научной дисциплины.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

НОМ НАЗАРИЯСИ ВА ЛИСОНИЙ РЕФЛЕКСИЯ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Махмараимова Шоҳиста Тўхтошевна,
Термиз давлат университети
ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори,
филология фанлари доктори

Бизни ўраб турган теварак-олам – тасаввурларимизнинг маҳсули бўлиш билан бирга, олам манзарасини таркиб топтирган воқеликни талқин қила билиш лаёқатимизнинг муайян даражасини намоён этувчи *когнитив индикатор* ҳамдир. Чунки унда олам тўғрисидаги билимларимизнинг қай тарзда тоифаланишидан тортиб, реал воқеликка нисбатан шахсий баҳомиз, мазкур воқелик элементларини белги сифатида қайд этарканмиз, уни лисоний тизимда воқелантиришга доир имкониятларимиз, умуман, миллий-ментал, лисоний имкониятларимизга доир ахборот мужассамланади.

Тилнинг ономастик кўлами миллий лисоний ҳамжамиятнинг ана шундай кўрсаткичларини яққол акс эттирувчи сатҳ бўлиб, унинг алоҳида тизим сифатида тегишли этник кўламда воқеланиш шартларига қараб, сатҳ бирликлари – номларнинг яшовчанлик имкониятларига, миллий-маданий кўламдаги аҳамияти борасида хулоса қилиш мумкин.

Ономастик бирликларнинг лингвомаданий, лингвокогнитив тадқиқига рамз, белгининг ҳиссий-идрокий, лисоний-мантиқий, образли хотира томонидан инъикос этилиш даражасига кўра ёндашиш мақсадга мувофиқ. Ҳар қандай тил бирликларида бўлгани каби, ономастик бирликлар таҳлилида ҳам уларнинг шаклий(таркибий тузилиши), 2) ички мазмун кўлами эътиборга олинади. Жумладан, бугунги глобал шароитда ономастик бирликлардан, айниқса, эргоним, урбаноним,

фирмонимлар шаҳар муҳити, ундаги аҳолининг ментал-маданий даражасини белгиловчи асосий кўрсаткич, шаҳарнинг маданий образини ифодаловчи воситага айланган. Табиийки, ўзга ономастик бирликлар(мифонимлар, теонимлар, астронимлар, антропонимлар, этнонимлар, топонимлар(уларнинг турли тўпламлари билан олинганда) ва б.)дан фарқли, бу тоифа номларда даврийлик белгиси нисбатан ўта кучли ифодаланган бўлади. Яъни уларнинг ички шаклида сақланган ахборот ва билимнинг авлоддан-авлодга ўтиш имконияти, бугунги ахборот даврини ҳисобга олганда, ниҳоятда паст. Мазкур бирликлар орасида ясалишнинг турли моделларига қараб, эргонимларнинг даврийлик хусусияти, семантик мувофиқлиги, қолаверса, шу номларни ижод қилувчи лисоний жамоанинг лингво-ахлоқий мезонлари, лингворефлексиясининг даражасига бирмунча аниқликлар киритиш мумкин.

Умумий ҳолда лисоний рефлексияни тил танқиди, шахсий ёки ўзгалар нутқий фаолиятини тил меъёрлари мисолида назорат қилиш сифатида тушуниш ўринли. Тилдаги рефлексия тил соҳибининг нутқий фаолиятни нима мумкин ва мумкин эмаслигини англаш орқали намоён бўлади. Унинг эргонимлардаги ифодаси тегишли рефлектив ифодалар(*Ошхонангизнинг номи, минг бор узр, кулгимни қистайди*), алоҳида предикатив шаклар (*Кечирасизу, сиз айтаётган кераксиз фанлар дунёни тараққиёт сари етаклаётган фанлар-ку; Хафа бўлсангиз ҳам айтай – тушунмаган эзма одам экансиз, Гапларим ножоиздир, бироқ унинг сохта хушомадлари мен учун бир тийин*) ёки кириш лексемалар (*Афсуски, буни илм деб ҳисоблаш нотўғри*) орқали воқеланмасдан, бирликнинг бевосита ички ва ташқи мазмуний мувофиқлигига асосланади.

М.А.Кронгаузга кўра тилга танқидий қараш инсоннинг тил ҳақидаги мушоҳада қила бошлаган даврларидан мавжуд. Кундалик ҳаётга тааллуқли лисоний рефлексиянинг барча кўринишлари(газетага хат, давра суҳбатлари, жамоат транспортидаги диалогик қурилмалар) – тил танқиди. Тил танқидини икки томонлама талқин қилиш мумкин: тилни одамлар ўртасидаги мулоқот қуроли сифатида танқидий кўриб чиқиш ҳамда муайян даврдаги тилнинг ривожланиш ҳолатини танқидий кўриб чиқиш[1].

В.И.Семенова эргонимларда акс этган ижодий рефлексияни лисоний рефлексия доирасида тушунади, унингча, лисоний рефлексия ономастик бирликларда акс этган мазмунни “гапиртиради”[2]. Бизнингча ҳам лисоний рефлексия муассаса, ташкилот, фирма ва хусусий секторнинг исталган сегменти номларини уларнинг мақсад ва фаолият туридан келиб чиқиб шартлаши лозим. Демак, бу жиҳатдан ономастик лингворефлексия дастлаб, а) жой номларини танқидий кўриб чиқиш; б) жамиятнинг ном қўйишдаги лингвоахлоқий, қадриятий қоидаларига амал қилишдир. У эргонимларда асосан новербал – имплицит тарзда намоён бўлади.

Масалан, буни овқатланиш нуқталарига қўйилган номларда кузатсак. Ўрганилган овқатланиш нуқталари(Сурхондарё ҳудуди мисолида)га қўйилган номлар орасида муассаса мақсадига мос келувчи номлар 68 фоизни ташкил этиб, уларнинг 104 таси (32 фоизи) лингворефлектив нобоп номларни ташкил қилган: *Biznes Inter Naima Bonu*, *Shaffof lavashi, Muxtasham Elit* каби[3]. Аксинча, географик жойлашувга ишора асносида қўйилган: *Qo’ngirot-Kofnun taomlari, Termeziy o’zbegim taomlari, Afsona-Chinor-Choyxonasi* каби эргонимларда лингвоахлоқий мезонларга амал қилингани ва бу билан маданий қадриятларга эътибор берилгани кузатилди. Бироқ улар орасида: *Denov kebab, Boysun Surxon mega burger* сингари беўхшов номлар ҳам йўқ эмас.

1) Нейминг назариясига кўра яхши ўйланган эргонимик нейм: 1) осон ўқилиши ва ёзилиши; 2) яхши эслаб қолинадиган; 3) осон тушуниладиган; 4) сегментлари(мазмуний компонентлари); 5) рақобатбардош жиҳатлар ҳамда 6) брендниг бош ғоясини ёрқин ифодалай олиши керак. Бу жиҳатлар неймингларнинг ташқи ва ички шакл мувофиқлигини таъминлашга хизмат қилиши лозим. Бунда деривацион хусусиятларни ҳам эътибордан қочириш кераксмас. Н.Д.Голевга кўра, ҳар қандай янги ифода мавжуд номга “янгилик юкланиши” эвазига қурилади. Зотан, ўша, янгилик сўзловчининг ифодалаётган интенциянинг янги мазмуни, стимули бўлиб ҳисобланади[4]. Олим деривацион жараён ва қурилмаларнинг умумий тамойиллари қаторига “мавжуд(ифода)+янгилик” формуласини

[1] Кронгауз М.А. Речевые клише: энергия разрыва // Лики языка: к 45-летию научной деятельности Е.А.Земской. РАН Институт русского языка им. В.В. Виноградова. – М.: Наследие, 1998. – С. 185 - 194.

[2] Семенова В.И. Онимическая лексика и языковая рефлексия. https://imbt.ru/publications/publikatsiya-nauchnykh-statey-doi/2018/naydakovskie-chteniya/onimicheskaya-leksika-i-yazykovaya-refleksiya/

[3] Kultaeva Fazilat. (2022). Study of ergonyms in uzbeki linguistics. World Bulletin of Social Sciences, 16, 11-14; Kultaeva, Fazilat. Analysis of ergonomic units at the onomastic level. (2022).

[4] Голев Н.Д. Деривация и мотивация как формы оязыковленной детерминации: инварианты и варианты. Глава 1.5 из книги Очерки по лингвистической детерминологии и дериватологии русского языка: Коллективная монография/Под ред. Н.Д. Голева. - Барнаул: Изд-во Алт. ун-та,1998. С. 65-84.

киритади. Унингча, ҳар қандай янгилик(ифода) ҳосила суппозицияларнинг ривожи ёки исталган лисоний бирликда мавжуд деривацион-мотивацион имкониятнинг воқеланишидир[1]. Бу қарашни нейминглашув жараёнига тадбиқ қилсак, унда мазкур жараён ҳосилаларига доир конструкция ва моделларда 1) аффикслар: олд(префикс) ва орқа(суффикс) қўшимчалар; 2) сўзнинг қисқарган шаклини қўллаш; 3) ўзлашган қатлам унсурларидан фойдаланиш; 4) товушлар оҳангдорлиги (аллитерация ҳисобига), жарангдорлиги (алоҳида олинган сўзлар бўғинлар ҳисобига кўра)дан унумли фойдаланилишини кузатиш мумкин бўлади. Модомики, ҳар қандай янги ифода(бизнинг вазиятимизда ном) аввалдан мавжуд лисоний бирлик устига юкланган янгилик эвазига юзага келаркан, демак, тилдаги ҳеч бир номинатив бирлик ёки ифодавий қурилма тамомила янги – ноль(Жрақам компонентли номлар; 2) мифоним, антропоним, фитоним, зооним, фильмоним, эпоним компонентли номлар; 3) географик жойлашув(локация) ни англатувчи номлар; 4) ўзлашган (русча, инглизча, французча, лотинча, форс-тожикча) компонентли номлар; 5) бир сўздан иборат номлар; 6) икки сўздан иборат номлар; 7) қисқартма (аббревиатура)ли номлар; 8) график бўрттирилган номлар; 9) омоним компонентли номлар ва бошқалар мавжуд.

Мазкур тасниф орасида таклиф қилинаётган омоним компонентли номлар ўз хусусиятига мувофиқ эмаслигини кўриш мумкин. Ушбу гуруҳ таркибида келтирилган: *Пластина Плесени, Точка Торта, Ракета Рафа, Замок Замеса, Шашка Шашлыка, Букет Бутерброда, Чек Черники, Карта Карамели*[2] сингари номларнинг омонимга мутлақо алоқаси йўқ. Уларнинг товуш комбинацияси сўз ўйинидан фарқли, график акцент орқали таъминланган оҳангдорлик – аллитерацияни вужудга келтирган, холос. Тегишли ҳолатни тақдим этиш ва бу хизматдан фойдаланишдан манфаатдорлик – лисоний ҳамжамиятда метатилга оид билимлилик даражасининг лисоний-когнитив ўсиш даражасига пропорционал бўлишини исботлайди.

Нейминглар таснифи ва ясалиш моделида турли-туманликка қарамай, асосан уларнинг жарангдорлигига урғу берилаётгани улар орасида атов хусусиятидан йироқ, ичи бўш бирликларнинг кўпайишига имкон туғдирмоқда. Натижада *Аналак* (ресторан), *Shadoze* (гўзаллик салони), *King burger* (кафе), *Алко мир* (дўкон), *Manti sity* (ошхона), *Yess, boss* (ресторан), *Mohinur kids* (кийимлар дўкони), Lyuks jentelmen (эркакларнинг кийим дўкони), *Bronza kids* (кийимлар дўкони) каби сиртдан жарангдор, ярим ажнабий, мазмунсиз номлар кўпаймоқда.

Тадқиқотчи Ф.Култаева эргонимларнинг: 1) логистика; 2) коммуникация ва ОАВ; 3) гастрономия ва овқатланиш; 4) агро сектор; 5) қурилиш; 6) тиббиёт; 7) савдо секторига тегишли сегментларнинг барчасида номлаш қоидаларига зид келувчи эргонимлар мавжудлигини аниқлайди[3]. Олинган натижа лисоний ҳамжамиятда *нутқий айбни* тан олиш ва буни онимлар мисолида имлицит кўрсатиб ўтиш рефлексияси шаклланмаганини исботлайди. Бу бирликлар бугунги кун ижтимоий-маданий контекстнинг ҳақиқий манзарасига қуйидагича хулоса беришга имкон беради:

1) маданиятлараро ижтимоий-иқтисодий интеграция;

2) хорижий тилни билмаслик (ўзга тил лексик ва фразеологик бирликларининг асл семантик хусусиятларидан бехабарлик);

3) лисоний ҳамжамиятда миллий лингвомаданий белгиларнинг йўқола бориши;

4) жамиятдаги аксиологик эврилишларнинг миллий қадриятлардан устун кела бошлаши бу каби бошбошдоқликларни юзага келтирувчи асосий омиллардан саналади.

XX асрда тилнинг ортологик қонуниятларига *лингворефлексив* ёндашув эргонимлар шаклланишини бир қадар тартибга солиб турди десак, муболаға бўлмайди. Гарчи 90-йиллар охирига келиб, бу жараён муассаса ва корхоналарнинг секин-аста давлат назоратидан чиқиб, уларнинг катта қисми хусусий секторга ўтиши билан бошланиб, номлаш жараёни иқтисодий ҳамжамиятдаги пиарлашувнинг ўзига хос индикаторига айланди. Жумладан, Ф.Култаева маҳаллий иқтисодий секторнинг 1500га яқин сегментларининг қарийб 80 фоизи антропоним компонентли эканини қайд этади[4]. Қолган бирликларда эса хорижий компонентли тушунарсиз комбинациялар кузатилди. Бошқача айтганда, давлат улушининг хусусийлаштирилиши эвазига жамият лингвоаксиологик манзарасида қадриятий жиҳатдан “нотаниш”, миллий маданиятга бегона унсурларнинг пайдо бўлиши “эътибор марказига инсон омили, МЕН координатасини қўйиш ва бу антропологик йўналишни қолган барча моҳиятлар учун асос сифати-

[1] Юқоридаги манба.

[2] https://dancecolor.ru/blog/kak-nazvat-kafe

[3] Kultaeva Fazilat. (2022). Study of ergonyms in uzbeki linguistics. World Bulletin of Social Sciences, 16, 11-14; Kultaeva, Fazilat. Analysis of ergonomic units at the onomastic level. (2022).

[4] Kultaeva Fazilat. (2022). Study of ergonyms in uzbeki linguistics. World Bulletin of Social Sciences, 16, 11-14; Kultaeva, Fazilat. Analysis of ergonomic units at the onomastic level. (2022).

да қабул қилиниши” асосида кеча бошлади.

Тадқиқотчилар томонидан тўпланган материаллар орасида коммуникация ва оммавий ахборот воситаларининг номларида лингворефлексиядан оғишиш ҳоллари деярли учрмаган. Бинобарин, бу ҳолат тилга ишлов берувчилар доирасида тилнинг ривожланиш ҳолатларига хушёр қарашнинг таъминланиши лозимлигига ишора.

Табиийки, жамиятнинг иқтисодий-ижтимоий, маданий ҳаётида фаолликни даъво қилувчи хусусий сектор унсурлари дастлаб маҳсулот ёки корхона номини реклама қилишдан бошлайди. Агар собиқ шўро даврида кооперация секторидаги “нутқий ижодиёт” кайфияти сиёсий мафкура туфайли бостириб келинган бўлса, аср охирига келиб, жамият нутқий фаолиятининг эркинлашуви эвазига “лингворефлексия элагидан ўтказилмай қолган” номлар ижод қилина бошлади.

Бироқ буни алоҳида ҳудуд ёки маданий макон мисолида танқид қилиш ўринли бўлмайди. Негаки қадриятий эврилишлар, лингвоахлоқдан оғишиш нафақат постсовет ҳудуди, балки глобал дунёда умумий тенденция кўринишига келиб қолди. Масалан, буни фильмонимлар мисолида ҳам яққол кузатиш мумкин: бу даврда суратга олинган фильм номлари унгача бўлган давр фильмонимларидан мазмуний ғариблиги билан фарқ қила бошлади. Бу хулосани ҳам маҳаллий, ҳам хорижий кинематография маҳсулотларига нисбатан келтириш мумкин. Хусусан, “Севги”, “Муҳаббат либослари”, “Юр, муҳаббат”, “Муҳаббат синовлари”, “Арзон муҳаббат”; “Муҳаббат изтироблари”, “Муҳаббат ва эҳтирос”, “Муҳаббат ёмғири”, “Самовий ишқ” (Корея); “Муҳаббат тафти” Iss Pyaar Ko Kya Naam Doon? – Бу севгини нима деб аташ мумкин?, “Севишганлар दलिवाले, *Dilwale*”; “Севишганлар ёхуд муҳаббат қиссалари” Mohabbatein; Кутилмаган муҳаббат, Ақлдан оздирувчи муҳаббат; Муҳаббат асири; Изҳорсиз муҳаббат (Ҳиндистон); “Ишқ эртаги” (Туркия), “Муҳаббат оятлари” (Индонезия), “Муҳаббат қаҳваси”, “Муҳаббат ришталари”(Мексика), “Биринчи муҳаббат”; “Ишқ садоқати”(Аргентина) каби. Бинобарин, жамиятга тақдим этилган маҳсулот, агар у фуқароларнинг маънавий ўсишини таъминлаш эвазига диди ва савиясини саёзлаштириш, маишийлаштиришга хизмат қиларкан, умумий ҳолда лисоний онгнинг кейинги тараққиёт даражасида ҳам ўзининг салбий оқибатларини намоён қила бошлайди.

Юқорида таъкидлангани каби, тилдаги ҳеч бир номинатив бирлик шаклан ноль асосда, яъни мутлақ янгидан вужудга келмас экан, дастлаб ономастик бирликларнинг ички шаклини маданий-аксиологик қийматли ахборот билан тўлдириш лозимлигини, бу жиҳатдан лисоний танқид лаёқатини шакллантириш эҳтиёжини инкор қилиб бўлмайди.

Резюме. Мақолада миллий-маданий маконнинг “юзи” бўлган жой номлари, жумладан, эргонимларнинг лисоний хусусиятлари ёритилган. Уларнинг жамият қадриятий манзарасидаги ўзига хос “индикатор” табиати эса лингворефлексия мисолида тушунтирилган.

Resume. The article describes toponyms that are the “face” of the national cultural space, including the linguistic features of ergonyms. Their unique “indicative” nature in the value landscape of society is explained using the example of linguistic reflection.

Резюме. В статье описываются топонимы, являющиеся “лицом” национально-культурного пространства, в том числе языковые особенности эргонимов. Их своеобразная “индикаторная” природа в ценностном ландшафте общества объясняется на примере языковой рефлексии.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNLARDA OBRAZLI TAFAKKUR IFODASI

Jo'rayev Nabi Narziyevich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mamlakatimizning yangi rivojlanish va taraqqiyot bosqichiga o'tishi natijasida o'zbek milliy tilshunosligining yangi-yangi tadqiqot yo'llarini belgilashga, tilimizning boy badiiy imkoniyatlarini namoyon qilishga katta yo'l ochildi. O'zbek milliy tilimiz nutqiy, badiiy, tasviriy ifoda hamda vositalarga boy tillardan biri hisoblanadi.

Badiiy obrazli tafakkur ifodasi olamni aniq va izchil obrazlar orqali idrok etishga bo'lgan intilishlarda namoyon bo'ladi. Olam qiyofasi va manzarasini yaqindan yoritish hamda tahlil qilish muammosi uzoq vaqtladan buyon faylasuflar, folklorshunoslar, madaniyatshunoslar, adabiyotshunoslar va tilshunoslarning eng dolzarb mavzularidan bo'lib kelgan.

Badiiy matnlarda badiiy obrazli tafakkur ifodasining namoyon qilinishida tasviriy ifoda va vositalardan foydalanishning ahamiyati kattadir. "Obrazli ifodalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday ifodalar ijodkorning katta mehnati va o'tkir tafakkurining samarasi sifatida vujudga keladi. Ba'zan bir fikrni bayon etishda qator-qator obrazli ifodalarning qo'llanilgani kuzatiladiki, bu holatni ko'proq poetik nutq uchun xos deb baholash mumkin"[1].

Badiiy matnlarning lingvomadaniy tahlilini amalga oshirishda badiiy tasviriy vositalar orqali tafakkur, til va madaniyat hodisalari mushtarakligi doirasida ilmiy xulosalar chiqarish yaxshi natija beradi. "Agar badiiy asarga mo'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmaydigan bo'lsa, uning sir-u jozibasi bir zumda yo'qqa chiqadi va adabiy asar o'ziga xos ta'sir qudratidan tamomila mahrum bo'ladi. Tahlil qilinayotgan asarning barcha jihatiga birvarakayiga sinchkovlik bilan yondasha bilish va uning qismlaridagi jozibani kashf etishga e'tibor qaratish tahlilning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omildir"[2]. Badiiy matnlarda tasvirlanayotgan voqea va hodisalar, ilgari surilgan fikr hamda qahramonlarning kechinmalari tasviri badiiy ta'sirchanligini obrazli tafakkur ifodalarisiz mantiqiy tushunish qiyin bo'ladi. "Hamid Olimjonning "Savol" she'ridan olingan quyidagi satrlar poetik fikr sifatida kishini hayratga soladi.

Kiyintirsam seni bahorga,
Yulduzlarni o'rasam qorga.
Olib kelib oldingga qo'ysam,
Ham yulduzni, ham seni suysam…

Kishini bahor bilan kiyintirib, yulduzlarni qorga o'rab odam oldiga qo'yish, yulduzni suyishni poetik nutq doirasidagina norma deb hisoblash, tasavvur qilish… bu holatdan zavqlanish mumkin. Bunday ifodalar poetik nutq uchun tipik ifodalar bo'lib, voqea – hodisani bu xilda bayon etish orqali badiiy tasvir kuchaytiriladi, fikr esa obrazli idrok etiladi"[3]. Obrazli tafakkur ifodasini o'zida namoyon etuvchi mazkur she'riy parchadan ko'rinadiki, tafakkur insonning ongi, aqliy faoliyati hamda harakatlarining eng yuqori darajadagi shakli, ko'rinishi hisoblanadi. Ana shu tafakkurning mavjudligi, tafakkur bilan bog'liq nutqning yuzaga kelishi insonlarni olamdagi boshqa mavjudotlardan farq qilishini ta'minlaydi. Inson voqelikni idrok etadi va tasavvur qiladi. Avvalo obrazli tafakkur to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, insonning sezgisi, ongi va miyasining faoliyati orqali butun olam haqida, unda bo'layotgan voqea – hodisalar to'g'risida axborotlar, hamda ma'lumotlarga ega bo'lishi, tashqi olamni idrok etishi, anglashini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Tashqi olam o'zining butun borlig'i, manzarasi bilan obrazlar qiyofasida namoyon bo'ladi. Tafakkurlarda turli xayoliy manzaralar gavdalanadi. Ayniqsa ushbu tasvirlar badiiy san'atkor tasavvurlarida yanada izchillashadi, mukammallashadi, tasviriy vositalar orqali ishonchli hamda mazmunli ifodalanadi. "Ma'lumki, predmetlar doimo serqirra hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bir obraz tafakkurda bir necha predmetga nisbatan qo'llanishi mumkin. Masalan, ***odamning tishi, arraning tishi, taroqning tishi*** kabi birikuvlarda odamning **tishi** tafakkurdagi asosiy obraz bo'lib, **tish** predmetiga xos yanchish, maydalash, bo'laklash, bir

[1] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент. Фан, 1990. – С. 56.

[2] Xolmanova F.A. Mehrobdan chayon romanida troplarning ishlatilishi / "Sciene and Edukation" Scientific Journal August 2020/ Volume 1 Issue5.

[3] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 55.

xil ketma – ketlikda joylashish kabi xususiyatlar shu obrazning boshqa predmetlar (**arra, taroq**) ga nisbatan qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda. Obrazlarning bunday o‘ziga xosligi orqali hosil qilingan tafakkur shakli obrazli tafakkur atamasi bilan nomlanadi”[1]. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar jahon tilshunosligida V.fon Gumbold, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, A.A.Shaxmatov, N.D.Arutyunova, V.K.Xarchenko, B.N.Teliya va Serebrennikovlarning izlanishlarida uchraydi.

Badiiy matnlarda badiiy tasvir ifodasi va vositalari orqali insonning butun hayoti va faoliyatining turli xil hayotiy hodisalari, tabiat manzaralari, qahramonlar va ularning o‘y-xayollari, maqsadlari hamda hayot, kelajak haqidagi tasavvurlari qamrab olinadi, aks ettiriladi. “Badiiy obraz yaratuvchi vosita ijodkorning ma’naviy quroli hamdir”[2]. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan turli tasviriy va ifodali vositalar badiiy asarning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshirishga, oquvchiga estetik zavq bag‘ishlash, ruhiy ta’sir o‘tkazishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, “O‘zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o‘rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi emotsional – ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo‘lamiz”[3]. Adabiy tilning, adabiy asarlarning o‘ziga xos tili, badiiy tasvir ifodalari bor. Shuning bilan birga har bir tilning o‘ziga xos qoidalari, qonuniyatlari hamda me’yor va mezonlari bor. Badiiy – adabiy tilning ham o‘ziga xos xususiyatlari bolib, ular rang – barang, obrazli tafakkur ifodalaridan iboratdir. Adabiy tilga bunday xususiyatlarni badiiy tasvir vositalari beradi. Badiiy matnga rang – barang, obrazli xususiyat beradigan vosita badiiy nutq qurilmalaridir.

Tasviriy ifoda va tasviriy vositalar badiiy adabiyotda ham, og‘zaki nutqda ham, folklorda ham juda ko‘p qo‘llaniladi. Bu tasviriy ifoda va vositalar nutq, uning mazmuniga badiiy bo‘yoq ekspressivlik bag‘ishlaydi. Badiiy tasviriy vositalar va ifodalarni tushungan va yetarlicha anglagan hamda tadqiq qilgan tilshunos olim S. Mamajonov, “tasviriy vositalar ro‘para kelgan odam minib ketaveradigan egarlab qo‘yilgan ot emas. Qaysi tasviriy vositani qanday qo‘llash shoirning dunyoqarashi, g‘oyasiga, voqelikka munosabati, uni o‘ziga xos ko‘rishi, idrok etishi, tushunishi va tushuntirish uslubiga, lirik qahramonning xususiyatiga, qisqasi, shoirning o‘ziga xos uslubiga bog‘liq. Haqiqiy san’atkor hech vaqt , mana shu joyda falon usulga yoki falon tasviriy vositaga murojaat etayin, degan o‘yni xayoliga ham keltirmaydi, aksincha, o‘z tafakkuri, g‘oyaviy niyati, tushunchasi va materialning taqozosi bo‘yicha ish ko‘radi. Ijodkorning ruhiy olami, uni ilhomlantiradigan hayotiy voqelik qanday bo‘lsa, uning tasviriy vositalari ham shunday bo‘ladi”[4], - degan edi.

Haqiqatan ham hozirgi o‘zbek tilshunosligida tasviriy ifoda va vositalar juda ko‘p. Ushbu ishimizda tpoplar guruhiga kiruvchi tasviriy ifoda va vositalardan metafora, o‘xshatish, epitet (sifatlash), realiya, ramz va stereotiplar kabi lingvomadaniy birliklarning badiiy til xususiyatlariga qisqacha to‘xtalishni ma’qul topdik.

Jahon tilshunosligida tasviriy ifoda va vositalar, ularning badiiy nutqda qo‘llanilishi usullari hamda xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borilgan. “Bu vositalarni tilning tasviriy vositalari sifatida o‘rganilishi qadimgi grek, hind va qadimgi rim ritoriklarining faoliyatlari bilan bog‘lanadi va hozirgi kunda ham tasviriy vositalar sifatida antik an’ana asosida tasnif qilinib kelinmoqda”[5]. Ana shunday tadqiqotlar dunyo tilshunosligida atroflicha amalga oshirilgan. Ushbu sohalardagi izlanishlar va tadqiqotlarning mahsuli sifatidagi ishlar mavzumiz doirasidagi izlanishlarimizning nazariy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Aristotel o‘zining “Ritorika” nomli tadqiqot ishida so‘zning metaforik ma’noda qo‘llanishi to‘g‘risidagi tasniflari ifodalangan bo‘lsa, Kvintilian tomonidan figuralarning antik asosi ko‘rsatib o‘tilgan. A.N.Veselovskiy va A.A.Potebnyalarning izlanishlarida trop hamda figuralarning badiiy nutqdagi ahamiyati tasniflangan. Bu sohadagi ilmiy izlanish va tadqiqotlarda M.Polyakov ham o‘z qarashlarida “metafora – tasvirlaydi, o‘xshatish – ko‘rsatadi”[6] degan g‘oyani ilgari suradi.

O‘zbek miliy tilshunosligida bu mavzu doirasida bir qator ilmiy – tadqiqot ishlari yaratilgan. Xususan, R.Qo‘ng‘urovning “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar”, S.Mamajonovning “Uslub, obraz, tasviriy vositalar”, M.Mukarramovning “O‘zbek tilida o‘xshatish”, Y.Is’hoqovning “Tashbeh”, “A.Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” II tomi,123-betida, T.Rasulovning “Badiiy tasvir va obrazli tasviriy vositalar”, G‘.Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish”, T.Aliqulovning “Tarjima nazariyasiga kirish”, N.Mahmudovning “O‘xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli” maqolasi, D.Xudoyberganovaning “Til, tafakkur, madaniyat” nomli

[1] Аҳмедова А.С. Образли тафаккурнинг лингвистик талқини” GOSPODARKA I INNOWACJE.

Laboratirium Wiedzy Artur Borcuch, Volume: 23/2022. http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2022 LWAB.

[2] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – С. 22.

[3] Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. В. 5.

[4] Мамажонов С. Услуб, образ, тасвирий воситалар // Шарқ юлдузи, 1969, № 6. – Б. 197.

[5] Умурқулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021. – В. 225.

[6] Умурқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво – услубий шаклланиш асослари: Филол.фанл.док-ри (DSc) илмий дараж.олиш учун тақдим этилган дисс-си. – Тошкент – 2020, В. 207.

ilmiy risolasi, S.Usmonovning “Metafora”, B.Umurqulovning “Poetik nutq leksikasi”, “Badiiy nasr jozibasi” monografiyasi, G.Qobuljonovaning “Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini” nomli nomzodlik dissertatsiyasi, F.Usmonovning “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”, Sh.Maxmaraimovaning “Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti”, “O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi”[1] kitoblari va ilmiy izlanish hamda tadqiqotlarida tasviriy ifoda va tasviriy vositalar mavzusi doirasida asosli xulosalar berib o‘tilgan. Ayniqsa, tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” nomli kitobida tasviriy so‘zlar, ifodalar va vositalarni juda mukammal o‘rgangan holda tasniflaganligini e’tirof etish lozim bo‘ladi. “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar katta bir leksik guruhni tashkil qiladi. Bundan tashqari, hozirgi o‘zbek tilidagi ot, sifat, fe’llar tasviriy o‘zaklardan yasalgandir. Tasviriy so‘zlar badiiy adabiyotda, og‘zaki nutqda, folklorda juda ko‘p ishlatilib, ular nutqqa badiiy bo‘yoq, ekspessivlik beradi. Ma’lum tasviriy so‘z bir necha xil ma’noni ifodalashi mumkin. Lekin uning formasini o‘zgartganda yoki kengaytirganda ba’zan bir necha tushunchani anglatish uchun qo‘llash imkoni bo‘lsa ham, ba’zan u tushunchaning ikkinchisi uchun qo‘llash uslub g‘alizligiga olib keladi. Masalan**,** ***piq – piq kuldi*** deya olganimiz kabi piq – piq yig‘ladi deyish ham mumkin. Ammo, ***piqir – piqir kuldi*** deyish mumkin bo‘lsa ham, ***piqir – piqir yig‘ladi*** deyish ancha qiyin”[2].

Tilshunoslar S.Karimov, B.Umurqulovlar tajribalari asosida tasviriy vositalar haqidagi ilmiy fikr va qarashlarini atroflicha yoritib beradilar. S.Karimov “badiiy uslub uchun ahamiyatli sanalgan, troplar guruhiga kiruvchi tasvir vositalarining asosiylari”[3]ni ko‘rsatib o‘tadi. B.Umurqulov o‘zbek tilshunosligida tasviriy ifodalar va tasviriy vositalarning juda ko‘plab ko‘rinishlari borligi to‘g‘risida fikr yuritib, o‘zining ilmiy tadqiqot ishida “obraz hosil qiluvchi vositalarni tilning tasviriy vositalari hisoblab, nutqda xususan, badiiy nasrda, ularning har birining o‘rni borligini, tasviriy vositalardan metafora, o‘xshatish, sifatlash badiiy nutq uchun muhim bo‘lgan, badiiy obrazlilikni ta’minlashda ko‘lamdorligi bilan alohida ajralib turuvchi badiiy vositalar ekanligini ta’kidlaydi va shu vositalarning badiiy nasrdagi o‘rni, xususiyatlari haqida fikr yuritishni lozim topadi hamda metafora, o‘xshatish, sifatlashlar vositalarini badiiy nasr materiallari asosida tahlil qilishga erishadi”[4] .

Badiiy matnlarda insonlarga xos bo‘lgan xususiyat, harakat va faoliyatlarni boshqa bir predmetlarga ko‘chirish orqali badiiy fikr ifodalashda predmetlarni qiyoslash, taqqoslash bilan badiiylik, jozibadorlik hamda ta’sirchanlik oshiriladi. Masalan: *Odam topgan baxtni ovoza qilib gullar, bulbullar yashar* (H.Olimjon. “Daryo tiniq, osmon beg‘ubor”), *Hayrat ichra yonib yarqirab, Asta mendan so‘rar yulduzlar* **(**E.Vohidov.“Mening yulduzim”), *Uxlab yotgan izlarini tramvay, Tong otmasdan bosib, yanchib o‘tadi* (Oybek. “Shahar”), *Qahrabo ko‘z yosh to‘kib turar faqat daraxtlar, Ne qilsin , uchay desa, ularda yo‘q qanotlar* (A.Oripov. “Manzara’), *O‘ynar bo‘ron, chir aylanib qor, Tinmay inar ko‘kdan yer sari* (Uyg‘un. “Qor”) misralaridagi *baxtni ovoza qilib, so‘rar yulduzlar, uxlab yotgan izlar, ko‘z yosh to‘kib, o‘ynar bo‘ron* kabi ifodalar poetik nutqning emotsional qimmatini oshiruvchi ifoda xususiyatlari natijasidir”[5].

Badiiy matnlarda obrazli tafakkur ifodalarning juda ko‘plab qo‘llanishini kuzatish mumkin. Badiiy nutqda bu kabi obrazli ifodalar bir yoki bir necha gap ko‘rinishida, ba’zan esa butun bir matn shaklida ifodalanadi.

— “Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, Yetti og‘ayni orasidagi eng yorug‘ yulduz — meniki...

— Mayli, o‘g‘lim. O‘sha yulduz seniki. Anovi to‘rtinchisi — meniki.

— Nega, oyi, to‘rtinchisi eng kichkina yulduz-ku!

— Shuning uchun ham meniki... ***To‘rtinchi yulduz — yetimcha yulduz****. Ko‘rdingmi,* ***yaxshi o‘smay qolgan****.* ***Yetimlarga rahm qilish kerak***.Yulduzlar ***sirli ko‘z qisishar***, tillaqoshdek ingichka ***oy sirli mo‘ralar, shabada sirli shivirlar***, sadarayhon bilan tuproq ***sirli hid taratar***, ***osmon ham, yer ham sirlarga to‘la*** edi” (O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” , 6-bet). Yoki “***Yulduz to‘la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir***”. (O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari”, 7-bet), “*Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag‘rur qad kerib turgan tog‘larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko‘rganda hayot abadiy emasligini o‘ylayman. Qorong‘i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o‘xshaganlarning necha-nechasini ko‘rdi ekan*? O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari matnidagi ***To‘rtinchi yulduz— yetimcha yulduz, yaxshi o‘smay qolgan,***

[1] Махмараимова Ш. Лингвокултурология. – Тошкент: Чўлпон, 2017. – Б. 120.

[2] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – В. 36-41.

[3] Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994. – В.8.

[4] Умурқулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021. – В. 228.

[5] Умурқулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2021. – В. 56.

Yetimlarga rahm qilish kerak, Yulduzlar sirli ko‘z qisishar, tillaqoshdek ingichka oy sirli mo‘ralar, shabada sirli shivirlar, sadarayhon bilan tuproq sirli hid taratar, osmon ham, yer ham sirlarga to‘la edi singari tasviriy ifodalarida eng kichik yulduzning yetimlarga o‘xshatilishi, odatda ota-onadan yetim qolgan bolalar yaxshi o‘smay qolishiga ishora qilinishi, yetimlarga rahm qilish va boshini silash, rahnamolik qilish o‘zbek milliy mentalitetiga xos fazilat ekanligi, ***Yulduzlarning sirli ko‘z qisishi, oyning sirli mo‘ralashi, shabadaning sirli shivirlashi, osmonning ham, yerning ham sirlarga to‘laligi*** odamlarga o‘xshatilishi badiiy obrazli tafakkur ifodalarining namunasidir. Ushbu badiiy ifodalar o‘zining emotsional bo‘yoqdorligi, badiiy obrazliligi, jozibadorligi va hayratlanarli tasvirlari orqali oquvchining diqqat – e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Obrazli fikrlarning o‘ta jilodorligi, serbo‘yoqligi, obrazli ifodalar badiiy tasvirining ta’sirchanligini kuchaytirgan.

O‘zbek tilshunosligida badiiy tilning obrazli va ifodali vositalari juda ko‘plab uchraydi. Badiiy matnlarda epitet (sifatlash) lar obrazli vosita sifatida biror predmet, harakatlarni ifodalovchi, har qanday xarakterli xususiyatlarni o‘zida aks ettirib ta’kidlovchi tasviriy vosita va ifoda tarzida qo‘llaniladi. Troplar guruhiga kiruvchi epitetlar (sifatlashlar) asosiy badiiy tasviriy vositalar va ifodalar hisoblanadi. Epitetlarni lingvomadaniy jihatdan talqin qilish milliy ona tilimizda muloqot qiluvchilarning yuksak darajadagi milliy madaniyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Epitetlar madaniy tushunchalarni ifodalashning eng muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Epitetlar badiiy matnlarda ifodalanayotgan narsalarga, harakatlarga va voqea-hodisalarga yorqin hamda hissiy tasvir beradi. Epitetlar ham obrazli tafakkur ifodasi hisoblanadi. Badiiy matnlarni tasviriy vosita va ifodalarsiz, epitetlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Agar badiiy matnlarda epitetlar qo‘llanilmasa, u quruq va mazmunsiz so‘zlardan yig‘ilgan nutq bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham epitetlar tasvirlanayotgan obyektga nisbatan badiiy bezak berishini anglaymiz. Badiiy matnlarda epitetlar quyidagicha qo‘llanishi mumkin. Masalan, *qayg‘uli kecha, g‘am tonglari, muhabbat hidi, mug‘ombir tabassum, lazzatli umr, tilsiz ko‘cha, issiq quchoq, shirin hayot yoki shirin turmush, quyosh jilvalari, zilol suv, oltin nur, sadaf tishlar, o‘tli nafas, moviy dengiz, afsonaviy orol, nafasi garmsel, buloq ko‘zi, oq oltin, hayotbaxsh tong, kumush qor, zumrad toshlar, tog‘ shabadasi, pokiza qalb, so‘lim oqshom, xayol dengizi, ulug‘vor ish, qora bulut, to‘lin oy, qorli tog‘lar, jo‘shqin daryolar, latif kuy, yoqimli ohang* va hokazo. “Badiiy sifatlashlar nutqqa pardoz berish, predmetlarning xarakterli tomonlarini badiiy bo‘yoqdor holda ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Sifatlashlarning bu turi emotsional-obrazlilikning kuchliligi bilan farqlanadi”[1]. Xullas, badiiy matnda obrazli tafakkur natijasida yuzaga kelgan tasviriy vositalar (o‘xshatish, metafora, sifatlash, epitet, frazeologizm) kabi lingvomadaniy birliklar til va madaniyat hodisalari mushtarakligining mevasi sifatida ijodkorning badiiy mahorati va asarining emotsionallik, ta’sirchanlik kuchini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu esa “matnda qo‘llanuvchi turli ma’no ko‘chish usullarini faqat uslub talabi emas, balki muallifning personal sifatlari, xususan, individual nutqidan joy olgan sheva va lahjalar unsuri sifatida”[2] baholashimizga asos bo‘ladi.

Resume: Theoretic about the fact that our Uzbek national language is one of the languages rich in verbal, artistic, figurative expression and tools, the expression of artistic figurative thinking is manifested in the desire to perceive the world through clear and consistent images, the importance of using figurative expression and tools in the manifestation of artistic figurative thinking in artistic texts information provided. Samples of analyzes are given based on the fact that drawing scientific conclusions within the framework of the commonality of thought, language and cultural phenomena through artistic and visual means in the implementation of linguistic and cultural analysis of artistic texts.

Резюме: Теоретически о том, что наш узбекский национальный язык является одним из языков, богатых словесным, художественным, образным выражением и средствами, выражение художественного образного мышления проявляется в стремлении воспринимать мир через ясные и последовательные образы, важность использования образной выразительности и средств проявления художественного образного мышления в предоставленной информации художественных текстов. Приводятся образцы анализов, основанные на том, что при осуществлении лингвострановедческого анализа художественных текстов делаются научные выводы в рамках общности мысли, языка и культурных явлений художественно-изобразительными средствами.

[1] Умурқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво – услубий шаклланиш асослари: Филол.фанл.док-ри (DSc) илмий дараж. олиш учун тақдим этилган дисс-си. – Тошкент, 2020. – B. 240.

[2] Xolnazarov U. Metaphor as object of linguocultural study. International Scientific Journal, Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA – 2020. – P. 433.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

БОЛАЛАР ШЕЪРИЯТИДА ЗИД МАЪНОЛИ СЎЗЛАР ЛИНГВОПОЭТИКТАСИ

Собирова Дилафруз Абдулҳай қизи,
Андижон давлат педагогика институти доценти в.б.

Болалар адабиётининг олдида турган вазифалардан бири ёш авлоднинг бадиий, маърифий-эстетик қарашларини ривожлантириш экан, демак, бу борада унинг олдидаги вазифалар улкан[1]. Болалар нутқи ўзининг бетакрор гўзаллиги, ҳис-туйғуларга бойлиги, эмоционал-экспрессив жиҳатдан ўта бўёқдорлиги билан ажралиб туради[2].

Тил – адабиётнинг материали. Рассомчиликда бўёқ, ҳайкалтарошликда гранит, мусиқада овоз қандай муҳим аҳамиятга эга бўлса, тил ҳам адабиёт учун шундай аҳамиятга эга. Аммо улар ўртасида катта фарқ мавжуд. Санъаткорнинг қўлига тушган бўёқ ёки гранитнинг ижтимоий қиймати бўлмайди, улар табиий маҳсулот сифатида жамиятдаги жараёнларга бевосита аралаша олмайди. Тил эса нутқда воқелангунга қадар ҳам юқори даражадаги ижтимоий фаоллиги билан ажралиб туради[3].

Тилда фаол қўлланувчи қатламлардан бирини борлиқнинг асосий мезонларидан саналган қарама-қаршилик категориясини ифодаловчи зид маъноли сўзлар – антонимлар ташкил этади. Бадиий асарларда антонимлардан фойдаланиш усулига антитеза дейилади. Антитеза грекча *antitesis– қарама-қарши қўйиш* сўзидан олинган бўлиб, қаршилантириш ёки тазод деган маънони англатади. Бадиий асарда воқеалар ёки тушунчалар бир-бирига қатъий қаршилантирилса, антитеза келиб чиқади. Антитеза эмоционал таъсирни орттиради, қаршилантирилаётган нарсалар орқали айтилмоқчи бўлган фикрни таъкидлайди[4].

Антитезанинг ҳам, тазоднинг ҳам асосида антоним сўзлар ётади. Антоним юнонча *anti* **–**"*зид*"*,* "*қарши*"*, опута* **–** "*исм*" сўзларидан олинган бўлиб, ўзаро зид, қарама-қарши маъноли тил бирликларидир[5]. Айрим мутахассисларнинг фикрича: "Антонимларни зид маъноли тил бирликлари сифатида талқин қилиш ҳақиқатга тўғри келмайди. Уларни қуйидагича таърифлаш аниқроқ бўлади: идеографик семалар сиғимида, одатда, бир семаси зид, қолган семаси айнан бўлган икки тил бирлигига ўзаро антоним дейилади"[6].

Кўриниб турибдики, антонимларни изоҳлашда турли фикрлар мавжуд. Ўзбек тилшунослигида антонимлар ва антисемия юзасидан бир қатор тадқиқот ишлари амалга оширилганига қарамай[7], уларнинг систем-структур, функционал-услубий хоссалари билан боғлиқ муаммолар ҳозиргача илмий-текшириш иши объекти сифатида ўрганилмаган. Ҳолбуки, антонимия юзасидан ўрганилиши лозим бўлган проблемалар ғоят кўп ва хилма-хилдир[8].

Болалар шеъриятида қўлланган зид маъноли сўзлар тадқиқи антонимлар борасидаги муаммоларнинг ечимларидан бири учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Боиси Мустақиллик даври ўзбек болалар адабиётида энг кўп ва самарали қўлланган тил бирликлардан бирини айнан зид маъноли сўзлар ташкил қилади. Бу бежиз эмас, албатта. Ёш болаларга нима яхши ёки ёмон эканлигини бадиий тасвир воситалари орқали ёркин бўёқларда кўрсатиш, уларни яхшилик, эзгулик ортидан эргашишга ўргатиш, ёмон иллатлардан нафратланишга одатлантириш бадиий адабиётнинг энг муҳим вазифаларидан биридир. Бундай вазифани бажаришда ижодкорлар ҳамиша антонимларга қайта-қайта мурожаат этиб келганлар.

I. Йиғилган метериаллар шуни кўрсатадики, болалар шеъриятида қўлланган зид маъноли сўзларнинг катта қисмини сифат сўз туркумига оид

[1] Собирова Дилафруз. Болалар шеъриятида қўлланган ўхшатишлар лингвопоэтикаси. Science and innovation international scientific journal Volume 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.

[2] Д. Собирова. Ўзбек болалар шеърияти морфопоэтикаси. Scientific journal of the Fergana State University, 2021.

[3] Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – СПб.: Просвещение, 1996. – С. 31.

[4] Хатамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 32.

[5] Ҳожиев А. Кўрсатилган манба. – Б. 17.

[6] Турсунов У., Мухторов Ж. ва бошқ. Кўрсатилган манба. – Б. 126.

[7] Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лексик-семантик табиати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1973. -153 б.; Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке: Автореф. дисс. канд.филол.наук. –Ташкент, 1073. – 19 с.; Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 27 б.

[8] Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 4.

сўзлар ташкил этади. Сифат сўз туркуми бўйича тадқиқот ишлари олиб борган М.Содиқова уларнинг 9та маъно гуруҳини ажратиб кўрсатган[1]. Болалар шеъриятида мазкур гуруҳларнинг барчасига оид лексик бирликлар учрайди, аммо уларнинг функционал-услубий қўлланишларида ўзига хос жиҳатлар кузатилади. Шунга кўра, болалар шеъриятида қўлланган антоним сифатлар қуйидаги гуруҳларга ажралади:

Инсонларга хос бўлган характер-хусусиятларни ифодаловчи сифат-антонимлар: *яхши – ёмон, ботир – қўрқоқ, ишчан – дангаса, чаққон – ношуд, адабли – адабсиз, доно – нодон, ғолиб – мағлуб, меҳрибон – тошбағир, содда – муғомбир* ва ҳ.к.

Болалар ижодкорларининг барчаси ўз шеърларида бу каби антоним-сифатлардан маҳорат билан фойдаланган ва ўзига хос поэтик манзаралар яратган. Сифат**–** антонимлар иштирок этган шеърларнинг катта тарбиявий томони борлигини ҳам унутмаслик керак. Болалар бундай шеърларни ўқиганда кимдан ўрнак олиш кераклиги ҳақида сабоқ оладилар ва ўзларининг ҳаёт йўлларини белгилашда улардан унумли фойдаланадилар.

Мисоллар:

яхши – ёмон:

Жонзотларга кимда меҳр кучли, мўлдир,
*Билиб қўйинг бундай бола **яхши**, зўрдир.*
Хулқларини тузатмасдан юрса ҳамон,
*Билингларки, бундай бола жуда **ёмон.***

камтар – такаббур, манман:

*Жуда **камтар**, ғаройиб эди,*
Энди эса мағрур нафақат.
***Такаббуру, манман**, бешафқат*

чаққон – ношуд:

Катталар гапирса,
Лаббай, де албат.
Бўлгин ҳозиржавоб,
*Сезгир ва **чаққон**.*
Яхшилардан зўр бўлманг,
*Мендай **ношуд**, кўр бўлманг.*

меҳрибон – тошбағир:

*Борми **меҳрибон** кишинг?*
Севимли касбинг, ишинг?
Толиб, Толиб ким ўзи у?
*Ўтакетган **тошбағир**.* (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 398-, 318-, 127-, 118-, 280-, 55-, 325-, бетлар);

ботир-қўрқоқ:

Э, дадангни қара-ю,
У **қўрқоқ**ки – сен **қўрқоқ**.
Ботир бўл деб панд айтса,
Ўларканми у маймоқ? (Анвар Обиджон. “Қоринботир”, 10-бет)

2. Инсонларнинг кўриниши, шакл-шамойилни билдирувчи сифат-антонимлар: *чиройли – хунук, семиз – ориқ, бақувват – нимжон, новча – пакана, басавлат – кўримсиз* ва ҳ.к.

Мисоллар:

чиройли – **хунук:**

Машҳур Қоринботирман!
***Чиройли**ми кўзларим?*
Бай-бай-бай-бай!
*Намунча – Оти **хунук** ўзидан?!* (Анвар Обиджон. “Қоринботир”, 28-, 9-бетлар)

семиз – **ориқ:**

Билсанг агар, кеча Рамз,
*Гулнор, сени деди, **семиз**.*
*Дилдорани **ориқ** деди,*
*Жаҳонгирни “**қуруқ**” деди.* (Қамбар Ота. “Қуёш бола, ой бола”, 52-бет)

Мазкур сифат-антонимлардан инсонлардан ташқари ҳайвонлар, қушлар, нарса-предметлар сифатини тасвирлашда ҳам фойдаланилган. Масалан:

Сен-чи, одат қил Хўроз,
*Маъноли, **чиройли** ёз!*
Патларини ёйиб товус,
Чиройини кўз-кўзлар.
*Нега **хунук** оёғим, деб*
Ич-ичидан гоҳ бўзлар. (Қамбар Ота. “Қуёш бола, ой бола”, 28-, 42-бетлар)

3. Ранг билдирувчи ифодаловчи сифат-антонимлар. Шеърларда кўпроқ *оқ-қора* жуфтлиги қўлланган. Мазкур рангларга хос бўлган белгиларни шеърий матнлар орқали ифодалаш оламнинг рангинлигини, табиатдаги нарса ва ҳодисаларнинг ўзига хос ёркин бўёқларда мавжуд бўлишини болаларга муайян тасвирий воситалар орқали тушунтиришда муҳим аҳамият касб этади. Масалан, Турсунбой Адашбоев “Бошинг кўкка етса ҳам” номли шеърида олақарғанинг рангини болалар ёдида қолдириш мақсадида унинг кўринишини дирижёрнинг кийинишига ўхшатади.

– Қушлар қандай кийинар?
– Бири созу бири зўр.
***Қора** камзул, **оқ** кўйлакда,*
Олақарға – дирижёр. (Турсунбой Адашбоев. “Осмондаги дарвоза”, 75-бет).

Ҳақиқатан, дирижёрнинг оқ кўйлакда, орқаси узун қора костюмда бўлиши олақарғанинг кўринишига жуда ўхшайди. Турсунбой Адашбоев буни тўғри сезган ва улар ўртасидаги ташқи ўхшашликни юксак поэтик услубда баён эта олган.

Оқ – қора антонимик жуфлигидан фойдаланишда К.Турдиева ўзига хос оригинал поэтик тасвир топган. Қўзичоқнинг ўта масъумлигини,

[1] Содиқова М. Ўзбек тилида сифат. –Тошкент: Фан, 1974. – Б. 49-55.

ёқимлилиги, беозор ва қаровга муҳтожлигини қуйидаги сатрларга сингдириб юборган:

*Кириб келди **оқ** қўзичоқ:*
– Бе-бе-бе;
*Кўзларинг **қора** мунчоқ,*
Ўсиб улғай, қўзичоқ. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 11-, 14-бет)

Оқ – қора жуфтлигидаги қарама-қаршилик онтологик характерга эгалиги боис улар қандай грамматик шаклларда бўлмасин, асосдаги зиддият асло йўқолмайди. Буни яхши билган болалар шоирлари ўз асарларида уларнинг *оппоқ – қоп-қора, оқ – қора, оқ ва қора, оқ...қора* каби шаклларидан ҳам унумли фойдаланган.

Мисоллар:

*Уни **оппоқ** булутга,*
Қиёс қилибди Даврон;
***Қоп-қора**дир Жисмимиз.*
Чарос эрур исмимиз.
(Абдураҳмон Акбар. “Уйқучининг тушлари”, 203-, 224-бетлар)

***Оқ** ва **қора** рангларга*
Тўлиб кетган кенг осмон,
*Осмондан **оқ** қор ёғар,*
***Қора** дарахт сақлар жон. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 231-бет)*

У ҳадемай ҳаётда,
***Оқ** – **қора**ни фарқлайди.*
Топишмоқлар бижилдоқ,
Бола ақлин чархлайди. (Мирпўлат Мирзо. “Бижилдоқ бола”, 7-бет)

Боқиб бағрим тўлур зиёга,
*Сен кўзимнинг **оқ** – **қоралиг**и. (Дилшод Ражаб. “Бахши бола – яхши бола”, 3- бет)*

4. Инсонларнинг жисмоний ҳолатини ифодаловчи сифат– антонимлар: *кекса – ёш, соғ –касал, бардам – заиф* ва ҳ.к.

Мисол:

кекса – ёш:
***Ёш– қари**ни кўрганингда иззат қил,*
***Кекса**ларга одобингни сақлай бил. (Милтиқбой Хонназаров. “Булбул бўлиб сайрайман”, 14-бет)*

кучли –заиф:
***Кучли**ларга бағрикенглик хос,*
Мардларга хос саховат, тортиқ;
*Бизлар бўлмаймиз, **Нимжон**, нортуя.*
Ҳар кун қиламиз Бадантарбия. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 445- ,29-бетлар)

5. Инсонларнинг руҳиятини ифодаловчи сифат-антонимлар: *хурсанд-хафа, қувноқ-маъюс* ва ҳ.к.

Мисол:

хурсанд – хафа:
Аъло ўқир мактабида,
*Ҳамма **хурсанд** одобидан;*
Ойижоним гапларига,
*Гоҳ ичимда **хафа**ман. (Қамбар Ота. “Қуёш бола, ой бола”, 32-, 33-бетлар)*

қувноқ – маъюс:
*Атрофда ҳамма **қувноқ**,*
***Маъюс** тортар битта шоҳ. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 322-бет)*

6. Инсонларнинг ижтимоий ҳолатини ифодаловчи сифат– антонимлар: *бой – камбағал (қашшоқ), шоҳ–гадо, оч–тўқ, сахий–хасис* ва ҳ.к.

Мисоллар:

бой – камбағал:
***Камбағал**лар **бой**га қарар,*
***Бой** тоғамиз ойга қарар. (Анвар Обиджон. “Полосонлик палопонлар”, 51-бет)*

Баъзан ушбу антонимик жуфтлик таркибидаги компонентлар ўрнида уларнинг маънодошларини қўллаш орқали тасвир кучайтирилади:

*Бўлсам ҳам **бой, бадавлат**,*
Даврим мана ўтмоқда,
***Қашшоқ** сахийроқдир,*
Фурсат боқийроқдир. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 320-,459-бетлар)

шоҳ–гадо:
Атрофингда парвона бўлган,
*Кимлар улар, **шоҳ**ми, **гадо**ми?*

оч – тўқ:
Ноилождан тоғларда,
Тунаб қолар шу кўйи.
Билолмай не қиларин,
*Усти юпун, қорни **оч**;*
Қайси гадо йўлиқса,
*Унинг қорнинг **тўқ** қилар. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 310-, 311-, 446- бетлар)*

7. Нарса ва ҳодисаларнинг шакл-кўринишини билдирувчи сифат-антонимлар: *баланд-паст, ўнг-чап, бутун-синиқ, йирик-майда, кенг-тор, улкан-митти, ҳўл-қуруқ* ва ҳ.к.

Мисоллар:

баланд-паст:
***Баланд** учинг, учувчилар, **баланд** учинг,*
Осмонўпар тоғлар қолсин остингизда,
*Паға-паға булут қолсин **паст**ингизда. (Қамбар Ота.”Қуёш бола, ой бола”, 9-бет)*

узун-калта:
Сизга айтсам қишлоқда,
*Кунлар **узун,** тун **калта.** (Турсунбой Адашбоев. “Осмондаги дарвоза”, 109-бет)*

бутун-синиқ:
Экдик биз анча терак,
Терак уй учун керак.
*Бўлса тўғри ва **бутун**,*
Чиройли бўлар устун;
*Музлар – **синиқ** ойналардек,*

Чор атрофга сочилар. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 197-, 337- бетлар)

йирик-майда:

*Гоҳ **майда**, гоҳо **йирик**,*

Менда кўпдир янгилик. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 53-бет)

кенг-тор:

Эй сен – Аллоҳ неъмати,

***Кенг** дунёни **тор** қилма. (Умида Абдуазимова. “Ўзбекча туш кўраман”, 21-бет)*

ҳўл-қуруқ:

*Бундай пайтда **ҳўл** ва **қуруқ***

Баб-баробар ёнаркан. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 433-бетлар)

8. Маза – таъм билдирувчи сифат-антонимлар. Бу гуруҳга кирувчи сифат – антонимлар асосан *ширин* ва *аччиқ* лексемаларидан ташкил топган.

Мисол:

Ўқшйсиз бирин-сирин,

*Гоҳ **аччиқ**ман гоҳ **ширин**. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 171-бет)*

9. Ҳид билдирувчи сифат-антонимлар сифатида *хушбўй-бадбўй* жуфтлигидан фойдаланилган.

Мисол:

Ҳар замонда хўплаб ўт,

*Менман **хушбўй** кийикўт. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 256-бетлар)*

Бўйи-басти бир тутам,

*Бироқ, бирам **бадбўй**дир. (Яҳё Тоға. “Қарчиғайнинг жияни”, 13-бет)*

10. Вазн-оғирлик билдирувчи сифат-антонимлар *оғир-енгил* лексемаларидан унумли фойдаланилган.

*Юрагига **оғир** бир тош,*

Гўё ботиб қолганди;

Фақатгина меҳмонга,

Келса Доно холамиз,

*Тоза, **енгил** ҳавони*

Биз ўшанда оламиз. (Кавсар Турдиева. “Сайланма”, 91-, 334-бетлар)

11. Нарсаларнинг совуқ ёки иссиқлигини билдирувчи сифат-антонимлар сифатида *иссиқ-совуқ* жуфтлигидан фойдаланилган.

Мисол:

Устимизда тошлик уй,

***Иссиқ-совуқ** ўтмайди. (Одил Абдураҳмон. “Беланчак”, 34-бет);*

12. Ободлик ва тозаликни билдирувчи сифат-антонимлар: *обод-хароб, тоза-ифлос, пок-нопок, ҳалол-ҳаром* ва ҳ.к.

Мисол:

Пашша ғув-ғув этади,

***Ифлос** жойга ўтади.*

*Ҳамма жойни **тоза** тут,*

Пашша тухумин қурут. (Худойберган Шомуродов. “Тўполончи чумчуқлар”, 12-бетлар)

13. Маълумотларнинг рост-ёлғонлигини билдирувчи сифат-антонимлар: *рост-ёлғон, ошкор-яширин* ва ҳ.к.

Мисол:

Бу бир чўпчак чўнг момомдан,

Бизларга мерос қолган.

Тулпоркўлнинг афсонаси,

*Балки **рост**, балки **ёлғон.** (Турсунбой Адашбоев. “Осмондаги дарвоза”, 86-бет)*

Хулоса қилиб айтганимизда, болалар шеърияти лингвопоэтикасини юзага чиқаришда антоним (зид маъноли сўзлар) марказий ўринлардан бирини эгаллайди. Улар ифодаланишига кўра сифат, от, равиш, феъл сўз туркумларига оид зид маъноли сўзларга ажралади ва ўз ичида бир қанча лексик-семантик гуруҳларга бўлиниб кетади. Шеърий асарларнинг бадиий-эстетик таъсирчанлигини таъминлашда, эмоционал-бўёқдорликни ҳосил қилишда сифат сўз туркумига оид зид маъноли сўзлар устуворлик касб этади.

Rezume: The article shows that in Uzbek children’s poetry special attention is paid to the effective use of words with opposite meanings; appropriately used words with opposite meanings increase the effectiveness of the statement, bring emotionality and expressiveness to the events described, and give the reader new information from the dictionary of the Uzbek language.

Резюме: В статье показано, что в узбекской детской поэзии особое внимание уделяется эффектному использованию слов с противоположным значением, уместно использованные слова с противоположным значением повышают эффективность высказывания, привносят эмоциональность и выразительность в описываемые события, придают читателю новую информацию из словаря узбекского языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TURKMAN TILIDAGI O'ZLASHMA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Babayeva Maya Amangeldiyevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
qozoq tili ham adabiyoti kafedrasi turkman tili va adabiyoti o'qituvchisi

Har bir millat o'z tili va madaniyatiga ega bo'lib, madaniyat tilda turli til birliklari (leksemalar, frazeologik birliklar)da o'z aksini topishi til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bo'gliq ekanligini tasdiqlaydi.

Tillar orasida chuqur semantik farqlar mavjudligi V. Gumboldt tomonidan ham ta'kidlangan: "har bir til o'ziga xos dunyoqarashini o'z ichiga oladi. Individual ovoz obyekt va shaxs o'rtasida vositachilik qilgani kabi, butun til ham insonlar va ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi olam o'rtasida vositachilik qiladi. Har bir til o'z sohiblari atrofida aylana chizadi"[1].

Mashhur rus tilshunosi G.O. Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi"[2] degan fikri tilshunoslikning shakillanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatini Vilgelm fon Gumboldtning "Odam tillarining tuzilishining farqlanishi va uning odam zotini ma'naviy rivojlanishiga ta'siri"[3] nomli asarida batafsil yoritib berilgan.

Shu o'rinda lingvokulturologiya atamasi haqida to'htalib o'tishni joiz topdik.

Lingvokulturologiya – til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til – madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida soha hisoblanadi.

"Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar[4]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi[5].

Turkman tilining lug'at va grammatik tuzilishining rivojlanishida boshqa til vositalari bilan bir qatorda frazeologizmlar ham katta rol o'ynaydi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsionalekspressiv ma'noni ifodalaydi. O'zlashgan frazeologik iboralar orqali uning ma'lum bir tildan kirib kelgani, semantik va uslubiy hususiyatini aniqlash mumkin. Jumladan, *objovoz*[6] so'zi forscha – tojikcha bo'lib, "suv kuchi bilan yuradigan, sholi oqlaydigan qurilma" ma'nosini bildiradi. Shu bilan birga bu so'z "*qoshini objuvoz qilmoq*" o'zlashma iborasini shakllantirishga ham vosita bo'ladi hamda mazkur ibora "*ikki qoshini galma-gal o'chirmoq*" ma'nosini ifodalaydi: Domla …qoshlarini objuvoz qilib, Elmurodga tikildi[7] (P. Tursun,Oqituvchi'). Turkmanchada esa bu so'z "göz gaşyny oýnatmak" kabi ishlatilib keladi.

G. Adashulloyev frazeologik birliklarni quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Ot frazeologik birliklar. (dardi ishq-ishq dardi, bozichai dast-qo'l uyinchog'i);

2. Fe'l frazeologik birliklar. (go'sh dodan-quloq solmaq, past zadan-pastga urmoq);

3. Gap tuzilmasiga ko'ra ad'ektiv frazeologik birliklar (honayi kase suhtan-kimningdir uyi kuymoq)[8]. Turkman tilida bu frazeologik birlik "öýi köýen, öýiň köýsin" deb ishlatiladi.

A. Vejbitskaya madaniyatning Klifford Gerts taklif qilgan ayniqsa samarali bir ta'rifini keltiradi. Unda aytilishicha, madaniyat – bu ramzlarda mujassam-

[1] Гумбольдт В. Избранные труды по языкознания. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.

[2] Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1959. – С. 211.

[3] Ko'rsatilgan ish. 1984. – B. 80.

[4] V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.– Toshkent: Akademnashr.

[5] Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.

[6] Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент. – С. 73.

[7] Йўлдошев Б., Адашуллоева Г. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Монография. – Самарқанд, 2012. – Б. 55.

[8] Ko'rsatilgan ish. – B. 131.

lashgan mohiyatlarning tarixiy jihatdan shakllanadigan modelidir. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo‘lib, ular yordamida odamlar o‘zaro bir-biri bilan muloqatda bo‘lishadi va ularning hayot haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar asosida qayd qilinadi va rivoj topadi[1].

Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”[2]

Jahon tilshunoslik tarixida rus olimi akademik V.V. Vinogradov tomonidan 1946-yilda e’lon qilingan “Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины” hamda 1947-yili chop etilgan “Основные типы фразеологических единиц в русском языке” kabi mashhur ilmiy asarlari dunyo tillaridagi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganishda katta burilish nuqtasi bo‘ldi. V.V. Vinogradov tomonidan semantik mezonlar asosida rus tili turg‘un so‘z birikmalarini uch tipga, ya’ni “frazeologik chatishma”,“frazeologik birikma”, “frazeologik birlik”ka ajratib klassifikatsiya qilish (tasniflash) g‘oyasi nafaqat rus tilidagi turg‘un so‘z birikmalarini, balki, hech qanday mubolag‘asiz, turli tizimlarga mansub qator jahon tillarining frazeologik boyligini tadqiq qilishda asos bo‘lib xizmat qildi.

A.V.Kunin frazeologiyani leksikologiyaning bir qismi emas, balki alohida bir fan sifatida o‘rganilishi tarafdorlaridan biri edi. U frazeologizmlarni nutqda qo‘llanilishi jihatidan tahlil qiladi va frazeologik birliklarni ayrim guruhlarga ajratadi[3].

Fikrimizcha, turkiy tillar, jumladan, turkman tilidagi so‘zlarning birlashgan funksionallik va semantik birlik xususiyatlari nafaqat turg‘un tuzilmalarning ayrim turlariga, turg‘un shaklga ega bo‘lgan barcha turlarga ham xosdir. So‘zlarning tarkibiy qismlarining elementlari mustaqil leksik birliklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lsa, ularning turg‘un bu turlariga xususiyat xos emas: Masalan:

Turkman tilida:

Iň ýamany bolsa ol göze çöp atandyryn, öýdüp çyndan heşelli kakýardy (G.Kulyýew – s.370)[4]

O‘zbek tilida:

Dardiga darmon bo‘lmoq (ikki og‘iz ilik so‘zing ularga bir yil dardiga darmon bo‘ladi (Oybek. “O. V. Shabadalar”[5])

Qoraqalpog‘iston turkmanlari tiliga o‘zbek tilining bilingvizmlik ta’siri sezilarli darajada. Buni frazeologik birliklar misolida ko‘rib chiqamiz.

Ajal(i) yetmoq kimning? o‘lim soati, qazosi yetmoq. Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi. Maqol. Ajal yetsa, jon ayrilar bu tandan. «Murodxon». Jallodlar zulmida og‘ir kun ko‘rdim. Yetmayin ajalim, qutulib qoldim. «Rustam». Bu frazeologik birlik turkman tilida quyidagicha keltiriladi.

Güni (aý-güni) batmak — kazasy dolmak, ölmek. Şu gün seniň günüň batar, Janyň jähenneme ýeter (“Görogly”). Habar düşer: “Pylan kimse ötdi” diýip, “Çyrasy söndi diýip”, “Güni batdy” diýip (Magtymguly).

Aravani baravar tortmoq kim? hamma teng ishlamoq, baravar mehnat qilmoq. Senlarning joning shirin bo‘lganda, mening jonim shirin emasmi? – deb o‘dag‘ayladi Bekka Ziyodulla o‘z navbatida, – aravani baravar tortinglar-da! H.G‘ulom. Mash’al[6].

Öz arabaňy tigirlemek — başgalara azar bermezlik, öz işiň bilen bolmak, öz günüňi özüň görmek, özüne degişli däl zada garyşmazlyk. Hummet aga**,** sen maňa gep öwretjek bolma, gitde öz arabaňy tigirläber (G. Gulow)[7]

Ot bilan it bog’liq komponentli frazeologik o‘zlashma birliklar

Atyň gulagy ýaly — Maňa ikisem atyň gulagy ýaly (“Edebiýat we sungat”). Meniň üçin şol şertleriniň üçüsem atyň gulagy ýaly (H. Derýaýew).

At dakmak — göwnüýetmezlik etmek, kemsitmek. Gezer döşüne kakar. Özgelere at dakar (G. Horramow). Gidenimizden soň näme at daksaň dakyber (B. Gulow). “Erni suwly, sölpi” diýip at dakyp kötekleýärdiler (A. Gowşudow).

Ata çykmak — söweşe şaýlanmak, göreş ýoluna düşmek. Ýarag alyp, ata çykyp, aňly bolsa her ýoldan, Berimli, pähimli hany gerekdir (Mätäji). Indi menem şolar ýaly ata çykyp, obadan gaçgak bolaýynmy? (D. Durdyýew).

It görse, gözi agarar — it hem çydamaz, adam çeker ýaly däl, örän agyr, (kyn ýagdaý hakda). Olaryň görýän gününi it görse, gözi agarar (B. Kerbabaýew). Şol sürýän günlerinden bäri, oňa görkezýänlerini it görse, gözi agarar (H. Derýaýew). Biziň başymyzdan geçenleri it görse, gözi agarar (B. Seýtäkow).

At goýmak (salmak) — çapyp, ýortup gitmek, dazanaklap howlukmaç gitmek, okdurylmak. Görogly bolsa ýigitlerine habar bermek üçin oba at goýdy

[1] Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари. 1997. – 380 с.

[2] Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. – М., 1960.

[3] Кунин А. В. Английская фразеология. – М.: Изд. Высшая школа, 1970. – 344 с.

[4] Г. Ачилова. Хәзирки заман түркмен дилинде дурнуклы сөз дүзүмлери. – Ашгабат – 1977. – С. 28.

[5] Ўзбекского – русский словарь. М., 1959, 121 с.

[6] O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 35-45.

[7] Türkmen diliniň frazeologik sözlügi. 2013. – B. 146.

("Görogly"). Şol günüň özünde göni ýazyjylar soýuzyna at goýdy ("Geliň gülşeliň"). Solmaz eje ýeňin çermäp, At salyp ýör her tarapa (K. Gurbannepesow).

Ant içip, awy ýalamak — 1. Janyň-teniň bilen ynandyrjak bolup çalyşmak, söz bermek, wada etmek. Goşa çagamdan bolaýyn, töhmet — diýip, Ata pyçakly ant içip, awy ýalady (B. Öwezow). Togta şäher milisiýasynda günäsini boýnuna alyp, indi şeýle biweç işi gaýtalamajakdygyna ant içip, awy ýalady ("Edebiýat we sungat"). 2. Jögülik edip ynandyrjak bolmak, synjyklyk etmek. Onuň ynanmagy üçin ant içip, awy ýalamadan hem gaýtmaýyn (B. Seýtäkow).

Aýagyny baglamak — öýli-işikli etmek, gelin alyp bermek, öýermek. Muny öýlendirip, aýagyny baglamasak, işiň ula gitmegi mümkin (G. Seýitmädow). ...Indi Hoşgeldiniň aýagyny baglaýmasaň, muny saklap bilmersiň (A. Gowşudow).

Aýagy düşümlisi bolsun! — gelin toýunda "gelen gelin haýyr getirsin, döwletiňiz artsyn" diýlip aýdylýan gutlag.—Tüweleme, aýagy düşümlisi bolsun, aýyň bir bölegi ýaly gelin ekeni — diýdi (H. Deryaýew).—Bolubilýär, kemi ýok. Geliniň ayagy düşümli bolsun! O'zbek tilida yangi kelinning ilk qadami qutlug' bo'lsin. Davlatli kelin bo'lsin degan ma'nolarda keladi.

Bagry daşly — ser. Bagry başly. Ejemiň mydama gözi ýaşly, bagry daşly (A. Gurbanow). Barmagynda ýüzük tylla gaşlydyr, Içinde ot ýanýar bagry daşlydyr (G. Burunow)[1].

Milliy – madaniy hayot bilan bog'liq frazemalar halqning milliy urf-odatlari, to'y bayramlari, milliy kiyimlar, milliy taomlar kabi o'z madaniy dunyoqarashlari zamirida shakllanib, xalqlarning bunday o'ziga xos tomonlari o'z tillida shakllangan frazemalar orqali ifodalanadi.

Turkman tilining lug'at va grammatik tuzilishining rivojlanishida boshqa lingvistik vositalar qatori frazeologizmlar ham katta rol o'ynaydi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni doimo davom etadi.

Biz ushbu o'rinda turkman tilida hozirgi paytda juda ko'p ishlatiladigan ayrim frazeologik birliklarga etimologik tavsif berishga harakat qildik.

Rezyume. Ushbu maqola turkman tilining grammatik tuzilishi va lug'at tarkibining murakkab muammolaridan biri bo'lgan frazeologizmlarning leksik-semantik, etimologik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Resume. This article is devoted to the analysis of the lexical-semantic, etymological and grammatical features of phraseology, which is one of the complex problems of the grammatical structure and vocabulary of the Turkmen language.

Резюме. Данная статья посвящена анализу лексико-семантических, этимологических и грамматических особенностей фразеологии, которая является одной из сложных проблем грамматического строя и лексики туркменского языка.

[1] Ko'rsatilgan ish.2013.16.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЎЗБЕК (ДИНИЙ) НУТҚИ МАДАНИЯТИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСОСЛАРИ

Амонтурдиева Шоира Равшановна,
Термиз давлат университети
ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Кейинги пайтларда ўзбек тилшуносларида ҳам қизиқиш пайдо қилган *лингвомаданиятшунослик* (*лингвокультурология*) соҳаси аста-секинлик билан ўзининг илмий қиёфасига эга бўлмоқда, турли характердаги илмий ва илмий-ўқув адабиётлари юзага келмоқда, мақолалар ёзилмоқда. Шу жараёнда жаҳон тилшунослигида лингвомаданиятшуносликка оид яратилган адабиётлар таҳлил қилиниб, уларга муносабатлар билдирилмоқда ва шу йўл билан ўзбек тилшунослиги айрим назарий қарашлар билан бойитилмоқда. Айни замонда, бу назарий қарашлар ўзбек тили материали билан асосланмоқда ва унинг миллий тил тадқиқи тизимидаги ўрни тобора мустаҳкамланмоқда. Соҳанинг ўрганиш предмети, мақсад ва вазифаларини чуқурроқ англаб етишни осонлаштириш ниятида илмий-методик тавсиялар берилмоқда.

Ш.Махмараимованинг қайд этишича, лингвомаданиятшунослик, бир томондан, ўз тадқиқот предметини мамлакатшуносликнинг ўрганиш объекти негизида ҳосил қилган бўлса, иккинчи томондан, маданиятшуносликнинг алоҳида тармоғини ўзида ифода этган. "Тил ва маданиятнинг ўзаро боғлиқлиги тўғрисидаги ғоя лингвистика ва культурологиянинг кесишув нуқтасида вужудга келиб, халқ маданиятининг тилда акс этишини ўрганувчи лингвокультурологияда ўз аксини топди". "Эндиликда тилни ўрганишда унинг маданият билан муносабатини ёритиш муҳимдир. Антропоцентрик парадигма тармоқларидан бири – лисоний маданиятшунослик ёки лингвокультурологиянинг биринчи вазифаси ҳам айнан шудир".

Маълумки, лингвомаданиятшуносликнинг фан сифатида юзага чиқишида Вильгельм фон Гумбольдтнинг қарашлари прогрессив таъсирга эга бўлган: бунда тил ва маданият ўртасида узвий ҳамкорлик мавжуд эканлигидан келиб чиқиб, кузатишларни унинг "маданий ривожланиш жараёнининг натижалари маданиятнинг тилга таъсирини текширишдан кўра кўпроқ, тилнинг маданиятга таъсирини текширишга боғлиқ бўлиши" ҳақидаги ғояларига таянган ҳолда олиб бориш лозим[1].

Бинобарин, лингвомаданиятшунослик тилни маданият феномени сифатида ўрганади. "Лингвокультурология нутқий фаолиятда муайян урф-одатлар билан боғлиқ ҳолда юзага чиқувчи хатти-ҳаракатлар, турли тил вакилларининг вербал ва новербал вазиятдаги фарқликлари, нутқий маданият, "оламнинг рангин манзараси", маданиятлараро муносабатларда акс этган матн лакуналари, турли халқлар нутқий хатти-ҳаракатларининг асосий хусусияти бўлмиш икки тиллилик ва кўп тиллиликни ва б.ларни ўрганувчи этнопсихолингвистика билан ўзаро зич муносабатдадир"[2].

Бу ўринда Д.Худойберганованинг фикрларини эътиборга олиш ҳам муҳимдир. У ўзининг "Лингвомаданиятшуносликда маданият кодлари тушунчаси ва талқини" мақоласида тил асрлар давомида инсоният томонидан яратилгант беқиёс маданий ахборотни авлоддан авлодга олиб ўтувчи ноёб ҳодиса эканлигин таъкидлаб, оламнинг лисоний манзараси дунёни идрок этиш ва концептуаллаштиришнинг универсал ва айни вақтда миллий хосланган усуллари йиғиндисидир, деган фикрни айтади.[3]

Олиманинг маданият кодлари ҳақидаги қуйидаги қарашлари муавзумиз доирасида аҳамиятлидир: "Маданият кодлари тилда асосан халқнинг образли тафаккурини намоён этувчи мақол, ибора, турғун ўхшатиш, метафора, қарғиш, дуо ва олқишлар каби лингмаданий бирликларда инъикос этади. Маданият кодларида инсоннинг моддий ва маънавий олам ҳақидаги тасаввурлари, миллий тафаккури, аксиологик қарашлари яққол кўзга ташланади".[4]

---

[1] Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон, 2017. – Б. 4,19,20,155.

[2] Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон, 2017. – Б. 4,19,20,155.

[3] Худойберганова Д. Лингвомаданиятшуносликда маданият кодлари тушунчаси ва талқини / Тил, тафаккур, маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – Б. 30-35.

[4] Худойберганова Д. Шу мақола. – Б. 31.

Дарҳақиқат, тилшунослик ва маданиятшунослик кесишувида шаклланган *лингвомаданиятшунослик* умумхалқ ва умумиллий маданиятнинг пайдо бўлиши, ривожланиши ва тараққиёти ҳақида сўз юритар экан, бунда, бир томондан, ҳар қандай халқнинг миллий қадриятларини ўзида акс эттиради, иккинчи томондан, унда шу халқ тилининг лексик-грамматик бирликлари ва миллий мулоқот шакллари асосий тадқиқот объекти вазифасини ўтайди. Шу маънода диний қадриятлар ва диний услубга хос бўлган тил бирликлари ҳам лингвомаданиятшунослик учун кузатиш объекти бўла олади.

Шайх Усмонхон Алимов ҳазратларининг “Расулуллоҳнинг (алайҳиссалом) муборак васиятлари” асарида гувоҳлик беришича, Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) тил одобининг мукаммал хабарини берганлар.[1] Шундай экан, инсон учун омонат қилиб берилган буюк неъмат – тил одобига эътибор бериш ислом динига эътиқодда бўлган ўзбек халки учун ҳам улуғ лингвомаданий қадрият ҳисобланади.

Асарнинг “Тилни гуноҳлардан тийиш” бобида таъкидланишича, тил инсоннинг ақл-идроки ва маънавиятини намоён этувчи асосий аъзодир. Аллоҳнинг бандалари бу неъматни хайрли ишларга ишлатиш ва ёмон ишлардан сақлашга буюрилган. Аллоҳ таоло марҳамат қилади: “Ар-Раҳмон (меҳрибон зот) Қуръонни таълим берди. (У) инсонни яратди. Унга баённи (нутқни) таълим берди” (*Раҳмон, 1-4*). Шундай экан, тил билан фақат хайрли, яхши сўзларни гапириш, уни ғийбат, туҳмат, ёлғон, ҳақорат, чақимчилик кабилардан сақлаш лозим бўлади. (11-12). У.Алимов ҳазратлари яна қуйидагиларни ёзган: “Гапиришнинг бир неча шартлари бўлиб, уларга риоя қилинмаса, хатодан қутулиш имконсиз бўлади. *Биринчи шарт,* бирор фойда келтирадиган ёки зарарни қайтарадиган бўлиши; *Иккинчи шарт,* ўз ўрни ва фурсатида бўлиши; *Учинчи шарт,* эҳтиёж миқдорида қисқа бўлиши; *Тўртинчи шарт,* гаплардаги лафзларни танлаб, энг афзал деб билганини гапириши”.[2]

Коммунистик мафкура таъсири ва тазйиқида бўлган ўзбек халқининг асосий қисми мустақилликкача бўлган юз йилдан ортиқ ўтган давр мобайнида умуминсоний маънавиятнинг исломий сарчашмаларидан бебаҳра бўлишган, деб ўйлаймиз. Нафақат тилшунослик илми, балки ўзбек нутқий маданияти талқинида ҳам русча андозаларга, тадқиқ методларига таяниб иш кўрилган, асосан рус ва Европа тилшунос олимларининг қарашларига таянилган. Бу ҳолат, маълум маънода, ҳозирда ҳам давом этмоқда. Ваҳоланки, илмий янгилик сифатида тақдим этилаётган кўпчилик тил фактлари тарихимизда ҳам бўлган. Жумладан, она тилимизнинг маданийлик хусусиятлари ҳақидаги қарашлар ҳам.[3]

Дарҳақиқат, асрлар давомида ислом динига эътиқод қилиб келаётган ўзбек халқининг тилида бевосита ана шу эътиқод боис шаклланган лингвомаданий тил бирликлари ҳам анчагина. Улар бугун ҳалқимиз онгига чуқур синиб кетган, “ўз бирликлари”га айланган. Уларнинг айримларига кўз югуртириш орқали бу фикрнинг қанчалик ҳаётий эканлигига ишонч ҳосил қиламиз.

Ассалому алайкум. Саломлашиш қоидаси, уни ифодалаш усуллари халқимиз тилида исломдан олдин ҳам бўлган, албатта. Аммо бугунги кунда ислом динига эътиқодда бўлган дунё халқлари ана шу жумла билан бир-бирларига салом беришади.

Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратлари “Ижтимоий одоблар” китобида таъкидлайдиларки, бирор нотаниш киши билан кўришиб-танишмоқчи бўлсангиз, салом беришингиз билан гап-гапга қовушади, ўртадаги бегонасираш, ноқулайлик барҳам топади. Ҳатто мухолифингизнинг ҳузурига “*Ассалому алайкум*”, (“*Сизга тинчлик-омонлик бўлсин*”) деб кирсангиз, у жаҳлидан тушади, кеки йўқолади, кўнгли сизга мойиллашади. Саломни янада тўлиқ ва маънодор қилиш учун “*Ассалому алайкум ва раҳматуллоҳи ва баракатуҳ”*, яъни “*Сизга тинчлик-омонлик, Аллоҳнинг раҳмати ва баракоти бўлсин”*, дейилади. Алик олиш ҳам саломга яраша чиройли ва мукаммал бўлиши керак. Салом бериш Пайғамбар алайҳиссаломнинг кўрсатмалари (суннат), унга алик олиш эса Аллоҳ таолонинг буйруғи (фарз) ҳисобланади.[4]

Демак, Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг суннатларини мукаммал адо этиш учун саломни ҳам, аликни ҳам мукаммал адо этиш лозим бўлади. Афсуски, сўзлашув нутқида бу мукаммалликка ҳам вақт ҳам эришилмайди. Баъзилар *саломалайкум, салом, ассалом, салом бердик* тарзида салом беришади. Алик олишда ҳам *алайкум салом, салом* тарзида ноқисликлар бор.

Гарчи уларнинг семантик маънолари бир-бирига тенг келса-да, стилистик жиҳатдан фарқларга эга. *Ассалом* аёл-қизлар ва ёш болаларнинг саломлашиши, катталар одатда бундай салом беришмайди. *Салом* эса русча *привет* га мос ке-

[1] Алимов У. Расулуллоҳнинг (алайҳиссалом) муборак васиятлари. – Тошкент: Movarounnahr, 2014.

[2] Алимов У. Расулуллоҳнинг (алайҳиссалом) муборак васиятлари. – Б. 16.

[3] Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2011.

[4] https://islom.uz/maqola/7996.

лади. Гўё қисқа тарзда салом беришдек кўринадию, аслида унда тақлид бор. Бу сўзнинг биринчи стилистик оттенкаси бўлса, иккинчиси, унда бир қадар менсимаслик оттенкаси сезилади. *Салом бердик* да урғу *и* товушига тушади ва бу менсимаслик яққол сезилиб туради.

Алик олишнинг *алайкум салом* шакли ҳам гўё саломлашишдаги қисқаликка интилиш бўлсада, унда бир қадар менсимаслик оттенкаси сезилади. Бу каби салом беришлар диний одобдан бехабарлик, маълум маънода совет давридан давом этиб келаётган одатланиш натижасидир.

Масалага диний-лингвомаданий талаб ва одоб нуқтаи назардан ёндашилганда эса салом-аликнинг *ассалому алайкум (ассалому алайкум ва раҳматуллоҳи ва барокатуҳ), ваалайкум ассалом* дан бошқа вариантларнинг қўлланишига йўл қўйилмайди.

Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм. – *би+исм+ал-Аллоҳ+ал-Раҳмон+ал-Раҳим* калималардан ташкил топган бўлиб, сўзма-сўз *Раҳимдил ва Меҳрибон Аллоҳ номи билан* демакдир. Бунда *Аллоҳ, Раҳмон, Раҳим* сўзларининг кетма-кетлигида ҳикмат бор: *Аллоҳ* – оламнинг ибтидоси –Яратувчининг номи; *Раҳмон* ва *Раҳим* – Аллоҳнинг сифатий номи, яъни Раҳмон Аллоҳнинг бу дунёдаги раҳмдиллилик, Раҳим – охиратдаги меҳрибонлик, кечирувчанлик сифати. Шу сабаб барча хатти-ҳаракатлар Аллоҳ ва унинг номи билан боғланади.[1]

Ҳар бир ишни маъноси *Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳнинг номи билан бошлайман* бўлган ушбу муқаддас калима билан бошлашни олий даражадаги лингвомаданий код сифатида баҳолаймиз. Чунки бу калиманинг чинакам маънодаги лингвомаданий жумла эканлиги ва унинг фазилатлари ҳақида исломшуносликда, хусусан ўзбек исломшунослигида юзлаб мақолалар битилган.

Ривоятда келтириладики, “Аллоҳ таоло лавҳ ва қаламни яратгандан сўнг қаламга қиёматгача бўладиган нарсаларни лавҳга ёзишга амр қилди. Шунда қалам: “Эй Раббим! Нима билан бошлайман”, – деди. Аллоҳ таоло: “Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм билан бошла” – деди.

Аллоҳ таоло барча махлуқотни яратди ва Ўз ҳабиби Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва саллам орқали ҳар бир ишни “Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм” билан бошлашга даъват этди. Бир ҳадиси шарифда Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва саллам: “Эътиборга молик ҳар бир иш “бисмиллаҳ” билан бошланмаса, у нуқсонлидир (баракаси оздир)” – дедилар.[2]

Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф ҳазратлари ҳам “Ҳар бир ишни “Бисмиллаҳ” билан бошлаш мусулмон киши учун зарур. Уламолар “Китоб ёзувчи учун аввало уч нарса вожибдир”, дейдилар. Булар – “Бисмиллаҳ”, ҳамду сано ва Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васалламга саловоту дуруддир”, деганлар.

“Бисмиллаҳ...” мақоласида айтиладики, “Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм”, дер экан, мусулмон киши ўзининг ҳеч нарса эмаслигини, шунинг учун ҳам зарур, мангу ва чексиз Зотга шу сўзлар орқали таянаётганини ич-ичидан ҳис қилади. “Аллоҳ номи билан”. Аллоҳ аввалдир, охирдир, зоҳирдир, ботиндир, ҳар бир ишни билгувчидир. Шундай Зотга таяниш одамни ўзининг ҳеч нарса эмаслигини ўйлаб, изтироб чекишидан халос этади. Зеро, у чексизлик билан туташади.[3]

Бу айтилган мулоҳазалардан кейин, табиий бир савол туғилади: Мустақилликка эришгунимизга қадар мамлакатимизда ўзини мусулмон ҳисоблайдиган кишиларнинг қанчаси бу калимани ишлартар ёки моҳиятини англар эди. у ҳақиқий маънода ўзининг лингвомаданий қиёфасини олган эди?

Англашимизча, уни фақат диний билимларга эга бўлган кишиларгина мазмунини тушунган ҳолда қўллаган бўлишлари мумкин. Кўпчиликнинг тилида бўлса ҳам дилида бўлганлигини айтиш мушкул. Бугун эса бу калиманинг бутунлай бошқача лисоний манзарасини кузатамиз. Унинг қўлланиши кескин фаоллашди, мазмун-моҳиятини англаб етганлар тобора кўпайиб бормоқда. Бунга давлатимизда том маънода амалга оширилаётган диний бағрикенглик сиёсати, фуқароларимизнинг Ҳаж ва Умра сафарларида бўлаётганларнинг ва амалларни адо этишга бўлган руҳий эҳтиёжнинг тобора ошиб бораётгани сабаб бўлмоқда, деган фикрдамиз.

Шунингдек, тилимизда *алҳамдулиллаҳ, иншааллоҳ* каби сўзлар лингвомаданий бирлик сифатида мустаҳкам ўрин олиб, худди *Худо хоҳласа, насиб бўлса* жумлалари сингари фаоллашиб бормоқда.

Ушбу ўринда тарихимизнинг мустақиллик даврига урғу бераётганимизнинг сабаби шундаки, ҳақиқатдан ҳам, диний лексикага оид кўпчилик сўзлар тилимизда ана шу инқилобдан кейин

[1] Омонтурлиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – 28 б. Шунингдек, акад. А.Рустамов ҳам бу борада ўз мулоҳазаларини билдирган. Бу ҳақда қаранг: Алийбег Рустамий. “Бисмиллоҳ”нинг маъноси – Тошкент: Чўлпон, 1993.

[2] “Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм”нинг фазилати. “Тафсир” фани мударриси Рустамжон Маҳмудовнинг Усмон Позорийнинг “Тафҳимул мутафаҳҳим ала таълимил мутаъаллим” китобидан таржимаси. https://maxdum.uz/bismillahir-rohmanir-rohiym-ning-fazilati/.

[3] Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳаёт ва ҳадис. https://islom.uz/maqola/10578.

лингвомаданий тус олди. Масалан, мустамлакачилик даврида Пайғамбаримиз Муҳаммад саллоллоҳу алайҳи вассаламга шунчаки бир тарихий шахс сифатида қараганлиги ҳужжатлардан маълум. “Ўзбекистон тарихи” китобида генерал Черняевнинг Тошкент уламолари билан тузган “Аҳднома”сида қуйидаги гаплар келтирилган: “Оқ подшо ва унинг вакили генерал Искандар Черняевнинг фармони бўйича, Тошкент аҳолисига шуни маълум қиламизки, улар Оллоҳ таолонинг хоҳиш иродасига мувофиқ, **Муҳаммад пайғамбар** динини қаттиқ ушлаб, шариат қонунларидан бир қарич ҳам орқага чекинмасинлар. Уларнинг барчаси шу ўлканинг фойдаси ва манфаатлари учун ҳаракат қилсинлар. Беш вақт намозни ўз вақтида адо этсинлар, муллалар доимо мактабларга боришиб, **Муҳаммад пайғамбар** динини тарғибот қилсинлар”. Яна: “Шундан кейин уламо ва фозиллар навкарлар, жангчилар ва йигитлар орасида юриб, **пайғамбар ҳадислари**дан айтишиб, жиҳод ва ғазотга чақирдилар, зафар ва муваффақият тиладилар”.[1]

Услубий жиҳатдан олиб қаралганда *пайғамбар, Муҳаммад пайғамбар* дейиш билан *Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом, Пайғамбаримиз Муҳаммад саллоллоҳу алайҳи вассалам, Пайғамбаримиз Муҳаммад мустафо саллоллоҳу алайҳи вассалам* дейиш ўртасида жиддий фарқ бор. Ана шу фарқ бу улуғ зотга бўлган меҳр-муҳаббатга йўғрилган муносабатнинг лингвомаданий кўринишларидир.

Банда. ЎТИЛда маъноси *қул, итоаткор; камина* тарзида изоҳланган ушбу сўз семантикасида *дин.* стилистик белгиси остида берилган *Аллоҳ яратган, тақдири унинг қўлида бўлган киши; Аллоҳнинг қули. Худонинг бандаси* маъноси ҳам бор.[2] Масалан, *Шундай экан,* ***мен ожиза банда****, шу ерда ўтиргаи барча мўмин-мусулмон мазлумаларга Муҳаммад алайҳиссаломимиз ўгитларига амал қилиб, бошларига рўмол ёпинишларини сўрайман...* (Т.Мурод). Юқори услубда *ожиз банда* жумласи изофали тарзда *бандаи ожиз* шаклида қўлланади: ***Бандаи ожиз*** *Мовароуннаҳрга салкам қирқ йил раҳнамолик қилдим* (О.Ёқубов).

Гарчи синонимларнинг изоҳли луғатида кўрсатилмаган бўлса ҳам, унда *одам, инсон, киши* сўзлари англатадиган маънолар мавжуд ва бу ЎТИЛда қайд этилган. Шунингдек, ЎТИЛда сўзнинг кимгадир, бирор кишига қарам киши, фуқаро; бирор нарсага бутун вужуди билан берилган киммаса, ошиқ, мафтун, шайдо бўлган киши маъноларининг келтирилиши унинг лингвомаданий бирлик сифатида семантик-стилистик қўламининг кенгайиб борганлигини кўрсатади.

Ушбу лексеманинг сўзлашув услубига хосланган *бандачилик* варианти ҳам бор: *Ана шу зот* ***бандачилик*** *этса... ҳайҳот, марҳум эрта кетди, дейди* (Т.Мурод).

Бандалик. ЎТИЛда *дин.* стилистик белгиси билан берилган ушбу сўз *банданиг Аллоҳ олдидаги қарзи; қисмати; ўлим, қазо қилиш* маъноларига эга.[3] Вафот этган кишининг яқинларига таъзия изҳор қилишда айтиладиган сўз, *афсус, вафот қилибди* маъносида лингвомаданий мазмунга эга. Мисоллар: *– Хафа бўлманг, ота, – дедим ердан кўз узмай, –* ***Бандалик****. – Аллоҳнинг иродаси... – чоллардан бири бош чайқаб чўққи соқолини тутамлади* (Ў.Ҳошимов). *– Биз раҳматлик Абулқосим Бобур билан хеш бўлганмиз, Самарқандда Сулҳ тузган эдик.* ***Бандаликни бажо келтирибдирлар****. Худо раҳмат қилсин* (П.Қодиров) каби.

Валий сўзининг ЎТИЛда *дин.* стилистик белгиси остида берилган *Худонинг гўё бўлажак ҳодиса, воқеаларни олдиндан айтиш, ғойибдан хабар бериш қобилиятига эга бўлган энг севимли, энг азиз бандаси; авлиё* маънолари берилган.[4] У лингвомаданий сўз сифатида қаралмаслиги мумкин. Аммо ундан ясалган *валинеъмат* сўзида бу оттенка бор. Бу, айниқса, сўзнинг *олиҳиммат* сўзига синоним бўлганида ва юқори услубда қўлланилганида яққол сезилади: *–* ***Валинеъмат*** *устод афв этсинлар, – деди Али Қушчи ўнғайсизланиб, ва лекин мен ҳам бир-икки сония муқаддам худди шу фикрни кўнглимдан кечирган эдим...* ***Валинеъмат*** *пиримиз жаноб Хомуш ҳазратлари фақир хонақоҳимизга қадам ранжида қилгандурлар...* (О.Ёқубов). *Хўжа Муаззам Ҳиндол мирзонинг бекларидан еди, шунинг учун ўз* ***валинеъматидан*** *рухсат олди-ю, кейин Ҳумоюн кўрсатган жойга ўтди* (П.Қодиров) каби.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”нинг барча томларида *дин.* стилистик белгиси билан изоҳланган сўзларнинг аксарият қисми ҳозирги ўзбек тилида лингвомаданий бирликлар сифатида қаралади. Биз юқорида уларнинг айримларинигина таҳлил қилиш билан чекландик. Бу каби *Аллоҳ субҳонаҳу ва таъоло* (12), *алҳамдулиллаҳ* (14), *жон бермоқ* (46), *иншооллоҳ* (55), *мулла* (80), *мураббий* (82), *сарвари коинот, сарвари олам* (116), *фаришта*

[1] Бисмиллаҳ... http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/22015-bismilla.

[2] Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida), 1-kitob – Toshkent: Sharq, 2011. – Б. 109, 89. 552 b.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 157.

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 158.

(138), *худо суйган* (147), *чин дунё* (150) каби сўзларнинг “Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати”да ҳам изоҳлари берилиб, лингвомаданий хусусиятлари ҳақида сўз юритилган.[1]

С.Каримов таъкидлаганидек, “Токи инсоният мавжуд экан, унинг Аллоҳга имон келтиришга, илму маърифатга, саодатга, комилликка даъват қилувчи ақидаларининг ҳам умри боқийдир”.[2] Диний матнлардаги бу каби лингвомаданий бирликлар ислом динига эътиқодда бўлган ўзбек халқи вакилларининг оламнинг лисоний манзарасини тафаккур этишининг алоҳида бир кўриниши сифатида баҳоланади. Уларнинг бир қисми тилимизда асл тил маданиятини сақлаган ҳолда қўлланилаётган бўлса, иккинчи бир қисми миллий менталитетимиз, миллий қарашларимизга мос ҳолда қўлланилмоқда. Уларнинг аксариятида ижобий муносабатлар акс эттирилгандир.

Резюме: тил ва дин, тил ва маданият, лингвокультурология, лингвомаданий бирлик, диний матн, диний услуб.

Resume: language and religion, language and culture, linguoculturalism, linguocultural unity, religious text, religious style.

Резюми: язык и религия, язык и культура, лингвокультурализм, лингвокультурное единство, религиозный текст, религиозный стиль

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK DIALEKTAL KORPUSIDA FE’LNING SINTAKTIK KATEGORIYASI (Surxondaryo viloyati shevalari misolida)

Xolova Muyassar Abdulhakimovna,
Termiz davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jahon lingvistikasida fe’l so‘z turkumiga tabiiy til sifatida ishlov berish borasida va korpusdan foydalanib uning ligvistik xususiyatlariga baho berishga doir turli tadqiqotlar olib borilgan, xususan, Goben Lyu ingliz tilidagi fe’llari valentlik modellarini korpus asosida tadqiq etish[3], Xitoy tilini o‘rganuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan ingliz tili darsliklarida korpus yondashuvi asosida modal fe’llarni qayta ishlash, takomillashtirish[4], qiyosiy-parallel korpuslarda L_1/ L_2 ichki va oraliq individual morfologik o‘zgarishlarga doir[5], til o‘rganuvchilar lug‘atida tilni o‘rganishga turki beruvchi frazaviy fe’llar doirasida[6], lingvistik korpus yondashuvi vositasida Bryussel fransuz tilidagi

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 521.

[2] Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.

[3] Каримов С. Қуръони Карим ва сўзлашиш одоби // Сино. Илмий-адабий, фалсафий-ирфоний, маънавий-маърифий уч ойлик журнал. – Теҳрон, 2006. 21-сон.

[4] Guobing Liu, Yaping Du. A corpus-based study of valency sentence patterns of english verbs. Theory and Practice in Language Studies. 2019. ISSN: 20530692. DOI: 10.17507/tpls.0906.07

[5] Lexi Xiaoduo Li. Improving Modal Verb Treatment in English Textbooks Used by Chinese Learners: A Corpus-Based Approach. SAGE. Vol. 12, Is. 1. 2022. DOI: 10.1177/21582440221079918

[6] Anna Shadrova, Pia Linscheid, Sarah Schneider. A Challenge for Contrastive L1/L2 Corpus Studies: Large Inter- and Intra-Individual Variation Across Morphological, but Not Global Syntactic Categories in Task-Based Corpus Data of a Homogeneous L1 German Group. Theory and Practice in Language Studies. 2019. ISSN: 16641078. DOI: 10.3389/fpsyg.2021.716485.

fe'lning grammatik so‘z birikmalarini tarjima qilish[1], holat fe'llarining ichki va tashqi o‘zgarishlari (til korpusi asosida)[2] kabi tadqiqotlarni sanab o‘tish mumkin. Shu qatorda o‘zbek tili fe'l turkumlari va uning korpusini tuzish doirasida miqyosidagi maqolalardagi tahliliga doir qarashlar Abdurahmonova N.[3], Matlatipov S.[4], Azimova I.[5], Zokirova M., Alimova M.[6], Abdusamatov A.[7], Johan Vandewalle[8], Xolova M[9] kabi olimlarning tahlil va tadqialarida ko‘zga tashlanadi. Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda fe'l kategorial va finksional shakllarga ajratilgan va biz fe'ning fuksional shakllaridan zamon hamda shaxs-songa to‘xtalib o‘tamiz.

Dialektal korpusda fe'lning zamon kategoriyasining teglanishi – <fe'l. zam.>: F_5 - $Verb_5$. Fe'ning zamon kategoriyasi harakatning nutq paytiga munosabati vositasida yuzaga chiqadi. Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi holatiga ko‘ra fe'ning uch zamoni farqlanadi[10]:

o‘tgan zamon;
hozirgi zamon;
kelasi zamon.

Bu zamonlar o‘z navbatida yana bir qator turlarga ajratiladi. Sababi bunday zamon shakllari vaqtning alohida partonimiyasidan bo‘lak ichki zamon semalarini ochishda xizmat qiladi. Masalan, fe'lning hozirgi zamon shakllaridan biri nutq paytidan sal oldingi vaqt uchun xizmat qilsa, ikkinchisi nutq paytidagi harakatni, uchinchi formasi nutq akti va undan keyin ham davomiy faoliyat ifodasini beradi: *bārajčiman, bārvaťrman, bārmāxdaman* va hokazo.

1.O‘tgan zamon. Ushbu shakl nutq paytidan oldin, ilgari yoki ilgariroq bajarilgan harakat uchun qo‘llanadi. Dialektologiyada hozirgi va kelasi zamonga nisbatan o‘tgan zamon shakli sintetik va analitik shakllarga boyligi bilan ajralib turadi : -di $\mathbf{F_{5/1/1\{0\}}}$ [1-raqam-fe'l vazifaviy kategoriyasi, zamoni, 2-raqam – o‘tgan zamon kategoriyasi, 3-raqam o‘tgan zamon affikslarining tartibiy raqami, {} ichidagi raqam dialectal variant tartibi], -ib- $\mathbf{F_{5/1/2\{0\}}}$, -gan, -kan, qan, -g‘an $\mathbf{F_{5/1/3\{0\}}}$ [standart shakl].

1.a.Yaqin o‘tgan zamon. Sapayev Q. tomonidan ushbu affikslar aniq o‘tgan zamon deya ta'rif berilgan[11]. Sh.Shoabdurahmonov o‘z tadqiqoqtida "ʒ" shevalarda o‘tgan zamonning -di:, -dï, -ti:, -tï variantlari, qarluq shevalarida -di, -ti variantlari amalda ekanligini ta'kidlaydi[12]. Biroq globallashayotgan hayot ta'sirida mazkur dialectal chegaralarning buzilganligi ko‘rib o‘tgan holda biz zamon shaklini korpusda teglashga doir barcha variantlarini ishlab chiqish hamda o‘z navbatida zamon shaklini hosil qilishda assimilyatsiya hodisalarini (ri**z**q>ri**s**q, šanγilla**p**<shang‘illa**b**) [fe'l asosi > zamon shakli[keldi]: kel>di=kelli] ham qamrab olinishi tadqiqotning kamchiliklarsiz bo‘lishini ta'minlaydi deb hisoblaymiz va quyidagi teglashni taklif etamiz:

-di $\mathbf{F_{5/1/1\{0\}}}$ **– $\mathbf{Verb_{5/1/1\{0\}}}$ [**standart shakl**]; dialectal variantlar:** -di **- $\mathbf{Verb_{5/1/1\{1\}}}$**, -dï **- $\mathbf{Verb_{5/1/1\{2\}}}$**, -dü **- $\mathbf{Verb_{5/1/1\{3\}}}$**, -du **- $\mathbf{Verb_{5/1/1\{4\}}}$**. Bundan tashqali Verb+ $\mathbf{F_5}$.

[1] Thomai Dalpanagioti. Motivated patterns of phrasal verbs and learner's dictionaries. LEXIS. 2022. URL: https://journals.openedition.org/lexis/6186 DOI: 10.4000/lexis.6186 ISSN: 1951-6215

[2] Jeanine Treffers-Daller. Grammatical collocations and verb-particle constructions in Brussels French: A corpus-linguistic approach to transfer. International Journal of Bilingualism. 2012. 10.1177/1367006911403213. ISSN: 13670069.

[3] Gail MaKoon, Talke Macfarland. Externally and internally caused change of state verbs. Language. 2000. DOI: 10.2307/417201. ISSN: 00978507

[4] Abdurakhmonova N. Modeling analitic forms of verb in uzbek as stage of morphological analysis in machine translation. Vol. 5. Journal: The Social Science Journal. 2017. 2017TAKESTAN.pdf// Abdurakhmonova N. Онтологическая модель узбекского языка (как пример морфологии). Conf.: Труды международной конференции по компьютерной и когнитивной лингвистике TEL-2018. 10. 2018.Kazan. TEL-2018_own.pdf

[5] Sanatbek Matlatipov, Ualsher Tukeyev, Mersaid Aripov. Towards the Uzbek Language Endings as a Language Resource. Communications in Computer and Information Science. 2020. DOI: 10.1007/978-3-030-63119-2_59. ISSN: 18650937

[6] Azimova I. Noun and verb production in uzbek non-fluent aphasia. International journal of word art. 2020. DOI: 10.26739/2181-9297-2020-1-4.

[7] Muslima Zokirova, Muharram Alimova. Typological characteristics of english and uzbek verb forms. International journal of word art. 2020. DOI: 10.29013/ejll-23-1-39-41. ISSN: 2310-5720

[8] A. Abdisamatov. The problems of translating some phrasal verbs from english into uzbek. International journal of word art. 2020. Doi: 10.15863/tas.2020.01.81.137. Issn: 23084944.

[9] Johan Vandewalle. Devinim Anlatan Özbekçe Ulaçlı Yapılar Üzerine. Bilig. 2016. ISSN: 13010549

[10] Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.// Холова М. Database of the uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the kipchak dialect into english // Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 4. // Холова М. А. Surxondaryo viloyati shevalarining o 'zbek milliy dialectal korpusida reprezintativligi //Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 3.

[11] Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili O‘quv qo'llanma, -Toshkent, 2009. – B. 205. B.lar. 302

[12] Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili O‘quv qo'llanma, -Toshkent, 2009. – B. 205. B.lar. 302

lökillädi - **Verb**$_{5/1/1\{1\}}$ [lo‘killadi], küldi **Verb**$_{5/1/1\{1\}}$ [kuldi]	šüjtti - **Verb**$_{5/1/1\{5\}}$ [shunday qildi], kösti **Verb**$_{5/1/1\{5\}}$ [ko‘chdi]
bārdï - **Verb**$_{5/1/1\{2\}}$ [bordi],	ājttï - **Verb**$_{5/1/1\{6\}}$ [aytdi]

-dü - **Verb**$_{5/1/1\{3\}}$, -tu - **Verb**$_{5/1/1\{7\}}$, -du - **Verb**$_{5/1/1\{4\}}$, tü **Verb**$_{5/1/1\{8\}}$ **-li F**$_{5/1/1\{9\}}$, **-lï F**$_{5/1/1\{10\}}$ [^ progressiv, to‘liq, kontakt assimlyatsiya hodisasi: qïllï Toshkent shevasi] kabi fe’lning sintaktik munosabat shakllarining fonetik variantlari Surxondaryo viloyati shevalari tarkibida u qadar ko‘p kuzatilmaydi, biroq hududda ijtimoiy hayot bilan bog‘liq boshqa lahjalarning ham kuzatilishi korpusning grammatik ko‘rsatkichlarida cheklovni inkor etadi.

1.b. Ilgariroq o‘tgan zamon. O‘zbek adabiy tilida ushbu zamon shakli – ib va –b shakllari vositasida hosil qilinadi va ba’zi ilmiy adabiyotlarda bu affiksga o‘tgan zamon hikoya fe’li deya ta’rif berilgan bo‘lib eshitilganlik, shuning bilan bir qatorda harakatdan ifodalangan natijaning kutilganligini ham ifodalaydi. Ko‘pincha ushbu shakllarning dialektologik korpusdagi o‘tgan zamon g‘iybat semasi mavjud bo‘lib uning ifoda prognozi quyidagicha: – ib va –b **Verb**$_{5/1/2\{0\}}$; -ïb - **Verb**$_{5/1/2\{1\}}$, -ip - **Verb**$_{5/1/2\{2\}}$, -ip - **Verb**$_{5/1/2\{3\}}$, -üb - **Verb**$_{5/1/2\{4\}}$, -ub - **Verb**$_{5/1/2\{5\}}$, -üp - **Verb**$_{5/1/2\{6\}}$, -up - **Verb**$_{5/1/2\{7\}}$. M: *Väläjkum sālām qïzïm, ʷozïŋ jāxšimä, čāpqïlläp ǯürip[-ip - **Verb**$_{5/1/2\{2\}}$] sämmä? [Valaykum solom qizim, vozing yaxshima chopqillap juripsamma?]*

1.d. Uzoq [ilgari] o‘tgan zamon. Mazkur shakl nutq paytidan ilgariroq bajarilgan harakatga nisbatan qo‘llanadi. Voha shevasida fe’lning jarangli asosiga -gän, -gan, **-ɣ**an, **-ɣ**ān [apparɣan (olib borgan)] kabi affikslar**,** fe’lning jarangli asosiga esa -kän, -kan, -qan, -qān [ʷopkan (o‘pgan), bāqqān (boqqan)] kabi qo‘shimchalarini qo‘shish vositasida hosil qilinadi[1]: -gän **F**$_{5/1/3\{1\}}$,-gān **F**$_{5/1/3\{2\}}$, -kän **F**$_{5/1/3\{3\}}$, -gān **F**$_{5/1/3\{4\}}$,-qān **F**$_{5/1/3\{5\}}$, **-ɣ**an - **F**$_{5/1/3\{6\}}$**-ɣ**ān - **F**$_{5/1/3\{7\}}$. Masalan: *Jendï šü ǯerdïŋ ädämi desämäm bölädi, qïzimǯānimāv, ʷon ǯetï ǯaši:mda kelin böp kegäm [-gän **F**$_{5/1/3\{1\}}$ ^progressive, to’liq, kontakt assimlyatsiya hodisasi])män. (Yendi shu jerding adami desamam bo‘ladi, qizimjonimov, vo‘n jeti joshimda kelin bo‘p kegamman[2]).*

2.Fe’lning hozirgi zamon shakli harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda bajarilayotganini bildiradi va bu fe’llarda harakatning bajarilishi bilan nutq so‘zlanishi bir vaqtda bo‘ladi. Biroq hozirgi zamon shaklining ma’nosi nutq boshlanishi va tamom bo‘lishi bilan cheklanmaydi, balki boshqa zamon chagarasiga ham o‘tadi[3]

Hozirgi zamon qo‘shimchasining XX asrning 60-yillarida qipchoq lahjasining “ǯ”lovchi shevasida aksariyat hollarda **-(a)ǯatïr** affiksining qo‘llanganligini kuzatish mumkin (Sapayev Q. ushbu zamonni aniq hozirgi zamon deya ta’riflaydi). XXI asrimizning 30 yillariga, hozirga, kelib bu affiksning qo‘llanish doirasi **-(ä) jäp – Verb**$_{5/2/2\{1\}}$**, -(a)jap – Verb**$_{5/2/2\{2\}}$ da kechayotganligini ijtimoiy hayot ravishi bilan bog‘lab tushuntirish mumkin. Hozirgi zamon fe’l shakli: -yap - **Verb**$_{5/2//1\{0\}}$, -yotir - **Verb**$_{5/2//2\{0\}}$ [standart shakl]; dialektal variantlar: **(-(ä) jäp – Verb**$_{5/2/2\{1\}}$**, -(a)jap – Verb**$_{5/2/2\{2\}}$**, -(ä)yätr - Verb**$_{5/2//2\{1\}}$**, -(a)yatr - Verb**$_{5/2//2\{2\}}$**, -(ä)ǯätr - Verb**$_{5/2//2\{3\}}$**, -(a)ǯatr - Verb**$_{5/2//2\{4\}}$**, -(ä)yätir - Verb**$_{5/2//2\{5\}}$**, -(a)ǯatïr - Verb**$_{5/2//2\{6\}}$**, -yätʲr - Verb**$_{5/2//2\{7\}}$**,-ǯatʲr - Verb**$_{5/2//2\{8\}}$**, -vatʲr - Verb**$_{5/2//2\{9\}}$**, -vatîr- Verb**$_{5/2//2\{10\}}$**, -yätʲp - Verb**$_{5/2//3\{11\}}$**, -yätip - Verb**$_{5/2//3\{12\}}$**, -äjči - Verb**$_{5/2//4\{13\}}$**).** Dialektal korpusning morfemik variantlar bazasi asta-sekin to‘ldirilishga moslashtirilgan bazaga aylantirilishi zarur. Aynan shu pozitziyaga ega bo‘lgan bazalar bilan mukammallikka erishadi. Misol: Minaǯaqtan kel+(a)ǯatïr [Verb$_{5/2//2\{6\}}$][4] *(mana bu yoqdan kelayotir).*

3. Dialektal korpusda fe’lning kelasi zamon shakli. : -a - Verb$_{5/3/1\{0\}}$**, -y - Verb**$_{5/3/2\{0\}}$, -ajak **Verb**$_{5/3/3\{0\}}$, -gu **- Verb**$_{5/3/4\{0\}}$**;** dialectal variant **(-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$**, -j - Verb**$_{5/3/2\{1\}}$**);** -yäk **- Verb**$_{5/3/3\{1\}}$, -yak **- Verb**$_{5/3/3\{2\}}$, -äyäk **- Verb**$_{5/3/3\{3\}}$, -ayak **- Verb**$_{5/3/3\{4\}}$**;**-kü **- Verb**$_{5/3/4\{1\}}$**,** -ku **- Verb**$_{5/3/4\{2\}}$**,** qu **- Verb**$_{5/3/4\{3\}}$**,** ɣu **- Verb**$_{5/3/4\{4\}}$**.** Masalan: *Jängämdän köp närsälärdi örgäniškä häräkät qilä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$]miz. Zerā, bʲr kün kelip biz häm bʲr äjilänïŋ bekäsi bölä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$]mis. Öšä künlärgä qadar ʷozimizdä kelinlig könikmäsini šäkllänтirip bärä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$]miz. Xālqimizdä “Qārigandajam tinj ʷotirmäjdi” degän gäp köp išlätilä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$] di. Bü beyizgä ajtilmägän, älbättä. Xāläkättäm (otan-*

[1] Abdulhakimovna X. M. Transcription in the Uzbek National Boysun Dialect Corps (Boysun District with the Example of “J” Dialect) //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – С. 105-109.

[2] Soatmurodova_Charos_Sohibjonova, [17/12/2023 17:39] Axborotchi:Panjiyeva Sapiya moma/ Manzil:Angor tumani. Zang Gilambob MFY.

[3] Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 215. B.lar, 300.

[4] Respondent: Sultonova R. manzil: Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, Corchinor mahallasi, Mehridil ko‘chasi 30-uy.

*ing xolasi) ham šünnäjlär siräsigä kirä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$] di. Qarip, bükčäjip qāgan bölsäläräm jāš jüvänlärdäj häräkätčännär. Büniŋ isbātini ǯānli (jonzot) bāqišni kändä qilmäslikläridän mä:lüm. Ülärniŋ üjidä ǯüvänä (ho'kiz), inäk (sigir), bizāv, täkälär ǯüdäjäm köp. Dädäm vä pāččām ǯānlilärgä ǯüdä qiziqišä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$]di. Šüniŋ-čün tes-tes ülärdikigä bārip türišä[**-ä - Verb**$_{5/3/1\{1\}}$]di*[1,2].

Dialektal korpusda fe'l so'z turkumining shaxs-son. Ma'lumki, adabiy til normasida fe'l shaxs-sonda o'zgaradi va bu tuslanish deyiladi. Fe'l tuslanganda harakatning qaysi shaxs tomonidan bajarilganini yoki inkor etishini ko'rsatadi. Bunday paytda ayni bir affiks bajaruvchining miqdorini ham bildiradi. Shuning uchun bunday affiks shaxs-son affiksi deyiladi.

Demak, harakatning bajaruvchisi sahxsga va bu shaxsning son miqdoriga munosabati shaxs-son kategoriyasi hisoblanadi. Bu ma'nolari ifodalovchi shaxslar shaxs-son shakllari deyiladi. Shevashunoslikka doir ilmiy manbalarga ko'ra tushlanish jarayoni zamon+shaxs-son shaklida tahlillangan: "j"lovchi shevalarda -di+m [keldim - o'tgan zamon, I shaxs, birlik; keldik - o'tgan zamon, I shaxs, ko'plik], "ǯ"lovchi shevalarda -dï+m [keldïm - o'tgan zamon, I shaxs, birlik; keldïq o'tgan zamon, I shaxs, ko'plik], Toshkent shevalarda -dü+v͡zä [keldüv (zä ortishi), Jizzax shevasida -ti+j [kettij o'tgan zamon, I shaxs, ko'plik], mazkur qo'shimcha kelasi zamon shart maylidan so'ng ham qo'llaniladi; "ǯ"lovchi shevalarda **-vatïrman**, Toshkent shevasi -män [bār+vām+män hozirgi zamon, I shaxs, birlik], Andijon shevasi -yäp+pän [bar+yäp+pän hozirgi zamon, I shaxs, birlik], Parkent shevasi -vātti+m [bārvāttim hozirgi zamon, I shaxs, birlik], Samarqand shevasi -ām+man [bārāmman hozirgi zamon, I shaxs, birlik] kabi ma'lumotlar berilgan. Dialektal korpusda fe'l so'z turkumining sintaktik shakl yasovchilaridan biri shaxs-son shakli ifodasining umumiy plani ishlab chiqilsa, pasport metarazmetkasi vositasida affiksning arealiga baho berish mumkin.

BIRLIKDA:

I shaxs. standart shakl:- m, -man; dialectal shakl: -di/-sa+m; -gan/ -ib/ -yap/ -moqda/ -yotir/ -yotib + -män, -man; -vātti (hozirgi zamon)+m**.**

II shaxs. standart shakl: -san, -ng; dialectal shakl: -sän,-san, -sä,-sa, -ŋ.

III shaxs. standart shakl: -di. dialectal shakl: -di, -dï, -dü,-du, -ti, -tï, -tü, -tu.

KO'PLIKDA:

I shaxs. standart shakl: -miz, -k. dialectal shakl: -miz, -mis, -mïz, -mïs, -piz, -pis, -pïz,- pïz, -k, -q, -g.

II shaxs. standart shakl:-ng, ing. dialectal shakl:-j (lä), iŋ, -ïŋ, -iŋiz, -iŋis, -ŋïz, -ŋïs,

III shaxs. standart shakl: -di (lar). dialectal shakl: -di (lär, lä), -dï (lar, la), -dü (lä),-du (lar, la), -ti (lä), -tï (lar, la), -tü (la), -tu (lar, la).

Dialektal korpusda fe'l so'z turkumining shaxs-son shakllarining ikkita formal belgisi borligiga muvofiq teglash prognozi: Fe'lning shaxs-son shakllari – <fe'l. sh.-son.>: F_6 [6 raqami fe'lning shaxs-son tegi]– $Verb_6$; $F_{6/1}$ [/ prosodikadan so'ng keltirilgan 1 raqami] shaxs-sonning birinchi formal belgisini bildiradi va dialectal matnlarda fe'lning I shaxs birlik shakli standart shakl bilan moslik ifodasiga egadir: kel-di-m [$F_{6/1/1a\{0\}}$] bunda yuqoridagi ikkita raqamni biz bilamiz, / prosodikadan so'ng 1a fe'lning I shaxsini {0} esa adabiy forma [standart shakl]ni ifodalaydi. Mazkur turkumning qolgan dialectal teglari quyidagicha belgilangan: I shaxs. [1-formal belgi -m] -di/-sa + m [$F_{6/1/1a(s)\{0\}}$]; [2-formal belgi -man] -gan/ -ib/ -yap/ -moqda/ -yotir/ -yotib/ a +-man [$F_{6/1/2a\{0\}}$], + -män [$F_{6/1/2a(s)\{1\}}$]; -vātti (hozirgi zamon) + m[$F_{6/1/2a\{2\}}$]**.** Masalan:

Men uläjin öz qolimγä tekkünčäjä-tekkünčä

Sümbül-sümbül sāčimdi täramäj+män [$F_{6/1/2a(s)\{1\}}$] bābāǯān,

Jänäjän sümbül sāčimdi täramäj+män [$F_{6/1/2a(s)\{1\}}$] bābāǯān

Ājnä ālip āq ǯüzimäjä qāramäj+män[$F_{6/1/2a(s)\{1\}}$] bābāǯān[3].

II shaxs. standart shakl: -ng [$F_{6/1/1b(s)\{0\}}$], -san [$F_{6/1/2b(s)\{0\}}$]; dialectal shakl: -ŋ [$F_{6/1/1b(s)\{1\}}$]; - sän[$F_{6/1/2b(s)\{1\}}$], -sä[$F_{6/1/2b(s)\{2\}}$],-sa[$F_{6/1/2b(s)\{3\}}$].

III shaxs. standart shakl: -di. dialectal shakl: -di [$F_{6/1/2c(s)\{0\}}$], -dï[$F_{6/1/2c(s)\{1\}}$], -dü[$F_{6/1/2c(s)\{2\}}$],-du[$F_{6/1/2c(s)\{3\}}$],

[1] Yozib olingan shaxs: Soatova Nilufar, Matn nomi: Mening yangam va xolakattam.(Mening yangam va otamning xolasi) Manba yozib olingan hudud: Oltinsoy tumani.

[2] Barcha ma'lumotlar: https://dialectcorpora.uz/ O'zbek milliy shevalar korpusidan olingan.

[3] Yozib olivchu :Soatova Nilufar/ Aytuvchi:Raximova Maysara Baxtiyor qizi/ O'qiydi: Termiz Davlat Universiteti musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti/ Oltinsoy tumani/

-ti[$F_{6/1/2c(s)\{3\}}$], -tï[$F_{6/1/2c(s)\{4\}}$], -tü[$F_{6/1/2c(s)\{5\}}$], -tu[$F_{6/1/2c(s)\{6\}}$].

KO‘PLIKDA:

I shaxs. [1-formal belgi] bordi/sa + k [$F_{6/1/1a(p)\{0\}}$]. [2-formal belgi] -gan/ -ib/ -yap/ -moqda/ -yotir/ -yotib/ -a +-miz[$F_{6/1/2a(p)\{0\}}$], dialectal shakl: bardï+q [$F_{6/1/1a(p)\{1\}}$] (“ǯ”lovchi shevada), bārdi+g [$F_{6/1/1a(p)\{1\}}$]. -mis[$F_{6/1/2a(p)\{1\}}$], -mïz[$F_{6/1/2a(p)\{2\}}$], -mïs[$F_{6/1/2a(p)\{3\}}$], -piz[$F_{6/1/2a(p)\{4\}}$], -pis[$F_{6/1/2a(p)\{5\}}$], -pïz[$F_{6/1/2a(p)\{6\}}$],- pïz[$F_{6/1/2a(p)\{7\}}$]. Masalan: *1.M`an bügün kattäm (buvim) bʲlän äš piširdik[$F_{6/1/1a(p)\{0\}}$]. 2. Votkän ǯılı učınčı smıstrda men Dılbar degän kürsdāšim bʲlän bir ǯäjda kvārträda türbedïq[$F_{6/1/1a(p)\{1\}}$]. Avval qāzāŋa qojdiŋ dümmäsini säp eritälämis[$F_{6/1/2a(p)\{1\}}$]. Ustiga üš čömič jāγ sälämiz kejin pijāzdi kättarāq qi(li)p tuvräp sālamis[$F_{6/1/2a(p)\{1\}}$]. Hämmasin aralaš qi(li)p kāvlap qojamis [$F_{6/1/2a(p)\{1\}}$]. Xamma närsälär qïp - qïzil bögännan kejin tuγralgän sävziniyäm säp süv va naxöt säp qojamis[$F_{6/1/2a(p)\{1\}}$]*[1].

II shaxs. [1-formal belgi] bordi/sa + ng [$F_{6/1/1b(p)\{0\}}$]. [standart shakl]// [2-formal belgi] -gan/ -ib/ -yap/ -moqda/ -yotir/ -yotib/ -a +-siz[$F_{6/1/2b(p)\{0\}}$], dialectal shakl:-j [$F_{6/1/1b(p)\{1\}}$]. (lär, lä), iŋ (lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{2\}}$], -ïŋ(lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{3\}}$], -iŋiz(lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{4\}}$]., -iŋis(lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{5\}}$]., -ŋïz(lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{6\}}$]., -ŋïs(lär, lä) [$F_{6/1/1b(p)\{7\}}$]; -sïz [$F_{6/1/2b(p)\{1\}}$]. Masalan: *Välejkām sālam, jäxši ǯüripsismä qïzim, uoiŋizdägilär tinčmä?*

Og‘zaki nutqda fe’lning yaqin o‘tgan zamon shakli hosil qiluvchi -di hamda fe’lning ikkinchi formal shalki -di qo‘shimchasi o‘zaro omonimlik hosil qiladi. Biroq korpusda u quyidagi formula asosiga quriladi:

-di I - fe’lning yaqin o‘tgan zamon shakli: *lemma+F_1+F_3+F_5+F_6* – tügä|t|ti|m - |asos| lug‘aviy shakl yasovchi, orttirma nisbat standart shakli| sintaktik -ti-yaqin o‘tgan zamon dialektal shakli| fe’lning shaxs-son1-formal shakli standart shakli [tashqi analizatordagi prezintatsiyasi] - tügä|t|ti|m: lemma|$F_{1/3/1\{0\}}$|$F_{5/1/1\{5\}}$|$F_{6/1/1a(s)\{0\}}$|;

-di II fe’lning 2-formal shakli III shaxsi: *lemma+F_1+F_3+F_6+F_5* – tügä|t|ip|ti| - |asos| lug‘aviy shakl yasovchi, orttirma nisbat standart shakli| fe’lning ilgariroq o‘tgan zamon dialektal shakli| fe’lning III shaxs 2-formal dialektal shakli| - tügä|t|ip|ti: lemma| |$F_{1/3/1\{0\}}$|$F_{5/1/1\{5\}}$|$F_{5/1/2\{3\}}$| $F_{6/1/2c(s)\{3\}}$.

O‘zbek tili shevalaridagi fe’lga doir grammatik formalarning barcha variantlarining alohidalanishi uchun dialect va hozirgi o‘zbek adabiy grammatik me‘yorlarning umumkiyligini ta’minlamoq darkor. Shunda shevalar korpusida gramomoniya muammolarining oldini oladi va adabiy til va lahjalar tarkibidagi farqli belgilar xususidagi xulosalar vositasida qardosh turkiy til hamda turkiy tillar tarixini o‘rganishda yillararo qo‘llanish chastotasini aniqlashda qo‘l keladi.

Resume. This article, using the example of dialects of the Surkhandarya region, studies the features of the study of the syntactic category of time and person-number of the verb in the dialect corpus of the Uzbek people, and also provides theoretical views on tagging both grammatical formal and dialect variants of the verb and its structure in the corpus. It is also noted that in order to separate the morphemic forms of action and state, it is necessary to ensure the commonality of the dialect and modern Uzbek literary grammatical norms, and the practice of research allows us to prevent problems of gramomonymy in the dialect corpus.

Резюме. В данной статье на примере говоров Сурхандарьинской области изучаются особенности исследования синтаксической категории времени и лица-числа глагола в диалектном корпусе узбекского народа, а также приводятся теоретические взгляды на тегирование и грамматических формальных и диалектных вариантов глагола и его структуры в корпусе. Также отмечается, что для разделения морфемных форм действия-состояния необходимо обеспечить общность диалекта и современных узбекских литературных грамматических норм, а практика исследования позволяет предотвратить проблемы грамомонимии в корпусе диалекты.

[1] Ma’lumot: Xushvaqtova Asila// Respondent: Turayeva Go‘zal// Qo‘ng‘irot shevasi.// Yosh: 52// Qashqadaryo viloyati Kitob tumani O‘yingoh MFY.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TILSHUNOSLIKDA LISONIY SHAXS MUAMMOSI

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida tilni inson omili bilan bog'lab o'rganuvchi qator tadqiqotlarda til egasi, lisoniy shaxs, lisoniy ong, nutqiy faoliyat, nutq vaziyati, lisoniy zahira kabi tushunchalar badiiy matn tahlilida keng tahlil va talqin qilinmoqda. Ma'lumki, lison faqatgina insonga in'om etilgan ne'mat, shu boisdan lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi. Tildan foydalanish jarayonida insonning shaxs xususiyatlari turlicha ta'sir ko'rsatadi. Aynan shaxs tushunchasida insonning tabiati birinchi o'ringa ko'tariladi, uning o'zi esa, ijtimoiy-madaniy turmushning subyekti sifatida ishtirok etadi.

Psixologiyada shaxs individ tarzida, ijtimoiy ta'sir subyekti, ijtimoiy munosabatlar va mental anglangan faoliyat tarzida qaraladi. Shaxs ijtimoiy davomiylik sohasi bo'yicha tadqiq qilinadi[1]. Falsafada bo'lsa u ma'naviy, o'z turmushida tarkibi belgilangan va ijodiy harakatlar yordamida rivojlanuvchi shaxs sifatida qaraladi.

Shu o'rinda shaxs va lisoniy shaxs tushunchalariga alohida ta'rif berib o'tish lozim. Shaxs – bu faoliyat subyekti bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, o'z hayoti va faoliyatini qanday qurishni biladigan, so'zlari va harakatlari uchun javobgar bo'lgan ijtimoiy hujayraning obyekti. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi[2]. Lisoniy shaxs esa til tuzilishi jihatidan, haqiqatni ifodalashning aniqligi va teranligi, ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi bilan farqlanadigan matnlarni tuza oladigan va anglay oladigan kishidir[3]. Demak, nutq tuzuvchi va uni idrok eta oluvchi shaxs – lisoniy shaxs hisoblanadi. Lisoniy shaxs muammosi va uning tahliliga keyingi yillarda psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarda ham murojaat qilinmoqda.

Dunyo tilshunosligida lisoniy shaxs haqidagi ta'limotning nazariy asoslari G.I.Bogin, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, V.Gumbold, L.Veysgerber, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, Y.N.Karaulov, Y.S.Stepanov, I.P.Susov, A.M.Shaxnarovich tomonidan ilgari surildi[4]. Keyinchalik L.P.Klobukova, V.D.Lyutikova, V.P.Neroznak, T.V.Kochetkova, A.G.Fomin, M.N.Panova, A.B.Bushev, I.V.Bashkova, M.V.Vlaskova, O.V.Silantyeva, L.N.Churilina va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida yanada rivojlantirildi.

Lisoniy shaxsga murojaat nemis olimi I.Veysgerber nomi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik bu tushunchani keng ilmiy muomalaga Y.N.Karaulov olib kirdi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov lisoniy shaxsni o'rganishning ikkita, ya'ni muallif shaxsi va personaj shaxsini o'rganish yo'lini ishlab chiqdi. Bu termin ilk bor uning "Badiiy proza haqida" deb nomlangan asarlarida qo'llangan[5]. Olim ushbu kitobida badiiy asarda lisoniy shaxs, muallif obrazi va badiiy obrazning o'zaro munosabati kabi masalalarni o'rtaga tashlagan. Bu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida Y.Karaulov lisoniy shaxsga shunday ta'rif beradi: lisoniy shaxs – nutqiy asar (matn)ning yaratilishi va idrok etilishi sharti bo'lgan insonning struktur-lisoniy jihatdan murakkabligi darajasi, olamni aks ettirishining qay darajada aniqligi va chuqurligi, aniq maqsad

[1] G'oziyev E.G. Psixologiya: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2008. – B. 352.

[2] Ushbu havola internet materiallaridan olindi: https://uz.m.wikipediya.org.

[3] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 264.

[4] Богин Г.И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов: Автореф.дисс... док.филол.наук. – Л., 1984; Степанов Ю.С. В трехмерном пространство языка. Семиотические проблемы лингвистики, филологии, искусства. – М.: Наука, 1985. – С. 335; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 264; Сусов И.П. Личность как субъект языкового общения // Личностные аспекты языкового общения. – Калинин: Калининский университет, 1989. – С. 9–16; Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задачи ее изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3–8; Шахнарович А.М.К проблеме языковой способности (механизма) // Человеческой фактор в языке: язык и порождение речи. – М.: Наука, 1991. – С. 185–220 va boshqalar.

[5] Виноградов В.В. О языке художественной прозы / Избранные труды. – М.: Наука, 1980. – С. 362.

tomon yo‘nalganligiga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi qobiliyatlari va xususiyatlari majmuidir[1]. Anglashiladiki, badiiy matn yaratuvchi ijodkor o‘z asarida jonli nutq yarata olishi, til birliklaridan maqsadli foydalana olishi, asar qahramonlariga xos sifatlarni ko‘chira olishi, qahramonlar ruhiy holatini bevosita ko‘rsatib bera olishi lozim. Shundagina muallif lisoniy shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Binobarin, badiiy matn orqali yozuvchining dunyoqarashini, fikrlash va tafakkur doirasini, ruhiy dunyosini anglash mumkin. Shu boisdan so‘ngi yillarda matnning lisoniy xususiyalarini inson omili bilan bog‘lab o‘rganish va chuqurroq tahlil qilishga e’tibor kuchaydi.

Badiiy matnda muallif yaratgan qahramonlar nutqi orqali ularning yoshi, kasb-kori, jinsi, ijtimoiy holati, ruhiyati, mentaliteti, milliy-madaniy qarashlarini anglash mumkin. Badiiy nutq hatto yozuvchining til bilimi, lisoniy qobiliyati va til ko‘nikmasi haqida ham umumiy tasavvur uyg‘ota oladi va uning lisoniy shaxs sifatida shakllanganlik darajasini ko‘rsata oladi.

Rus olimi V.I.Karasik lisoniy shaxsning quyidagi komponentlarini ajratgan: lisoniy qobiliyat (kommunikatsiyani amalga oshirishning tabiiy imkoniyatlari); kommunikativ ehtiyoj; individ egallagan kommunikativ kompetensiya; lisoniy ong tashqi olamning ichki tomondan aks etishi sifatida; nutqiy xulq[2]. Darhaqiqat, lisoniy ong, hissiyot, iroda, tafakkur, xotiraning umumiy birligi nutq hosil qilishning muhim komponentlari hisoblanadi. Lisoniy qobiliyat va kommunikativ ehtiyoj kommunikativ kompetensiya bilan birgalikda shaxs faoliyati natijasi sifatida yuzaga kelgan matnda reallashadi. Olim shuningdek, o‘z mulohazalarida lisoniy shaxs muammosining psixologik, sotsiologik va lingvistik yo‘nalishlarda ham o‘rganilishini bayon qiladi. Y.Kravsova esa lisoniy shaxsning lingvodidaktika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, sotsiolingvistika va psixolingvistika yo‘nalishlarda tadqiq etilayotgani haqida ma’lumot beradi[3].

Ayrim tadqiqot ishlarida lisoniy shaxs muammosi bir necha yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lib, jumladan, N.Normurodova – lisoniy shaxsni pragmatik, lingvokognitiv, lingvomadaniy hamda genderologik aspektlarda, G.G.Xisamova –badiiy matnda yaratilgan qahramonlar nutqi asosida, N.N.Zubova esa lisoniy shaxsni semantik, lingvokognitiv, pragmatik yo‘nalishlarda tadqiq etgan[4]. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e’tibor lisoniy shaxs tiplari (nutq egalari)ga xos bo‘lgan ularning xarakter-xususiyati, mashg‘uloti, yoshi, gender belgisi, ijtimoiy mavqei, nutqiy muloqotda egallagan pozitsiyasi, nutq ishtirokchilarining o‘zaro bir-biriga kommunikativ ta’sir ko‘rsatishi kabi nutqiy faoliyatga qaratilgan.

V.A.Maslova lisoniy shaxsning lisoniy va kommunikativ tarkibi haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Lisoniy shaxs – ijtimoiy hodisa, lekin unda individual jihat ham mavjud. Lisoniy shaxsdagi individuallik tilga bo‘lgan ichki munosabat, shaxsiy lisoniy ma’noning paydo bo‘lishi orqali shakllanadi; biroq bu o‘rinda lisoniy shaxsning lisoniy an’analarning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatishini unutmaslik kerak”[5]. Anglashiladiki, har qanday lisoniy shaxs ajdodlar tomonidan yaratilgan til boyligini o‘zlashtirishi asosida shakllanadi. Lisoniy shaxs tilining asosiy qismi umumtildan va muayyan qismi individual tildan tashkil topadi.

L.A.Isayeva va V.V.Katermina lisoniy shaxsning nafaqat shaxsning tilni egallaganligi darajasi bilan o‘lchanishi, balki insonning turli darajadagi lisoniy vositalarni ijtimoiy, shaxsiy tanlovi hamda shu til orqali tasvirlangan dunyoning lisoniy manzarasida aks etgan olam qiyofasini idrok etishi asosida tavsiflanishini qayd etishadi[6]. Demak, lisoniy shaxsni belgilashda insonning til bilish imkoniyatlari, lisoniy qobiliyati, olam haqidagi bilimlari, qarashlari hamda pragmatik xususiyatlari, ya’ni maqsadi, qiziqishlari, jinsi, yoshi, ijtimoiy-madaniy mavqeyi, ruhiy-psixologik holati kabilar inobatga olinadi. Nutqda, albatta, bu xususiyatlar bilan birga, nutq egasining milliy-madaniy qarashlari, xalq madaniyatining ko‘zgusi bo‘lmish qadriyatlar ham aks etadi.

Darhaqiqat, har qanday yozuvchi o‘z asarida lisoniy shaxs tiplarini yaratishda milliylikka tayanib ish ko‘radiki, bu millat qadriyatlarining shakllanganlik darajasini ham namoyon etadi. Zero, Sh.Maxmaraimova ta’kidlaganlaridek, “...madaniyat va

[1] Караулов Ю. Н. Русская языковая личность и задачи её изучения // Язык и личность – М.: Наука, 1989. – С. 3–8.

[2] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – В.: Перемена, 2002. – С. 477.

[3] Кравцова Ю. Основные направления, проблемы и перспективы развития лингвоперсонологии // Лингвостилистични студии, 2015. Вип. 3. – С. 80.

[4] Нормуродова Н. Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 2012. – В. 26; Зубова Н.Н. Языковая личность жительницы русского Севера: опыт вербально-семантического, лингвокогнитивного и прагматического описания: Дисс... канд. филол. наук. – Вологда, 2017. – С. 209; Хисамова Г.Г. Персонаж как языковая личность в художественном тексте // http://docplayer.ru/61830038-G-g-hisamova-bashkirskiy-gosudarstvennyy-universitet-g-ufa-rossiya.html.

[5] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб.пособие для студ. высш.учеб, заведений. – М.: Издательский центр. Академия, 2001.

[6] Исаева Л.А., Катермина В.В. Языковая личность А.С.Пушкина: особенности проявления в номинации персонажей//http://docplayer.ru/40326759-Yazykovaya-lichnost-a-s-pushkina-osobennosti-proyavleniya-v-nominacii-personazhey.html

madaniy an'analar markazida o'z turfa qirralarini namoyon etuvchi, jismoniy, ijtimoiy, intellektual, hissiy, fikrlovchi va h. xususiyatli lisoniy shaxs masalasi turadi"[1].

Badiiy matnda yozuvchi qahramonlarning turli lisoniy shaxs tiplarini yuzaga chiqaradi. Bunda uning til vositalaridan foydalanish mahorati ishga tushadi. Badiiy matnda qo'llangan bunday vositalar asar qahramonining yoshi, milliy-madaniy qarashi, millati, voqelikka munosabati, nutq egalarining ruhiy holatini ham ifodalaydi:

– Momojon, o'zingizmisiz, momojon?!

– Men, bolam, men momong.

– Assalom, momojon. Esonmisiz, omonmisiz, Veteran bobomlar..?

– Bobong-da omon... O'zing qalaysan, bolajonim!? Nabiram eson-omon yuriptimi?

– Nevarangiz, Lochinjoningiz – hammasi eson...

– Esa... nega yig'laysan? Omonliqma, bolam?

– Kuyovingiz Suyun akamlar ...

– Kuyovimga ne bo'ldi? Ovrip qoldima?

– Og'risa ham mayli edi, momojon... Opketishdi.

– Kim opketdi? Qayga opketdi?

– Momojon, buni telefonda aytib bo'lmaydi. Tuhmat hammasi. Aylanay, Momojon. Bir kep-ketinglar. Veteran bobomlar bilan bir kep-ketmasalaring... biz hammamiz buyoqda... onasidan ayrilgan bo'taday bo'zlab qoldik, momojon!..

– Ne bo'ldi? Ochig'ini ayt, bolam?

– Ochig'ini aytsam... yomon! Juda yomon! Tezroq keling, tezroq kelinglar, momojon!

– Boramiz, bolam, boramiz. Veteran bobongni-da oldimg'a solip opparaman... ("Adolat manzili")

Ushbu dialogda qahramonlar nutqi orqali ona va qiz (Bibisora momo hamda qizi Marjonoy) lisoniy shaxs tiplarini anglash mumkin. Muloqot jarayonida nutq egalarining nutqida o'zbek millatiga xoslik, o'zbekona salomlashish, o'zaro ahvol so'rash an'analari, onaga nisbatan murojaat shaklining "momojon" shaklidagi ifodasi, ota-ona bilan bamaslahat ish ko'rish kabi milliy mentalitetga xos qadriyatlar ifodalangan. Dialogda Bibisora momo nutqidagi *nega yig'laysan*, *omonliqma, bolam*; *kuyovimga ne bo'ldi, ovrip qoldima; boramiz, bolam, boramiz. Veteran bobongni-da oldimg'a solip opparaman* kabi birliklar qahramonning xavf-xatarni sezish, kuyunish, achinish va suhbatdoshiga tasalli berish kabi ruhiy holatini ifodalagan mehribon ona lisoniy shaxs tipini yuzaga chiqargan. *Aylanay, Momojon, bir kep ketinglar; biz hammamiz buyoqda onasidan ayrilgan bo'taday bo'zlab qoldik, momojon* kabi birliklar esa umr yo'ldoshining boshiga tushgan musibatdan g'amga botgan sadoqatli yor, tushkulikka tushgan, chorasizligidan ota-onasiga o'kingan qiz lisoniy shaxs tipini ifodalab kelgan.

Badiiy matnda qahramonlar nutqi orqali ularning turli lisoniy shaxs tiplarini ajratish mumkin, ya'ni oilada **ota-ona, qiz, o'g'il, buvi, buva, qarindoshlik lisoniy shaxs tipida tog'a, amma, xola, aka, uka, singil,** jamiyatda esa kasbiy jihatdan **o'qituvchi, shifokor, quruvchi, hisobchi** va hakazo.

D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganovalar lisoniy shaxsga tavsif berishda til egasi yaratgan nutqning milliy xususiyatlariga e'tibor qaratishdi. Lisoniy shaxs nutq orqali nafaqat o'ziga xos bo'lgan individual sifatlarni, balki o'z xalqining lingvomadaniy qarashlarini ham u yoki bu darajada namoyish eta oladi. Lisoniy shaxsga uning til birliklaridan qay tarzda foydalangan holda tuzgan matni asosida tavsif berish mumkin"[2]. D.Niyazova ham "lisoniy shaxsni shunchaki nutq egasi emas, u nutqi orqali xalq tili va madaniyatini namoyish etuvchi, nutqi orqali xarakter-xususiyati, ruhiyati, kasb-kori, ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi kabilar haqida ma'lumot beruvchi shaxs"[3] deb biladi. Tadqiqotchi shaxsning ayrim xususiyatlari, shuningdek, nutq yaratuvchining ruhiy holati nutq jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatishi, kuchli ruhiy zo'riqish esa nutqni nafaqat tuzishga, balki uni idrok etishga ham to'sqinlik qilishini ta'kidlaydi. Bundan farqli, N.Normurodova lisoniy shaxsni shaxsning ma'naviy qiyofasida birgalikda aks etuvchi semantik, pragmatik, kognitiv, gender, milliy-madaniy jihatlarning lisoniy shaklda ifodalanishi deb hisoblaydi[4].

Darhaqiqat, lisoniy shaxs shakllanishining bosqichlari ketma-ketlikda uzviy bog'lanishni hosil qiladi, hatto biriga xos xususiyat keyingisida ozmi-ko'pmi takrorlanishi mumkin. Lisoniy shaxs nutqni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs, shu bilan birga, nutqi orqali milliy til, xalq madaniyatini va xalq ruhini, milliy mentalitetini, til egalarining shaxsiy sifatlarini namoyon eta oluvchi shaxs hisoblanadi.

Tilshunoslikda, ayniqsa, antroposentrik tilshunoslik yo'nalishida lisoniy shaxs muammosini o'rganish nihoyatda ahamiyatli. L.Azarova qayd etganidek, antropolingvistikada lisoniy shaxs tushunchasi nihoyatda muhim, ushbu tushuncha tilning rang-barangligini ko'rsatuvchi vositadir. Agar tilning yaratilishi hanuzgacha yagona javobiga ega bo'lmagan muam-

[1] Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология [Матн] /Ўқув қўлланма/. – Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – В. 19.

[2] Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №6. – В. 39–40.

[3] Ниязова Д. Бадиий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2020. – В. 134.

[4] Нормуродова Н. Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф.дисс... канд. филол.наук. – Самарканд, 2012. – С. 26.

mo hisoblansa (tilning kelib chiqishi haqidagi ko‘plab nazariya-gipotezalarning mavjudligi shundan dalolat beradi) tilning rang-barangligi, uning ijtimoiy va hududiy variantlari insonlar, boshqacha aytganda, lisoniy shaxslar tomonidan yaratiladi[1]. Lisoniy shaxsning bosqichli modeli umuman shaxsning umumlashgan tipini ifoda etadi. Mazkur madaniyatda aniq lisoniy shaxslar juda ko‘p bo‘lishi mumkin. Ular shaxs tarkibining har bir bosqichdagi o‘zgarishlari ahamiyati bilan ajralib turadi.

Badiiy matn ijodkorning lisoniy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vosita bo‘lib, har qanday badiiy asarning markazida yozuvchi shaxsi turadi. Badiiy matn yaratuvchi yozuvchi til birliklari orqali qahramonlarning lisoniy shaxs tipini yaratadi, shuning uchun u asarning boshidan oxirigacha lisoniy shaxs maqomida bo‘ladi. Chunki yozuvchi asar qahramonlarning ruhiyatini ularning yoshi, jinsi, milliy dunyoqarashi, mentalitetiga moslab ifodalaydi. Bu esa ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadi.

Xulosa: Maqolada badiiy matnda muallif yaratgan qahramonlar nutqi orqali ularning yoshi, kasb-kori, jinsi, ijtimoiy holati, ruhiyati, mentaliteti, milliy-madaniy qarashlarini anglash mumkinligi tahlil qilingan. Badiiy nutq hatto yozuvchining til bilimi, lisoniy qobiliyati va til ko‘nikmasi haqida ham umumiy tasavvur uyg‘ota oladi va uning lisoniy shaxs sifatida shakllanganlik darajasini ko‘rsata olishi ifodalangan.

Resume: The article analysis the possibility of understanding the age, profession, gender, social status, psyche, mentality, national-cultural views of the characters created by the author in the artistic text. It is expressed that the artistic speech can create a general idea even about the writer’s language knowledge, linguistic ability and language skills, and can show the level of his formation as a linguistic personality.

Резюме: В статье анализируется возможность понимания возраста, профессии, пола, социального положения, психики, менталитета, национально-культурных взглядов персонажей, созданных автором в художественном тексте. Выражается, что художественная речь способна создать общее представление даже о знании языка, языковых способностях и языковых навыках писателя, показать уровень его сформированности как языковой личности.

[1] Азарова Л. Понятие языковой личности в лингвистике // Annales universitatis Mariae Curie – Skłodowska Lublin – Polonia. Vol. XXXV, 2017. №1. – С. 170.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIY NASRIY ASARLARIDAGI PERIFRAZALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kadirova Zaynura Zaynidinovna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tilshunoslikda perifraza va uning til birligi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini, badiiy matn nuqtai nazaridan tadqiq etishga deyarli e'tibor qaratilmagan. Ko'rinadiki, perifrazalarning morfologik hamda sintaktik vazifalari xususida mulohaza yuritish bugungi tilshunoslik talablaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Navoiy asarlari tilidagi perifrazalarni ham leksik-semantik, ham grammatik jihatdan tekshirish XV asrda qo'llanilgan perifrazalarda leksik me'yor, grammatik qurilish hamda uslubiy vazifa bajarish kabi jihatlarining ochilishiga yordam beradi. Quyida perifrazalarning morfologik va sintaktik jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Ma'lumki, eski o'zbek adabiy tilining shakllanishiga eski turkiy adabiy til asos bo'lib xizmat qilgan. Bu davrdagi adabiy til fors va arab tillari uslublari asosida shakllandi va bu uslubda ijod etish an'anaga aylandi[1]. Ushbu adabiy an'ana eski o'zbek tili rivojiga tamal toshi qo'ygan Alisher Navoiy ijodida ham davom ettirildi[2].

Haqiqatan, Navoiy asarlari tili juda betakror, boy lisoniy zaxiraga egaligi bilan ham qadrlanib keladi. Shoirning lirik hamda epik asarlari grammatik[3] jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, asarda qo'llanilgan turg'un qolipga ega bo'lgan leksik birliklar yetarlicha tadqiq etilgani yo'q. Perifrazalar ham gapda yagona qolipli birikma sifatida ma'lum so'roqqa javob bo'lishi va shu asosda gap bo'lagi vazifasida kela olishi mumkin. Ushbu bandda biz e'tibor qaratadigan asosiy masala Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrazalarning ifoda usullari, ya'ni birikma va gap qolipidagi perifrazalarning shakllantirilishi hamda gap tarkibida qo'llanilishi hisoblanadi.

Navoiy asarlaridagi perifrazalarning morfologik xususiyatlari haqida xulosa chiqarish uchun ularning qo'llanilish shaklini asar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda perifrazalarning turkumlanish masalasi, grammatik vositalarning qo'llanilish o'rni va shaklini tadqiq etishga e'tiborni qaratish amaliy natija beradi.

Morfologiya so'zni til sistemasida olib qaraydi, alohida so'z formalari va ularning qanday bog'langanligini aniqlaydi[4]. Morfologik xususiyat tadqiqida e'tiborga olinadigan birlamchi jihat turkumlanish bo'lib, Navoiyning nasrida ot va sifat turkumli perifrazalarning qo'llanilishi yetakchilik qiladi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan dalillaymiz.

Ot turkumli perifrazalar. Bu turkumni ifoda etuvchi perifrazaik birliklarning asosiy qismi shoirning "Mahbub ul-qulub" asarida qo'llanilgan bo'lib, qolgan nasriy asarlari: "Xamsat ul-mutaxayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Munshaot" kabilarda bu holat kam foizni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash kerakki, otlarning ma'noviy jihatiga ko'ra atoqli ot turlarini ifodalovchi perifrazalar ham anchagina qismni tashkil etgan. Bu perifrazalar Navoiy bilan zamondosh bo'lgan shaxslar, olimlar va din vakillariga nisbat berish maqsadida qo'llanilgan bo'lib, ***tasavvur va anoniyat umuriniig xudroyi va ujbu nafsoniyat olamining dashtpaymoyi*** (A.Navoiy), ***zavqu hol vodiysining pokravi, nazm beshasining g'azanfari*** **(**she'riyat o'rmonining arsloni, ishq dardi ichida yashovchi va zavq-u his vodiysining pok yo'lovchisi) – Amir Xusrav Dehlaviy , ***nur ul-millat vad-din*** (millat va dinning nuri), ***nur ul-haq vad-din*** (haqiqat va dinning nuri), ***kahf ul-islom va muslimiyna shayxuno (***muslim va muslimalarning intiluvchi g'ori***), shayx-ul-islomiy*** (musulmonlar shayxi), ***jamoatning ra's va raisi ul zoti nafis*** (jamoa boshlig'i)***, muqtado va peshvosi ul gavhari yaktodur*** (bo'ysunuvchi va boshliq)***, har lafzi yetti iqlimg'a sarmoya*** (har bir so'zi yetti iqlim uchun namuna) ***va har harfi yetti kavkabg'a piroyadur*** (har bir yozuvi, xati yetti yul-

[1] Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 135.

[2] Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчисининг синтактик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2012. – Б. 23.

[3] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. - Б. 160.

[4] Турсунов У., Мухторов ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 98.

duzga bezak)**, *eldin burun ko‘rguzgonlarining sharhi va faqir, avvalg‘i tabaqa ravishi kalomida ham sharifmaqol, so‘ngg‘i tabaqaning ham adosi latoyifida sohibkamol (***barcha toifa vakillari uchun so‘zlari yoqimli***) –** Abdurahmon Jomiy, ***orifi komil va murshidi mukammal*** (ma’rifatli va shogirdlarga so‘fiylikni o‘rgatuvchi)**, *o‘z zamonining yagonasi va haqiqat bahrining gavhari yakdonasi*** (o‘z davrida tengsiz va haqiqat dengizining qimmatli gavhari) **–** Faxriddin Luristoniy, ***zamonining soyir murshidlari va komillari*** (zamonasining ustozi va komil insoni) **–** Baxovuddin Umarbek, mavlono Boyazid Puroniy va mavlono Muhammad Asad, ***hazrati qutbi tariqat va g‘avsi haqiqat komil va mukammil murshid va xalifasi*** (komillikka erishgan tariqat peshvosi va haqiqat madadkori, to‘g‘ri yo‘lga soluvchi xalifa) **–** Sa’duddin Koshg‘ariy, ***xushovozliqda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi*** (yoqimli ovoz sohibasi sifatida san’atlar homiysi bo‘lgan Zuhro yulduzining otasi va tengsiz xonandaligiga ko‘ra uning suyukli farzandi) **–** Mutahhari Udiy, ***muqarrabi hazrati boriy*** (xudoga eng yaqin kishi) **–** Xoja Abdulloh Ansoriy, ***shahzodai behamto*** (mukammal shahzoda) **–** Kichik mirzo, ***dar ta’rixi sanai ehdo, samonina va samona mia muhibbi darveshon*** (somon shaklli sofdil oshiq)**, *mo‘taqidi eshon*** (e’tiqodli eshon)**, *az himai shug‘l ser va bar faqr daler*** (barcha fan sohalari bilan shug‘ullanuvchi, xokisor qalbli)**, *dag‘dag‘ai sobiq samti taqviyat, ta’kid paziruft*** (sokinlikni sevuvchi va muammolarni tinchlikda hal qiluvchi) **–** Amir Nizomiddin, ***hazrati qutb us-solikin*** (so‘fiylik yo‘lini tanlagan) **–** Shayx Faxruddin Iroqiy, ***base fazoili hamida bila orastadur*** (barcha yaxshi fazilatlar bilan bezangan, yaxshi fazilatlar egasi) **–** Mavlono Abulvose’, ***arjumand farzandlaridurlar*** (aziz farzand) **–** Mavlono Ziyovuddin Yusuf, ***hamzabonu- hamdam*** (suhbatdosh va ulfat) **–** Pahlavon Muhammad, ***turkigo‘y shuaro*** (turkiy shoir) **–** Lutfiy, ***soliki foniy va gavhari koniy, orifi maoniy*** (foniylik yo‘lini tutgan, qazib olingan gavhar, ilmlar bilimdoni)-Sayyid Hasan Ardasher, ***janobi haqiqatmaob*** (haqiqat, haqgo‘ylikni targ‘ib etuvchi)**, *qutbi doirai haqiqat*** (haqiqatparvarlar yo‘lboshchisi)**, *murshidi ahli shariat*** (din, shariat yetakchisi)**, *tariqat, koshifi ulumi rabboniy*** (ilmlarni kashf etuvchi, ixtirochi) **–** Mavlono Shamsuddin Muhammad Tabodgoniy, ***shayxul-mashoyix*** (shayxlar shayxi)**, *zaynul-millati vad-din*** (millat va dinning ziynati)**, *olimil-murshidi tavofil*** (to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi olim) **–** Xavofiy, ***tariq fanosida mufarrad va fano tariqida mujarrad*** (foniylik yo‘lining yagonasi)**, *jahondag‘i pahlavonlarning pahlavoni jahoni va pahlavonlig‘ jahonining jahon pahlavoni*** (jahon pahlavonlarining tengsiz pahlavoni va pahlavonlik olamining pahlavoni), ***surat va ma’nida beshabih va benazir*** (ko‘rinishi va aqlda tengsiz, kamchiliksiz)**, *borcha sodotu mashoyix va ulamoyu fuqaroning mahbub ul qulubi*** (barcha shayx va insonlarning ko‘ngli suyadigan, yoqimli)**, *suhbatning mujibi nishot va inbisoti*** (xursandchilik olib keluvchi suhbatning sababchisi)**, *nadimi majlis va anisi anjuman*** (suhbatdosh do‘st va ulfat), ***fununda ahli fandek mohir*** (barcha fan sohalarida yetuk salohiyat egasi), ***xilvati va har rozda mahrami*** (yolg‘izlikda yaxshi suhbatdosh), ***suhbatning yuzi, hamzabon u hamdam*** (suhbatdosh, do‘st) **–** Pahlavon Muhammad, ***ustodi fan*** (ilmlar ustozi) **–** Shayx Fariduddin Attor, ***qurrat ul-ayni saltanat*** (saltanatning ko‘z qorachig‘iday aziz farzandi) **–** Muzaffar Husayn mirzo, ***imom ul-mujtahidin*** (imomlikka intiluvchi)** –** Hurmuz Shayboniy, ***dev bila, shayotindin mutavallad bo‘lg‘on o‘g‘ul (***dev bilan shaytondan tug‘ilgan farzand) **–** Nohiqiy, ***murshidi ahli shariat*** (shariat ahliga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi) **–** Mavlono Shamsudddin Muhammad Tabadgoniy, ***Hirot xalqining o‘z davrida yagonasi va nodirasi –*** Sayyid Muhammad, ***shamsul-millat vad din*** (millat va dinning quyoshi)- Muhammad Kushtigir hamda Xoja Hofiz Sheroziy, ***shayx ul-islomiy, qahf ul anomiy –*** Hazrati Mahdumiy, ***maoniy ahlining nuktapardozi*** (*ilm ahli orasida go‘zal so‘zlovchi* **–** Jaloluddin, ya’ni Mavlaviy Rumiy**, *g‘avvosi bahri yaqin (aniq fikrlovchi*) **–** Shayx Muslihuddin Sa’diy Sheroziy**, *ma’no ahli so‘z pardozchisi, ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi*** (oshiqlar guruhining sadoqatli oshig‘i va pok insoni) **–** Amir Xusrav Dehlaviy, ***ishq ahlining chin va sadoqatli oshig‘i, tasavvuf va diqqat mushkilotnning girihkushoyi (****ishq ahlining chin va sadoqatli oshig‘i,* tasavvufiy mushkilotlarni hal qiluvchi) **–** Shayx Zahiruddin Sanoiy, ***tasavvufda noziklik va mushkullik chigalini yechuvchi faridi ahli yaqin*** (tasavvufda muammolarni yechuvchi avliyolar yagonasi)-Shayx Avhaduddin kabilar shular jumlasidandir. Ayrim o‘rinlarda tarixan qadimda yashagan yoki umuman mavjud bo‘lmagan to‘qima shaxslarni ta’riflash maqsadida ham perifrazalar qo‘llanilgan. Ya’ni ***qavmning peshvo va muqtadosi*** (guruhning rahbari va imomi), ***sharif xaylning sardaftari*** (aziz jamoaning peshqadami)**, *sarxayli valoyat bahrining gavhari*** (avliyolar dengizining gavhari)**, *karomat avji munir axtari*** (cho‘qqini yorituvchi mo‘jizaviy yulduz) **–** Halifa Ali, ***ishq ko‘xistoni bedodining noshodlaridan biri*** (ishq tog‘ining g‘amginlaridan) **–** Farhod, ***ishq tog‘i zulmining g‘amnoklaridan biri, sahroyi junun zabunlaridan biri*** (majnunlik sahrosining ojizlaridan) **–** Majnun. Shuningdek Navoiy ma’lum asarlar uchun ham perifraza birikmalarni qo‘llagan. ***“Oshiq va Ma’shuq”g‘a mavsumdur*** (oshiq- mashuqqa atalgan)**, *ta’vil uz-zayldir*** (oxiri juda uzoq) **–** “Yusuf va Zulayho” dostoni, ***“Haft avrang”ning yettinchi***

daftaridur (“Haft avrang”ning yettinchi dostoni) **–** “Xiradnomai Iskandariy” dostoni, ***tufuliyatda rangin nazmning g‘arobati bor*** (yoshlikda rangin she’riyatning o‘zgachaligi bor) **–** “G‘arib us-sig‘ar”, ***umr avositida voqe’ bo‘lg‘on bade’ nukotdur (***umr o‘rtasida paydo bo‘lgan chuqur ma’noli so‘zlar) **–** “Badoyi ul- vasat” kabilar bunga misol bo‘la oladi. Misollarni o‘rganish chog‘ida atoqli ot ifodasi bo‘lgan perifrazalar aksariyat holatda ta’riflanayotgan shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi va xarakter-xususiyatlari bilan tanishtirishga asoslanilganligi ayon bo‘ldi.

Turdosh ot shaklidagi perifrazalarni qo‘llashda ham bugungi kun uchun notanish bo‘lmagan hayotimizdagi kamchilik va yutuqlar, ma’lum kasb egalariga ta’rif berish kabi jihatlar e’tiborga olingan. Ya’ni ***fano tangnoyi*** (o‘tkinchi tor yo‘l) **–** tiriklik, ***baqo gulshani fazosi*** (abadiylik gulshanining maydoni) **–** o‘lim, ***nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari*** (she’riyat bog‘ining sayroqi qushlari) **–** shoirlar, ***amri azim*** (buyuk ish)***, insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari*** (insoniyat bog‘ining ko‘ngilga xush yoquvchi daraxti)***, odamiyliq konining arjumandroq gavhari (***odamiylik xazinasining qimmatli gavhari)***, tiriklikda yaxshi otdur, o‘lgandin so‘ng do‘zax azobidin –*** ehson, ***insoniyat bog‘ining borvar shajari*** (insoniyat bog‘ining mevali daraxti)***, kishvarining bahri mavjvari*** (mamlakatning to‘lqinlanuvchi dengizi)***, mavj bahrining samin gavhari*** (dengiz to‘lqinining qimmatli gavhari) **–** saxovat, ***yog‘insiz abri bahor va royihasiz mushki totor*** (bahordagi yomg‘irsiz bulut va hidsiz atir) **–** saxovatsiz kishi, ***inson vujudining favoqihlig‘ bog‘i*** (inson tanasining mevali bog‘i)***, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i*** (odamiylikning qimmatli tog‘i)***, do‘stlarining hikoyati va alar axloqining rivoyati afsonasi –*** hilm**,** ***foniydur bevafo*** (o‘tkinchi bevafo) **–** bu dunyo, ***boqiy hayot mujibi baqo*** (boqiy hayot sababchisi) **–** narigi dunyo, ***mulk badanining jonidur*** (mulk asosining egasi) **–** podshoh, ***yog‘insiz sahob*** (yomg‘irsiz bulut)***, amalsiz olim*** (o‘qiganlarini amalda bajarmaydigan olim) **–** xayrsiz g‘aniy**,** ***ma’rifat bog‘idin va vahdat rayohining esgan nasimi*** (ilm bog‘i rayhonidan esgan shamoli)***, ruhoniyat gulistonidin oshnoliq gullarining shamimi*** (ruh bog‘idagi yoqimli iforli gullari), ***husn malohatin idrok qilg‘uvchi*** (go‘zallikni anglaguvchi)***, ishq o‘ti yolinig‘a yoqilg‘uvchi*** (ishq o‘tida yonuvchi)***, xo‘blar husni tuzig‘a kaboblig‘ qilg‘uvchi*** (go‘zallar husnidan ozor chekkan)***, badan mulkining sultoni*** (tananing sultoni)***, jamol latofati ganjig‘a xaroblig‘ qilg‘uvchi*** (yuz go‘zalligi qimmatiga iztirob chekuvchi)-ko‘ngil, ***ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig‘a manba’*** (baxtlilarga jon baxsh etuvchi toza, zilol suv)***, ahli shaqovatlar nahs qavqabig‘a matla’*** (baxtsiz, yomon insonlar hayotida urush va kelishmovchiliklarni yuzaga keltiruvchi)***, nutqning olatidur*** (nutqning quroli)***, ko‘ngul maxzanining qulfi (***ko‘ngil xazinasining qulfi) **–** til, ***ko‘ngul maxzanining kaliti*** (ko‘ngil xazinasining kaliti) **–** so‘z, ***jodaedur tuz*** (to‘g‘ri yo‘l) **–** shariat, ***istig‘no sarmoyasidur*** (muhtoj bo‘lmaslikning asosi)***, sharaf va izzat piroyasidur*** (ulug‘lik va izzat bezagi) **–** qanoat, ***umr gulshanining bahoridur*** (hayot bog‘ining bahori)***, hayot shabistonining nahori*** (hayotning yorug‘ kunlari **–** yigitlik, ***shabob mayining maxmurlug‘i*** (yoshlik sharobidan sarmast)***, yigitlik sihhatining ranjurlig‘i*** (yigitlik salomatligidan bebahra) **–** qarilik, ***solikning atvoriga andom berguvchi*** (tasavvuf peshvosini paydo qiluvchi)***, ko‘ngulning har sari havo qilurig‘a orom berguvchi*** (ko‘ngil parvoziga rohat baxsh etuvchi), ***musofirni manozillardin boxabar qilg‘uvchi*** (musofirni manzillardan xabardor qiluvchi)***, marohilg‘a rahbar qilg‘uchi*** (manzillarga rahbarlik qiluvchi)***, issiq-sovuqdin jong‘a intiboh berguvchi*** (insonni issiq-sovuqdan ogoh etuvchi), ***achchig‘-chuchukdin ko‘ngulni ogoh qilg‘uvchi –*** safar, ***shu’lalig‘ charog‘*** *(nurli chiroq),* ***suvluq bulog‘*** (yoshli ko‘z), ***hikmat sarmoyasidur*** (donishmandlik asosi **–** ochlik, ***g‘aflat piroyasidur*** (e’tiborsizlikni yuzaga keltiruvchi) **–** to‘qlik, ***tengri do‘stlari –*** rostgo‘ylar**,** ***tengri dushmani-***yolg‘onchilar kabilar shular jumlasidandir.

Manbalarni o‘rganish chog‘ida sifat so‘z turkumini ifodalovchi birgina ***unutquvchi va taammul va ehtiyot yo‘lidin kanora tutquvchi*** (unutuvchi va mulohaza yurituvchi va ehtiyotlik choralarini ko‘rib o‘zini chetga oluvchi) – yolg‘onchi ma’nosi ifoda etilgan perifrazaning mavjudligi aniqlandi. Bunda sifatning asliy sifatning oddiy darajasi ifoda etilgan bo‘lib, bu perifraza qo‘shma gap qolipida hosil qilingan. Bu so‘z turkumini ifoda etuvchi perifrazaik birliklar Alisher Navoiy nasrida boshqa uchramadi.

Bugungi kun leksik manbalarida aynan ot turkumli perifrazalarning qo‘llanilish darajasi anchayin yuqori foizni tashkil etadi. Yana shuni ham ta’kidlash joizki o‘rganilgan manbalardagi ma’lumot va misollardan tilshunoslikda fe’l turkumi ifodasi bo‘lgan perifrazalar mavjud emasligi va nutqimizda ham qo‘llanilmasligi ma’lum bo‘ladi. Fe’l turkumiga mansub bo‘lgan turg‘un birikmalar ibora, evfemizm, disfemizm kabi til hodisalari doirasi uchungina xos bo‘lishi mumkin.

Ot. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, mustaqil so‘z turkumlaridan hisoblangan ot turkumi doirasida hosil qilingan perifrazalarning salmog‘i anchaginani tashkil qilganligi sababli ot turkumiga tegishli bo‘lgan deyarli barcha kategoriyalar birikma hamda gap qolipidagi perifrazalarning shakllantirilishi uchun faol ishtirok etgan. Ot so‘z turkumiga tegishli grammatik kategoriyalarning boshqa XV asr hamda zamonaviy til hodisasiga oid bo‘lgan variantlarini qo‘llanilganligini

kuzatish mumkin. Bu holatni misollar asosida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Til hodisalarining morfologik xususiyatlari tadqiqi tarkibiga grammatik vositalar hamda ularning qo‘llanishi kabi jihatlar ham qamrab olinadi. Ya’ni so‘z yasalishi, so‘z o‘zgarishi va sintaktik aloqani ta’minlovchi vositalar ham morfologiyaning o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.

“O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”da otlarda egalik shakllarining yasalishi va egalik munosabatlarining ifodalanish usullari bo‘yicha eski o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili o‘rtasida deyarli farq qilmasligi ta’kidlanadi[1]. Masalan, *tasavvuf va diqqat mushkilotining girihkushoyi* (Shayx Zahiruddin Sanoiy); Kotib *shuaro so‘zining varaqnigoridur* va *so‘z maxzanining xazonadori; nazm beshasining g‘azanfari* va *dardu ishq otashkadasining samandari* va *zavqu hol vodisining pokravi* Amir Xusrav Dehlaviydurkim[2]; Yigitlik *umr gulshanining bahoridur va hayot shabistonining nahori*; *Tengri do‘stlari* sidqu safo ma’danidur. Yolg‘onchini debdurlarki, *tengri dushmanidur*. Yuqorida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan perifrazalarda III shaxs birlik shakli bugungi kun kabi *-i* va *-si* shakllarida qo‘llanilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Alisher Navoiy tomonidan berilgan ta’rif va izohlar III shaxs birlik sonning ifodasi bo‘lganligi sababli egalikning faqat shu shakli perifrazalar birikuvi uchun xizmat qilgan. O‘rganish chog‘ida egalikning boshqa shakllari mavjud emasligi aniqlandi.

Turkiy tillarda “kelishik” deb shartli ravishda so‘zlarning gapdagi sintaktik munosabatlarni ifoda qiluvchi ot yoki otlashgan so‘zning affiksal formasiga aytiladi. Yordamchi so‘zlar bilan ifodalanadigan sintaktik munosabatlar odatda kelishik kategoriyasiga kiritilmaydi[3].

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo‘llanilgan perifrazalarning birikuvida barcha kelishik shakllari faol ishtirok etgan. Bu shakllarning qadimgi va hozirgi kundagi qo‘llanish variantlarida uchratish mumkin.

Bosh kelishik shakli. Bu shaklning ishlatilishi bugungi kun me’yori bilan bir xillikni tashkil etadi. Yana bir *amri azim* ehsondurkim, aning bayonida ko‘p so‘z ayondur[4]. Xayrsiz g‘aniy-*yog‘insiz sahob* va *amalsiz olim*-dobbaki anga yuklagaylar kitob[5].

Qaratqich kelishigi shakli. Bu kelishikning qo‘llanilish shakli va ma’nosi jihatiga ko‘ra voqea-hodisaga egalikni, butunning qismi, o‘rin-paytga mansublik, abstrakt egalik, to‘dadan ajratib ko‘rsatish kabi ma’nolari ajratiladi[6]. Bundan tashqari manbalarda uning ko‘pdan biror bo‘lagini ajratish, ish-harakatning sub’ektini, qaralmish anglatgan holat, ish-harakat qaratqich bildirgan predmetga yo‘nalganligini, qaratqich anglatgan predmet yoki harakat qaralmish anglatgan harakatga manba ekanligini, *haqidagi, xususidagi* kabi ko‘makchi so‘zlar anglatgan ma’noni, qaratqich bildirgan predmetning qaralmishga o‘xshashligini[7] Alisher Navoiy asarlarida esa uning faqat quyidagi shakllari qo‘llanilganligining guvohi bo‘ldik. Ya’ni konkret xoslik: Podshoh-mulk badanining jonidur va ko‘ngul-*badan mulkining sultoni*[8]; Til muncha sharaf bila *nutqning olatidur* va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur[9]; Yigitlik *umr gulshaninng bahoridur* va hayot shabistonining nahori[10]; *Chamanning ruxsori* Yusuf ishqida Zulayxo uzoridek kohiy va xazon yeli ham aning damodam sovug‘ ohi kibi nomutanohiy bo‘ldi[11]. To‘dadan ajratib ko‘rsatish: Ul jumladin budurkim, orifi komil va murshidi mukammal mavlono Faxriddin Luristoniyki, *o‘z zamoninng yagonasi* va haqiqat bahrining gavhari yakdonasi erkandur – Jom viloyatida alarning otalari uyiga tushgandur[12]; Alar “Xiradnomai Iskandariy”dakim, “*Haft avrang”ning yettinchi daftaridur*[13], kitob xatmi dostonin chun surubturlar. Yuqorida keltirilgan misollarda qaratqich kelishigining belgili qo‘llanilgan shakli bo‘lib, belgisiz shaklda ham perifrazalar hosil qilishda faol qo‘llanilgan. Ya’ni o‘rin-payt ma’nosi ifodasida: bu fano tangnoyidin *baqo gulshani fazosi*g‘a xirom ko‘rguzdi va ul Hazratning Pahlavon bila benihoyat iltifotlari va bexaddu g‘oyat maxsus muloyamat va holatlari bor erdi[14]. Obstrakt egalik ma’nosida: Ochlig‘ *hikmat sarmoyasidur*[15] va to‘qlug‘ g‘aflat

[1] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 31.

[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 22.

[3] Ғ. Абдураҳмонов, А. Рустамов. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, - 1984. – Б. 51.

[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан,1998. – Б. 76.

[5] Ўша манба. - Б. 90

[6] Омонтурдиева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал стилистик тадқиқи: Фил. фан.номз. дисс...– Самарканд, 2020. – Б. 124; Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 40.

[7] Ғ. Абдураҳмонов, А. Рустамов. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 60.

[8] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 87.

[9] Ўша манба. – Б. 94.

[10] Ўша манба. – Б. 118.

[11] Ўша манба. – Б. 141.

[12] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин. – Тошкент: Фан,1999. – Б.6.

[13] Ўша манба. – Б.79.

[14] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. “Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад”. – Тошкент: Фан,1999. – Б. 148.

[15] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 128.

piroyasidur. *Tengri do‘stlari* sidq-u safo madanidur. Yolg‘onchini debdurlarki, *tengri dushmanidur*[1].

Qaratqich kelishigi eski o‘zbek tilida -ning, -nung, -ing, -ung kabi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin[2]. Alisher Navoiyning nasridagi perifrazalarda ularning faqatgina -ning shakli qo‘llanilgan. Buni misollardan ko‘rishimiz mumkin. *Shabob mayi**ning** maxmurlug‘i*[3] qariliq va *yigitlik sihhati**ning** ranjurlig‘i* qariliq; *Soli**k**ning atvoriga andom berguvchi*[4] safar, ko‘ngulning har sari havo qilurig‘a orom berguvchi safar; *Odamiyliq kishvari**ning** bahri mavjvari*[5], balki ul mavj bahrining samin gavhari. Qaratqich affiksi qo‘shilgan so‘z qaratqich deyiladi, qaratqich aniqlab kelayotgan so‘z qaralmish deyiladi. Tojikcha va arabcha izofalarda esa qaratqich affiksi qaratqichga emas, qaralmishga qo‘shiladi[6]. Ishq ko‘xistoni bedodining noshodlaridin biri Farhoddur va *sahroy**i** junun zabunlaridin biri* Majnundur[7].

Tushum kelishigi shakli. Tushum kelishigi affiksi qo‘shilgan so‘z ish-harakatning vositasiz ob’ekti bo‘lgan aniq predmetni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, tushum kelishigidagi ot aniq holatda bo‘lib, gapda vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Bu kelishik *-ni* shakli orqali hosil qilingan[8]. Ya’ni *achchig‘-chuchukdin ko‘ngul**ni** ogoh qilg‘uvchi* ul[9]. Barcha davrlar uchun xos bo‘lgan bu shaklning Navoiy asarlaridagi perifrazalar tarkibida *-n* ko‘rinishda ham qo‘llanilganligi misollar tahlilida aniqlandi. Ya’ni h*usn malohati**n** idrok qilg‘uvchi*[10] ham ko‘ngul va ishq o‘ti yolinig‘a yoqilg‘uvchi ham ko‘ngul.

Jo‘nalish kelish shakli. Eski o‘zbek tilida jo‘nalish kelishigining *-qa, -g‘a, -ka, -ga, -a* kabi shakllarda qo‘llanilgan bo‘lib[11], o‘rganilayotgan manbalarda uning *-ga* va *-g‘a* shakllari ishtirok etgan. Alisher Navoiy asarlarida qaratqich kelishigi shakli kabi jo‘nalish kelishigining predmetga yo‘nalganlik, kimsa yoki predmetning sub’ekt harakatiga ob’ekt ekanligini bildirish, sub’ekt harakatining bevosita ob’ekti yo‘nalgan nuqtani bildirish, makon ma’nosini bildirish, mansublik, egalik, qaramlilikni bildirish, maqsad ma’nosida[12] qo‘llanilgan o‘rinlari mavjud bo‘lib, shoir nasrida uning faqat sub’ekt harakatiga ob’ekt ekanligi: *Solikning atvori**ga** andom berguvchi* safar, *ko‘ngulning har sari havo qiluri**g‘a** orom berguvchi*[13] safar; makon ma’nosi: Husn malohatin idrok qilg‘uvchi ham ko‘ngul va *ishq o‘ti yolini**g‘a** yoqilg‘uvchi*[14] ham ko‘ngul kabi ma’nolarni ifodalash maqsadida ishlatilganligi aniqlandi.

O‘rin–payt kelishigi shakli. Bu kelishik asrlar davomida *-da, -ta* shakllarida amalda bo‘lgan. Bu holat Navoiy asarlarida *-da* variantda uchraydi. Ehson *tiriklik**da** yaxshi otdur*, o‘lgandin so‘ng do‘zax azobidin najot[15]; Va she’r va muammo va musiqiyki, suhbatning mujibi nishot va inbisotidur, chun Pahlavonning borchada vuqufu daxlu tasarrufi zohir, balkim ul *funun**da** ahli fandek mohir* erdi – suhbatning yuzi Pahlavong‘a evrulur erdi.

Chiqish kelishigi shakli. Eski o‘zbek tili manbalarida bu kelishikning *-din, -tin, -dan, -tan, -dun, -tun* kabi shakllari mavjudligi aytiladi. Chiqish kelishigining *-din* unli va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga, *-tin* esa jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilgan. Biroq yozuvda, ko‘pincha, *-tin* o‘rnida ham *-din* yoziladi. Navoiy nasriy asarlaridagi perifrazalar tarkibida ham uning faqat *-din* shakli qo‘llanilgan. Alisher Navoiyning asarlarida harakat o‘rnini, chiqish kelishigidagi so‘z biror predmetning yasalishi, vujudga kelishi uchun material bo‘lgan predmetni, vosita, qiyoslash, chegara, sabab, ob’ekt, tegishlilik kabilarni ifodalash ma’nolarida qo‘llanilgan bo‘lib, shoirning nasriy asarlarida qo‘llaniluvchi perifrazalarda uning tegishlilik: *Ishq ko‘histoni bedodining noshodlari**din** biri* Farhoddur va *sahroyi junun zabunlari**din** biri* Majnundur[16]; ob’ekt ma’nosidagi: Va bu toifani vosillar debdurlar, *ishq**din** vasl maqsudi hosillar*[17] kabi shakllari mavjudligi aniqlandi.

Vosita kelishigi shakli *“Navoiy t*ilining *grammatik xususiyatlari” nomli asarda* O‘rxun yozuvi yodgorliklarida, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida va X-XIII asrlarga oid boshqa yodnomalarda ko‘p

[1] Ўша манба. – Б. 129.

[2] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент:Ўқитувчи, 1973. – Б. 36.

[3] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 119.

[4] Ўша манба. – Б. 122.

[5] Ўша манба. – Б. 78.

[6] Ғ. Абдураҳмонов, А. Рустамов. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 56.

[7] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд.Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 65.

[8] Ғ. Абдураҳмонов, А. Рустамов. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, - 1984. – Б. 61.

[9] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд.Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 123.

[10] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд.Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 93.

[11] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 44.

[12] Ўша манба. – Б. 63.

[13] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан,1998. – Б. 122.

[14] Ўша манба. – Б. 93.

[15] Ўша манба. – Б.113.

[16] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.14-жилд. Маҳбуб ул - қулуб. – Тошкент: Фан,1998. – Б. 65.

[17] Ўша манба. – Б. 69.

uchraydigan vosita kelishigi Navoiy tilida ishlatilmaydi. Navoiy asarlarida vosita kelishigi o‘rnida asosan o‘rin-payt kelishigi hamda birla ko‘makchisi va uning variantlari ishlatilganligi haqidagi ma’lumotlar keltirilsa-da[1] “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” asarida eski o‘zbek tilida asosan oltita kelishik: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi mavjud bo‘lgan. Eski o‘zbek tili taraqqiyotining oldingi davrlarida yettinchi kelishik-vosita kelishigi ham ajratilganligi hamda vosita kelishigi formasi *-n* (undoshdan keyin: *-ын/-ин/-ун/-үн*) affiksi bilan hosil qilinganligi ta’kidlanadi[2]. Yuqorida keltirilgan ikki xil qarash va Alisher Navoiyning nasriy asarlarida qo‘llanilgan perifrazalar misoli asosida shoir asarida perifrazalar birikuvida qurol-vosita kelishigi ham qo‘llanilgan degan xulosaga kelish mumkin. Qadimgi turkiy til manbalarida *-n* qo‘shimchasi orqali hosil qilingan bo‘lib, hozirgi davr tilshunosligida *bilan* ko‘makchisi orqali ifodalanib, qadimda uning harakatning bajarilish vositasi, birgaligi, payti, o‘rni, usuli kabi ma’nolari farqlangan. Bu shakl Alisher Navoiy nasrida qo‘llanilgan perifrazalarni hosil qilishda eski o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan *bila* ko‘makchisi bilan ifodalangan. Ya’ni tolibi ilmlar orasida Nohiqiykim, ani *dev **bila** (birgalik ma’nosida), shayotindin mutavallad bo‘lg‘on o‘g‘ul* desa bo‘lur[3]; Va Mavlono Sog‘ariy *o‘z she’rin bag‘oyat ehtimom yuzidin karru far **bila** (usul ma’nosida) o‘qug‘uvchi* erdi[4].

Otlardagi son kategoriyasi shakli perifrazalarni hosil qilish chog‘ida maxsus qo‘shimcha *-lar* hamda arab tili uchun xos bo‘lgan qolip asosida shakllantirilgan. Ya’ni “Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig‘a manba’ ham til, *ahli shaqovat**lar** nahs qavqabig‘a matla’* ham til; Alar amrining itoati chun vojib erdi – faqir dog‘i avvalg‘i devong‘akim, tufuliyatda rangin nazmning g‘arobati bor – “G‘aroib us-sig‘ar”ot qo‘ydum va ikkinchi devonkim, shabob ayyomidakim, ***maoniy** (ma’nolar) nodiralari nazm silki*ga kiribtur; Mavlono Abulvose’ki, *base **fazoili** (fazilatlar) hamida bila orostadur; hazrati shayxul-mashoyix olimil-murshidi **tavoifil*** (*guruhlar, toifalar, qabilalar*)- umam shayx zaynul-millati vad-din al-Xavofiy” kabilar shular jumlasidandir. Eski o‘zbek tilida ham son kategoriyasini hosil qilishda bugungi kun o‘zbek tilida kuzatilgani kabi *-lar* affiksi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Son. Alisher Navoiy nasridagi perifrazalar shakllanishida son turkumi uchun xos bo‘lgan birliklar anchayin kam sonli bo‘lib, sonning ma’no turlari ichida sanoq son tizimiga kiruvchi *bir* hamda *yetti* kabilarning ishlatilganligi aniqlandi. “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni hisoblangan Farhodga nisbatan qo‘llanilgan *ishq ko‘xistoni bedodining noshodlaridin **biri***; *ishq tog‘i zulmining g‘amnoklaridan **biri***; Majnunga ta’rif sifatida tuzilgan *sahroyi junun zabunlaridin **biri*** kabi prifrazalar egalik shaklini olgan holda to‘pdan ajratish ma’nosi ifodasi sifatida qo‘llanilgan. Shu bilan bir qatorda son so‘z turkumi doirasida o‘rganiluvchi hisob so‘zlar ham perifrazani hosil qilishda vosita vazifasini o‘tagan. ***Bir qatla** faqir alarning qadimiy devonin* Mavlono Abdussamadg‘akim *zamonning xushnavislaridindur* va xush tab’ ham bor, buyurub erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi; alar “Haft avrang”din — ham *har lafzi yetti iqlimg‘a sarmoya va har harfi **yetti** kavkabg‘a piroyadur;*

-nchi va -inchi affiksi orqali hosil qilinadigan tartib son shakli: “Alar “Xiradnomai Iskandariy”dakim, *“Haft avrang”ning **yettinchi** daftaridur*, kitob xatmi dostonin chun surubturlar” gapi tarkibidagi perifraza hosil qilishda ishtirok etgan.

Olmosh. Navoiy nasridagi perifrazalarni hosil qilishda olmosh va uning ma’no turlariga oid quyidagi so‘zlar asos bo‘lganligini qayd etildi.

Perifrazalarni hosil qilishda **kishilik olmoshi**ning III shaxs eski o‘zbek tilidagi ko‘plik shakli hisoblangan *“alar”* qo‘llanilgan. *Tengri do‘stlarining hikoyati va **alar** axloqining rivoyati afsonasi*durkim, uyug‘on ko‘nglumni uyg‘otur va taronaedurkim, xiralig‘idin qotgan ko‘zni yig‘latur.

Ko‘rsatish olmoshining eski o‘zbek tilida *bu, ul (u), ushbu, oshul, oshal, shul* kabi variantlari mavjud bo‘lib[5], Navoiy nasriy asarlaridagi perifrazalarda uning *ul* hamda *ushbu* variantlari qo‘llanilgan. “Chun bu muxtasarda mazkur bo‘lg‘on jamoatning ra’s va raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo‘lg‘on *guruhning muqtado va peshvosi **ul** gavhari yaktodur*; Bani odam ashrof va havossi xilvatlarida, xususan, va ahli olam soyir avomi anjumanlarida, umuman, tasavvur va *anoniyat umuriniig xudroyi va **ujbu** nafsoniyat olamining dashtpaymoyi* Alisher al mutaxallis bin–Navoiy” jumlasida keltirilgani kabi Navoiy nasrida ko‘rsatish olmoshining *ul* hamda *ushbu* shakllari ishtirok etgan, xolos.

Eski o‘zbek tili va xususan Alisher Navoiy nasridagi perifrazalarda **o‘zlik olmoshi**ning *o‘z* shakli faol ishlatilgan bo‘lib, “Ul jumladin budurkim, orifi komil va murshidi mukammal mavlono Faxriddin Luristoniyki, ***o‘z** zamonining yagonasi va haqiqat bahrining gavhari yakdonasi* erkandur”; “Va Mavlono Sog‘ariy ***o‘z** she’rin bag‘oyat ehtimom yuzidin karru far bila o‘qug‘uvchi* erdi”; “*Hirot xalqining **o‘z** tavrida yagona-*

[1] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б.51.

[2] Ўша манба. – Б. 35.

[3] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 94.

[4] Ўша манба. – Б.19.

[5] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 95.

si va nodirasi erdi” kabi jumlalar bunga misol bo‘la oladi. Manbalarda o‘zlik olmoshining XV asrgacha bo‘lgan davrda *kendu* shakli ham qo‘llanilganligi aytiladi[1].

Barcha, bari, hama, jam’e kabi shakllar orqali ifoda etiladigan **birgalik olmoshi**ning Alisher Navoiy tomonidan qo‘llanilgan perifrazalarda faqatgina *hama* shakli qo‘llanilgan. “Dar ta’rixi sanai ehdo va samonina va samona mia muhibbi darveshon va mo‘taqidi eshon, *az **hama** shug‘l ser va bar faqr dale*r Amir Nizomiddin”.

Navoiyning nasriy asarlarida shakllantirilgan perifrazalar tarkibida olmoshning gumon, belgilash, so‘roq olmoshi kabi turlari ishtirok etmaganligi o‘rganish chog‘ida ma’lum bo‘ldi.

So‘z turkumlari ichida grammatik kategoriyaga boyligi jihatidan yuqori o‘rinda turuvchi **fe’l** turkumi doimiy faol qo‘llanilgan.

Eski o‘zbek tilida fe’lning **sifatdosh** shakli ba’zan *-vchi* affiksi bilan yasaluvchi shakl o‘rnida *-guvchi* affiksi yordamida yasaluvchi shaklining qo‘llanishi uchraydi. Lekin u eskirgan shakl hisoblanadi. Umuman, *-vchi* affiksi yordamida yasaladigan shakl hozirgi o‘zbek tilida kam qo‘llanadi[2]. Bu affikslar Navoiy asarlari tilida qo‘llanilgan bo‘lib, bu qo‘shimchaning mazmuni bugungi kunda *-adigan, -ydigan* kabi kelasi zamon ma’nosini hosil qiladigan shakllari orqali ifodalanadi. Ya’ni *o‘z she’rin bag‘oyat ehtimom yuzidin karru far bila o‘qu**g‘uvchi***; *achchig‘-chuchukdin ko‘ngulni ogoh qil**g‘uvchi**; Solikning atvoriga andom ber**guvchi**; Musofirni manozillardin boxabar qil**g‘uvchi**; marohilg‘a rahbar qil**g‘uchi**; tasavvufda noziklik va mushkullik chigalini yech**uvchi** faridi ahli yaqin; unut**quvchi** va taammul va ehtiyot yo‘lidin kanora tut**quvchi.***

Hozirgi adabiy tilimizda faqat *-gan* tarzida uchrovchi affiks o‘zakdagi til orqa qattiq unlilarning ta’sirida ularga moslashib, *-g‘on* va *-on* tarzida qo‘llangan. Bunday misollar Alisher Navoiy asarlari tilida tez-tez uchrab turadi va ular singarmonizm qonuni Alisher Navoiy asarlari tilida haqiqatan ham kuchli bo‘lganligini ko‘rsatadi[3]. Ya’ni cifatdosh *-gan* shaklining variant bo‘lgan *-g‘on* shakli orqali ham sifatdoshning o‘tgan zamon shakli hosil qilingan: *dev bila shayotindin mutavallad bo‘l**g‘on** o‘g‘ul* kabilar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy asarlari tilini bir oz sinchiklab ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda deyarli hamma affikslarning yumshoq va qattiq (til oldi va til orqa unlilar ishtirokida aytiluvchi) variantlari mavjud ekanligini ko‘ramiz. Bular *-g‘on* va *-gan, -roq* va *-rak, -гыл* va *-gil, -g‘och* va *-gach, -g‘a* va *-ga, -qa* va *-ka, -g‘ay* va *-gay, -dok* va *-dek, -moq* va *-mak* va boshqa juda ko‘p shunga o‘xshashlardir[4]. Yuqorida shoirning nasriy asarlarida qo‘llanilgan perifrazalar misolida aynan shu holatning guvohi bo‘ldik.

Manbalarni o‘rganish chog‘ida harakat nomi va ravishdoshga oid shakllar perifrazalar tarkibida mavjud emasligini aniqlandik.

Alisher Navoiy arab va fors tillaridan lug‘aviy unsurlarnigina emas, balki fors tilidagi gap qurilishi qolipini hamda arab tilidagi tayyor so‘z birikmalarini ham o‘zlashtirgan. Bir qator gaplarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qolipi bilan fors tilidan qabul qilgan[5]. Yozuvchining nasriy asarlarida shakllantirilgan perifrazalarning yuzaga kelishida yordamchi so‘z turkumlaridan bog‘lovchining *va* turi hamda ko‘makchining *bilan* shakli faol qo‘llanilgan. *Va* biriktiruv bog‘lovchisi: *tariqat elining muqtado **va** imomi; sharif xaylining mujtahid va shayx ul-islomi; Nur ul-haq **va**d-din; kahf ul-islom **va** muslimiyna shayxuno; orifi komil **va** murshidi mukammal; o‘z zamonining yagonasi **va** haqiqat bahrining gavhari yakdonasi; hazrati qutbi tariqat va g‘avsi haqiqat; xushovozliqda Zuhraning otasi **va** xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi; hazrati irshodpanoh **va** valoyati dastgoh halloli mushkiloti majoniy; samonina **va** samona mia muhibbi darveshon; az himai shug‘l ser **va** bar faqr daler. Bilan* ko‘makchisining *bila* shakli biriktiruv bog‘lovchisi vazifasida ham qo‘llangan: *dev **bila**, shayotindin mutavallad bo‘lg‘on o‘g‘ul.*

Eng ko‘p qo‘llaniluvchi ko‘makchi *bilan* hisoblanadi. Tarixiy-diniy matnlarda uning *birla, ila* kabi shakllari keng iste’molda bo‘lgan. Ko‘makchilar stilistikasi haqida E.Qilichev shunday fikrlarni bildirgan: “Ayrim ko‘makchilar ikki va undan ortiq uslubiy paradigmani hosil qiladi. Bir paradigmadagi ko‘makchilar turli uslubiy bo‘yoqlariga ko‘ra farqlanadi: *bilan-birlan* (arxaik),*-birla* (kitobiy), *-bila* (dialektal); *uchun -chun* (so‘zlashuv) ; *kabi-singari-yanglig‘* (arxaik); *boshqa-tashqari-o‘zga* (kitobiy); *beri-buyon* (so‘zlashuv); *bo‘ylab-o‘zra* (arxaik). Ko‘makchilardagi bunday xususiyat nutqni rang-barang qiladi, hissiy ta’sirchanlikni oshiradi”[6]. Bu shakldagi ko‘makchi Navoiy nasriy asarlari perifrazarida ham uchraydi: *o‘z she’rin bag‘oyat ehtimom yuzidin karru far **bila** o‘qug‘uvchi; base fazoili hamida **bila** orostadur[7].*

[1] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 101.

[2] Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 514.

[3] Дониёров Ҳ. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1972. – Б. 32.

[4] Ўша манба. – Б. 33.

[5] Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчисининг синтактик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2012. – Б. 24.

[6] Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.78.

[7] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.15-жилд. Хамсат ул-мутаҳаййирин. – Тошкент: Фан,1999. – Б.95.

Ot ko‘makchilar ot yoki ravishdan ko‘makchiga siljigan ot ko‘makchi sirasiga kiruvchi *burun* ko‘makchisi ham matnda bir o‘rinda qo‘llanilgan: “…bu *faqirg‘a eldin* ***burun*** *ko‘rguzgonlarining sharhi* va faqir “Hayrat ul-abror”ning nazm qilur taqribi bu dostonda mazkur bo‘lubtur, o‘qug‘on ma’lum qilur”.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari tilini o‘rganish davomida perifrazalarni hosil qiluvchi birliklar ichida o‘zbek tili morfologik tarkibining barcha shakllari va bu shakllarga xos bo‘lgan kategoriyalarning o‘ziga xos tarzda qo‘llanilganligi aniqlandi.

Resume: in this article, a morphological analysis of the periphrases used in the prose works of Alisher Navoi is carried out, and the presented theoretical information is based on the scholar’s “Mahbub ul Qulub”, “Holoti Pahlavan Muhammad”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavan Muhammad”, proved on the basis of paraphrases taken for analysis from works such as “Munshaot”.

Резюме: в данной статье проведен морфологический анализ перифраз, использованных в прозаических произведениях Алишера Навои, а изложенные теоретические сведения основаны на трудах ученого “Махбуб уль-Кулуб”, “Холоти Пахлаван Мухаммад”, “Холоти Сайид Хасан”. Ардашер”, “Холоти Пахлаван Мухаммад”, доказано на основе парафразов, взятых для анализа из таких произведений, как “Муншаот”.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FANDA ERGONIMLARNING O‘RGANILISHI XUSUSIDA

Kultayeva Fazilat,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Tilshunoslikda *ergonim* atamasi birinchi marta 1978-yil N.V.Podolskayaning ”Rus onomastik terminologiyasi” lug‘atida taklif qilindi[1]. N.V.Podolskayaning ta’kidlashicha, ergonim termini yunoncha *eryov* – “ish, mehnat; faoliyat, vazifa” so‘zidan olingan bo‘lib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan qo‘llaniladi. Olim *Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)*, *Xalqaro astronomik ittifoq (XAI)*, *Fanlar akademiyasi (FA)*, *Moskva davlat universiteti (MDU)*, Kichik teatr, *“Pravda”* kombinati, *“Spartak”* sport uyushmasi, *“Moguchaya kuchka”* musiqa to‘garaklarini ergonimlarga misol sifatida sanab o‘tadi[2].

Ergonim atamasining talqinini va uning onomastik terminologik tizimidagi o‘rnini o‘rganish uchun N.V.Vasilyeva[3], M.K.Garvalik[4], A.K.Matveev[5], N.V.Podolskaya[6], V.I.Suprun[7], E.A.Xamaeva[8]larning ishlariga murojaat qilamiz. Rus tilshunosligida ergonimlarni o‘rganishga strukturaviy-semantik yon-

[1] Подольская, Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – Москва: Наука, 1978.

[2] Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. –187 с.

[3] Васильева Н. В. О координировании ономастической терминологии // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. 2014. № 2-1. С. 373–377.

[4] Гарвалик М. К вопросу о современной ономастической терминологии // Вопросы ономастики. 2007. № 4. – С. 5–13.

[5] Матвеев А. К. Ономастика и ономатология: терминологический этюд // Вопросы ономастики. 2005. № 2. – С. 5–10.

[6] Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / отв. ред. А. В. Суперанская. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.

[7] Супрун В. И. Размышления над ономастической терминологией // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2011. № 8. – С. 133–138.

[8] Хамаева Е. А. О современном состоянии ономастической терминологии в китайской и русской лингвистиках // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. 2009. № 4. – С. 148–152.

dashuv T.N.Aliyeva[1], F.F.Alistanova[2], I.V.Kryukova[3], T.P.Romanova[4], Z.T.Tanaeva[5] ishlarida keltirilgan. Ergonimlarning leksikologik tasnifi F.F.Alistanova[6], A.M.Yemelyanova[7], N.V.Nosenko[8] ishlarida berilgan. Imlo aspektidagi ergonimlarni M.Y.Kryuchkova o‘rganadi[9]. Semantika va pragmatikani M.G.Qurbonova[10], N.V.Nosenko, E.A.Trifonova[11], N.V.Shimkevich[12] o‘rganadilar.

Rus tilshunosligida “Ergonim” atamasining bir qancha variantlari mavjud. D.A.Yalovets-Konovalova “tijorat korxonasi nomi”, V.A.Korshunov va T.K.Nikolayeva “firmino” deb nomlaganlar. D.A.Yalovets-Konovalova ergonimlarni “jamoat birlashmalarining belgisi” desa, S.V.Zemskova ergonimiyani “mintaqaning sanoat va iqtisodiy obyektlari nomlari majmui” deya ta’riflagan. Keltirilgan ishlardagi *“ergonim”*, “*ergonimiya*”, “*ergonimika*”, “*ergonimikon*” atamalarini batafsil o‘rganib chiqish bu tushunchalar o‘rtasidagi farqni taqozo qiluvchi bir qator nomuvofiqliklarni ko‘rsatdi. M.Zaxarova-Sarovskaya onomastika va onomatologiya kabi atamalarni qo‘llashdagi chalkashliklarga barham bergan A.K.Matveyevdan keyin “ergonimiya” va “ergonimika” atamalariga aniqlik kiritishga to‘xtalib o‘tadi va tadqiqotlarda *ergonimika, ergonimiya, ergonimikon* terminlarining qo‘llanishida har xilliklar mavjudligini ta’kidlaydi. U ergonimlarni o‘rganuvchi fan ergonimiya deb atalishini, ergonimika terminini esa ilmiy-tadqiqot ishlarida turli jihatlarda o‘rganilgan aniq nomlarga nisbatan qo‘llash mantiqan to‘g‘ri bo‘lishini, ergonimikon deyilganda ergonimlar, ya’ni konkret obyektlarni nomlovchi birliklar tizimini tushunish kerakligini ta’kidlaydi[13].

O‘zbek tilshunosligida sobiq sho‘ro davrida ergonimlarni o‘rganishga e’tibor berilmagan. Muassasa, tashkilot, kompaniya va korxonalarni belgilash uchun faqat faoliyat turiga tegishli bo‘lgan tipik nomlar ishlatilgan: *“Apteka”*, *“Gastronom”*, *“Novvoyxona”, “Sartaroshxona”* va boshqalar. Raqamlashdan tashkilotlarni aniqlash uchun foydalanilgan.

XX asrning 90-yillarida mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida til sathida ham o‘zgarishlarga olib keldi. Bu jarayonda iqtisodiyotning rivojlanishi turli tashkilot-korxonalarning ochilishiga sabab bo‘ldi. Ularning barchasi uchun nafaqat faoliyat turini ifodalaydigan, balki boshqa jihatlarni, shu jumladan, axborot va reklama funksiyalarini bajaradigan hamda mijozlar e’tiborini jalb qiladigan individual nomlar zarur edi. Bu o‘zgarishlar biznes obyektlarini nomlash jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab qilardi: uning mavjudligi, bozor tizimida raqobatbardoshligi va muvaffaqiyati obyekt nomiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligi anglashildi. Keyingi vaqtlarda bu masalaga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar e’lon qilindi. Jumladan, F.Ashurova yangi mahsulotlar va kompaniya uchun nom topishning to‘rt qadamini ko‘rsatgan[14]:

Taxminiy nomlash. Bosqich mohiyati: tadbirkorlik faoliyatingiz yoki siz ishlaydigan bozor bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzib chiqish. Buning uchun so‘zlarni izlash yo‘nalishini belgilab olish darkor. Taxminiy yo‘nalishlar:

– kompaniya asoschilari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar – masalan, asoschilarning ismi sharifi;

– tovar yoki xizmatdan foydalanish natijasi bilan bog‘liq so‘zlar: go‘zallik, salomatlik, to‘yish, quvonch, bolalar kulgusi va hokazo;

– tovar yoki xizmatning xususiyatlari bilan bog‘liq asosiy so‘zlar: samarali, xavfsiz, tezkor natija va boshqalar;

– raqobatchilar bilan solishtirganda tovarin-

[1] Алиева Т. Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX– XXI веков: семантико-деривационный аспект: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Спб., 2003. – 34 с.

[2] Алистанова Ф. Ф. Особенности образования современных эргонимов лексико-синтаксическим способом и аббревиацией // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. № 5-1. – С. 56–58.

[3] Крюкова И. В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: дис. … д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004. – 360 с.

[4] Романова Т. П. Система способов словообразования рекламных собственных имен // Вестник Самарского государственного университета. 2007. № 5/2. – С. 203–214.

[5] Танаева З. Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2012. – 22 с.

[6] Алистанова Ф. Ф. Обновленная лексикологическая классификация эргонимов-неологизмов // Мир науки, культуры, образования. 2015. № 4. – С. 265–268.

[7] Емельянова А. М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дис. … канд. филол. наук. – Уфа, 2007. – 170 с.

[8] Носенко Н. В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дис. … канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – 218 с. 190 Bulletin of Kemerovo State University. 2018. № 3

[9] Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: дис. … канд. филол. наук. – Волгоград, 2003. – 199 с.

[10] Курбанова М. Г. Эргонимы современного русс кого языка: семантика и прагматика: Дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 191 с.

[11] Трифонова Е. А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: дис. … канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 247 с.

[12] Шимкевич Н. В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: автореф. дис. ... канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002. – 22 с.

[13] Захарова-Саровская М. В. К вопросу об эргонимии // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2018. – №3. – С. 187-188.

[14] https://www.nom yaratish uslubiyati

gizning iste'molchilar uchun taqdim etayotgan foydasi bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: yanada arzon narx, kamxarjlik, ishonchlilik, yuqori darajadagi servis va h.k.

- tovardan foydalanishda ishlatiladigan texnologiyalar ta'rifi bilan bog'liq so'zlar: uch bosqichli tozalash tizimi, yuqori malakali mutaxassislar, eng yangi materiallar singari. Birinchi bosqichda hosil bo'lgan so'zlarning ro'yxatini tuzib olish darkor. **Ijodkorona yondashuv.** Keyingi bosqich tanlangan so'zlar ro'yxatini birlashtirish yoki ularga shakl berishdan iborat. Shakl berishni bir necha yo'l bilan o'tkazish mumkin. Yuqorida hosil bo'lgan so'zlarni bir-biri bilan birlashtirib, qiziqarli uyg'unlashgan yangi so'zlar yaratishga urinib ko'ring. So'zlar o'zagi bilan so'z o'yinlari yaratish ham mumkin. Bir ustunga so'zlar o'zagini, ikkinchisiga qo'shimcha so'zlarni yozib chiqing va ularni birlashtirib ko'ring. Ba'zi so'zlar birlashtirish yoki shakl berishni talab etmasligi ham mumkin. So'zlarni birlashtirish yoki shakl berishdan hosil bo'lgan hamda didingizga mos tushgan so'zlarni alohida varaqqa yozing. Ikkinchi bosqich yakunida sizda nomlash uchun mos bo'lgan so'zlar yoki birikmalar paydo bo'ladi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, noyob, kam uchraydigan, yengil talaffuz etiladigan, ammo ma'nosiz so'zlarni tanlamagan ma'qul, chunki ularga zarur ma'noni bag'ishlash va buni iste'molchilarga yetkazish ancha ko'p sarmoyani talab etishi mumkin.

Yuzaki tekshiruv. Endi to'plangan barcha so'zlarning foydalanish imkoniyatlari tekshirib chiqiladi. Miya odatda avval eshitgan yoki ko'rgan narsalardan so'z tanlashga intiladi. Shu sababli siz tanlagan so'zlarning bir qismi bozorda allaqachon mavjud bo'lishi mumkin.

Sayt domeni. Kompaniyaning sayti uchun domen, albatta, uning nomlanishidan kelib chiqib tanlanadi.

Sifat tekshiruvi. Navbatdagi bosqichni nomlar orasida "tirik qolish uchun kurash" deb atash mumkin. Nomlarni yuqoridagi mezonlar: noyoblik, jozibadorlik, talaffuzining yengilligi va to'g'riligi, esda qolarliligi, yorqinligi va hokazolarga mos kelishini birma-bir tekshirib chiqiladi.

Ergonim atamasidan foydalanish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning ko'pchiligi "ergonim" atamasi haqida shaharning shahar maydoni kontekstida gapiradi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ergonimlar nafaqat shaharda, balki tumanlarda va qishloqlarda ham uchraydi. Bundan ko'rinadiki, ergonimiya faqatgina shaharning o'ziga xos xususiyati emas. Shunday qilib "ergonim" tushunchasini talqin qilishda har doim ham "shaharning onomastik makoniga" ishora qilish noto'g'ri deb bilamiz.

Ergonim tushunchasini yanada takomillashtirish umumiy va xususiy tushunchalarga nisbatan ergonim atamasining o'rnini aniqlashtirish yo'li bilan amalga oshadi. Umumiy bo'lgan tushunchalarni ko'rib chiqish jarayonida "ergonim" – "korxona nomi" – "brend" – "xrematonim" kabi tushunchalarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun "ergonim" tushunchasini onomastik tizim doirasidagi turli tushunchalar o'rtasidagi sintagmatik va paradigmatik munosabatlarni aniqlash orqali ko'rib chiqamiz. Giperonimik-giponimik yoki urug'-tur munosabatlar ularning tizimli tashkil etilishining muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanib, paradigmatik munosabatlar qatoriga kiradi. Ergonimga nisbatan umumiy bo'lgan atama, ya'ni *giperonim* "onim" atamasi hisoblanadi. Onimga nisbatan ergonim tur yoki giponimdir.

M.G.Qurbonova tadqiqotida urbanonim, firma nomi, oikodomonim, ktematonim, emporonim, reklama nomi kabi atamalarning sxematik tasviri berilgan[1]. Muallif ergonimlar turkumiga kiruvchi tijorat va notijorat muassasalarni ham ajratadi. Uning fikricha, ergonimlar "urbanonimlar va tijorat nominatsiyalari kesishgan nuqtadadir". Ergonimlar muassasa nomlari (bu jihatdan ular urbanonim va oikodomonimlarga o'xshaydi) va "belgisiz nom" (davralar, jamoalar va boshqalar) bo'lishi mumkin"[2]. Onomastikada onimlarning terminologik jihatdan farqlanishi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Turli o'rinlarda ergonimlarni o'rgangan tilshunoslarning tahlillari ro'yxatiga qaramay, ularning ko'pchiligi ergonimlar va boshqa turdagi onimlarni (urbanonimlar, toponimlar, xrematonimalar) farqlashning ilmiy dalillangan mezonlari haligacha aniq belgilanmaganligini ta'kidlab o'tgan. Ko'plab onomastik tadqiqotlarda nominativ xilma-xillik yuzaga keladi, shu sababli muvofiqlashtirishga bo'lgan talab, ayniqsa, tillararo doirada o'sib boradi.

Xrematonim atamasini va uning ergonim bilan aloqadorligini tahlil qiladigan bo'lsak, A.K.Galkovskiy xrematonim "turli moddiy va nomoddiy madaniy obyektlarni, xususan, zamonaviy sivilizatsiya uchun ahamiyatlilarini (masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, savdo-sotiq, san'at, ma'lum maqsadlar uchun yaratilgan jamoat tuzilmalari) ifodalashini aytib o'tadi[3]. *Ktematonim* va *xrematonim* atamalari sinonim hisoblanib, "ergonim" atamasiga nisbatan o'ziga xos xarakterga egadir. Biz ergonim deyilganda korxona, muassasa va madaniyat obyektlarining o'ziga xos bo'lgan nomlarini bildiruvchi, faoliyat sohasi turlicha bo'lgan: marketing, ijtimoiy va mafkuraviy toifadagi onimlar

[1] Курбанова М. Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – С. 29.

[2] O'sha manba.

[3] Галковский А. К вопросу о диапазоне хрематонимии (пер. с польск. Ю. А. Кривощаповой) // Этнолингвистика. Ономастика. Этимология: материалы III Международной научной конференции (7–11 сентября 2015 г.). – Екатеринбург, 2015. – С. 76–77.

tushunilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz. Marketing sohasi eng ko‘p sonlisi hisoblanib, u sanoat muassasalari va tijorat korxonalarining (agentliklar, banklar, do‘konlar, firmalar) nomlarini o‘z ichiga oladi, ijtimoiy toifasiga ilmiy, ta’lim muassasalarining, madaniy obyektlarning (kinoteatrlar, klublar, ko‘ngilochar markazlar, teatrlar, bog‘lar), sport inshootlarining (majmualar, stadionlar, markazlar) nomlari kiradi. Mafkuraviy ergonomika toifasi esa siyosiy partiyalar, xayriya tashkilotlari, diniy birlashmalar nomlarini qamrab oladi. Ma’noviy jihatidan geterogen hisoblangan barcha tijorat va notijorat nomlar uchun bitta atama – ***ergonim*** atamasidan foydalanishni tavsiya etamiz.

Ergonimlarni tasniflashga birinchi urinish rus tilshunosligida A.V.Superanskayaning monografiyasida o‘z aksini topgan[1]. U odamlarning biznes birlashmalarini ifodalash uchun ikki turdagi nomlarni ajratib ko‘rsatgan:

1. Haqiqiy, ya’ni muassasa faoliyati va joylashgan joyini aks ettiruvchi

2. Ramziy – bu faqat uning faoliyat turiga ishora qiladi.

N.V.Nosenko o‘zining “Novosibirsk shahar obyektlarining nomlari: strukturaviy-semantik va kommunikativ-pragmatik jihatlar” deb nomlangan ishida ergonimlarning batafsil tasnifini taklif qilgan. U uchta guruhni ajratib ko‘rsatdi:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot beruvchi.
2. Bilvosita ma’lumot beruvchi.
3. Shartli.

Bevosita ma’lumot beruvchi ergonimlar obyektning turli xususiyatlarini ko‘rsatadi: *“Gullar”* do‘koni (assortimentni ko‘rsatgan holda), *“Bolalar kiyimlari”* (yosh va assortimentni ko‘rsatadigan), *“Ivan Ivanovichdan”* (egasining ismi va otasining ismini ko‘rsatgan holda).

Bilvosita ma’lumot beruvchi ergonimlar obyektning xususiyatlarini bilvosita ko‘rsatadi: *“Zara”* poyabzal do‘koni, *“Ofis market”* nashriyot-matbaa kompaniyasi.

Shartli ergonimlar voqelikning xususiyatlari haqida tasavvurga ega emas, faqat ergonimning o‘zi yorqin, ifodali narsa ekanligini bildiradi: *“Shafran”* kafesi, *“Breeze”* stomatologiya markazi, *“Virtual”* sartaroshxona.

O‘zbek tilida ergonimlarning axborot mazmunini tahlil qilishda biz N.V.Nosenkoning tasnifini asos qilib oldik. Shunday qilib, ergonimlar uch guruhga bo‘linadi:

1. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot berish:** *“Halol tabaka”* kafesi, *“Denov somsasi”* oshxonasi, *“Milliy taomlar”* oshxonasi, *“Stomatologiya”* klinikasi, *“Termiz neft bazasi”* mas’uliyati cheklangan jamiyati.

2. **Bilvosita xabardor qilish:** *“Shodiyona”* to‘yxonasi, *“Angor oqshomi”* restorani, “Sadaf” klinikasi, *“Do‘mboq jo‘alar”* kafesi, *“Ko‘rkam tabassum”* klinikasi, *“Diet”* kafesi, *“Doctor Nusrat”* klinikasi.

3. **Shartli:** *“To‘rayevichlar”* oshxonasi, *“O‘tan polvon”* klinikasi, “*Humo*” xususiy korxonasi, *“Aka-uka”* marketi.

Biroq bayon etilganlar ergonimlarning lisoniy xususiyatlarini atroflicha yoritish uchun metodologik asos vazifasini o‘tasa ham, fanda ularning neyming sifatidagi talqini ham mavjudligini va bu jihat zamonaviy tilshunoslikda nom nazariyasida yetarlicha chalkashliklarni keltirib chiqarayotganini ham aytib o‘tish zarur. Zotan, masalaning bu tomoni yaqin yillar ichida atroflicha tadqiq etilishi va izlanishlarning pirovardidagi natijalari *neyming, ergonim, firmonim, urbanonim, firma nomi, oikodomonim, ktematonim, emporonim, reklama nomi*, *xrematonim* singari onimlarning haqiqiy lingvistik maqomini belgilashga yo‘l ochishi zarur.

Резюме. Мақолада ташкилот, муассаса ҳамда хусусий тадбиркорлик объектларини номловчи эргонимларнинг ўрганилишига доир методологик қарашлар баён қилинган.

Resume. The article presents methodological material on the study of ergonyms – the names of organizations, as well as objects of private entrepreneurship.

Резюме. В статье излагается методологический материал по поводу изучения эргонимов – названий организаций, а также объектов частного предпринимательства.

[1] Суперанская А.В. “Общая теория имени собственного”. – М., 1973.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOG'AY MUROD IDIOLEKTIDA GESHTALTIV XARAKTERDAGI METAFORALAR

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dunyo tilshunosligidan yaxshi ma'lumki, lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishi tadqiqida kognitiv tilshunoslik muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, tadqiqotchilar tomonidan "Fanlar federatsiyasi"[1] deb ta'riflangan kognitiv tilshunoslik uchun eng muhim vazifa "tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir"[2]. Binobarin, kognitiv faoliyatda metaforalarning o'rni beqiyos bo'lib, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning fundamental tamoyillarini o'rnatishda uning funksional-kognitiv tabiatini e'tiborga olish nihoyatda muhimdir.

Har qanday matnning yaratilishi va shakllanishida kognitiv tuzilmalardan biri bo'lgan geshtalt[3] muhim o'rin tutadi. Xususan, zamonaviy tilshunoslikda mavjud semantik geshtaltlar nazariyasi tilning lug'aviy sathini o'rganishga tatbiq etilgan[4]. Geshtalt hodisasini matn bilan bog'lab o'rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn lisoniy strukturaning moddiylashgan ko'rinishi bo'lib, "butundan – bo'lakka" jarayonini aks ettiradi hamda geshtalt va matnning lisoniy xossalarini uzviylikda tadqiq etish lozim bo'ladi[5].

Lingvistik geshtalt, asosan, yaxlit tushuncha yoki predmet, jarayonni tavsiflovchi matnlarda kuzatiladi. Xususan, muayyan manzara, voqelikka doir yaxlit obrazni tasvirlovchi matnlar geshtaltiv ahamiyatga ega bo'lib, bunda geshtaltga biror obyekt qismlarining yig'indisi deb emas, balki yaxlit holda idrok etilishi zarur bo'lgan jarayon deb qarash o'rinli bo'ladi[6].

Kognitiv tilshunoslik asoschilaridan biri J.Lakoffning "Lingvistik geshtaltlar" nomli maqolasida ushbu hodisani nafaqat ong va tafakkur faoliyati, balki til tizimini tahlil etishga-da tatbiq etish muhimligi ta'kidlanadi[7].

O'zbek tilshunosligida geshtalt hodisasining nazariy talqini haqida so'z yuritgan Sh.Safarov: "Matnni qismlar yig'indisidan iborat deb qarash, tahlilni yig'ma analitik usulda bajarish natijasida bu tahlilda gap sintaksisidan nariga o'tmaslik xavfi yuzaga keladi. Bunday xavfdan qochishning yagona yo'li tahlilni yaxlitlikdan qismlarga yo'naltirish, geshtalt nazariyasiga murojaat qilishdir"[8] deb yozadi.

Tilshunos olima D.S.Xudayberganova kognitiv metaforani bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri sifatida baholaydi, uni shaxs kognitiv faoliyatiga tegishli, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirish hodisasi sifatida ta'riflaydi. Olima o'zbek tili konseptual metaforalarini asosiy to'rt guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Bular: "a) so'z shaklidagi metaforalar; b) so'z birikmasi shaklidagi metaforalar; v) gap shaklidagi metaforalar; g) mikromatn shaklidagi metaforalar[9]. Shuningdek, olima geshtalt haqida ham teran mulohaza yuritib, geshtaltning matn yaratilishi jarayonida yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishini, uning mazmuniy idrokida esa bo'lakdan-butunga jarayoni amal qilishini yozadi. Bunda "geshtalt hodisas-

[1] Демянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидност интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания, 1994. — №4. – С.22.

[2] Демянков В.З. Кўрсатилган мақола. – Б. 17-33.

[3] Geshtalt (olmoncha gestalt – obraz, stuktura, yaxlit shakl). Sh.Safarov ushbu tushuncha XX asrning birinchi choragida V.Keler, M.Vertxaymer, K.Dunker kabi nemis psixologlari tomonidan olib kirilganligi, bu esa psixologiyada yangi oqim – geshtaltpsixologiyaning shakllanishiga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Qarang: Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 47.

[4] Qarang: Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личност. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

[5] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91 б.

[6] Qarang: Хрестоматия по истории психологии. – М.: Изд – во МГУ , 1980. – С. 84–89; Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. – М.: Гнозис, 2005. – С.326; Сафаров Ш. Кўрсатилган асар. – Б. 47.

[7] Лакофф Дж. Лингвистические гешталты // Новое в зарубежной лингвистике. Вып X. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350-368.

[8] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 50.

[9] Худайберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 50.

ini mozaikaga, o‘quvchining holatini esa mozaikaning turli rangdagi turli shakllaridan yaxlit manzara tasvirini idrok eta olish jarayoniga o‘xshatish mumkin”[1]. D.S.Xudayberganova geshtaltning butun-qism tabiatidan kelib chiqqan holda, uning asosida yaratilgan badiiy matnlarda butunni tashkil etgan qismlarning barchasi ishtirok etishi shart emas, deb hisoblaydi: negaki, bunda eng muhim qismlarni berish orqali tavsiflanayotgan obyekt yoki tushunchaning mohiyatini ochish imkoni mavjud. Shu o‘rinda olima psixologik va lingvistik geshtaltlarning farqi borasida to‘xtaladi hamda psixologik geshtaltning matn yaratilishi jarayonida shaxs ongi va tafakkurida yuzaga kelishini, bunda bo‘lajak matn mazmuni verbal bosqichga o‘tayotgan yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo‘lishini aytadi. Xususan, “Muallifning ichki nutqida shakllangan mental tuzilma propozitsiyalar sifatida transforma qilinadi, mazkur propozitsiyalar nutqda partonimik munosabatni aks ettiruvchi mazmuniy birliklar sifatida reallashadi”[2]. Masalan: “*Oftob olmalar uchini chalib yubordi. Onamiz ro‘moli uchlari bilan bet-boshini o‘radi. Darvoza taraf yurdi. Darvozadan tashqariladi. Devordan bo‘yladi. Qadrdon hovlisiga qaradi. So‘nggi... so‘nggi bor qaradi... Onamiz to‘lib-toshib odimladi, bosar-tusarini bilmay odimladi! Poyidagi mana bular qator-qator uylarmi? Yo‘q, bular mayda-mayda oq toshlar! Rangli-rangli kesaklar! Onamiz toshlar bilan kesaklarni yanchib-yanchib odimladi! Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi? Yo‘q, bular nogiron-nogiron giyohlar! Onamiz giyohlarni ezib-ezib odimladi! Hay, bo‘y bermish tog‘larmi? Yo‘q, tog‘lar emas, yo‘q! Bular bolalar o‘ynayajak hammompish uylar! Onamiz hammompish uylarni bosib-bosib odimladi! Tog‘lardagi qorlar... qop-qora bo‘ldi!”* (“Oydinda yurgan odamlar”).

Oftob olmalar uchini chalib yubordi metaforasi bilan anglashilgan, oftob nurlari daraxtlar uchiga tusha boshlagan tong paytida, Onaxon rangsiz va umidsiz hayotiga nuqta qo‘yish istagi bilan kelinlik uyini tark etmoqda: ushbu, iztirobga to‘la qalb tasviri, aslida, psixologik geshtaltning yorqin ifodasidir. Bunda muallif qahramondagi kuchli ruhiy evrilish, so‘ngsiz umidsizlikning manzarasini boshqa usulda berishga mutlaq o‘rin qoldirmaydi: psixologik geshtaltning matnga bu tarzda transformalanishi, oqibatda metaforalar ko‘magidagi eng yuqori badiiy talqinning yuzaga kelishiga sabab tug‘dirgan. Qahramonning *to‘lib-toshib odimlashi, bosar-tusarini bilmay odimlashi;* ko‘zlariga ko‘ringan qator-qator uylarni – *mayda-mayda oq toshlar (rangli-rangli kesaklar) ni yanchib-yanchib odimlashi* – shundan. Muallifning onaxon yuragidagi anduhga metaforik javoblarni hozirlashida farzandsiz baxtiqaro g‘amiga shaxsiy sheriklik va shu g‘amga o‘quvchini-da sherik qilish istagi namoyon bo‘lgan: *Mana bular nima? Teraklarmi? Tutlarmi? Yo‘q, bular nogiron-nogiron giyohlar! Onamiz giyohlarni ezib-ezib odimladi! Hay, bo‘y bermish tog‘larmi? Yo‘q, tog‘lar emas, yo‘q! Bular bolalar o‘ynayajak hammompish uylar! Onamiz hammompish uylarni bosib-bosib odimladi! Tog‘lardagi qorlar... qop-qora bo‘ldi!* Odatda, hayot o‘z mazmunini yo‘qotganida, olam manzarasining unsurlari rangsizlanadi: ularning hajmi, mahobati shaxs qadri, sha’ni oldida mislsiz kichrayadi, qiymatini yo‘qotadi. Onaxon ko‘ziga *oq uylarning mayda-mayda rangli kesaklarga, terak va tutlarning nogirin-nogiron giyohlarga, tog‘larning hammompish uylarga* o‘xshab ko‘rinishi – shundan.

J.Lakoff metaforaning faqat til hodisasi emas, aksincha, inson bilish faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi vosita ekanini chuqur asoslab berarkan, kognitiv metaforani insonning o‘z bilimlarini namoyon qilish va konseptuallashtirish usullaridan biri deb hisoblaydi. Zero, uning (kognitiv metaforaning) mohiyati bir obyektni boshqa bir obyekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iborat[4].

Tog‘ay Murod nasriy nutqida lingvistik geshtalt matn yaratish bilan birga uning idrokiy jihatiga xos kognitiv holatlar mohiyatini ochib berishda ham muhimdir. Negaki, kitobxon matnni mutolaa qilish jarayonida uni tashkil etgan alohida birliklar, xususan, majoziy birliklarning mazmunini idrok etish orqali o‘z diqqat-e’tiborini birinchi navbatda matn muallifi ifodalamoqchi bo‘lgan eng asosiy fikrni topishga, anglashga yo‘naltiradi. Professor D.Xudayberganova ta’biri bilan fikr yuritganda, matn yaratilishida geshtalt yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelsa, uning mazmuniy persepsiyasida bo‘lakdan – butunga jarayoni amal qiladi, ya’ni o‘quvchi tomonidan idrok etilgan alohida birliklar yaxlitlanib, matn tuzilmasini yuzaga keltiradi. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

1. “Bo‘ri polvon o‘yladi-o‘yladi... O‘ylab o‘yiga etdi*... Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e, tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo‘qolib boryapti! Jasad bor! Aql bor! Yurak yo‘q! To‘rt muchal bor! Kuch-quvvat bor! Yurak yo‘q! Ko‘krakda jon bor! Yurak yo‘q, yurak!”* (“Yulduzlar mangu yonadi”).

2. “*Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arazlab ketayapti? Adolatdan! Bir to‘da*

[1] Худайберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.74-80.

[2] Yuqoridagi manba.– B. 74-80.

[4] Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

nomard, imonsizga achchiq qilib, adolatni o‘tga tashlab ketayapti!” (“Ot kishnagan oqshom”).

3. “*Vo darig‘o, shunday kunlar-da bo‘ladi! Bosgan qadamimiz ketimizga ketadi. Jamiki ishlarimiz chappasiga yuradi. Omad deganlari salomini-da bermaydi. Og‘zimizdagi oshimizni-da oldirib qo‘yamiz. Birodarlar, nasib etsa, kelar Shom-u Iroqdan, nasib yitsa, ketar qosh-u qaboqdan!”* (“Ot kishnagan oqshom”).

4. “*Shoymardon ferma mudir o‘g‘li qo‘lini halolladi.* To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi. O‘g‘il qabatida tizzalab o‘tirmish usta Majid asbob-anjomini hozirladi. O‘tkir pakkisini kaftida qayradi. — Qo‘rqma-ye! Chibin chaqqandayin ham bo‘lmaydi! — deya dalda berdi usta Majid. — Chibindi qo‘ying, shamol esib o‘tganday bo‘ladi!— dedi usta shogirdi. Qoplon otamiz o‘g‘ilchaga pul uzatdi*”* (“Oydinda yurgan odamlar”).

Birinchi misoldagi *yurak yo‘qolib bormoq* – “qo‘rqoqlik qilmoq” ma’nosidagi frazeologik metaforasi va *yurak yo‘q, yurak* – “ishtiyoq, xohish, jasorat yo‘q” mazmunidagi metaforalarining takror holda qo‘llanilishida bugungi yosh avloddagi jasoratsizlik, maqsadsizlik belgilarining bo‘rttirilishi hamda polvonlar uchun qadrli bo‘lgan mehr-oqibat, or-nomus tushunchalarining yo‘qolayotganiga ishora mavjud. Bir qarashda yoshga doir stereotipga o‘xshab ketsa-da, ikki avlod mafkurasining bu tarzdagi qiyosida Bo‘ri polvon va u mansub bo‘lgan davr avlodining (hamisha) jangovar ruhi bo‘y ko‘rsatgan: o‘tgan asrning 30-yillaridagi qatag‘on, ocharchilik va urush yillarining mashaqqati, ko‘p sonli etimlar boshini silagan o‘zbekona bag‘rikenglik, bolaparvarlik; Toshkentdagi mash’um zilzila oqibatlarini bartaraf etishda fidoyilik ko‘rsatgan, mahobatli kanallar va ko‘priklar qurilishida matonat va shijoatning namunasi bo‘lgan bu avlod – bahodirlar, azamatlar, chinakamiga polvonlar avlodi! Mazkur qiyosning Bo‘ri polvon tilidan amalga oshgani – polvonlar va azamatlar avlodiga urg‘u bo‘lib, o‘zbek polvonlarining yaxlit obrazi mazkur metaforik matn evaziga mukammallashgan.

Ikkinchi matndagi *etagini qoqib ketmoq, tupurib ketmoq, arazlab ketmoq, adolatni o‘tga tashlab ketmoq* kabi frazeologik-individual, obrazli-motivlashgan ifodalar chavandozlarning nohaqlikka qarshi isyonini ifoda etuvchi, “adolat“ geshtaltining tarkibiy qismlaridir.

Uchinchi mikromatndagi *bosgan qadami ketiga ketmoq; ishlari chappasiga yurmoq; og‘zidagi oshini oldirmoq* – FM lari, *omad deganlari salomini-da bermaydi* metaforasi hamda *nasib etsa, kelar Shom-u Iroqdan, nasib yitsa, ketar qosh-u qaboqdan* paremiologik ifodalari, umuman olganda, *omadsizlik* konseptining badiiy in’ikosidir. Garchi, bu o‘rinda mazkur mikromatnni lingvistik geshtalt deb baholash noo‘rin bo‘lsa-da, tushkunlik va unutilganlik manzarasini beruvchi bu talqinni bemalol *omadsizlik* geshtaltiv tarkibining uzvi deb hisoblash mumkin.

Ma’lumki, muayyan xalqning azaliy urf-odatlari, an’analari milliy madaniyatida ifodalangan bo‘lib, ularga nisbatan madaniy meros, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy an’ana va madaniy fond kabi tushunchalar qo‘llanilib, umumiy holda bu tushunchalarni milliy mentalitet ifodachilari deyishimiz[1] mumkin. “Oydinda yurgan odamlar” qissasidan keltirilgan so‘nggi matnda *qo‘lini halollamoq* etnografik birligi *sunnat qilmoq* semasiga teng bo‘lib, *sunnat to‘y*[2] bilan bog‘liq tasavvurlarning geshtaltiv obrazli ifodasidir. Mikromatnga birikuvchi “*To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi. O‘g‘il qabatida tizzalab o‘tirmish usta Majid asbob-anjomini hozirladi. O‘tkir pakkisini kaftida qayradi. — Qo‘rqma-ye! Chibin chaqqandayin ham bo‘lmaydi! — deya dalda berdi usta Majid. — Chibindi qo‘ying, shamol esib o‘tganday bo‘ladi!— dedi usta shogirdi. Qoplon otamiz o‘g‘ilchaga pul uzatdi”* jumlalari esa, mazkur hodisani yaxlit tasavvur qilish va azaliy qadriyatning qadrdon chizgilarini yurakdan his etishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, T.Murod nasriy nutqi, qissalarida qo‘llangan metaforik ifodalar o‘zining diskursiv xarakteriga ko‘ra yaxlit obraz va unga doir bilimlarni tashiydi. Ulardan ayrimlari esa “...inson ongida to‘plangan ma’nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo‘lib, qisman universal, qisman milliy xarakter”[3] dagi mental tuzilmalarning tilga transformatsiyasi mahsuli bo‘lmish geshtalt vazifasini o‘taydi.

---

[1] Курбаназарова. Н.Ш. Сурхондарё вohаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Термиз, 2021. – Б.11.

[2] Sunnat to‘y – Ma’lumki, Alloh taolo bergan farzandni dastlab bobomiz Ibrohim alayhissalom boshlab bergan, Islomning shiorlaridan biri bo‘lgan, Payg‘ambarimiz alayhissalomdan ham ummatiga amaliy sunnat bo‘lgan “Xatna” sunnatini bajarib (o‘g‘il go‘dak avrat a’zosidagi kesilishi kerak joyini kestirib), bir sunnatga amal qilishni nasib qilganiga shukrona tarzida yaqinlar va kambag‘allarni shodlikka sherik qilish niyatida qilinadigan ziyofatdir. Qarang: https://azon.uz/content/views/sunnat-tuy-mi-yoki-novvos-davosi

[3] Рыбникова В.А. Языковая концептуализатсия социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

Резюме: В данной статье когнитивные метафоры приобретают гештальтный характер как один из способов выражения и концептуализации собственных знаний человека (писателя). Это обусловило создание писателем высшей художественной интерпретации в понимании и объяснении одного предмета через другой предмет.

Resume: In this article, cognitive metaphors acquire a gestalt character as one of the ways of expressing and conceptualizing a person's (writer's) own knowledge. This led to the creation by the writer of the highest artistic interpretation in understanding and explaining one subject through another subject.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

REKLAMALARDA SIFATLARNING GRAMMATIK TABIATI

Botirova Maxliyo Baxodir qizi,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Reklama matnlarida asosan til birliklari asosida shakllantirilgan yuqori emotsional – ekspressivlikni ta'minlash maqsadida sifatlardan foydalaniladi. Chunki reklama qilinayotgan xizmatlar, tovarlarning xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatish asosan sifat so'z turkumi orqali amalga oshiriladi. Masalan, *xushbo'y, nozik, shaffof, sof, asl, toza, haqiqiy, tabiiy, chin, arzon, ommabop, hammabop, yoqimli, ko'rkam, yorqin, porloq, xushbichim, orasta, zebo* va hokazo. Reklama mahsulotining brendini ommaga taqdim qilishda raqobatchilar orasida asosan texnika vositalariga murojaat qilinadi. Sifatlarning yorqin ifodali xususiyatlari esa mazkur vazifani bajarishda yordam beradi.

"Reklama tarkibidagi ma'lumotlar ishonchlilik mezonlariga javob berishi kerak, shu jumladan, iste'molchining mahsulot (xizmat), uning sifati, iste'molchi xususiyatlari haqidagi to'g'ri, haqqoniy g'oyasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, reklama qilinayotgan obyektning boshqa tovarlar bilan taqqoslanadigan xususiyatlaridan foydalanish, masalan, "eng yaxshi", "birinchi", "birinchi raqam" so'zlaridan foydalanib taqqoslash amalga oshirilganda obyektiv tasdiqlangan aniq mezon ko'rsatilishi kerak"[1].

Yuqoridagi nazariy fikrlarga asoslanib xususiyat bildiruvchi *aqlli* sifatini qanday mezon asosida qo'llanishini quyidagi reklama mazmunidan bilib olamiz:

Samsung yaxshi hayot uchun aqlli texnikalar taqdim etdi!

"Aqlli" maishiy texnika nafaqat zamonaviy ko'rinishga ega, balki tez rivojlanayotgan XXI asrda barcha ishlarni osonlashtiradigan haqiqiy yordamchi hamdir. Telefon va televizorlar "aqlli" yordamchiga aylanib bo'ldi, ularning ishlab chiqaruvchilari esa bu nuqtada to'xtab qolmoqchi ham emas. Barchamizga ma'lum bo'lganiday, mukammallikning cheki yo'q. Maishiy texnika ham tinimsiz o'zgarib, samaradorligi oshmoqda, sezdirmay ishlab, hayotimizga qo'shimcha qulaylik taqdim etayotgan yangi vazifalarga ega bo'lib bormoqda.

"Reklama matnida sifat bilan ifodalangan xususiyatlarni shartli ravishda xarakterlovchi va baholovchi deb ajratish mumkin"[2]. Reklamalardagi sifatlar mahsulotning haqiqiy xarakterli xususiyatiga, holatiga mos keladigan va bu mahsulotni iste'mol qilganda ana shunday xususiyatlarni his qilishga yordam beradigan so'zlar sifatida tushuniladi. Misol uchun: *Bosh aylantiruvchi egilish.* Yangi flextencils. Ajoyib *uzun va jingalak kirpiklar.* Siz orzu qilgan kirpiklar: powershape mahkamlash majmuasi va eksklyuziv

[1] http://sovetreklama.org/2016/07/pravomernost-ispolzovaniya-v-reklame-slova-luchshij-trebuet-dokazatelstv // Правомерность использования в рекламе слова «лучший» требует доказательств.

[2] Ахмед Айад Ш. Лексико-грамматические средства представления товара в газетной рекламе: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – С.14.

brushing cho‘tkasi kipriklaringizni *jingalak, uzun* va *nihoyatda yumshoq qilib,* ko‘zlaringizga ta’sirchanlik va o‘ziga xoslik baxsh etadi. Natija: ko‘z ochib yumguncha kipriklaringiz 30%ga uzayadi va egilish burchagi 30 ga etadi. Go‘zallikga ishoning. (Lancome)

Sifatlardagi daraja ko‘rsatkichlari obyektiv olam voqea-hodisalari va predmetlar tashqi ko‘rinishi va ichki xususiyatlarini tinglovchi /o‘quvchi/ga mumkin qadar to‘laroq yetkazish, shular yuzasidan aniqroq tasavvur hosil qilish maqsadlarini ko‘zda tutgan holda ishlatiladi. Daraja ko‘rsatkichli va intensiv formali sifatlar og‘zaki va badiiy nutq uslubiga xos bo‘lib, rasmiy, ilmiy nutq uslubida nisbatan kam ishlatiladi.

-roq affiksi qiyosiy darajadagi sifatlarga qo‘shilgan belgining normadan ortiqligini, ammo qiyosiy belgi darajasidan kamligini ifodalasa, qiyoslanmagan holatlarda belgining normadagidan kamligini aks ettiradi. Men seni qo‘ldan agar boy bersam, o‘lganim yaxshiroq. -roq affiksi reklamalarda ham qiyos ma’nosini ifodalashda ishtirok etadi. Masalan: *Ta’m ta’mliroq, dizayn zamonaviyroq, taassurotlar yorqinroq* (Ays tea), *Soch yanada kuchliroq* (Pantene shampuni), *Yorqin ta’m, yorqin ichimliklar. Fanta bilan yorqinroq bo‘l* (Fanta), *Boshqarish osonroq – natija yaxshiroq* (Samsung kir yuvish mashinasi), Yorqinroq, yupqaroq, sekinroq (Samsung Galaxy Tab S plansheti).

Sifatlar oldidan tag‘in, yana, yanada kabi ravishlar keltirish bilan belgi ortiqligi qiyosan ifodalanadi. Bunda qiyoslash “yashirin” bo‘ladi, ya’ni normadagi belgini ifodalovchi sifat oldingi gap /bu gap dialogik bo‘ladi/ da ishtirok etadi: -katta qovun oldimtag‘in ham kattaroq qovun olish kerak edi kabi. Ko‘rinadiki, bunday qo‘llanishlar ham aslida qiyosiy holatni aks ettiradi. Belgining ozligini ifodalash -sh, -ish, -mtir, -imtir orqali ham ifodalanadi. Lekin bu affikslar qo‘shilganda, o‘zak-negiz /sifat/ dan anglashilgan belgi emas, balki shunga o‘xshash: belgi mavjudligi ifoda etiladi. Shuning uchun ham qoramtir bilan qoraroq kabi va shu kabi so‘z-sifatlar o‘zaro sinonim bo‘la olmaydi. Fikr yuritilayotgan predmetlardan biriga diqqat jalb etilsa, uning belgisini maxsus ifodalash, yaqqol tasavvur qilish nazarda tutilsa, sifatlar oldidan eng, hammadan so‘zlari keltiriladi. Bunda so‘zlovchi nutq paytida fikr belgining boshqa har qanday belgidan muhim ekanligini alohida uqtirmoqchi bo‘ladi: U eng odobli bola edi kabi. Ma’no kuchaytirish sifatlar oldidan juda, g‘oyat, nihoyat, bag‘oyat kabi ravishlarni qo‘llash, bosh qismini takrorlash yo‘li bilan tuzilgan juft sifatlar orqali ham ifodalanadi. Masalan: *Bir lahzani to‘xtatish juda oson* (KODAK reklama kompaniyasi), *Hatto eng o‘jar dog‘larni ham olib tashlaydi* (Yangi Losk), *Mutlaqo sof va tabiiy* (Nestle suti), Ajoyib sifat va eng yuqori ishlash. Katta va yorqin bilan ko‘rsatish eng yuqori tasvir sifati. (Samsung Galaxy Ace 2), *Eng ishonchli tanlov* (Vinetki.uz), *Eng yaxshi xotiralar eng yaxshi smartfon bilan* (Iphone 14 pro max).

Biz sifatlarda intellektual xususiyatlar va fazilatlarni ko‘rib chiqdik, bundan tashqari, sifatlar reklamalarda quyidagi ma’no turlari orqali ham namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Xususiyat bildiruvchi
2. Hid bildiruvchi
3. Maza-ta’m
4. Hajm-o‘lchov
5. Rang
6. Makon-zamon

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar aks etgan reklama: *Kunduzgek go‘zal, tundek sirli* (Avon), *Sog‘lom ichaklar - go‘zal teri* (Laktofiltrum), *Yumshoq teri, yorqin hislar* (Timotei dush geli), *Diqqatli va sezgir konditsioner* (LG Maestro), *Tinch ona – hotirjam ona* (Espumizan), *Mazali gaplar joyi* (Oqtepa lavash).

Keltirilgan misollardagi *go‘zal, sirli, yumshoq, sog‘lom, yorqin, sezgir, diqqatli, tinch* sifatlari subyekt baholovchi strukturaning elementi sifatida faol baholash asosida xususiy baholash rolini rivojlantiradi. Shunga asoslanib, tavsiflovchi bunday sifatlarni obyekt xususiyatini ochib beruvchi nomlar sifatida qaraymiz. Sifatlarning bunday moslashuvchanligi reklama matnlarida estetik vazifa bilan amalga oshiriladigan ko‘p qirrali tasviriy va ekspressiv imkoniyatlarni yaratadi.

2. Hid bildiruvchi sifatlar: *Yangi gipnoz xushbo‘y hid* (Hypnose Lancome atiri), *Yangi to‘yingan xushbo‘y hid* (Giorgio Armani atiri)

Bu reklamadagi *xushbo‘y* sifati adresatning maqsadi mohiyatini ochib berishda xizmat qilgan. Agar faqat *gipnoz hid yoki to‘yingan hid* - deyilganida mahsulotning nima sababdan iste’molchiga zarur ekanligi ochilmay qolgan bo‘lar edi. «Sifatlar to‘g‘ri munosabat shakllantirishda mas’uliyatli rol o‘ynaydi»[1].

3. Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar aks etgan reklama: *Menga achchig‘idan bo‘lsiiiiiin, menga tovuqligidan, yangi sousligidaaaan* (Hot lunch); “Mahsulot maza-ta’mini ifodalash uchun uni nimalardan tayyorlanganligini ko‘rsatib, siz ta’riflanayotgan ta’mlarni iste’molchiga eslating, bunda sizga chiroyli sifatlar yordam beradi”[2].


4. Hajm-o‘lchov sifatlar aks etgan reklama: *Katta oila uchun, katta kir yuvish mashinasi* (LG), *Minimal o‘lchamlar – maksimal imkoniyatlar* (Telefon raklamasi); Yuqorida ta’kidlanganidek, umumiy baholovchi sifatlar ijobiyligi bilan iste’molchining idealiga mos keladi.

[1] https:facemimicry.ru // Прилагательные в рекламе. Нужно ли воспринимать эти слова?

[2] http://www.online-science.ru/userfiles/file/zrphwft8ttnhxb7sxdbmnqidylzinmwy.pdf Горелик П.Л. Визуальные тропы сенсорного восприятия запаха в рекламе духов.

5. Rang xususiyatli sifatlar aks etgan reklama: *Oq oqligicha, qora qoraligicha* (Nivea dezodarant), *Yumshoq oqartirish, oq porlaydi* (Asiya); Reklama misolida oq rang ko‘zga tez tashlanishi va boshqa ranglarga nisbatan ko‘proq inson e’tiborini tortishi bilan ajralib turadi. Oq rang tozalik, soflik va go‘zallik ramzi bo‘lganligi sababli iste’molchida ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi. Reklamaning o‘qilishida *oq* sifatining ishtiroki xaridor foydasiga ishlagandek ko‘rinadi, lekin uning ma’nosini to‘g‘ridan to‘g‘ri oshkor qilmaydi.

6. Makon-zamon bildiruvchi sifatlar: *Yozgi qaynoq chegirmalar* (Artel), *Ichki ishonch* (Linex Forte); Bu mahsulotning asosiy xususiyati uning makon-zamoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu jihatni xaridorga yetkazib berishda *yozgi* va *ichki* sifatlari asosiy yukni bajargan va mahsulot mazmun-maqsadini ochib bergan. Ta’kidlanganidek, sifatlar mahsulotni baholovchilar uchun dalil sifatida asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Sifatlar baholovchi strukturaning barcha elementlarida ishlaydi. Reklama beruvchi, ma’lum bir xizmat (yoki mahsulot) nomi yoniga orttirma darajadagi sifatni qo‘yib, xizmatlarning yuqori sifatini va ularni o‘ziga o‘xshaganlardan yaxshi ajratib turadigan xususiyatlarini ta’kidlaydi va shu bilan iste’molchilar e’tiborini tortadi[1]. Reklamalarda sifat ma’no turlarining qo‘llanilish darajasini quyidagi diagramma orqali ko‘rishimiz mumkin:



Yuqorida keltirilgan diagramma orqali reklama matnlarida xususiyat bildiruvchi sifatlar faol qo‘llaniladi: *issiq, shov-shuvli, hayratlanarli, zamonaviy, noyob, xayoliy, mukammal* va h.k. Ushbu sifatlar reklama matnlarida ijobiy semantik ottenka ifodalashga xizmat qiladi.

Reklama matnlarida nisbiy sifatlar birinchi navbatda ma’lumot berish vazifasida qo‘llaniladi: *g‘ishtli uylar, devoriy soatlar, kechki chegirmalar, yozgi dam olish maskanlari* kabi. “Shuni ham hisobga olish kerakki, miqdoriy jihatdan aynan nisbiy sifat turkumi ustunlik qiladi (nisbiy sifatlar reklama matnlarida ishlatiladigan barcha sifatlarning salmoqli qismini tashkil qiladi. Asliy sifatlar tarkibi nisbatan cheklangan, nisbiylari esa deyarli har bir ismdan osonlikcha shakllanadi va ularning tarkibi doimiy ravishda yangilanib turadi”[2].

Reklama matnida mahsulot xususiyatini ochib berishda kerakli sifatdan foydalanish orqali sifat leksik-grammatik birlik darajasiga ko‘tariladi, matnni baholash tuzilmasini yaratishda qatnashadi, uning axborot qiymatining oshishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga mahsulot sifatini farqlashga ko‘mak berib, yangi semantik ma’nolarni ochib berishda xizmat qiladi.

Rezyume: Reklama matnlarida asosan til birliklari asosida shakllantirilgan yuqori emotsional – ekspressivlikni ta’minlash maqsadida sifatlardan foydalaniladi. Chunki reklama qilinayotgan xizmatlar, tovarlarning xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta’kidlab, bo‘rttirib ko‘rsatish asosan sifat so‘z turkumi orqali amalga oshiriladi. Reklama matnida mahsulot xususiyatini ochib berishda kerakli sifatdan foydalanish orqali sifat leksik-grammatik birlik darajasiga ko‘tariladi, matnni baholash tuzilmasini yaratishda qatnashadi, uning axborot qiymatining oshishiga hissa qo‘shadi.

Resume: Advertising texts mainly use adjectives to ensure high emotional expressiveness formed on the basis of language units. Because the features and advantages of the advertised services and goods are highlighted and exaggerated mainly through the use of quality words. By using the required quality

[1] Ботирова М. Лексико-семантические и тематические характеристики рекламы в узбекистане //Наука и инновации. – 2023. – Т. 2. – №. С9. – С. 21-27.

[2] Кононова Т.М. Язык и стиль рекламы в журнале. – Санк-Петербург: Питер, 2005. – С.24.

in the advertisement text to reveal the product feature, the quality rises to the level of lexical-grammatical unit, participates in the creation of the evaluation structure of the text, and contributes to the increase of its informational value.

Резюме: В рекламных текстах для обеспечения высокой эмоциональной выразительности преимущественно используются прилагательные, сформированные на основе языковых единиц. Потому что особенности и преимущества рекламируемых услуг и товаров подчеркиваются и преувеличиваются преимущественно за счет использования качественных слов. Используя в тексте рекламы необходимое качество для раскрытия свойства товара, качество поднимается на уровень лексико-грамматической единицы, участвует в создании оценочной структуры текста, способствует повышению его информационной ценности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725


TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA STEMMIZATSIYA

Boysariyeva Saodat,
Termiz davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Hozirgi kunda internet juda katta ma'lumotlar resursiga ega bo'lgan tizim hisoblanadi. Mutaxassislar bu cheksiz axborot resursidan qanday qilib keraklisini ajratib olish haqida bosh qotirishmoqda. Buning yechimi sifatida tadqiqotchilar stemmer algoritmlarini e'tirof etishadi. Stemmer dasturlari, stemmer algoritimlari va stemmer aynan bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladi. Stemmizatsiya tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) uchun ma'lumotlar qidiruvi, mashina tarjimasi, matn tahriri, hujjatlarni tasniflashda foydalaniladi. Mashina tabiiy tilni tushunishi va uni qayta ishlashida stemmizatsiya muhim bosqichdir. Shuningdek, stemmizatsiya har qanday platformaning ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lmagan birliklar: neologizmlar, okkazionalizmlar hamda so'zning imloviy xatolarini aniqlashda ham ahamiyatlidir.

Ingliz tili uchun konteksga bog'liq bo'lgan va so'z oxirigacha mos keluvchi stemmer algoritmini ilk bora 1968-yilda J.Lovnis[1] *"Stemming algoritmlarining rivojlanishi"* nomli maqolasida taklif etgan edi.

1-chizma. **Stermmer algoritimlari**



[1] Lovins, J. B. (1968). Development of a stemming algorithm (p. 65). Cambridge: MIT Information Processing Group, Electronic Systems Laboratory.

Jadvalda keltirilgan stemmerlardan matn tarjimasi, tabiiy tilni qayta ishlash, ma'lumotlar qidiruvida foydalanish mumkin. Yuqoridagi stemmerlar dasturiy qoida hamda lingvistik yondashuvga asoslanganligi bilan farqlanadi.

Turkiy tillarda stemmizatsiyaga oid tadqiqotlar o'tgan asrning 90-yillarida boshlangan. Lug'at yordamida so'z qidirish mantig'iga asoslanuvchi stemmer algoritmini A.Kut, A.Alpkochak va E.Ozkarahanlar taklif etgan edi. Hayri Sever va Yiltan Bitiri[1] o'zining FINDSTEM algoritmiga asoslanuvchi stemmer nazariyasini bir qancha ilmiy nashrlarida ochib berishga harakat qilgan. Ushbu stemmerning samaradorligini turk tilidagi 5000 so'zlar yordamida sinovdan o'tkazib ko'rishgan. B.T.Dinsher, B.Karaog'lan tomonidan taklif qilingan yana bir stemmer agglyutinativ tillar uchun ehtimollik modeliga asoslangan. O'tkazilgan tajribalar 95% samaradorlikni bera olgan[2]. Mutaxassislar ushbu stemmerni venger, chex, eston tillarda ham qo'llash mumkinligini e'tirof etishadi. Turk tili uchun morfem tahlilga asoslangan stemmer Gunesh Eryigit, Eshrif Adali[3] tomonidan shakllantirilgan. Ushbu FST metodi yordamida ishlovchi texnologiya yuqori darajadagi aniqlikni bergan. FST texnologiyasidan N.Abdurahmonova O'zbek tili korpusi (http://uzbekcorpus.uz/) uchun lingvistik tahlil (tokenizatsiya→ lemmatizatsiya→ stemmizatsiya) jarayonida foydalangan[4].

Piton dasturlash tilida yozilgan ozarbayjon stemmeri S.T.Mammadov, Sh.Iskandarli, A.Mustafoli, Z. Sadigov[5] tomonidan yaratilgan. Shuningdek, B.Morteza, H.Alizadeh, S.Amin[6]lar avtomatik stemmizatsiyani amalga oshiruvchi algoritmni o'z tadqiqotlarida taklif etishgan. Qozoq tilida morfologik tahlil bosqichida qo'l keluvchi so'z shakllarini hosil qiladigan algorimni ishlab chiqishga doir ishlarni N.Sultanova, K.Kozhakmet va boshqalar[7]ning ishlarida ko'rishimiz mumkin. Matnni qayta ishlashda qozoq tilidagi so'z shaklarini stemmizatsiya va generatsiya qilishga doir V.Baraxnin, B.Bakiyeva va boshqalar[8] tadqiqotlarini keltirib o'tish o'rinlidir.

O'zbek tilidagi stemmizatsiyaga doir birinchi tadqiqot 2017- yil A.Ismoilov[9] tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqotchi o'z stemmerini Lovins stemmeri asosida shakllantirganini ta'kidlab o'tgan. Ushbu stemmer taklif etilgan stendlash algoritmiga asoslangan model: a) lug'atni tekshirish; b) affikslarni olib tashlash kabi ikki protseduradan iborat. Stemmer uchun "O'zbek tilining imlo tug'ati" (1999) dan lingvistik ta'minot sifatida foydalanilgan.

Ingliz tilida *plays, playing, played* so'zlarining faqat morfologik shaklidan holi qismi *play* stem hisoblansa, o'zbek tilida morfologik shakl bilan birga so'z yasovchi shakldan ham holi bo'lgan asos stemdir. Masalan, *amal/dan, amal/lar, amal/dor, amal/iy, amal/la, amal/parast, be/amal* kabilar uchun *amal* stemdir. Yuqoridagi misollarni qo'shimchani olib tashlash tamoyili asosida stemmizatsiya qilish mumkin:

– Agar so'z *dan* bilan tugasa, *dan* ni olib tashla
– Agar so'z *lar* bilan tugasa, *lar* ni olib tashla
– Agar so'z *dor* bilan tugasa, *dor* ni olib tashla
– Agar so'z *iy* bilan tugasa, *iy* ni olib tashla
– Agar so'z *la* bilan tugasa, *la* ni olib tashla
– Agar so'z *parast* bilan tugasa, *parast* ni olib tashla
– Agar so'z *be* bilan boshlansa, *be* ni olib tashla

Bu eng sodda stemmizatsiya metodidir. Metodning kamchiligi *begona* dagi *be* ni, *dori* dagi *dor* ni qo'shimcha sifatida tahlil qilishidir. Jadvalga asoslangan stemmer bundan yaxshiroq aniqlikka ega. Masalan,

[1] Sever, Hayri & Bitirim, Yiltan. (2003). FindStem: Analysis and Evaluation of a Turkish Stemming Algorithm. Lecture Notes in Computer Science. , String Processing and Information Retrieval, 2857. 238-251. 10.1007/978-3-540-39984-1_18.

[2] Dincer, Bekir & Karaoğlan, Bahar. (2003). Stemming in Agglutinative Languages: A Probabilistic Stemmer for Turkish. 2869. 244-251. 10.1007/978-3-540-39737-3_31.

[3] Eryiğit, Gülşen & Adali, Eşref. (2004). An affix stripping morphological analyzer for Turkish. Proceedings of the IASTED International Conference Artificial Intelligence And Applications. 299-304.

[4] Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya). Toshkent, 2021

[5] https://github.com/aznlp/stemmer

[6] https://jpit.az/en/journals/227

[7] Sultanova N., Kozhakhmet K., Jantayev R. and Botbayeva A., "Stemming algorithm for Kazakh Language using rule-based approach". 2019 15th International Conference on Electronics, Computer and Computation (ICECCO), Abuja, Nigeria, 2019, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICECCO48375.2019.9043253.

[8] https://cyberleninka.ru/article/n/stemmatizatsiya-i-generatsiya-slovoform-v-kazahskom-yazyke-dlya-sistem-avtomaticheskoy-obrabotki

[9] Ismailov, Alisher & Abdurakhmonova, Nilufar. (2022). The development of Alisher stemmer for Uzbek Language. Science and Education. 3.

1-jadval. Jadavalga asoslanuvchi stem namunasi

Kiritilgan so‘z	Olib tashlanuvchi shakl	Hosil bo‘lgan shakl	Stem
Boladan	-dan	bola	Bola
Amaliy	-iy	amal	Amal
Gulla	-la	gul	Gul
Ulg‘ay	-ay	ulg‘	ulug‘

Bir stemga birlashgan fleksion uya semantik maydonni tashkil etishi bizga ma’lum. Semantik maydon masalasida muayyan modelga ega bo‘lish mashinaning semantik tahlili uchun xizmat qiladi. Stemmizatsiya tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da muhim bosqich hisoblanadi. Har qanday dasturning ma’lumotlar bazasida morfem tahlilga tortilgan lingvistik ta’minotning bo‘lishi lingvistik masalalarning mashina tomonidan hal qilinishini osonlashtiradi[1]. Elektron morfem o‘quv lug‘atini yaratishga doir tadqiqotimiz davomida 12 000 ga yaqin so‘zi jamlagan elektron morfem lug‘ati shakllantirdik. Lug‘at 1977-yil nashr etilgan “O‘zbek tili morfem lug‘ati[2]”ga asoslangan bo‘lib, unda hozirda o‘zbek tilida faol bo‘lgan 3 735 ta asosdan hosil bo‘lgan 8 000 ortiq yasama so‘zlar asos(stem) va so‘z yasovchi qo‘shimchalarga ajratilgan holda keltirilgan[3]. Tadqiqotimiz davomida o‘zakdosh yasama so‘zlarning miqdoriy ko’rsatkichi quyidagicha ekanligi aniqlandi:

2-jadval. Lug‘atning so‘z turkumlari bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatgichi.

O‘zakdosh so‘zlarning turkumi	O‘zakdosh so‘zlarnig birinchi asosi	%	O‘zakdosh yasama so‘zlar soni	%	Bir uyaga mansub so‘zlar miqdori
Fe’l	361	9,7	1200	14,6	1561
Ot	2362	63,2	5232	63,9	7597
Sifat	686	18,3	1234	15,0	1920
Ravish	57	1,5	111	1,35	168
Son	12	0,3	29	0,35	41
Olmosh	12	0,3	27	0,33	39
Taqlid so‘z	228	6,1	315	3,85	543
Undov so‘z	8	0,2	8	0,09	16
Modal so‘z	9	0,2	23	0,28	32
Jami	3 735		8 179		11 917

Bu orqali muayyan asos(stem)ga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan so‘z yasovchi shakllarni aniqlashimiz va matnning morfologik tahlilida stemmizatsiya uchun aniqlikni ta’minlashga erishish mumkin. Ko‘p qo‘llaniluvchi stemmizatsiyada taxminiy hisoblashga asoslangan morfem tahlil ba’zi chalkashliklarni yuzaga chiqarishi mumkin. Masalan, *xo‘rlik* so‘zini *yaxshlilik* yoki *yomonlik* so‘zlaridagi *-lik* shakli asosida ehtimoliy stemizatsiya qilinganda stem sifatida *xo‘r* hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida *xo‘r* shaklidagi so‘z mavjud emas, yoki *ishla, gulla* so‘zlari kabi *xo’rla* so’zidan ham *-la* shaklini olib tashlash bilan stemmizatsiya qilinsa *xo‘rla* so‘zinining stemi sifatida *xo‘r* hosil bo‘ladi. Demak, stemmizatsiya jarayonida bu kabi chalkashliklarning sodir bo‘lmasligi uchun asos(stem) va ulardan hosil bo‘lgan yasama so‘zlardan iborat lingvistik resurs zarur bo‘ladi. “Yangi avlod o‘quv lug‘atlar va ularning mobil dasturlari” nomli loyiha[4] doirasida yaratilgan morfemalar lug‘at xuddi shu maqsad uchun xizmat qila oladi.

Kopmyuter lingvistikasida odatda lug‘atlardan lingvistik ta’minot maqsadida foydalaniladi. Lug‘atda-

[1] Абдурахмонова Н., Бойсариева С. Tabiiy tilni qayta ishlashda (nlp) okkazionalizmlarning morfem tahlili //Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 3.

[2] А. Ғуломов, А. Тихинов, Р. Қўнғуров Ўзбек тили морфем луғати/ “Ўқитувчи” нашриёти, 1977

[3] Boysariyeva S. Electronic dictionaries as a new stage of lexicography //Science and Innovation. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 32-34.

[4] http://tilshunos.com/

gi bosh so‘zlar tabiiy tilni qayta ishlashda lemma vazifasini o‘tashi mumkin, ammo stemmizatsiya jarayoni uchun to‘liq aniqlikni bermaydi, shuning uchun ham o‘zbek tilida stemlar bazasi vazifasini o‘tovchi lug‘at zaruriyati mavjud.

Rezume: Maqolada stemmizatsiya jarayonining mashina tabiiy tilni tushunishida va uni qayta ishlashida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi. Jahon va turkiy tillar doirasida yaratilgan stemmerlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, stemmizatsiyaning aniqligini ta’minlashga xizmat qiluvchi elektron morfemalar lug‘ati taklif etilgan.

Resume: The article talks about the importance of the process of stemming in machine learning and processing of natural language. Stemmers created within the framework of world and Turkish languages were analyzed. Also, an electronic dictionary of morphemes, which serves to ensure the accuracy of stemming, is proposed.

Резюме: В статье говорится о важности процесса стемминга в машинном понимании и обработке естественного языка. Проанализированы стеммеры, созданные в рамках мирового и турецкого языков. Также предлагается электронный словарь морфем, служащий для обеспечения точности стемминга.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SURXON VOHASI NIKOH MAROSIMI ETNOGRAFIZMLARI

Dusnazarova Mavjuda Ilyamonovna,
Termiz davlat universiteti
davlat va huquq kafedrasi o’qituvchisi

Sovchilik to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlar VII-VIII asrlarga oid O‘rxun–Enasoy bitiklarida uchraydi. To‘nyuquq bitiktoshida «sov», «sab» so‘zlari «so‘z, gap» ma’nosida ishlatiladi. «Irq bitigi» («Fol kitobi») da «sab» – so‘z, «sabchi» – xabarchi, so‘z keltiruvchi ma’nosida qo‘llanilgan[1]. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida: Cawчi – kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi, deb ta’kidlangan[2]. S.E.Malovning fikricha, «savey» so‘zi Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida «xabarchi», nanay tili dialektida *savey* – «darak bermoq, aytmoq» tushunchalarini bildiradi. Qolaversa, S.E.Malov *sapcy*, *савсу* so‘zlarini «savey» so‘zi bilan solishtirib qadimda «etaklovchi, chechan» ma’nolarini anglatishini yozadi[3].

V.V.Radlovning fikricha, «савчы» so‘zi uyg‘ur va chig‘atoy tillarida «payg‘ambar» tushunchasini bildiradi[4]. C.E.Malovning yozishicha, tarixiy so‘z bo‘lgan *sovchi* «sov» ildizidan olinib, *-chi* affiksi qo‘shilgan. Qadimgi turkiy manbalarda qo‘llanilgan *сав, sap, sav* so‘zlarining ma’nosi «nutq, darak, so‘z, xabar bermoq» tushunchalarini anglatgan[5]. A.K.Borovkov fikriga ko‘ra *sovchi* atamasi o‘ta qadimiydir[6]. Qozoq olimi R.Sizdikovaning qayd etishicha, «savchi»//»javchi» so‘zining asosida turadigan «sav» elementi turkiy til-

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. – Toshkent, 2004. – B. 691.

[2] Qoshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. 3-jild. – Toshkent: Fan, 1963. –B. 169.

[3] Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва: Наука, 1951. –С. 420.

[4] Радлов В.В. Опыт словаря тюрских наречий. Т.3 Ч.1. – Петербург, 1905. –С. 431-432.

[5] Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – Москва: Наука, 1951. –С. 420.

[6] Боровков А.К. А.К. Лексика среднеазиатского тафсира XII-XIII вв. – Москва, 1963. –С. 17.

larda «so‘z» ma’nosini bildiruvchi «soz/sau» o‘zagiga bog‘lanadi[1].

Oldindan kelin-kuyov tanlash ota-onaning ishi hisoblangan. Yigit va qizning ko‘ngliga qaralmagan. Avval bo‘lg‘usi kelin tanlangan. Bunda yoshlarning yulduzi to‘g‘ri kelish-kelmasligi, qizning nasl-nasabi surishtiriladi. Qiz topilgach, uning uyiga sovchilikka boriladi. Odat bo‘yicha sovchilikka yigitning otasi boradi. Agar ota olamdan o‘tgan bo‘lsa, eng yaqin kishisi, ya’ni *xeshi* yuboriladi. Sherobod tumanidagi Xatak va Xo‘janqon qishloqlarida sovchilikka ayollar borishi mumkin bo‘lmagan. Oila yaqinlaridan sovchilikka munosib odam bo‘lmagan holda bu vazifani urug‘ oqsoqollari bajarganlar. Sovchilar taklifiga binoan qizning ota-onasi ham birdaniga aniq javob aytmasdan, maslahatlashib ko‘raylik, deganlar. Orada yigitning nasl-nasabi, yurish-turishi, hunari, sog‘ligi surishtiriladi. Rozilik berilmasa, sovchilar qaytib ketadilar. Rozilik bo‘lsa, muayyan vaqt belgilanib non sindiriladi[2].

Farg‘ona vodiysi qipchoqlarida sovchilik qiluvchi shaxs oq va qizil ot mingan holda qiz yashaydigan uyga borgan. Sovchilar bu ezgu maqsadda hech qachon qora otdan foydalanmaganlar. Chunki qora otda borish ish bitmasligiga sabab bo‘ladi, deb hisoblaganlar[3].

Sirdaryoda sovchilarning kelishi «eshik supurdi» deb ataladi. Ammo bu yerda sovchilarning eshik supurish odati yo‘q. Samarqand viloyati tumanlarida sovchilarning ilk bor kelishi «eshik ochar» deyilsa, qayta-qayta qatnashi «kovush yirtar» deb yuritiladi. Paxtachi tumani Suluvqo‘rg‘on qishlog‘ida sovchilarning ilk bor kelishi «go‘sala (ya’ni urg‘ochi buzoq) izlab kelibdilar», «yitik (ya’ni yo‘qotilgan narsa, kishini) axtarib kelibdilar» deyishadi[4].

Sovchilik udumi bilan bog‘liq aytim qo‘shiqlarda ranglar, buyumlarning tanlanishida ramzlar bor. Qora rang bilan bog‘liq buyumlardan foydalanilmagan, oq, qizil, yashil, ko‘k ranglari esa folklor janrlarida keng qo‘llanilgan.

Sovchilik udumi bilan bog‘liq aytim va qo‘shiq matnlarining ayrim namunalari Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Langar qishlog‘ida saqlanib qolgan bo‘lib, «Checha va qaynsingil» aytishuvida aks etgan. Bunda qaynsingil shunday deydi:

Ko‘k to‘badan chang chiqdi,
U nimadir, chechajon?
Ikki otliq bir chiqdi,
Ular kimdir, chechajon?
Yolg‘iz otliq ortida,
Bunisi kimdir chechajon?
Checha quyidagicha javob qaytaradi:
Ko‘k to‘badan chang chiqqan,
Jovchilar keldi, ena qiz.
Ikki otliq bir chiqqan,
Jovchilardir, ena qiz.
Yolg‘iz otliq ortida,
Kuyovingiz ena qiz.

Matndagi «ko‘k to‘ba» iborasi ramziy ma’noga ega. Qadimgi turkiylar tushunchasida ezgulik farishtalari ko‘k rangda bo‘lgan va osmonda yashagan. Demak, sovchilarning «ko‘k to‘ba» (ko‘k tepalik) ortidan kelishini ta’kidlashda ezgulikka, yaxshilikka ishora bor. Qolaversa, aytishuvdagi «to‘ba» so‘zi turkiylar turmushida keng tarqalgan tog‘ kulti bilan bog‘liq. Bobolarimiz tasavvuriga ko‘ra, homiy ruhlar yuqorida (tog‘lar, tepalik)larda yashaydi. «Ikki otliq» – juftlik, yolg‘iz otliq ortidagi bo‘lajak kuyov ham o‘z juftini qidirib yo‘lga otlangan obrazdir. Matndagi qizning ruhiy holati «checha» javobi orqali yechilmoqda. Yolg‘iz otliqdagi kishi bo‘lmish kuyovning ko‘rinishi, albatta, qizning voyaga yetganligini anglatmoqda. Matndagi «ena qiz» takrori javob ifodasi bo‘lib sanaladi[4].

Aksariyat hollarda oilada qiz bola tug‘ilganida chilla o‘tishi bilan boshqa oilalardan qizcha katta bo‘lganida o‘z o‘g‘liga olib bermoqchi bo‘lganlar chiqib qoladi va ular darhol unashtirish tashvishiga ham tushadilar. Masalan, XX asr boshlarigacha Qashqadaryoning quyi qismida yashovchi aholi orasida «beshikkertdi» odati bajarilgan. Bunda qiz tug‘ilgan uyga 5-6 yasharlik o‘g‘il bolaning onasi kelib, o‘g‘liga ushbu chaqaloq qiz so‘ralgan. Agar qizning ota-onasi rozi bo‘lsa, bolakay beshikda yotgan qizaloqning qulog‘ini sekingina tishlagan. Bu bilan unga ega bo‘lib qolgan. Marosimda ularning ustidan turli shirinliklar sochilgan. Bu marosim «quloqtishlar» deyiladi. Marosimda mulla chaqirilib, qishloq oqsoqollari guvohligida rasmiylashtirilib qo‘yilgan. «Beshikkertdi» — qizimiz sovchisiz egalik bo‘lib ketdi degan tushunchada anglatgan[6]. «Beshikkertdi» udumi bo‘yicha bo‘g‘irsoq pishirilib tarqatilgan. Chunki bo‘g‘irsoq eskidan o‘zbeklar ichida ko‘p bolalik belgisi hisoblangan[7].

[1] Сыздыкова Р. Создер сойлейді. – Алматы: Санат, 1994. –Б. 77.

[2] Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak va Xo‘janqon qishloqlari, 2022-yil avgust.

[3] Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. –B. 89.

[4] Murodova M.Sh. O‘zbek nikoh to‘yi folklorining janrlar tarkibi va badiiyati (O‘rta Zarafshon vohasi materiallari asosida): filol.f.b.falsa.dokt.diss.avtoref. – Toshkent: O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti, 2018. – B. 12.

[4] Мардонова Г. Никоҳ тўйи маросими фольклорида совчи образи ва совчилик билан боғлиқ удумлар. https://cdn.uza.uz/2022/12/16/11/27/QGCwfLAg5sL83DqKy6gPr85xvzK4gtlm.pdf

[6] Sattor M. O‘zbek udumlari. –Toshkent: Cho‘lpon, 2007. –B. 24-25.

[7] Rasulova Z. O‘zbeklarning nikoh to‘yigacha bo‘lgan marosimlari (qalin berish odati misolida). –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. –B. 34.

Bu marosim Yuqori Zarafshon vohasi o‘zbeklarida ham mavjud bo‘lib, qizaloqning chillasi chiqib, beshikka belanayotganda qarindoshlaridan biri yoki o‘rtoqlari kelib, 3-4 yoshlik o‘g‘ilchasiga qizning qo‘lini so‘ratadi. Agar ota-onasi va boshqa qarindoshlari rozilik bildirishsa, bolaga qizchaning qulog‘ini “tishlatishadi»[1].

Keyingi udumlarimizdan yana biri «etak yirtish» marosimi sanaladi. Unga ko‘ra, ikki uy egalari o‘zaro kelishgach, 1-3 yoshli qizcha bilan o‘g‘il bolaning etaklarini birlashtirib, uchidagini yirtib qo‘yishgan. Bu ularning bir-biriga atalganliklarini anglatgan. Qo‘ng‘irotlarda ushbu odat «etakchartish» deyiladi. Marosimda bo‘g‘irsoq pishirilib, qizaloqning boshiga ro‘mol, o‘g‘il bolaning boshiga esa do‘ppi kiydirilgan[2].

«Oyoq bog‘lash» udumida beshikda yotgan qiz chaqaloqning o‘g‘il bolaga atalganligini anglatadi. Unda ikki tomon bo‘g‘irsoq pishirib, bu to‘g‘rida qishloqdoshlariga ochiqlaydilar. «Etakka soldi» marosimida tug‘ilgan qizaloqning doya xotin tomonidan biror go‘dak o‘g‘ilning otini aytib, katta bo‘lsa shu yigitga erga tegadi, deb etagiga solinishini anglatadi[3].

Ko‘hitang tog‘ida yashovchi Xatak urug‘ida *quloqtishlar, beshikkerti* degan tushunchalar yo‘q. Uning o‘rniga «beshikto‘yda unashuv» marosimi o‘tkazilgan. Marosimda chilladan chiqqan qiz chaqaloqning uyiga qarindosh-urug‘ yoki biron o‘rtog‘i kelib, o‘z o‘g‘li uchun qizning qo‘lini so‘ratgan. Agar rozilik bildirilsa, ikki tomon bo‘g‘irsoq tayyorlab, qishloqqa tarqatishgan. Bu bilan qizchaning egalik bo‘lganligini ma’lum qilishgan[4].

Bundan tashqari, Surxon vohasida «bel quda» degan marosim ham keng tarqalgan. Unga ko‘ra, ikki qalin o‘rtoqning xotinlari og‘iroyoq bo‘lganida hali tug‘ilmagan bolalari agar o‘g‘il va qiz bo‘lib tug‘ilishsa, quda bo‘lishga qaror qilishadi. Agar chindan ham o‘g‘il va qiz tug‘ilsa, ular bir-birlariga «quda» deb murojaat qilganlar. Mabodo ikkovi ham o‘g‘il yoki qiz bo‘lib tug‘ilishsa, kelgusida qalin do‘st yoxud dugona bo‘lishsin deb niyat qilishgan[5].

Ayrim hollarda yigitlar ota-onasi aytgan qizga uylanishni istamay, o‘zlariga yoqqan qizlarga uylanmoqchi bo‘lsalar, muayyan udumlarni bajarishlari lozim bo‘lgan. Masalan, XX asr o‘rtalariga qadar Boysun, Sherobod va Termizda o‘tkaziladigan hosil bayramlarida «olmaotar» odati mavjud bo‘lgan. Unda yosh, uylanmagan yigitlar o‘zlariga yoqqan qizlarga qarata olma otganlar. Mabodo olma tegadigan bo‘lsa, yigit o‘sha qizga uylanishi kerak, degan tushuncha bo‘lgan. Shu bois onalar qizlariga olma tegmasligi uchun ularni qo‘riqlaganlar. Sherobod tumanidagi Kampirtepa qishlog‘ida esa hayit kunlari unashtirilganlar va sevishganlar bo‘yalgan tuxum bilan bir-birlariga qarata otganlar. Bu odat «tuxumotar» deb atalgan[6].

Sovet tuzumi davrida «bel quda», «etak yirtish», «quloqtishlar», «beshikkerti», «olmaotar», «tuxumotar» kabi udumlar eskilik sarqiti sifatida qaralishi natijasida yo‘qolib ketdi. Negaki, yangi shakllangan sovet jamiyatida yigit-qizlarning ko‘ngliga qaramay ish qilinishi qattiq qoralangan. Yoshlarga ota-onasidan so‘ralmay, o‘z ixtiyori bilan qalliq topish rag‘batlantirilgan. Shu sabab «beshikkerti» yoki «etak yirtish» ayrim chekka qishloqlarda qisman saqlanib qolganligini inobatga olmasa, qolganlari to‘liq tugadi.

Sovchi kelib, qizning ota-onasi rozilik bergandan so‘ng unashtiruv marosimi o‘tkaziladi. Unashtiruv udumi shevada «patiya» (fotiha), unashtirilganlar esa «patiyaxanda» deyiladi. Bunday deyilishiga sabab eskidan nikohdan oldin yoshi ulug‘lar, qishloq oqsoqollari va qarindosh-urug‘ yig‘ilib, kengash o‘tkazganlar. Kengashda kelin-kuyovning baxtli-saodatli bo‘lishligi uchun keksalarning duosini olganlar. Yoshi ulug‘lar bu to‘yga o‘zlarining oq fotihalarini berganliklari uchun bu udum «fotiha» deb atalgan[7].

Unashtirish marosimida mehmonlar ovqatlanib bo‘lgach, ular orasidan yoshi ulug‘ va obro‘li kishi bismillohi rahmoni rahiym deb, birin-ketin avval ikkita tandir non, keyin ikkita patir non, so‘ng ikkita qatpatir, oxirida ikkita qatlamani bitta qilib sindiradi. Ikkita nonni birdaniga sindirish oson emas. Lekin shunday qilinmasa unashtirish marosimi o‘tgan deb hisoblanmaydi. Non sindirilganidan so‘ng «yoshlarni baxtini bersin», deb duo qiladi. Shu bilan yigit va qiz unashtirilgan hisoblanadi. Hozir bo‘lganlar sindirilgan nonni yeydilar, qolganini ro‘molga tugib uyga olib ketadilar[8].

Xalqimizda non sindirish bilan bog‘liq ko‘pgina maqollar, hikmatlar saqlanib qolgan. Xususan, qadimiy o‘gitlarning birida shunday deyiladi:

Ikkita non, bitta kulcha.
Nonni ushatma tasbehdan qolar.
Kulchaga tegma, u bolaniki.

[1] Soatova S.A. Yuqori Zarafshon vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari (XIX asr oxiri—XX asr boshi). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 1999. –B. 39-40.

[2] Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari. Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –Toshkent, 2002. –B. 31.

[3] Rasulova Z. O‘zbeklarning nikoh to‘yigacha bo‘lgan marosimlari (qalin berish odati misolida). –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. –B. 35.

[4] Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug‘i misolida). –Toshkent, 2014. –B. 170.

[5] Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Zarabog‘, Poshxurt, Qorabog’, Xo‘jaulkan qishloqlari, 2018-yil iyun.

[6] Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. –B. 91.

[7] https://muxlis.uz/uz/blog/423

[8] Dala yozuvlari, Angor tumani, Zang qishlog‘i, 2019-yil mart.

Ma'nosi*: ikkita non va kulcha* – bu bir oila, ya'ni ikki non – bu ota va ona, kulcha – ularning bolasi. *Nonni ushatma* degani ota-onasiga teginma*, tasbehdan qolar* degani agar ular hayotdan ko'z yumishsa, bola yetim bo'lib, kelajagi xavf ostida qoladi. *Kulchaga tegma, u bolaniki* deganda biz kelajagimiz bo'lgan bolalarni tushunishimiz lozim. Kulcha, ya'ni bola o'z ota-onasini mahkam ushlab turadi. Ota-onani bog'lab turadigan ip ham bola ekanligi aytiladi[1].

«Patiya qilingan» ikki yosh odamlar ko'z o'ngida bir-biriga unashtirilgan sanaladi va ularga boshqa kishilardan sovchilar kelmaydi. Unashtirilgani aniq bo'lgan qizga o'zgalar yomon ko'z bilan qaramaydilar. To nikoh kuniga qadar qiz to'yga tayyorgarlik ko'rib boradi.

Boysun tumanidagi Sariosiyo qishlog'i tojiklarida sovchi ishini bitirib ketganidan so'ng fotiha to'yida to'rtta qo'y, ikki qop guruch, sabzi, kartoshka, 50ta ko'ylak beriladi[2]. Sherobod tumanidagi Xatak qishlog'ida esa unashtirish uchun to'qqiz tandir non va bir dona kulcha, to'qqiz patir va bir dona patir kulcha, to'qqiz qatlama va bir dona qatlama kulcha, to'qqiz qatpatir va bir dona qatpatir kulchasi, jami 40ta non zarur bo'ladi. Shundan to'rttasi kulchadir. Rizqi butun bo'lsin deb nonning soni qirqta qilingan. Negaki, qadimda bug'doyning o'zidan qirq turdagi taom tayyorlangan. Nondagi to'qqiz soni ota-onasi, kulcha esa, bolachasi hisoblangan. Ayrim badavlat kishilar qatpatirga sariyog', imkoniyati yetmaganlar oq moy surtishgan. Boshqa ellarda bunday holat uchramaydi[3].

Non sindirilgan payti ikki tomonning kelishuvi sodir bo'ladi. Buni «karda» deyilib, unda kuyov tomonidan nechta mol, qo'y, echki, paxtalik, un va shu kabi narsalar, ya'ni qalin berishi aniqlab olinadi[4].

«Qalïŋ»—qadimgi turkiycha so'z bo'lib, «kelinga berilgan to'lov» tushunchasida keladi. Qalïŋ bęrsa qïz alïr, kęräk bo'lsa qïz alïr — qalin bersa qizni (kelinni) oladi, biron narsani istagan kishi u qimmat bo'lsa ham olishga majbur bo'ladi. She'rda shunday kelgan:

Bęrdim saŋa qalïŋ
ęmdi munï alïŋ
ęmgäk męnïŋ biliŋ
oγrar tüŋür barγali.

Kuyov qaynotasiga aytadi: sizga qalin berdim, buni oling. Bu molni to'plashdagi qiyinchilikni tushuning. Qayin ota aytadi: u ketish oldida turibdi, ketmoqchi bo'lyapti-ku[5].

Yoki qalinsiz olingan kelin haqida: qïzïmïn qalïŋsïz berdim — men o'z qizimni qalinsiz berdim, deyilgan[6].

Odatga ko'ra, qalin miqdori urug' kengashi va oqsoqollar tomonidan belgilangan va yigit tomon tomoniga berilgan[7].

Qalinning paydo bo'lishi ibtidoiy davrga borib taqaladi. Patriarxal tuzumga o'tilishi sharoitida oila ayolga ishchi kuchi sifatida qarab, uni boshqa urug'ga uzatganlik uchun tovon sifatida muayyan miqdorda haq olish boshlangan[8].

Yurtimizda islom dini tarqala boshlaganidan keyin bu udumlar ham islomiy tusga kira boshlaydi. Odatga ko'ra, kelin to'y kuni kuyovning uyiga o'z sepi bilan birga ketgan. Sep esa, otaning qiziga beradigan ulushi hisoblangan. Ota o'limidan keyin ham qiz shariat bo'yicha otasining merosidan ulush olishga haqqi bo'lgan. Agar qiz boshqa urug'ga uzatilgan bo'lsa, u holda merosning bir qismi chetga chiqishi mumkin bo'lgan. Shuni hisobga olib, qalinni belgilashda oldiniga nikohlanuvchilarning qarindoshlik darajasi aniqlangan[9]. Mulk o'zga urug'larga chiqib ketishining oldini olish uchun nikoh ko'pincha urug'ning ichida amalga oshirilgan. Qizlarni o'z urug'idan tashqariga bermaslik odati ham mulkni saqlab qolishga bo'lgan intilishni sabab qilib ko'rsatish mumkin[10].

Juft non bo'lajak kelinning tog'asi yoki albatta bir nikohli, xotini tirik bo'lgan, uvali-juvali, oilasidan tingan, eng yaqin qarindoshlari tomonidan sindirilgan. Non davra ishtirokchilarga bo'lib berilgan. Bu marosim ikki yoshning el oldida o'sha kundan e'tiboran unashtirilganligining hamda « patiyaxandasi» borligining nishonasidir. Marosimda qudalar o'rtasida qalin bichilgan. Vohada belgilangan qalin pul, mol, buyumlar asosida to'langan. Masalan, qalin tarkibida 20 ta qo'y, 1 bosh buzoqli sigir yoki uning bozor narxidagi puli, 20 ta to'n va boshqa turli narsalar kelishib olingan[11]. Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarida ham non sindirish marosimi mavjud bo'lgan [12].

Bu marosimdan keyin «kelin qochuv», «kuyov qochuv» kabi udumlari bajarilgan, bunda qiz yigitning, yigit esa qizning yaqin qarindoshlariga hurmat

[1] Umarov I. Badash: tarix va an'ana. –Termiz, 2018. –B. 42.

[2] Fayzullayeva M. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. –B. 236.

[3] Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug'i misolida). –Toshkent, 2014. –B. 171.

[4] Umarov I. Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Termiz, 2022. –B. 97.

[5] Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. 3-jild. –Toshkent, 1963. –B. 382.

[6] Древнетюркский язык. –Ленинград, 1969. –С. 412.

[7] Musakulov A. Qalin // Muloqot. 1993, № 11-12. –B. 53.

[8] Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. -Toshkent, 1960. –B. 135.

[9] Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974. –С.302-308.

[10] Rasulova Z. O'zbeklarning nikoh to'yigacha bo'lgan marosimlari. Qalin berish odati misolida. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. –B. 71.

[11] Dala yozuvlari, Sho'rchi tumani, To'la qishlog'i, 2021-yil may.

[12] Андреев М.С. Материалы по этнографии Ягноба (записи 1927-1928 гг.). –Душанбе, 1970. –С. 125.

yuzasidan ko‘rinmaslikka intilishgan. Bu paytdan boshlab ikki yoshning ota-onalari bir-birlarini «quda», «qudag‘ay» deb atashgan[1]. O‘tkazilgan bu marosimlar zamirida ramziy ma’noda bir-birlarini e’tirof etib, qarindoshlik iplari bog‘langan deb bilishgan.

Ushbu marosim vohaning Xo‘jamulki, Chaqar qishloqlarida «non sindirish», Dashnobod, Bo‘yrachi qishloqlarida «non ushatish», Shaldiroq, Obodon qishloqlarida «yaloq qizartar» deb atalib, bunda 4 ta qatlama, 4 ta patir, 4 kiyimlik mato, 2 ta bo‘yniga oq ro‘mol bog‘langan qo‘y, meva-chevalar, shirinliklar, ularning ichida albatta kunjutli holva bo‘lishi shart bo‘lgan[2].

Ko‘p hollarda kuyov tomon to‘y qilish yoki qalin to‘lashga imkoni bo‘lmaganligi sabab to‘y kechiktirib turadi. Qalin to‘lashga qurbi yetmagan kishilar kambag‘allar bo‘lib, ular *chig‘ay* deb atalganlar. Ana shunday hollarda «qalliq o‘yin» amalga oshiriladi. Agar ilk bor uchrashishayotgan bo‘lishsa, yoki nikohdan o‘tmagan bo‘lsalar, ular guvohlar oldicha ko‘rishishadi. Faqat bu holatda uchrashuv kelinning uyida bo‘ladi. Qiz bilan yigit ayb ish qilmasliklari uchun to‘ysiz nikohdan o‘tkaziladi. Bunda kelin o‘z ota-onasining uyida yashaydi[3].

*Qalliq o‘yin*da qiz o‘z yigitiga qaysi payt kelishini yangalari orqali ayttiradi. Kuyov uchun bo‘lakcha xonada dasturxon yozadi. Kuyov ham kelinning ko‘chasida hech kimga ko‘rinmay kelishi lozim. Agar biron yoshi katta kishi uni tanib qolsa u holda kuyov unga qachon bo‘lmasin yaxshilab *erishi* lozim bo‘ladi. Bu odat *kuyov ushlar* deb ataladi. Mabodo yoshroq yigitlar uni ushlab olishsa, ularning ham talabini bajarishga majbur. Bo‘lmasa, uni savalashlari mumkin[4].

Xulosa qilganda, sovchilik nikoh to‘yiga qadar amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, juda katta mas’uliyatni talab qilgan. Negaki, unda ikki yoshning kelajagi inobatga olingan. Aholi tomonidan o‘tkaziladigan turli marosimlar odamlarni jipslashtirishga xizmat qilgan. Negaki, marosimlarda xalqimizning kundalik hayoti, turmushi, urf-odatlari, e’tiqodlari, rasm-rusumlar madaniyati mujassamlashgan.

Resume: In this article, reasonable opinions about the ceremonies related to the marriage process in the districts of Surkhandarya region, the history of their origin and the methods of formation of ethnographies are proved based on scientific sources and information obtained from the speech of the population.

Резюме: В данной статье на основе научных источников и информации, полученной из речи населения, обоснованы обоснованные мнения об обрядах, связанных с брачным процессом в районах Сурхандарьинской области, истории их возникновения и методах формирования этнографии.

[1] Dala yozuvlari, Denov tumani, Dunyotepa qishlog’i, 2000-yil avgust.
[2] Dala yozuvlari, Sho‘rchi tumani, Shaldiroq, Obodon qishloqlari, 2021-yil sentabr.
[3] Dala yozuvlari, Boysun tumani, Pasurxi qishlog‘i, 2021-yil may.
[4] Dala yozuvlari, Termiz tumani, Yangiariq qishlog‘i, 2021-yil may.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

АНТОНИМИЯ ПОСЛОВИЦ С КОМПОНЕНТАМИ -АНТРОПОНИМАМИ НА МАТЕРИАЛЕ СБОРНИКА ПОСЛОВИЦ В.ДАЛЯ

Садикова Эльвира Витальевна,
Преподаватель кафедры русского языкознания
Термезский государственный университет

Русские пословицы являются сложным логическим, семиотическим целым, обладающим лексико–семантическими и структурными закономерностями[1].

Пословица включает в себя структуру и семантику предложения, а значит информация, описанная различными языковыми средствами, составляет план содержания пословицы. Каждое предложение состоит из слов, естественно слово является строительным материалом и для пословиц.

В нашей статье мы рассматриваем антонимичные пословицы, которые являются кратким, ритмически организованное произведение народного творчества, которая показывает опыт поколения на протяжении всей истории.

"Антонимия в языке представлена уже, чем синонимия: в антонимические отношения вступают лишь слова, соотносительные по какому-либо признаку – качественному, количественному, временному, пространственному и принадлежащие к одной и той же категории объективной действительности как взаимоисключающие понятия: красивый – некрасивый, много – мало, утро – вечер, удалять – приближать"[2]. М.И. Фомина отмечает соотносительный характер антонимов и указывает, что "соотносительным противопоставлением называется потому, что в подобные отношения вступают лишь слова, находящиеся в одной и той же лексической и грамматической (по признаку отнесенности к одной и той же части речи) парадигме, обозначающие логически совместимые понятия. В основу их сопоставления положен один и тот же общий и существенный для них признак"[3]. Антонимы возможны у таких слов, значения которых заключают в себе противоположные качественные оттенки, но в основе значений всегда лежит общий признак (вес, рост, чувство, время суток и т. д.). Также могут быть противопоставлены только слова, принадлежащие к одной грамматической или стилистической категории. Если слово не содержит признака, способного к противопоставлению, то оно не может иметь антонимические отношения, однако то же самое слово в переносном значении уже приобретает антонимичную пару. В таком случае появляются контекстуальные антонимы.

С точки зрения языка и речи антонимы разделяют на: 1) языковые (узуальные) – антонимы, существующие в системе языка (богатый-бедный); 2) речевые (окказиональные/контекстуальные) – антонимы, возникающие в определённом контексте (чтобы проверить наличие данного типа, надо свести их к языковой паре) – часто встречаются в пословицах и поговорках (дорогой-дешёвый). Языковые антонимы фиксируются в специальных словарях: «Словаре антонимов русского языка» М.Р. Львова под редакцией Л.А. Новикова[4], в котором приведено около 2000 антонимических пар. У них значения не объясняются, а иллюстрируются словосочетаниями и примерами из художественной и публицистической литературы. В "Школьном словаре антонимов русского языка" М.Р. Львова[5], а также в "Словаре антонимов русского языка" Л.А. Введенской[6] антонимы входят в лексико-семантические группы. Лексико-семантическая группа – "это обширная организация слов, объединенная базовым семантическим компонентом, который обозначает класс классов предме-

[1] Селиверстова Е.И. Пространство русской пословицы: постоянство и изменчивость. СПб.: ООО «МИРС», 2009. – 270 с.

[2] Новиков, Л. А. Антонимия в русском языке: (Семант. Анализ противоположности в лексике). – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1973. – 289 с.

[3] Фомина, М. И. Современный русский язык. Лексикология: Учеб. для фил. спец. вузов. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: ВШ, 1990. – 415 с.

[4] Фомина, М. И. Современный русский язык. Лексикология: Учеб. для фил. спец. вузов. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: ВШ, 1990. – 415 с.

[5] Словарь антонимов русского языка» М.Р. Львова под редакцией Л.А. Новикова. Львов. 1978. – 400 с.

[6] Словаре антонимов русского языка» Л.А. Введенской. 2002. – 445 с.

тов, признаков, процессов, отношений".[1] Антонимия отражает существенную сторону системных связей в русской лексике. Современная наука о языке рассматривает синонимию и антонимию как крайние, предельные случаи взаимозаменяемости и противопоставленности слов по содержанию. При этом для антонимических отношений характерно семантическое различие. Существование антонимов в русском языке обусловлено характером нашего восприятия действительности во всей ее противоречивой сложности, в единстве и борьбе противоположностей, поэтому контрастные слова, как и обозначаемые ими понятия, не только противопоставлены, но и тесно связаны между собой.

Смысловая емкость и образность народных речений часто создается антонимами. Основная стилистическая функция антонимов – быть лексическим средством противопоставления, контрастного изображения природных и социальных явлений, черт характера и т.п. Важно указать на то, "что употребление сравнения, антитезы, метонимии, с одной стороны, служит передаче определенной мысли, а с другой – сохраняет целостность пословицы"[2]. Противопоставление в пословицах занимает одно из главных мест. На этом приеме строится большинство русских пословиц. Сопоставляя, различные явления окружающей действительности, человек может прийти к определенному выводу, а пословица, как явление, имеющее по своей сути указательный и поучительный характер, поможет избежать противопоставления, выдавая в своем содержании готовое наблюдение. Опираясь не на собственный опыт, а на опыт многих поколений, человек заранее оказывается в выигрышной позиции – весь опыт передается через краткое и емкое изречение. Именно таким способом совершается коммуникативный акт сквозь время: мысль, заключенная в пословице, доходит до читающего /слушающего пословицу, и тем самым пословица становится учителем сквозь время. Пословицы в концентрированной форме выражают многовековую мудрость народа, его наблюдения над миром, окружающей природой и взаимоотношениями между людьми.

Устное народное творчество и его жанры, есть один из самых выразительных примеров употребления антонимов

Паремии, как произведения устного народного творчества являются одним из основных источников изучения культуры народа, его национального характера, основу которого составляет набор универсальных и специфических ценностей. "Поражает вездесущность пословиц – они касаются всех предметов, вторгаются во все области человеческого бытия, людских надежд, помыслов, оценок. Тематика пословиц столь же обширна, как и жизнь народа"[3].

На сегодняшний день существует много важных исследований, посвящённых изучению вопросов антонимии. Самые важные проблемы антонимии поднимаются в работах Л. А. Введенской и Л. А. Новикова. Огромное значение для науки имеет изучение разных вопросов русской антонимии, которыми занимались Ю. Д. Апресян, А. А. Брагина, А. Иванова, А. А. Киреев, В. Н. Комиссаров, М. Р. Львов, Е. Н. Миллер, Э. И. Родичева, А. А. Уфимцева, И. Л. Филоненко, Н. Ю. Шведова, Н. М. Шанский и др.

Антонимия есть предмет пристального внимания учёных, уже на протяжении длительного времени. Без антонимов не может существовать ни одна пословица и ни одна поговорка. Вряд ли какие-нибудь другие языковые средства столь выразительно и лаконично описывают контрасты, из которых состоит наша жизнь. Ученые указывают на то, что антонимия обладает «сверхъестественным» качеством. Возьмите, например, одновременную близость и удаленность антонимов друг от друга. Значения пары антонимов интуитивно кажутся максимально обособлены. И все-таки существует какая-то сверхъестественная сила, которая объединяет два слова с противоположным значением. Философы и ученые от Гераклита до Юнга указывали на способность вещей проявлять противоположные свойства; и многие отмечали, что существует очень тонкая грань между любовью и ненавистью, гениальностью и сумасшествием"[4].

Главным в антонимии есть то, что «наличие в значении слова качественного признака, который может возрастать или убывать и доходить до противоположного. Антонимы «широко используются в художественной речи, в публицистике как выразительные средства создания контраста».

В процессе рассмотрения научных работ, связанных с пословицами, нами было замечено, что

[1] Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов / Т. В. Жеребило. – 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 485 с.

[2] Кравцов Н. И., Лазутин, С. Г. Русское устное народное творчество: Учебник для фил. спец. ун-тов. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: ВШ, 1983. – 448 с.

[3] Аникин В.П. Владимир Иванович Даль и его сборник пословиц. Послесловие// В.И.Даль. Пословицы русского народа: Сб.: В 2 т. – М., 1984.

[4] Юсупова З.А. Когнитивный аспект исследования противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц и поговорок) // Вестник Башкирск. ун-та. 2010. № 3. – С. 667-669.

большое внимание было уделено антонимии. Но лингвисты рассматривали антонимы внутри самой пословицы, например: “Веку мало, да горя много”, “Велик телом, да мал делом”, “Волос долог, да ум короток”, “Где умному горе, там глупому веселье”, “На иную хитрость станет и простоты”, “Кабы на твою хитрость да не моя простота”, “Где просто, там ангелов со сто, где хитро, там ни одного”.[1]

В нашей работе при разборе структуры пословиц на лексико-семантическом уровне, мы выделили разные пословицы, которые могут быть из разных тематических групп, и являться антонимичными. Естественно, для того чтобы убедиться в правильности наших решений и выводов, об антиномичности пословиц сборника В.Даля, мы сначала разобрали всю семантическую составляющую пословиц с личными именами.

Вот примеры нескольких пословиц, которые мы выделили в нашей работе, и те, которые, по нашему мнению, оказались наиболее яркими.

Рассмотрим несколько примеров, выделенные нами в процессе работы, например, такие пословицы как:

1. “Не для Иисуса, а ради хлеба куса” и “Не для хлеба куса, ради самого Иисуса”.

Имя Иисус много раз используется В. Далем в сборнике русских пословиц. Тема бога и Иисуса всегда являлась актуальной для русского народа, они свято верили в них. И всё же отношение людей к святым было разным, это и показал автор в данной тематической группе. Первая пословица, повествует о том, что некоторые люди не искренне верят в Иисуса, а только надеются на его помощь. Во второй же пословице говориться, что нужно свято верить во всевышнего, не уповая на его помощь.

2. “Бывает добро, да не всякому, как Якову” и “Всякому по Якову”.

Это пословицы из одной тематической группы. В них говориться о судьбе человека: в первой говориться о том, что хорошее даётся всем, но не поровну, а во второй, что всем всё одинаково.

3. “Доброму Савве добрая и слава. Что Савва, то и слава” и “Худая слава, что без кафтана Савва”.

Людская молва всегда много значила для общества, во все времена, поэтому в пословицах описаны, как правило, внешние и внутренние качества человека. Данные пословицы взяты именно из такой тематической группы, посвящённой людской молве, в них описываются разные мнения людей, плохие и хорошие.

Резюме: В нашем исследовании были рассмотрены пословицы с компонентами-антропонимами с лексико-семантической стороны. Паремии с антропонимическим компонентом более экспрессивны, потому как имя в них выражает человека более настоящим, т.е. конкретизирует его. Мы рассмотрели антонимичную сторону пословиц с компонентами-антропонимами.

При анализе антонимии пословиц, нами были изучены работы учёных-лингвистов, их различные точки зрения. Мы пришли к выводу, что в основном была рассмотрена антиномичность внутри одной пословицы, мы же, выделили пословицы, являющиеся антонимами на примере пар пословиц и пришли к выводу, что их в рассматриваемой нами литературе их немало.

Rezyome: Tadqiqotimizda antroponimik komponentli maqollar leksik-semantik tomondan ko‘rib chiqildi. Antroponimik komponentli maqollar ko’proq ifodali bo’ladi, chunki ulardagi ism shaxsni yanada to’g’ri ifodalaydi, ya’ni. aniqlaydi. Antroponimik komponentli maqollarning antonim tomoniga nazar tashladik.

Maqollarning antonimiyasini tahlil qilishda tilshunos olimlarning asarlarini, ularning turli qarashlarini o‘rgandik. Biz, asosan, bir maqol doirasidagi antonimlikni tadqiq qildik, degan xulosaga keldik, lekin maqol juftlari misolida antonim bo‘lgan maqollarni aniqladik va biz ko‘rib chiqayotgan adabiyotimizda ularning ko‘pligi to‘g‘risida xulosaga keldik.

Resume: Our study examined proverbs with anthroponym components from the lexical-semantic side. Proverbs with an anthroponymic component are more expressive, because the name in them expresses the person more truly, i.e. specifies it. We looked at the antonymous side of proverbs with anthroponym components.

When analyzing the antonymy of proverbs, we studied the works of linguist scientists and their different points of view. We came to the conclusion that we mainly examined antonymity within one proverb, but we identified proverbs that are antonyms using the example of pairs of proverbs and came to the conclusion that there are many of them in the literature we are considering.

[1] Круз Д. А. Лексическая семантика [Текст] / Д.А. Круз. - Кембридж: Издательство Кембриджского университета, 1986.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI ORONIMLARINING TARIXIY MANBALARDA QO'LLANISHI

Kenjayev Zohirjon Sobirovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishi jahon tilshunosligida lingvistik tadqiqotlar ustida jiddiy izlanishlar olib borish lozimligini ko'rsatib turibdi. Xususan, bugungi kun tilshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri xalq hayoti bilan bog'liq o'ziga xos dunyoqarashni aniqlash va bu qarashlarning asrlar oshishi natijasida ayrim o'zgarishlarga uchrash sabablarini aniqlashdan iborat. Bu jarayonda tarixiy manbalarga murojaat eng ma'qul yo'llardan biridir. Bu orqali esa har bir xalqning lisoniy manzarasida olam haqida qadimdan shakllangan qarashlarini anglashga imkon beradi. Bunday holatlarni nafaqat tilshunoslik ilmida, balki barcha fan va fan tarmoqlarida kuzatish mumkin. Har bir fan haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalari mavjud. Xususan, toponimika haqida ham ma'lumot beruvchi manbalar yetarlicha. "Toponimika" [yun. topos - joy + oputa — nom] Biror joyning, hududning geografik nomlari (aholi punktlari, daryo, ko'l va b. nomlari) majmui[1].

Toponimika haqida gap ketganda asosiy xususiyatlari haqida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Toponimik birliklarni o'ziga xos xususiyati shundaki, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda o'z holaticha o'tadi va shaklan turg'un bo'lib o'zgarish holatlari kam kuzatiladi, asrlar davomida yashovchaligi va barqaror turishi bilan soha vakillarini o'ziga jalb etadi.

Barchamizga ma'lumki, "Avesto" O'rta Osiyo xalqlari va xalq hayotidan xabar beruvchi ilk yozma manbalardan biri bo'lib, ko'pgina fanlar uchun qimmatli ma'lumotlarni mujassam etgan. Xususan, Markaziy Osiyo va unga chegaradosh hududlar toponimiyasi va uning bir qismi bo'lmish oronimlar haqida qimmatli ma'lumot beruvchi eng qadimiy ilmiy manba milloddan avvalgi 1-mingyillikning 1-yarmida vujudga kelgan "Avesto" kitobidir. Ushbu asarning "Yasna", "Yasht" va "Vandidod ("Vaydaivadota" so'zining ixchamlashgan shakli)" qismlarida viloyatlar, tog', tog' cho'qqisi, daryo va ko'llarning nomlar keltirilgan bo'lib, asarning so'ngida izohi ham berib o'tilgan[2]. Shu ma'noda ushbu asar ko'plab tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Avesto" matnidagi onomastik birliklar va ularning Xorazm viloyati hududidagi birliklar bilan o'xshashliklari M.B.Tillayeva[3] tomonidan maxsus o'rganilgan. Jumladan, tadqiqot ishida "Avesto" tilida uchraydigan atoqli otlarning lug'at ko'rsatkichi ham keltirilgan. Tadqiqotda mavjud bo'lgan joy nomlarini toponimlar deyish uchun yetarli ilmiy asos yo'qligini, bunga sabab qilib esa joy nomlarini ayrimlari hozirgi kunda muqobil variantini topgan bo'lsa, ba'zilarining muqobil variantini topish qiyin bo'ladigani ayrim hollarda esa buning imkoni bo'lmay qoladigani aytib o'tilgan. Shuning uchun "Avesto"dagi onomastik tizimga oid birliklarni *"makon nomlari"*[4] deb atashni ma'qul ko'rgani keltirib o'tilgan.

"Avesto" asarida keltirilishicha, bu olamda tog'lar soni ikki ming ikki yuz qirq to'rtta deyilgan (228-bet). Asardan o'rin olgan Yasna 10-xotning 10-bandida Alburz (rim tilida Kuh i Elburz, Gori Koh-i-Elburz, Kohe Alborz, Kuh i Alborz (dariycha: *(baland tog'),* Afg'onistonning Balx viloyatidagi Hindukush tizmasidagi tog'[5]) tog'i nomini uchratamiz. Mazda bunyod aylagan (254-bet) deb aytilgan bu tog' *"eng ulug' tog'"* deya ta'riflangan. Ushbu tog'da Axuramazda Havmga hunar o'rgatganligini aytib o'tilgan. Alburz tog'i haqida "porloq va ko'p rishtali, uning cho'qqilaridan qor ko'chmaydi; u yerda na tun va na zulmat; na sovuq va na issiq bod; na o'ldirguvchi noxushlik, na dev yaratgan palidlik bor", - deya ta'rif berilgan (263-bet).

Alburz oronimi Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham tilga olingan:

"Bu andin turfaroqkim tegsa ul tosh,

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, – Б.149.

[2] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Тошкент: Шарқ, 2001. Ishimizning keyingi o'rinlarida ushbu manbadan olingan misollarda kitob sahifasini berib o'tish bilan cheklanamiz.

[3] Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи ("Авесто" ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. Фан.ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 26 б.

[4] Тиллаева М.Б. Ko'rsatilgan avtoreferat. – B. 9

[5] https://uz.wikipedia.org/wiki/Koh_e_Alburz_(Balx)

*Bo‘lub **Alburz** tog‘i bo‘lsa xashxosh”.*

Bundan tashqari, “Shohnoma” asarida ham Alburz oronimi Elburz shaklida qo‘llanilgan:

*Manuchehr dargohining jahonpahlavoni Som ko‘pdan beri farzand kutardi. Nihoyat, Yaratganning inoyati bilan bunda Jannat yuzali farzand tug‘iladi. Ammo bu o‘g‘il oq soch edi: Buni eshitgan Som Xudoning amriga zid borib, go‘dakni bu olamdan yo‘qotishni buyuradi. Natijada, begunoh farzandni Semurg‘ uya qurgan **Elburz** tog‘i etagiga eltib tashlaydilar*[1].

Shu xotning 11-bandida quyidagi tog‘ nomlari va ularga tegishli ta’riflarni ko‘rishimiz mumkin: *“Shunda bir sinalgan qush seni chor atrofga – Upoyiriy saina tog‘i cho‘qqilariga; Starusara tog‘i balandliklariga; Kusrupata tog‘i etaklariga; Viysh pasa tog‘i atrofi va Spiyta guna tog‘i yonbag‘riga yoyib yuboradi”.*

Asarda ushbu oronimlar haqida quyidagi izohlar berilgan: Upoyiriy saina – ma’nosi *“lochin (shoxin) yoxud semurg‘dan kuchli”.* Tog‘ nomi. “Bundaxishn”-da “Aparsin” shaklida ifodalangan ushbu tog‘ xususida ko‘p so‘z yuritiladi. Kitobning 12-bo‘lim 9-bandida aytilishicha, Aparsin Alburzdan keyingi eng ulug‘ tog‘ hisoblanadi. Aparsin tog‘i Sakistondan boshlanib, Xuzistonda tamom bo‘ladi. O‘sha manbada (16, 17, 21, 22-bo‘limlar) aytilishicha, Xiriyrud Aparsin tog‘idan boshlab oqadi. Sakistondagi Xalmanrudning boshi ham Aparsin tog‘idadir. Mavrud ham Aparsindan iptido topadi. Bahrud ham Aparsindan boshlanib, Bomiyong‘a dovur oqib keladi. Aytish mumkinki, Upoyiriy saina (Aparsin) Hinduqush tog‘ining Boxtar qismi, ya’ni Bobotog‘ (Ko‘hi Bobo) silsilasidir. Bobotog‘ning balandligi besh ming to‘rt yuz to‘qson metr bo‘lib, uning haybatli toshlari va cho‘qqilarini hamisha qor qoplag‘an (336-bet). Ushbu tog‘ ham Alburz singari muqaddas xavm[2] giyohi o‘sadigan tog‘lardan biridir.

Kusrupata – ma’nosi “Osti nisheb”. Yasnaning 10-xot, 11-bandida keltirilishicha, muqaddas xavm giyohi o‘sadigan tog‘lardan biri. “Dormustatar” kitobida yozilishcha, Kursupata G‘urband tog‘ining silsilasidir (336-bet).

Viysh pasa – ma’nosi “hamma yoqda”, yoxud “aylanma, girdogird”. Muqaddas xavm giyohi o‘sadigan tog‘lardan biri. “Dormustatar” kitobida yozilishicha, bu so‘zning ma’nosi “o‘tar joy” Hindiqush tog‘i halqalaridan biridir (336-bet).

Spiyta guna – ma’nosi “oq tusli”. Muqaddas xavm giyohi o‘sadigan tog‘lardan biri. “Dormustatar” kitobining guvohlik berishicha, Spiyta guna Hinduqush tog‘i silsilasidir (336-bet).

Bundan tashqari, ushbu asarda Xara, Arizvar oronimlar keltirilib, ular quyidagicha izohlangan: Arizvar – asotiriy tog‘. “Vandidod”da bu tog‘ o‘ngirlar va cho‘qqisida devlar jam bo‘ladi deyiladi. “Bundaxshin”-da Arizvar tog‘i o‘ngirlari do‘zax darvozasi deyilgan. Go‘yo ushbu darvoza orqali devlar do‘zax va jismoniy olam oralig‘ida shitob qilganlar. Boshqa zardushtiy manbalarda ham devlar jamlanadigan manzil, deyiladi (349-bet).

Xara oronimi to‘g‘risida, “zamin kurrasini ixota qilgan afsonaviy tog‘ silsilasi. Xar-Barazayti atamasininng taxtullafz tarjimasi “Yuksak Xara”dir. Keyinchalik bu atam Shimoliy Eron va Qofqoz hududidagi Alburz tog‘lariga nisbat berildi. Har ikki atama avestoyidir. Yuksak Xara yoxud Xarati haqidagi tushunchalar zamirida ehtimol, Pomir-Hindiqush tog‘lari haqidagi tasavvur yotgandir”, - deyilgan (358-bet). Ushido va Ushidarno, Xukar, Xukariyo (xudolar maskani bo‘lmish afsonaviy tog‘), Erzifiya (afsonaviy tog‘), Xshatrosuka (afsonaviy tog‘ dovoni) singari oronimlar ham asar matnidan o‘rin olgan. 19-yashit, Zamyad yashiti tog‘larning madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, u ushbu olqishlar bilan boshlangan: “Mazda bunyod aylagan Ushidarno tog‘lariga, Mazda bunyod aylagan qavaylik saxovatpesha Xuvarnoga, Mazda in’om aylagan qo‘l yetmas Xuvarnoga shodliklar, duo-yu olqishlar, shon-u sharaflar bo‘lsin” (228-bet). Shundan so‘ng birin-ketin tog‘larning nomlari madh etila boshlangan. Bu madhlarda, dastlab tog‘lar qad ko‘tardi, ulug‘vor Xarati yuksaldi. Bu zamin uzra kunchiqardan kunbotargacha mavjud bo‘lgan barcha mamlakatlarni o‘rab turguvchidir. Ikkilamchi Manushaning nargi yog‘idan kunchiqardan kunbotargacha mavjud bo‘lgan mamlakatlarni qurshab turuvchi Zardaza tog‘i qad rostladi. Shundan keyin Ushida, Ushidarno, Erzifiya, Arazura, Bumiya, Mazishva, Antar-Daxyu, Erzisha, Vatigaysa va boshqa tog‘lar qad rostlagani keltirilgan (228-bet).

Ushbu qasidada aytilishicha, bu tog‘larni odamlar ko‘rib yoki tog‘larga chiqib, keyin nom berishgan.

O‘zbekiston geografik joy nomlarini qadimgi bitiklarda ham uchratish mumkin. Xususan, “O‘g‘uznoma” dostoni “Muztog‘” oronimi qo‘llangan. Asarda “Muztog‘” tepasi sovuq bo‘lib, usti muz bilan qoplangan. Uning cho‘qqisi esa, ayozdan oppoq bo‘lib qolgan. Shuning uchun ham uning otini Muztog‘ deydilar”[3], - deya ta’rif berilgan. Shuningdek, “O‘g‘uznoma”da Sindu va Tangut oronimlari ham uchraydi:

[1] Фирдавсий. Шоҳнома: сайланма / Нашрга тайёрлончи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж.Мухаммад. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. — Б. 42.

[2] Izoh: Havm giyohidan olinadigan suv yoki suyuqlik turli muqaddas marosimlar vaqtida ichiladi. Zardushtiylikning ilk bosqichidan intihosigacha bo’lgan davrda ushbu giyoh va uning sharbati mazdaparastlarning muqaddas marosimlarida muhim o’rin tutgan. Havm sharbati o’limni yenguvchi, shuningdek, o’limning oldini oluvchi, farzand ato etuvchi sifatida qaralgan.

[3] “Ўғузнома”. Қадимги битиклар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 26

1. Andin so‘ng kena bu ko‘k tulugluk, ko‘k yalluq
2. Erkak bo‘ri birla Sindu tagi, Tangut tagi[1].

(Mazmuni: *Shundan so‘ng Sindu va Tangu tog‘ etagida yana o‘sha ko‘k tukli, ko‘k yolli, erkak bo‘ri)*

Yoki Kultegin bitigida turklar “Yenchu daryosidan kechib o‘tib, Temir qopug‘ deb atalgan joygacha bordilar”[2] deyiladi. Olimlarninng aniqlashicha, Temir qopug‘ – Surxondaryo viloyati Boysun tumani Temir darvoza darasining nomidir.

Shuningdek, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari toponimika uchun qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Toponimshunos O.Begimovning ta’kidlashicha, uch tomdan iborat bu asarda ikki yuzga yaqin toponimlar, shuningdek, hozirgi toponimlar tarkibida saqlanib qolgan so‘zlar, atamalar va ularning izohlari keltirilgan[3].

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida ham O‘rta Osiyo hududiga tegishli bo‘lgan oronimlar kiritilgan. Tuzuklarda oronimlar guruhiga kiruvchi dara nomlaridan quyidagilar izohlari bilan keltirilgan. *Darayi Arsaf* (Balx tog‘lari ichida joylashgan dara)*, Darayi Suf* (Balxni Kobul bilan bog‘lovchi yo‘l o‘tgan joy)*, Daragez* (Balxning janubiy tarafida, undan taxminan to‘rt farsah masofada, Balxob daryosi bo‘yida joylashgan tog‘ darasi), *Chakchak darasi* (Chakchak tizmasining janubiy etagida joylashgan mavze, hozirgi nomi Chakdara (Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida hududida)) kabilar asar matnida o‘rin olgan. Bundan tashqari asarda tog‘ nomlaridan “Kashmir tog‘i” nomi ham keltirilgan. Shuningdek, yuqorida tilga olingan “Temur qapug‘” darasi nomi Qaxushqa qal’asi yoki forscha “Darbandi ohanin”, arabcha “Bob ul-hadid”, qadimgi turkiy tilda “Temur qopug‘”, mo‘g‘ulchada esa “Qahlaha” deb atalganlini ushbu asar orqali bilishimiz mumkin.

Onomoastik birliklar haqida ma’lumot beradigan tarixiy manbalardan yana biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari hisoblanadi. R.Saydullayeva “Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi”[4] mavzusidagi dissertatsiyasida asar matnidagi 1670 ta atoqli otni aniqlab, ularni onomastikaning bo‘limlari yuzasidan tasnif etgan. Tadqiqotda “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarni uch bosqichda o‘rinli tasniflangan. Birinchi tasnifda asardagi onomastik birliklar illyustrativ misollar asosida kartotekalashtirilib, tartibga solingan va alohida-alohida bo‘limlarga bo‘lingan. Tasnifda oykonimlar va oronimlar tipiga kiruvchi 761 ta onomastik birlik mavjudligi qayd etiladi[5]. Ikkinchi tasnifda “Zafarnoma” asaridagi 756 ta antroponimlarning sulolalar kesimida tasniflangan. Uchinchi tasnifda esa Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan 4 ta yirik asar: Nizomimiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) asarlaridagi onomastik birliklar miqdor jihatdan qiyoslangan. Muallifning ta’kidlashicha, yuqoridagi asarlardan onomastik birliklar eng ko‘p qo‘llangani Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari ekanligi, unda 1888 ta atoqli ot bor ekanli aytilgan. Xususan, ushbu asarlarda qo‘llangan oronimlar statistikasi keltirilgan. Statistika ko‘ra, oronimlar eng ko‘p o‘rin olgani Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari hisoblanadi va unda 103 ta oronimik nom qo‘llanganligini, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida 85 ta, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asarida 8 ta, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida ham 8 ta oronim bor ekanligini ko‘rishimiz mumkin[6]. Shuningdek, muallif tomonidan asardagi onomastik birliklarni izohli lug‘ati ham tuzilgan[7]. Tadqiqotchi “Zafarnoma”da gidronim, xoronim, oronim, oykonim, drimonim, nekronim, dromonim, urbanonimlar mavjud va ular son jihatdan turlicha ekanligini va gidronim, oronim, oykonimlar boshqa toponimik birliklarga qaraganda ancha ko‘p”, - degan xulosaga keladi[8].

Xulosa qilib aytganda, onomastika bo‘limining muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan oronimlarning tilshunoslik fanida tutgan o‘rnini tadqiq qilish, keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, qadimda qo‘llanilgan va tarixiy manbalarda qayd etilgan oronimlarning tarixiy taraqqiot natijasida leksik o‘zgarishlarga uchraganligini aniqlash tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

[1] Ўғузнома. Нашрга тайёрловчи: Бахтиёр И. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 10.

[2] Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 32.

[3] Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Самарқанд, 2021. – Б. 38.

[4] Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Qarshi, 2022. – B. 144.

[5] Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Qarshi, 2022. – B. 59.

[6] Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarning izohli lug’ati. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B. 63.

[7] Saydullayeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarning izohli lug’ati. – Qarshi: Intellekt, 2022. – B. 378.

[8] Saydullayeva R.I. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi. – Qarshi – 2022. – B. 94.

Rezyume. Ushbu maqolada onomastika bo‘limining o‘rganish obyektlaridan biri bo‘lgan oronimlarning tarixiy manbalarda qo‘llanishi haqida fikr yuritilgan. Xususan, “Avesto”, “O‘g‘uznoma”, “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma” kabi manbalardagi oronimlarning qo‘llinishi bilan bog‘liq o‘rinlar tahlilga toritilgan.

Resume. This article reflects on the use of oronyms in historical sources, one of the objects of study of the onomastic section. In particular, the positions associated with the use of oronyms in sources such as ”Avesto“,”Oğuznoma“, ”Temur Tuzuk“,” Zafarnoma “ are narrowed to analysis.

Резюме. В данной статье рассматривается использование оронимов в исторических источниках, являющихся одним из объектов изучения раздела ономастика. В частности, анализу подверглись места, связанные с употреблением оронимов в таких источниках, как “Авеста”, “Огузнама”, “Тузы Тимура”, “Зафарнама”.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

GULJAMOL ASQAROVA SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Ibodullayeva Kunduz Rustam qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti
kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Lingvopoetik vositalarning badiiy matnlarda qo‘llanishi haqida fikr yuritganda ko‘proq ularning matnda tutgan o‘rniga, shoir yoki yozuvchining maqsadi, qolaversa, ijodkorning tili va individual uslubi ijodkorning so‘z boyligi,til vositalarining ifodalanish usulullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari asosida aks ettirilishi nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har qanday badiiy matnda ijodkorning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat va jamiyatga, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, odamlarga subyektiv munosabati, tafakkur doirasi, e’tiqodi va dunyoqarashi kabilar lingvopoetik vositalar yordamida o‘zining badiiy ifodasini topadi[1].

Badiiy asarni adabiy-tanqidiy tahlil qilishda nafaqat adabiyot nuqtayi nazaridan, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham yondashish zarur. Tilning estetik funksiyasining namoyon bo‘lishi badiiy asar matni bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ushbu funksiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtai nazaridan kuzatib, o‘rganib borish, bu yo‘nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir[2].

Ilm-fan sohasida bo‘layotgan rivojlanishlar tilshunoslik sohasida yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga asos bo‘lmoqda[3].Til adabiyotning asosiy elementi bo‘lganligi sababli, badiiy matnni lingvistik tahlil qilish ham uni adabiy va uslubiy o‘rganishning asosidir. Barcha badiiy asarlar badiiy matnlardan tashkil topadi. Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi badiiy asar tilini o‘rganishda nisbatan keng qamrovli tushunchani o‘z ichiga olib, asarning badiiyligini ta’minlovchi unsurlarni tilning barcha sathlari doirasida o‘rganadi. Har qanday badiiy matnda ijodkorning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat va jamiyatga, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, odamlarga subyektiv munosabati, tafakkur doirasi, e’tiqodi

[1] Isoqov Z.S (2023) Lingvopoetikaning o‘rganilish tarixi. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education.(199-204).

[2] Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020) .2020/11: 90-101

[3] Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100

va dunyoqarashi kabilar lingvopoetik vositalar yordamida o‘zining badiiy ifodasini topadi. Ushbu maqolada she’riyatda lingvopoetik vositalarning qo‘llanishini Guljamol Asqarovaning asarlari misolida ko‘rib chiqmoqchimiz.

Badiiy matndagi har qanday so‘z ma’lum bir maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘ladi. So‘zlar tilda ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega. Bular so‘zning o‘z ma’nosi va ko‘chma ma’nosi deb yuritilsa, badiiy adabiyotda bu hodisa ramziylik, bo‘yoqdorlik kasb etadi. Qadah bir-biriga urilib jarangdor ovoz chiqarganidek, so‘z ham so‘zga qo‘shilib kutilmagan ma’nolarni kashf qiladi. Badiiy matn ana shu nuqtayi nazardan tekshirilgan paytda matndan anglashilgan mohiyat so‘z vazifadoshligida yuzaga keladi. Ya’ni, so‘zdan anglashilgan ma’no mazmun satrma-satr, band-ma-band izchillikda davom etib, lug‘aviy-ma’noviy intizomni shakllantirib boradi. Shunday ekan, she’r olami so‘zni-da o‘zgartiradi: so‘z ko‘z oldimizda o‘zining kutilmagan tomoni bilan gavdalanadi, yangicha ohang va ma’no qirralarini namoyon etadi. Demak, tekshirilayotgan obyektning tub mohiyati badiiy matndagi shakl va mazmun birligi, o‘xshatish, jonlantirish, ma’no ko‘chishi kabi lingvopoetik vositalarni ijodkor qanday qo‘llaganligi jihatidan o‘rganish hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar ham o‘z ko‘lamini tobora kengaytirib bormoqda. A.Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta’minlovchi leksik-stilistik vositalar bo‘yicha kuzatishlar olib borgan A.Hasanov o‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda erishilgan yutuqlarni qayd qilar ekan, M.Yo‘ldoshev tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining o‘zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishini bu boradagi ishlarni yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarilganligini ta’kidlaydi. O‘tgan asrning 40- yillaridan boshlab o‘zbek filologiyasida yozuvchi tili uslubi, badiiy asar tili bo‘yicha tilshunoslar ham, adabiyotshunoslar ham baravar tadqiqot olib bora boshladilar[1]. Bu kabi tadqiqotlar, dastlab maqolalar tarzida, keyinroq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida u yoki bu darajada tadqiq etildi. Bu tadqiqot ishlarida badiiy adabiyot tili muammolari borasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, O.Sharafiddiniv, N.Shukurov, S.Mamajonov, N.Karimov, Y.Solijonov, A.Boboniyozov, G.Imomova, J.Tursunov, N.To‘lanovalar badiiy asar tili masalasiga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashsalar, Sh.Shoabdurahmonov, S.To‘rabekova, A.Shomaqsudov, M.Yo‘ldoshev, B.Turdialiyev, Q.Samadov kabi olimlar badiiy asarni tilshunoslik aspektida tahlil qiladilar. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasidagi dastlabki ishlar sifatida XX asrning 80-yillarida tadqiq etilgan N. Mahmudovning “Oybek nasridagi o‘xshatishlar lingvopoetikasi” va “A.Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir” nomli ilmiy maqolalari shu soha bilan jiddiy qiziqqan olimlar uchun asos vazifasini bajargan. So‘ngra I. K. Mirzayevning “She’riy matnning lingvopoetik talqini muammolari”,shuningdek, U.Rahimovning “Nodira she’riyati lingvopoetikasiga doir”, G.Rixsiyevaning “Lingvopoetik tadqiq asoslari bo‘yicha mulohazalar”, D.Xudoyberganov “O‘zbek tilidagi o‘xshatish konstruksiyalarining semantik va stilistik tahlili”ga doir tadqiqotida, M. Yo‘ldoshevning “Cho‘lponning badiiy til mahorati” ga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida badiiy tili lingvopoetik jihatdan u yoki bu darajada tahlilga tortilgan[2]. Lingvopoetikani yaxlit bir butunlikda tahlil etish va badiiy asarning lingvistik xususiyatlarini chuqur va puxta o‘rganish ushbu soha mohiyatini to‘liq anglash va tasavvur qilishga yordam beradi.

Badiiy matn asosida so‘z va shu so‘zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo‘lgan soda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotar ekan, ushbu maqolamizda biz sevimli shoiramiz Guljamol Asqarova she’riyati misolida so‘zning badiiy asar qimmatini oshirishdagi muhim jihatlarini yoritib berishni maqsad qildik. Guljamol Asqarova o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubiga ega shoirlardan biri hisoblanadi. Uning she’rlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijod namunalaridan ajralib turadi. Shoira ijodidagi o‘ziga xoslikni ta’minlashda badiiy leksik vositalar, xususan, badiiy takror, vazifadoshlik, jonlantirish, o‘xshatish, ko‘chimning metafora, metonimiya kabi ma’no turlari alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklar badiiy asarning emotsional ekspressivligini ta’minlovchi tasviriy vositalardan hisoblanadi.

Shoira ijodida “so‘zning, gapning ardog‘i, ya’ni so‘zlarni birlashtirib, bir butun holiga keltiruvchi narsa tarkibi quyosh nuridan iborat bo‘lsa, uning son-sanog‘i, ya’ni ma’no nozikliklari, tovlanishlari, adolariyu, qirralari adadi cheksiz”[3]. Shoira “estetikasida har bir so‘z qanotli, ramzli. Osmon-u falakka qushlar parvozi -yu bulutlar hayoli emas, odamlarning tabiat, jamiyat, dunyo haqidagi tasavvur va tushunchalari g‘ujg‘on o‘ynaydi”[4]. Asar badiiy to‘qimalarini umumlashtiradigan so‘z esa, lug‘aviy-ma’noviy intizom va timsoliy-estetik talqin butunligini hosil qiladi. Shoira

[1] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 26-27.

[2] Isoqov Z.S (2023) Lingvopoetikaning o‘rganilish tarixi. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education.(199-204)

[3] Nafasov T. She’rning ham shoirning ham unvoni – so‘z. // “Postda” gazetasi, 2010-yil, 15- may.

[4] Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – B. 159.

“she’rlarida aqllilik qilmaydi, haqiqatni uqtirishga urinmaydi, lekin inson ruhiyatiga jo bo‘lgan barcha qusur va ojizliklarni, ulug‘lik va tubanliklarni mahorat bilan tasvirlaydi:

Tuyg‘ularni aql bilan
tang‘ib yurish.
Yana qirq yil bu dunyoda
Sang‘ib yurish.
Malol kelyapdi menga
Ayo do‘stlar, yuzi dog‘siz oy qayda bor,
Jonni nisor aylaydigan joy qayda bor?[1]

Tasvir va ifoda yaxlitligi she’rda mantiqiy mukammallik kasb etgan. Ijodkorning bu she’rida tagdor ramziylik imkoniyatlaridan foydalanishga ko‘proq e’tibor beriladi. “Shoiraning isyoni-chin!” Unda olam va odam munosabatini aks ettirish, ruhiyatning obyektiv borliqqa munosabatini ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlash jarayonida milliy va badiiy an’analar imkoniyatidan keng foydalanadi. Bu hol ichki zarurat sabab yuzaga kelgan. She’r so‘z, fikr va tuyg‘u hosilasi sifatida o‘z milliy ohangi, o‘lchovi va badiiy unsurlari bilan tug‘iladi. She’rda falsafiy mushohada so‘z vazifadoshligida amalga oshirilgan. Bu esa matn mohiyatini ochishda asosiy o‘rinni egallaydi. *“Aql bilan tangmoq”, “qirq yil sang‘imoq”, “malol kelmoq”* shaklidagi so‘z birikmalaridan tashkil topgan falsafiy umumlashma bir qarashda jo‘ndek tuyulsa-da mushohada mazmun mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborni tortadi. She’rda ijodkor estetik qarashlari, borliqni idrok etish, olam va odam o‘rtasidagi ziddiyatlarni tushinish va tushuntirishdagi o‘ziga xos nuqtayi nazarlari tizimini shakllantirgan. Band oxirida ijodkor insoniyatga ritorik so‘roq bilan murojaat qiladiki, bu she’rda lug‘aviy ma’noviy – intizom va timsoliy estetik talqin mukammalligini ta’minlagan. Ritorik murojaat *“Ayo do‘stlar”* undalmasi bilan boshlanadi. Bu birlik har bir bandda bir xil shaklda takrorlanib keladi. Jumladan, *“Ayo do‘stlar, yuzi dog‘siz oy qayda bor, Jonni nisor aylaydigan joy qayda bor?”* ifodasida “nisor” so‘zi tashib turgan ma’no butun bir bandda berilgan m’no-mazmunga hukm chiqarilishi aynan shu so‘zga yuklatilgan. Ya’ni, nisor so‘zi-arabcha “qurbon” degan ma’noni berishi manzumada aynan lug‘aviy-ma’noviy intizom va timsoliy-estetik talqin mukammalligini ta’minlash shu so‘z vazifadoshligida amalga oshirilgan.

She’riy nutqni lingvopoetik vositalarsiz tasavvur etish qiyin. Poetik matnlar tilning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o‘xshatishdir. Ular vositasida muallif fikrlari obrazli tarzda o‘quvchiga yetkaziladi, kitobxonga badiiy-estetik ta’sir etish amalga oshiriladi, asar tilining emotsional-ekspressivligi ta’minlanadi, muallif individual uslubi o‘z poetik tasviriga ega bo‘ladi. O‘xshatish deganda “ikki narsa yoki voqae hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalash” tushuniladi. Guljamol Asqarova she’riyatida qo‘llanilgan o‘xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi, unga zavq bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, tilimizda o‘xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor bo‘lib, leksik vositalarga kabi, singari, qadar, yanglig‘, bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go‘yo, teng, o‘xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo‘lmoq, bir, aynan, o‘zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirsa, grammatik vositalarga *-day, -dek, -dayin, -dir, -namo, -simon, -omuz, -li, -ona, -larcha, -saro* kabilar kiradi[2]. O‘xshatish hosil qiluvchi -day vositasi ishtirokidagi poetik tasvirning yuksak namunasini shoirning “Nafis alanga” she’rida ko‘rishimiz mumkin:

Ruhimda ne afsun o‘qilmish,
Qalbimda hech tinmaydi yomg‘ir.
Boshga yana qanday ish tushmish,
Nechun yelkam osmondek og‘ir.

Yoki “Ozod qush” she’ridagi quyidagi misraga e’tibor qaratsak:

…Va kechiring, hurlik istadim,
Tutqunlikmas dilning matlabi.
Men qafasman, bag‘rimni ochdim,
Endi keting ozod qush kabi…

Guljamol Asqarova o‘xshatish hosil qiluvchi “kabi” leksemasi vositasida kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltiradi, kitobxon beixtiyor tasvirlangan obyekt haqida o‘ylay boshlaydi, uning shakl-shamoyili va mazmun-mohiyatiga lirik qahramon ko‘zi bilan nazar tashlashga harakat qiladi:

Yog‘ib chiqsin shu tun xonangga
Ko‘nglim kabi oq-oppoq qorlar.

Ushbu misralarda shoira insonning ko‘nglini oppoq qorga qiyoslayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi misralar kitobxonni bir tarafdan o‘ylashga majbur qilsa, ikkinchi tarafdan so‘z boyligining oshishiga xizmat qiladi. Badiiy matnni lingvistik jihatdan tahlil qilishda lingvopoetik vositalar ahamiyatli ro‘l o‘ynaydi[3]. Badiiy matn mohiyatini ochishda so‘z vazifadoshligi asosida shakllangan poetik unsurlarni aniqlash orqali ifoda va tasvir tengligini, tahlil va talqin qorishig‘ini, tasavvur va tafakkur, shakl va mazmun

[1] Asqarova G. Oshiqlar tumori. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

[2] Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016.

[3] Abdurakhmonova N., Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019; 6(1-2019):131-7.

yaxlitligini, belgi va vosita muvofiqligi, dunyoqarash va mahorat jipslashuvini kuzatish mumkin:

Umri davonimda nega adashding,
Ko‘ngil ayvonimda nega adashding,
Jondayin bevafo chiqding-a oxir,
Bo‘g‘z-u tavonimda nega adashding?1

Kuchli hissiyot bilan to‘yingan, lirik qahramonning yoriga javob talab qilmas (ritorik) so‘roqlari bilan boshlangan tasvir manzarasi ifoda butunligini ta’minlagan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘z boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishib, yangi ma’no-mazmun va ruhiyat ifoda etgan. Matnda mantiqiy intizom bosqichma-bosqich shakllangan. Ya’ni bunda hayot-sevgi-vido tushunchalarini *“umr davoni”, “ko‘ngil ayvoni”* kabi sifatlashlari, shuningdek, *“bo‘g‘iz-u tavon”* birikmasi orqali ifoda etilgan. Bunda umr davoni – ko‘chma ma’noda “maqsad, intilish, hayoliy, ruhiy marra”ga o‘xshatilgan.. Ko‘ngil ayvoni – yurak, ishq sifatida talqin qilingan. Shuningdek, ritorik so‘roq ma’nosida kelgan lug‘aviy takror *“nega adashding”* birikmasi matndagi e’tiroz tuyg‘usini oshirgan va ma’no kuchayishiga xizmat qilgan. Banddagi barcha misralar so‘roq mazmunida ifodalangan. Birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralardagi so‘roq mazmuni nega olmoshining adashding fe’li bilan birikishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, uchinchi misrada bu holat chiqding fe’liga – a so‘roq yuklamasi qo‘shilishi orqali amalga oshirilgan. Mazkur holat mantiqiy intizom shakllanishida tuyg‘ular ohangdoshligini oshirishga xizmat qilgan. Unda barcha unsurlar vazifadoshligi faol ishtirokchiga aylanadi: tovush ohangni jilvalantiradi, belgi tasavvurni harakatga keltiradi, tasvir ruhiy kechinmani markazlashtiradi, ifoda obraz mundarijasini belgilaydi. Tushuncha kompozitsion – uslubiy mazmunini anglashda so‘z shakli mustahkam o‘rin egallaydi. Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni shundaki, biz tahlilga tortilgan matnning falsafiy mohiyatini ham nazardan chetda qoldira olmaymiz. Ya’ni, *“Jondayin bevafo chiqding-a oxir, Bo‘g‘z-u tavonimda nega adashding?”* der ekan, hayotiy falsafa jonning jismni tark etishi, “shu vaziyatda jon yo bo‘g‘izdan, yo tovondan tarqaladi” degan xalq orasidagi falsafiy dunyoqarashni yorning oshiqdan ayro ketishi bilan qiyoslagan. Shuningdek, matndagi umr, dovon, ko‘ngil, ayvon, jon, bo‘g‘iz, tavon kabi so‘zlardan tarkib topgan poetik obrazlar ham matn mantiqiy va grammatik intizom shakllanishida falsafiy umumlashmani yuzaga keltirgan.

Badiiy matn inson, tabiat va jamiyat sarhadlariga tarqalib ketgan uyg‘unlikni kashf etadi. Ichki mohiyat va tashqi shamoyil orasidagi aloqa badiiy yaxlitlik kafolati, unda subyekt va obyekt ohangdoshligi, shakl va mazmun vobastaligi, tasavvur va g‘oya mushtarakligi, talqin va tahlil ziddiyati o‘z ifodasini topadi. Darvoqe, bu Guljamol Asqarova ijodining umumiy manzarasida ham, ko‘plab she’rlarida ham kuzatiladi. Shoira ona tili imkoniyatlaridan foydalanib, so‘zning ma’nosini kengaytirishga harakat qiladi. Injular tizmasidek jilolangan ona tili lug‘at boyligini botiniy ko‘z bilan ko‘ra olgan shoir har bir so‘zni did bilan tanlaydi; tafakkur tarozisida o‘lchaydi. Original va obrazli ifoda usuli zamirida badiiy mantiq yotadi; tabiiyki, bu mantiq lo‘nda, har qanday sun’iy bezakdan xoli, ixcham shaklda yuzaga chiqadi. Bu shaklning voqe bo‘lishida, avvalo, shoirning didi, tafakkuri va o‘tkir nigohining uyg‘un mutanosibligini ko‘ramiz. Aslida xalq hayotini, turmush tajribalarini kuzatish natijasida ijtimoiy-ruhiy holatlarga oid xulosalar, mantiqiy umumlashmalar og‘zaki ijodda paydo bo‘ladi. Maqol, matal, aforizmlar kabi paremalar avloddan-avlodga o‘tib, xalq badiiy tafakkurida yashab keladi[2]. Bunday hikmatli iboralarda o‘xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash (antiteza), parallelizm, kinoya, piching va boshqa badiiy tasvir vositalari keng qo‘llanadi. Shoira she’riyatida bu kabi tasvir vositalari mavjud, albatta. Masalan, shoirning aksar she’rlarida, qisqa va lo‘nda misralarida tasviriy ifoda qo‘llanganini, muayyan bir fikr isboti yoki his-tuyg‘u ifodasi uchun xalq maqoli, matallarini o‘z o‘rnida ishlatganini kuzatish mumkin. Guljamol Asqarova she’riyatining lingvopoetik tahlil qilinishi o‘zbek adabiy tilining, jumladan, o‘zbek poetik nutqining o‘ziga xos jihatlarini, betakror imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Rezyume. Har qanday badiiy matnda ijodkorning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat va jamiyatga, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, odamlarga subyektiv munosabati, tafakkur doirasi, e’tiqodi va dunyoqarashi kabilar lingvopoetik vositalar yordamida o‘zining badiiy ifodasini topadi. Ushbu maqolada she’riyatda lingvopoetik vositalarning qo‘llanishini Guljamol Asqarovaning asarlari misolida ko‘rib chiqilgan.

Resume. In any artistic text, such features of creativity as its subjective attitude to nature and society, the changes taking place in it, events, people, the circle of thought, beliefs and worldview find their artistic expression using linguistic and poetic means. This article examines the use of linguistic and poetic means in poetry using the example of the works of Gulzhamal Askarova.

[1] Asqarova G. Erkalik imtiyozi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 77.

[2] Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.

Резюме. В любом художественном тексте такие особенности творчества, как его субъективное отношение к природе и обществу, происходящим в нем изменениям, событиям, людям, кругу мышления, убеждениям и мировоззрению находят свое художественное выражение с помощью лингвопоэтических средств. В данной статье рассматривается использование лингвопоэтических средств в поэзии на примере произведений Гульжамал Аскаровой.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA INTERTEKSTUALLIKNING QO'LLANISHI

Toshpo'latova Nilufar Abdug'ani qizi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Jamiyat taraqqiy topa borgani sari uning ilmga, fanga, taraqqiyotga qarashlari ham o'zgarib boradi. Ayniqsa, til va tilshunoslik ilmlari inson tafakkuri, ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy-ma'naviy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undagi o'zgarishlar jamiyat hayotida yaqqol o'z aksini topadi. Shunday ekan, bugungi globallashayotgan zamonamizda til ilmiga munosabatlar zamon bilan hamnafas tarzda zamonaviylashishga, yangilanishga muhtojligi sir emas. Zero bu ehtiyojlari tajallisi tilshunoslik sohasida, tilni inson omili bilan birgalikda tadqiq etishda yangidan yangi tadqiqotlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida matn masalasi, uning interpretatsiyasi muammosi ham tilshunoslikning tadqiqot obyektlari sirasiga kiradi.

Badiiy matnning tushunilishi kitobxon tafakkurini boyitish, til imkoniyatlaridan to'la foydalanish hamda nutq madaniyati oshirish kabi jarayonlarga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa tilning amaliy jihatini o'zida aks ettiradi. Shu bois badiiy matn persepsiyasi va bu jarayonga intertekstuallik hodisasining ta'sirini o'rganish ham badiiy asar tahlili, matnning o'ziga xosligi, kitobxon uchun foydali jihatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Dunyo tilshunosligida XX asrning so'nggi choragida **intertekstuallik** tushunchasi kirib kela boshladi. Shu davrdan e'tiboran interpretatsiya hodisasi bilan bog'liq ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda bu tushuncha haqida turli xil fikrlar keltirilgan.

Intertekstuallik termini ilk bor 1967-yilda Yu. Kristeva tomonidan olib kirildi. Kristeva o'zining intertekstualizm konsepsiyasini M.Baxtinning *"Проблема содержания, материала и формы в словесном художественном творчестве"* asarini tahlilqilish asosida ishlab chiqdi[1]. Bu atama izohli lug'atlarda lotincha so'zdan olingani va *to'qish paytida aralashtirish*, *o'rta matn* degan ma'nolarni anglatilishi keltirilgan. Bu atama matn ichida matnning keltirilishi, muayyan matnning yaratilishida undan oldingi matnlarga murojaat qilinishi tarzida izohlanadi. Kristevaning fikricha, intertekstuallik oldingi matnni takrorlash emas, balki cheksiz jarayon, matn harakatidir. Boshqacha aytganda, intertekstuallik boshqa matnlar elementlarini taqlid qilish yoki ularni qanday bo'lsa, yangi matnga o'z holicha kiritish jarayoni emas, balki "transpozitsiya" jarayonidir.

Hozirgi kunda intertekstuallik atamasi tilshunosligimizga ham kirib keldi. O'zbek badiiy matnlari uchun intertekstuallik hodisasi yangilik emas. Mumtoz adabiyotimizdagi "irsoli masal", "talmeh", "tazmin", "nazira" kabi badiiy san'at turlari ayni intertekstuallikning na'munasidir. Ularning badiiy matndagi vazifasi va shakli intertekstuallik tushunchasiga, uning mohiyatiga deyarli mos keladi.

Intertekstuallik borasidagi ilmiy izlanishlar o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida asta-sekin rivojlanmoqda. Xususan, M.Yo'ldoshevning

"Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining 2.2-fasli "Badiiy matning mazmuniy turlari va intertekstuallik" deb nomlangan[2]. Tadqiqotchi intertekstuallik badiiy matnning muhim nuqtalardan biri ekanligini qayd etib, unga shunday ta'rif beradi: "muayyan badiiy matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir". D.Xudoyberganovaning "Matnning

[1] Kristeva, J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J. Kristeva // Critique, 1967. T. 23, № 239

[2] Yo'ldoshev M. M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri…dis…-Toshklent: O'zR FA TAI, 2009

antropotsentrik tadqiqi"[1] nomli monografiyasining 3-bobida ham intertekstuallik xususidagi ayrim fikrlar mavjud. Olima intertekstuallik matn mazmuniy idroki asosiy shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Umuman, intertekstuallikning dunyo va o'zbek ilm-fanida o'rganilishi davom etmoqda va bu matn tilshunosligi, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika kognitiv tahlil kabi amaliy tilshunoslik yo'nalishlari uchun zarur ilmiy natijalarni berishi shubhasiz.

Shu o'rinda aytish kerakki, olimlar tomonidan matndagi intertekstual aloqalarning ham bir necha turi farqlanadi. Jumladan, J.Jenett matnlararo harakatni 5 ta guruhga ajratib, tasniflaydi. Ular quyidagicha:

1. Intertekstuallik. Bunda bir matn ichida ikki yoki undan ortiq o'zga matn parchasining kelishi kuzatiladi;

2. Paratekstuallik. Badiiy matnning sarlavhasi, epigraf va so'nggi so'zi bilan o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi hodisa;

3. Metatekstuallik. Matnning o'zidan oldin yaratilgan boshqa matn bilan dialogik aloqaga kirishuvi. Muallifning o'z bahonasi bilan izohlashi (asosiy, yakuniy matnlar) yoki qisman tanqidiy havola qilish;

4. Gipertekstuallik. Ma'lum bir matnning parodiya qilinib, o'zgartirilishi. Bitta matn yordamida boshqa matndan nusxa ko'chirish va parodiya qilish;

5. Arxitekstuallik. Matnlarning janrlar bo'yicha aloqasi va munosabati. Matnlar orasidagi janriy bog'lanishlarning mavjud bo'lishi.

Intertekstuallik haqida jiddiy izlanishlar olib borgan rus olimasi Fateyeva esa badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi[2]:

1. Allyuziya.
2. Reminissensiya.
3. Epigraf.
4. Sarlavha.
5. Iqtibos (sitata).
6. Aforizmlar.
7. Maqol, matal.

Berilgan ushbu tasnif, asosan, g'arb olimlari tomonidan taklif etilgan bo'lib, ular badiiy matn tarkibida uchrovchi o'zga matn yoki matn parchalarini xususiyatiga qarab intertekst turlarini ajratishgan.

Keling, endi badiiy asarlarda intertekstual birliklar tahliliga o'tsak. O'zbek adabiyotida qalami o'tkir adiblarimiz o'z asarlarida intertekstual birliklardan juda mohirona foydalanishgan. Bu hodisani Muhammad Yusuf asarlarida allyuziya va Ulu'bek Hamdam asarlarida reminissensiyaning qo'llanishi asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Allyuziya, intertekst hodisasi sifatida, umuman olganda, o'zaro aloqador matnlarda bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi.

Pretsedent nomlarning funksional turlaridan biri bo'lgan allyuziv nomlarga nomlar badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki madaniy – semiotik maydonni o'zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat e'tiborga olinmog'i lozim[3]:

a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi;

b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi.

Allyuziv nomlarni mavzu doirasiga ko'ra bir nechta guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

Diniy allyuziyalar: Odam Ato, Momo Havo, Ibrohim, Ismoil, Iso, Yusuf, Ya'qub, Muhammad (s.a.v.), Hizr. Diniy allyuzalarning o'zini bir nechta guruhlarga ajratish mumkin.

Tarixiy markerlangan allyuziyalar: Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, To'maris, Shiroq, Muqanna. Tarixiy markerlangan allyuziv nomlarni ham bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. Xususan, tarixiy markerlangan toponimlar, antroponimlar, voqea kabi.

Badiiy markerlangan allyuziyalar: O'tgan kunlar, Otabek, Kumush, Zaynab, Sen yetim emassan, Alpomish, Boychibor, Farhod, Majnun, Layli, Shirin kabi.

Mifologik markerlangan allyuziyalar: Sulaymon, Zevs, Kayumars, Axriman, Humo, Afrosiyob singari.

Ijtimoiy-maishiy markerlangan allyuziyalar: O'zbek ishi, oktabr inqilobi, paxta ishi kabi.

Muhammad Yusuf she'rlari zamonaviy o'zbek she'riyatida tamomila o'ziga xosdir. U inson ruhining kuychisi. Qadim o'tmish ham, bugungi muhim hodisalar ham shoir tuyg'ulariga qattiq ta'sir etadi va muayyan kayfiyat uyg'otadi. Muhammad Yusuf o'z she'rlarida ana shu kayfiyatlarning manzarasini rassom kabi aniq chizadi. Uning she'rlari kitobxonni o'yga toldiradi.

Qadim yurtga qaysin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim,
Alpomishga alla aytgan momlarim,
Ruhini shod etay desang- xalq bo'l elim.

"Xalq bo'l, elim" she'ridan keltirilgan ushbu misrada *Alpomish* badiiy markerlangan allyuziv nomi intertekstuallikni ko'rsatmoqda. "Alpomish" dostoni xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'ganligi bois uni badiiy allyuza turiga kiritdik.

Muhammad Yusuf ijodida "Alpomish" dostoni bilan aloqaga kirishgan she'rlar ko'plab topiladi. Jumladan, shoir ijodidagi "O'g'lonlar" she'rida intertekstuallikning badiiy allyuziya va epigraf turlarini uchratishimiz mumkin.

O'g'lonlar

Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbek o'g'lonlari xotirasiga

Alpomishday *kelbatidan gapirmay,*
O'n sakkiz yoshga ham kirib yo kirmay.

[1] Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, 2013.

[2] М.Хомидова. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2020

[3] Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020.

O‘n gulidan bir guli ham ochilmay,
Umri xazon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.

Ushbu she’rning oxirgi misralarida tarixiy allyuziv nomning intertekstuallikni hosil qilgan:

Botirmidi, Qodirmidi otingiz,
Qoldi dilda muhrlanib yodingiz.
Jaloliddin axir sizning zotingiz,
O‘zbekiston bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.

Muhammad Yusuf ijodida bir she’riy matnning o‘zidagina bir nechta allyuziya turlari vositasida mantlararo munosabatni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, adibning “Vatanim” she’ri bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Sen Mashrabsan, Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirini duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko`ringan da’vo qilgan,
Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

“Vatanim” she’ridan keltirilgan ushbu parchada ham tarixiy markerlangan allyuzalarni ko‘rishimiz mumkin. Keltirilgan misralarda Mashrabning og‘ir qismati va uning Balx shahrida dorga osilgani, Alisher Navoiy shaxsiyati, tariqat ustunlaridan bo‘lgan Ahmad Yassaviy hayoti haqidagi tarixiy faktlarga ishora qilmoqda.

Tarixiy markerlangan allyuziv nomlarni ushbu she’rning keyingi bandlarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, ushbu she’rda Chingizxon bosqinida mardlarcha kurashgan Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi qahramonliklari, arablar istilosi davridagi Muqanna qo‘zg‘oloni va jasorati, asli cho‘pon bo‘lgan Shiroqning forslarga qarshi matonati, Jaloliddin Manguberdi va Boburning vatandan ayro sargardonli, Ulug‘bekning o‘z o‘g‘li tomonidan o‘ldirilishi va farzandining padarkush bo‘lishi kabi tarixiy faktlarga asoslanga allyuziv nomlarni uchratamiz.

Reminissensiya intertekstuallikning turi sifatida badiiy matnda ijodkorning asarlarida boshqa kishining ijodining aks etishi yoki ta’siri sifatida tushuniladi. Bu atama lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, – es-es xotirlash; inson ilgari hayotda uchratib o‘rgangan narsa va hodisalarni, fikrlar, so‘zlar, voqealarni tusmollab eslashi.

Badiiy matnda reminissensiya ning ikki turi ajratiladi[1]:

1) adabiy hodisalarning dialogik munosabatda bo‘lishi natijasi o‘laroq yuzaga keluvchi hodisa, adabiy asardagi ilgari mavjud bo‘lgan asarlarni yodga soluvchi nuqtalar. Bunday reminissensiyalar anglangan va anglanmagan (asarda ijodkor xotirasida muhrlanib qolgan o‘zga asardagi nuqtalarning g‘ayriixtiyoriy tarzda aks etishi) ravishda voqe bo‘ladi; ular ochiq-oshkor emas, shu bois ilg‘ab olinishi ham birmuncha qiyin va shu jihat bilan o‘zlashtirish va taqliddan farq qiladi.

2) adabiy asardagi o‘zidan ilgarigi adabiy hodisalarni eslatuvchi, ongli ravishda yoki anglanmagan tarzda yuzaga kelgan nuqtalarning bari, adabiyotdagi adabiyot obrazi.

Quyidagi Ulug‘bek Hamdamning “Xudoyimni sog‘indim” deb nomlanga she’rida reminissensiyaning yuqoridagi ikkinchi turini uchratishimiz mumkin.

“Tushimda ko‘rdim seni,
Birga olib ket, meni...”[2]
Ey afsona ruh — sevgi!
Qismatimni suy endi.
Xudoyimni sog‘indim...
Tushimda ko‘rdim seni...
Xayolingga tutildim,
Turmushimni unutdim.
Borar joyim yo‘q endi,
Birga olib ket meni!..

Yuqorida keltirilgan misralarda muallif Oybek qalamiga oid misralarni o‘z asariga keltirishi orqali intertekstuallikni yuzaga chiqargan.

Aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, intertekst til birligi sifatida matn qurilishida ishtirok etadi. Bu ishtirok esa matnni mazmuniy idrok qilinishini osonlashtiradi, undagi implitsit ifodaga aniqlik kiritadi. Intertekst bevosita til egasining lisoniy qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, shunga ko‘ra xuddi boshqa lisoniy birliklar kabi matn(nutq)da aktuallashadi. Shu sababli ham intertekst sof lingvistik birlikdir.

Resume: Summary: This article provides information about the importance of intertextuality in the analysis of the literary text and its linguopoetics. In the literary text, such units as title, epigraph, quotation, allusion, reminiscence, parody are found as types of intertext. Each of them performs a certain task in the artistic text. The theoretical information of the article was revealed on the example of allusion and reminiscence used in Uzbek artistic texts.

Резюме: В статье представлена- информация о значении интертекстуальности при анализе художественного текста и его лингвопоэтике. В художественном тексте в качестве видов интертекста встречаются такие единицы, как заголовок, эпиграф, цитата, аллюзия, реминисценция, пародия. Каждый из них выполняет в художественном тексте определенную задачу.Теоретическая информация статьи раскрыта на примере аллюзии и реминисценции, используемых в узбекских художественных текстах.

[1] Weinkauff, Gina: Intertextualität in Kästners Emil und Detektive. In: Erich-Kästner-Gesellschaft (Hrsg.): Erich-Kästner-Jahrbuch. Würzburg: Königshausen & Neumann 2004.

[2] Oybek qalamiga mansub misralar.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ROMANCHILIK TARAQQIYOTI VA IJODIY AN'ANALAR

Nasirov Azimidin Normamatovich,
Samarqand davlat universiteti professori,
filologioya fanlari doktori

Globallashuv jarayoni barcha jarayonlarga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgani kabi turli davrlarda shakllangan, taraqqiy etgan roman janridagi asarlar ham o'ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Jahon adabiyotidagi roman janrining tadrijiy taraqqiyoti ham sharq xalqlari badiiyatida sezilarli darajada o'zgarishlarni namoyon qildi[1].

XX asr boshlarıga kelib, ijtımoiy-iqtisodiy hayotda katta o'zgarishlar maydonga keldiki, bu jarayon esa badiiy adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Turli janrdagi asarlar bilan bir qatorda, nasrning sezilarli o'zgarishi, turk va o'zbek adabiyotida ham namoyon bo'ldi. XIX asrning 70-80-yillarida ijtimoiy hayotda yakka hukmronlik hukm surgan bir vaqtda, turkiy adabiyotining rivojiga to'siq bo'luvchi tendensiyalar ham kuchayib bordi, Nomik Kamolga o'xshash o'z davrining buyuk ijodkorlari, yozuvchilari surgunda vafot etdi. O'sha davrda Turkiyada nashr qilingan "Servati Funun"ning atrofida ko'pgina turk ijodkorlari to'plandilar[2].

1908-yildagi "Yosh turklar" inqilobidan keyingi davrlarda, turk adabiyotda turli oqimlar paydo bo'ldi[3], turk realistik prozasining taraqqiyotiga Umar Sayfiddin, Xolida Edem Adivar kabi ijodkorlar o'z hissasini qo'shdi. Xolida Edem Adivarning "Yangi turon" romanida turk dunyosining erki, ozodligini, ularni birlashtirish muammolarini ko'tarib chiqqan edi[4]. Jahon adabiyotida shakllangan roman janri turkiy xalqlar adabiyotida ham o'ziga xos shakllarda rivojlanib keldi. Bu jarayonda o'zbek va turk romanchiligining poetik talqindagi o'ziga xosliklarni alohida qayd etish lozim.

XX asr jahon adabiyotshunosligi adabıy turlar va janrlar badiiy tadrijini uyushtiradigan va tartibga solib turadigan poetika tushunchasi hamda unga bog'liq ravishda roman nazariyasi masalalarini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish masalasini kun tartibiga qo'ygan edi. Badiiy asar, ayniqsa, roman poetikasi, asardagi poetologik markazning tabiati va ko'lami, tasnifi va tavsifi, yozuvchi ijodiy poetikasining o'ziga xos qirralari xususidagi masalalarni kompleks yoritib berish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim jihatlar hisoblanadi[5].

Jahon adabiyotshunosligida keng qo'llanilib kelayotgan tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va analitik metodlar asosida XX asrda shakllanib, kamolga yetgan, dunyo adabiyotining eng ilg'or romanchilik an'analarini ma'lum darajada ijodiy o'zlashtirgan o'zbek romanchiligi taraqqiy etib kelmoqda[6].

Keyingi yillarida o'zbek va turk adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidi badiiy ijodning muhim xalqasi hisoblanadigan poetika ilmiy-amaliy sarhadlariga nazariy yondoshish, adabiy-nazariy tahlillarning yangicha uslubiy-janriy takomilini belgilash, poetologik tushunchalarning ifoda bosqichlariga oydinlik kiritishga jiddiy e'tibor qaratmoqda[7].

Turkiya Respublikasining universitetlari va ilmiy markazlarida 1930-yillardan beri o'zbek adabiyoti, ayniqsa, o'zbek tarixiy romanchiligi xususida keng qamrovli tadqiqotlar olib bormoqda. Bu tadqiqotlar dastlab sho'ro siyosati qatag'onidan qochib, chet ellarga ketib qolgan yurtdoshlarimiz tarafidan yozilgan bo'lsa-da, keyinchalik turk olimlari ham o'zbek tarixiy romanlarining mualliflariga, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponlar qatori Odil Yoqubovning ijodiga katta qiziqish bilan qaray boshladilar.

Otaturk Universitetining (Atatürk Üniversitesi, Turkiya) professori Orxan So'ylemez "Turkiya turkchasiga tarjima qilingan o'zbek tarixiy romanlari" nomli maqolasida Sadriddin Ayniydan Pirimqul Qodirovgacha bo'lgan romannavislarning ijodiga munosabat bildi-

[1] Ali İhsan Kolcu. Edebiyat kuramaları.Tanım-Tenket-Tahlil. 5-baskı.- Turkiya, Salkımsöğüt yayınevi, 2016. – 440 b.

[2] Qörkmas Ramzan. Yeni turk edebıyotı. 1839-2000. 12-baskı. – Turkıya, Ankara, 2018. – 580 b.

[3] Suut Kemal Yetkin. Edebiyatta akimlar. – Turkiya, Istanbul, Remzi kitabevi, 1993. – 132 b.

[4] Güzin Dino. Türk romanının doğuşu. – Turkıya, İstanbul, Evın matbaası, 1978. – 210 b.

[5] Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul: KESIT, 2019. – B. 139.

[6] Nasirov A. Artistic chronotope interpretion in Odil Yakubov's novels // Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.

[7] Nasirov A. Ard conflict in the novel "Rebellion and obedience" by Ukugbek Hamdam // Science, Research, Development // 32. // 2. Berlin 30.08. 2020 – 31. 08. "Diomond trading tour". 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – str.

radi. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Adolat manzili” kabi romanlariga maxsus to‘xtalgan munaqqid, bu romanlarning o‘zbek romanchiligi taraqqiyotida alohida o‘rni mavjudligiga urg‘u beradi. Seljuq (Selçuk Üniversitesi, Turkiya) universitetidan tadqiqotchi Aziz Merxan “Abdulla Qodiriy va o‘zbek romanining tug‘ilishi” nomli maqolasida o‘zbek romanchiligining vujudga kelishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlarini oydinlashtiradi.

Adabiyotshunoslik nazariyasi va estetikasi joriy bosqichida “poetika” istilohi keng ma’no qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Badiiy obraz mohiyati va shakli, uslub, janr hamda metod kabi etakchi nazariy tushunchalar turli davr va yo‘nalishlar aspektida muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq poetika tushunchasi muttasil yangilanishlar og‘ushida ekani masalani bir qadar murakkablashtiradi.

Aslida “poetika” kategoriyasi vazifaviy, tashkiliy va kommunikativ aloqa uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadigan o‘ziga xos “yopiq” tizim tarzida namoyon bo‘ladi. To‘g‘rirog‘i, har bir janr tabiatiga monand tarzda namoyon bo‘ladi. Janrning har bir namunasida o‘ziga xoslik kasb etadi. SHunday ekan, sof ilmiy tahlil negizida ham alohida ijodkor, janr, ifoda mahorati masalalari turadi. SHu boisdan, biz taqdim etilayotgan tadqiqotda muammoning ba’zi qirralari – poetik matn qonuniyatlari, badiiy makon hamda zamon talqini, yozuvchi uslubiy manerasi, tasvir xronotopi, ifoda individualligiga ko‘proq urg‘u berdik.

Poetika atamasi hayotiy qamrov va ijodiy individuallik uyg‘unligini taqozo qiladi. Ruhiyat tasvir hamda badiiy ifodani bosqichma-bosqich taraqqiy toptiradigan vositalar majmui va mohiyatini tashkil etadi. Shu ma’noda, roman tahlilida shakl va mazmun mutanosibligi muhim o‘rin tutadi[1]. Badiiy asarning mohiyati uyushgan ichki va tashqi omillar tizimi yaxlitligida oydinlashadi.

Hayotni obrazli badiiy idrok etish, ijodiy konsepsiyani mazmunga mutanosib shaklda ifodalash badiiy voqelikning ishonchliligini ta’minlaydi. Poetik obraz badiiy makon va zamonda real salmoq kasb etadi, muallif ijodiy konsepsiyasini badiiy reallikka aylantiradi. Romannavis mahorati hayotiy va badiiy haqiqat, shakl va mazmun, ijodiy konsepsiya hamda poetik ifodaga ko‘ra belgilanadi[2].

Zotan, hissiy tafakkurdan mantiqiy mushohadaga o‘tish roman poetikasida muhim o‘rin tutadi. Sub’ektiv «men» ob’ektiv ko‘rinish hosil qiladi: shakliy unsurlar konseptual yaxlitligi struktur-uyg‘unlikni yuzaga chiqaradi. Roman davr va inson ruhiyatini yaxlit ifoda etadi. Olam va odamni anglash va anglatish mazmunga mos badiiy shaklda barqarorlashadi. Hayotiy mazmun hissiy idrokda qayta yaratiladi, asar paradigmatikasida yozuvchining estetik ilg‘ami poetik ifoda individualligini ta’minlaydi.

Darhaqiqat, poetika va adabiyot nazariyasi tushunchalari ayni bir narsa emas. Alohida-alohida jarayonni izohlaydi. Yozuvchi roman tagmatnida asar yaratilgan davr ruhiga ishoraviy munosabat bildiradi. Hayot haqiqatining semantik o‘zgarishlar bosqichini o‘tab (transformatsiyaga uchrab), turfa badiiy unsurlar uyg‘unligida birikuvi, ya’ni syujet, kompozitsiya, uslub, ifoda jihatidan yaxlitlashuvi janr tabiatiga monand tarzda kechadi. Rus olimi M.M.Baxtin estetik idrok andozasini to‘rt bosqichga taqsimlaydi: estetik ilg‘am-vazifa-material-san’at[3]. Darhaqiqat, roman uzvlarini yagona markazga uyushtirishda ikki poetologik qirra uyg‘unlashuvi: badiiy xoslanganlik darajasi muallifning shartlilik, an’ana, janr, estetik me’yorni uyg‘unlashtira olishi muhimdir. Adabiyotshunos S.M.Eyzenshteyn “tasvir ruhiyati” va “falsafiy umumlashma”[4] butunligini estetik modus sifatida tayin etganda mutlaqo haq edi. Adabiy kommunikatsiya birligi va badiiy mazmun o‘rtasida ifoda-talqin-tahlil mushtarakligi aks etadi.

Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, badiiylik qonuniyatlarining ifodasida, talqinlardagi ramzlarda, o‘tgan asr boshlaridagi mavzular ko‘lamida ham o‘ziga xos ijodiy hamohanglik etakchilik qilishini alohida qayda etish lozim. Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanidan olingan ushbu parchaga e’tibor qaratamiz: “Bir begunoh, beayb, pokiza musulmonni besabab-beyoziq juvonmarg qilganlaring ozmi? Endi uni rasm-rusmimizni ham bajo keltirmay, janoza ham o‘qittirmay, pinhona ko‘mmoqchimisanlar! Insof bormi senlarda? Musulmonmisanlar o‘zlaring yo kofirmisanlar? – deb g‘alayon ko‘tarishdi”[5].

Odil Yoqubov hayotiy axborotga o‘zi ifodalashni ko‘zlagan g‘oyani ijodiy maqsad ijrosiga yo‘naltirilgan. Semantik maydon badiiy ifoda va mantiqiy tugallanganlikni uyg‘unlashtira olgan. Mazmun davr ruhiyatidan ijodkor fitratiga o‘tgan. Shaxs qismati hamda voqelik tahlili bevosita adabiy tasvir mohiyatida maromiga yetgan. Yuqoridagi tasvirda millat qalbida isyon belgilari zohir bo‘ladi. Xalq manfaati va ehtiyojlari uchun elib-yugurgan, o‘z shijoat va irodasini el-yurt yo‘liga tikkan qahramon fojiasi yanada asosliroq yoritiladi. Biz poetik ifodani shartli ravishda to‘rt qismga ajratdik: a) badiiy to‘qima, b) falsafiy umum-

[1] Nasirov A. Expression of spiritual expreriences in art // International Jurnal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020. Impact Faktor 2020: 7.03. 181-182 str.

[2] Nasirov A. Odil Yoqubovning “Ulug ‘bek xazinasi” romanida badiiy obraz yaratish. Uluslararasi türk lehçe araştirmalari dergisi (türklad). 4(2). 2020.

[3] Baxtin M.M. Problema avtora. – Moskva, «Voprosi filosofii», 1977. №7. – S.280.

[4] Eyzenshteyn S.M. Izbrannыe proizvedeniya v 6-ti t. T.3. –M.: 1964. – S. 277.

[5] Yoqubov O. Adolat manzili. –Toshkent, Sharq. 2005. – 180 b.

lashma, v) mantiqiy konstruksiya, g) emotsional tizim. Bu sifat nisbiydir. Zotan, adib muntazam ravishda hodisotga nisbatan pozitiv munosabatda bo‘ladi. Odil Yoqubovning romannavis sifatidagi adabiy fenomeni uning adabiy xarakterlarini fikr, tuyg‘u, hayot haqiqati va davrga munosabat negizida ishonchli ifodalashi poetik dalillashida namoyon bo‘ladi.

Adib badiiy izlanishlarida har bir qahramon o‘z fikriy hamda ruhiy olamiga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turadigan muhim nuqtalar ham mavjud. Bu hol qahramonlarning hayotiga, insonga, odamzot uchun eng muhim bo‘lgan hodisalarga munosabatlari sharqona ma’naviyat asosiga qurilganligidir. SHu bois, ayni adib romanlari real salmoq kasb etadi. Darhaqiqat, axloqiy mezonlarni tasdiqlash yoki inkor etish adib ijodiy izlanishlarining tayanch markazini tashkil etadi. Aslida, inson ma’naviy dunyosi axloqiy mezonlarga rioya qilish bilan cheklanib qolmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash va muhofaza qilish uning negizini belgilaydi. San’atkor kashf etayotgan inson obrazi tabiiy sajiyasi ruhiy teranligi, ijtimoiy keskinligi va badiiy salmog‘i, xarakter tiynatiga yashiringan hayot haqiqatining nozik talqini bilan belgilanadi. Odil Yoqubov, asosan, ijtimoiy munosabatlar mag‘zini tayin etadigan, odamzot xatti-harakatlarini boshqaradigan asosiy qudrat manbaini aniqlashga harakat qiladi.

Xarakter voqealar tizimi va syujet tarkibiy qisimlarini markazlashtiradi. Qahramon shaxsi iroda yo‘nalishiga ko‘ra shakllanadi. Obraz mazmuni va mundarijasi manfaat-ehtiyoj kesishgan chorrahada ijtimoiy mavqega erishadi. Binobarin, odamzod tabiati shundayki, u hamisha ob’ektiv voqelik qarshisida o‘zini ojiz sezadi. Ijtimoiy mohiyat har bir personajning hayot tarzi, yashash maydonini belgilab beradi. To‘g‘rirog‘i, jamiyat talabi va taqozosi yoxud taqdir hukmi inson xarakteri shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Badiiy xarakterning yaxlit va to‘laqonli bo‘lishi bir qator estetik mezonlar pafosiga bog‘liqdir. Bizningcha, adib poetik mahorati obrazlarni imkon va imkonsizlik, orzu va armon, ideal va hayotning eng chigal vaziyatlari chegarasida xolis tasvirlashida namoyon bo‘ladi.

O‘z navbatida iztirob insoniy munosabatlar karama-qarshiligidan tug‘iladi. Odamzot psixologiyasi, shaxs ichki kechinmalari ruhiyatining eng nozik xususiyatlari tanlovi hamda ifodasi lavhaning g‘oyaviy yo‘nalishini aks ettiradi. Inson maqsad-u intilishlarini, orzu va istaklarini, butun – to‘laligida, kengligida, murakkabligida hamda kurashchanligida ko‘rsatish roman muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ayni damda, muallif ruhiy kechinma va poetik mushohadani uyg‘unlashtirish maqsadida tahlilni teranlashtiradi.

Aslida, hayotni butun borlig‘i bilan sevgan odamgina uning qadriga yetadi, qimmatini his qiladi. Hayotni anglab yashash, xato va nuqsonlar oldini oladi. Adib o‘z hayotiy g‘oyalarini aniq inson tasviri yordamida gavdalantiradi. Muallif o‘z qahramonlarining o‘ta shaxsiy, betakror ichki dunyosini yoritadi. Ruhiy olamini ro‘y-rost ifodalashni asosiy maqsad darajasiga ko‘taradi. Axloqiy-ma’naviy qarashlar poetik ifodasi zalvoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy keskinlik ayol timsolida maromiga etadi. Shu ma’noda, adib jamiyat manfaat va intilishlari poetik ifodasi orqali ham shaxsiy, ham umuminsoniy muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi. Tarqoq ifodalar miqyosi kengayib, konseptuallik kasb etib, inson ruhiyati va davr intilishlari tug‘dirgan iztiroblarni yaxlit badiiy-estetik tizimga soladi.

Binobarin, poetik mohiyat obrazning ma’no-mazmuni, shakliy ifodasi yaxlitligida anglashiladi. A.A.Potebnya: “Poetik mohiyatni tushuncha va obraz ibtidosi taqsimotiga yo‘naltirish-badiiy olam hamda badiiy mantiq butunligiga rahna soladi. Binobarin, hissiy idrok jarayonida san’atda ma’no komponentlari integratsiyasi sodir bo‘ladi. Joriy holat mazmun alohidaligi va mantiq muqobilligini bir-biridan uzoqlashtiradi”[1], – deb yozadi.

Yozuvchining “Diyonat” romanidagi tasvirlarga e’tibor qarataylik: “Ming to‘qqiz yuz yigirma to‘qqizinchi yilning sovuq kuz kunlaridan biri, qishloq o‘rtasidagi bozor maydonida, mashhur gumbazli machit oldida odam tirband: qishloq quloqlari surgun qilinmoqda! Qop-xurjunlari bilan aravalarga ortilib jo‘natilishga shaylangan bir guruh boylar, quloqlar, ruhoniylar orasida Qudratxo‘ja ham bor. Boshida chaqmoq telpak, egnida og‘ir pochapo‘stin, oyog‘ida xrom etik, qotma, shopmo‘ylov Qudratxo‘ja sheriklariga o‘xshab obidiyda qilayotgani yo‘q, yig‘ilgan olomonga, biri yurak yutib, biri hadiksirab kelgan qarindosh-urug‘lariga nola qilayotgani yo‘q, go‘yo surgunga emas, ko‘pdan orzu qilib yurgan sayohatga ketayotganday mo‘ylovini dikkaytirib, ko‘krak kerib turibdi. Ro‘paradagi olomonga, maydonni qurshab olgan otliq militsionerlarga, Normurodga o‘xshagan qishloq aktivlariga go‘yo: “SHoshmanglar, ko‘ramiz hali, oqibati nima bo‘ladi buning!” – degandek, ko‘zlarini qisib, jag‘ paylarini o‘ynatib yovqarash qiladi... Bu g‘alati manzaraning shohidi bo‘lgan bozor maydoni g‘ala-g‘ovur bo‘lib ketdi. Oynisaning qilig‘idan tuklari tik bo‘lib ketgan Normurod militsionerlarga: “Haydang bu yot unsurlarni!” deb buyruq berdi, buyruq berarkan, Qudratxo‘ja aqalli endi, faryod chekkan go‘zal xotinini ko‘rganida o‘zgarar, dod deb yuborar, deb o‘yladi. Ammo yuzi cho‘yanday qorayib ketgan Qudratxo‘ja, xotinining oppoq qo‘llarini bo‘ynidan shartta uzib, o‘zidan itarib yubordi-da, birinchi bo‘lib otliq militsionerlar oldiga tushdi”[2].

[1] Xill T.I. Sovremennыe teorii poznaniya. – Moskva, Nauka, 1965. –S.328.

[2] Potebnya A.A. Estetika i poetika. – Moskva, Nauka, 1976. – S. 164.

Asarda Qudratxo‘ja iztiroblari, qalb kechinmalari, ruhiy evrilishlarining bosh sababi tashqi omillar, inson ruhiyatiga borliqning ta’siri natijasida yuzaga chiqadi. Asarda Normurodlar fojiasini chuqurlashtirishda Qudratxo‘janing ichki butunligini zidlantirish usulidan foydalanadi. Dramatizmning kuchayishida tashqi voqelikning ichki olamidagi jarayonlar bilan berilishi muhim o‘rin tutadi.Ko‘rinayaptiki, muallif kechinma aniqligi, poetik konsepsiya yaxlitligiga erishadi. Badiiy matnda adibni bezovta qilgan hayotiy vaziyat-holat personajlar ruhiy kechinmasi orqali ifodalanadi. Adib muhokamani chuqurlashtirish orqali falsafiy-estetik hukm-xulosalar chiqarishga erishadi.

Odil Yoqubov “Diyonat” romanida davrning o‘ziga xos jihatlarini, inson xarakterining murakkab qirralarini yoritib beradi. Asarda asosiy qahramonlar orqali o‘tmishning turli xususiyatlarini ochib berishga intilsa, yordamchi obrazlar orqali bosh qahramonning xarakter qirralarini to‘ldirish, izohlash bilan bir qatorda, uning o‘ziga xos individual hayoti, syujetdagi o‘rni, inson taqdirining fojiali qirralarini ham ko‘rsatadi. Romandagi epizodik obrazlar bosh qahramon tiynatini yanada asosliroq ochib berishga xizmat qiladi.

“Diyonat” romani kompozitsion strukturasida eski raqiblar – Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja orasidagi munosabat hamda to‘qnashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu to‘qnashuvlar ijtimoiy burch va vijdon, diyonat va shafqatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayot va o‘lim haqidagi keskin, o‘tkir psixologik kechinmalar o‘z ifodasini topgan.

Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja orasidagi to‘qnashuvlarda shafqat tushunchasi ikki xil mohiyat kasb etadi. Ana shuning uchun ham, o‘tmish voqealari Normurod Shomurodov va Qudratxo‘jalarning ko‘z o‘ngida ikki xil gavdalanadi. Professor Normurod Shomurodovning qon-qoniga singib ketgan shafqat tushunchasi o‘sha davr siyosati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra uning Qudratxo‘jaga munosabatida davr siyosati belgilovchi kuch sanaladi. Shu sababli Qudratxo‘janing “yuz grammning bandasiga aylanib”, “lunjlari ichiga botib”, “kampirday” bo‘lib qolgan ayanchli va miskin hol-ahvolini ko‘rganda Normurodning qalbida paydo bo‘ladigan achinish va iztiroblar ham unchalik uzoq davom etmaydi, uning o‘rnini birdan shafqatsizlik, nafrat egallay boshlaydi. Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja oralaridagi to‘qnashuvlarni faqatgina mafkuraviy, o‘sha davr siyosatiga aloqador to‘qnashuvlar deb bo‘lmaydi. Bu keskin ziddiyatlarni ijtimoiy burch va vijdon, diyonat va shafqatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayot va o‘lim o‘rtasidagi to‘qnashuvlar deyish mumkin.

Asarda Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja oralaridagi ikkinchi to‘qnashuv Normurod Shomurodov uchun ham, Qudratxo‘ja uchun ham g‘oyat og‘ir bo‘lgan bir vaziyatda sodir bo‘ladi. O‘lim oldida endi ularning har ikkalasi ham teng mavqega ega... Buning ustiga ikkalasining ham hayoti fojialar bilan to‘liq... Normurod Shomurodov “inqilob” uchun ellik yil xizmat qilgan bo‘lsa-da, o‘z hayoti bilan maqtana olmaydi, shu bilan birga, u bu alamli fojiani tan olgisi ham kelmaydi.

Normurod Shomurodovning ham, Qudpatxo‘janing ham 30-yillar ya’ni, o‘tmish voqea-hodisalari haqida o‘z qarashlari bo‘lib, ular o‘zlarini shu jihatdan haq deb hisoblaydilar, shunga ko‘ra ularning bir-biriga nafrati hali ham cheksiz. Romanda Normurod Shomurodov va Qudratxo‘ja oralaridagi bunday psixologik holatdagi to‘qnashuvlarda g‘oliblik yoki mag‘lublik tushunchasi mavjud emas. Ammo bu o‘rinda o‘ziga xos poetik tizim mavjud. Biz buni so‘z, mushohada, badiiy g‘oya uzluksizligining estetik idrokidagi jipslashuvida ko‘ramiz.

Ko‘rinadiki, adolatsizlik va insonning kimdandir umid kutishi barcha zamon va makonga bir xil ruhiy iztiroblar bilan kechadi. Uqubatlar qarshisidagi odam ijtimoiy adolatni tiklashga ojiz qolganida beixtiyor yaratgandan madad so‘raydi. E’tiqodiy asoslarga tayanib umidlanadi. Bu uning poetik nutqida namoyon bo‘ladi. Qahramon nutqi har bir janr sarhadida o‘ziga xoslik kasb etadi. Badiiy nutq hissiy kechinmalarni to‘la ifodalaydi. Bunday hollarda poetik nutq kitobxon didiga monand tarzda hissiy – estetik idrok etiladi.

“Suyun burgut hibsga olinganiga bir hafta bo‘lyaptiki, Marjonoyning miyasini kechayu kunduz betaskin bir o‘y, notinchu behalovat bir savol kemiradi: erining gunohi nima, u nima jinoyat qildiki, qamoqqa tiqishadi? Lekin qancha o‘ylamasin, kechalari kiprigiga uyqu inmay, hovlini gir aylanadi, savoliga javob qidiradi, beorom xayoli pirovardida bultur yozdagi bir voqeaga borib taqalaveradi, taqalaveradi. O‘sha kuni Suyun burgutning Marjontov etagidagi yilqi fermasiga viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi Jaloliddin Najmiddinov vertolyotda uchib kelgan, eng yomoni, Suyun burgut o‘sha kuni, o‘sha erda Najmiddinovning qistoviga yon berib, “Marjontov” sovxoziga direktor bo‘lishga rozilik bergandi”[1]. Marjonoy fikr–xayolini band etgan bezovta o‘ylar, adoqsiz savollar kitobxon ruhiyatiga ko‘chib, muhokama jarayoni davom etadi, adabiy kommunikatsiya yuzaga keladi. Bunday muhokama poetik nutqni shakllantirishning funksional o‘ziga xosligini tamin etadi.

Ko‘rinadiki, zamonlar almashinuviga qaramasdan, inson xotirasi uni o‘tmish bilan uzviy bog‘lab turadi, puhiyatida bo‘y ko‘rsatadi. Asarda muhim

[1] Yoqubov O. Diyonat. Roman. – Toshkent, Sharq, 1998. – B. 352.

ma’naviy-axloqiy masalalar kun tartibiga qo‘yilgan. Otaqo‘zi – mavjud jamiyat aqidalari vositasida shakllangan va muhit voyaga etkazgan rahbardir. Aslida u ishning ko‘zini biladigan, tadbirkor va ishbilarmon kishilardan biri. Qahramon tabiatining murakkab sajiyasi ijtimoiy vaziyat suvratidan oziqlanadi. Bosh obraz, dastavval, kitobxon ko‘z o‘ngida vijdonli va oqko‘ngil inson sifatida namoyon bo‘ladi. Rais asta-sekin mansab izzattalabliligiga o‘rganadi. Ammo tinimsiz mehnat qiladi. Shunga qaramasdan, hukmron mafkura uning qadriga etmaydi. O‘zining haq ekaniga tobora ishonchi ortayotgan rahbarda keskin hukm chiqarishga moyillik paydo bo‘ladi. Millioner rais fojiasi aynan shu nuqtadan boshlanadi. Jamiyatning turfa bo‘g‘inlarida kuzatilayotgan rasmiyatchilik, nohaqlik illatlari uning ta’bini murakkablashtirib yuboradi. Tog‘asi bilan o‘zaro munosabatlariga ham darz ketadi.

Normurod Shomurodov xarakterida mujassam haqiqatparastlik va diyonat tuyg‘usi jiyan e’tirozlariga sabab bo‘ladi. Zohiran, keksalarga xos injiqlik deb hisoblash mumkinday tuyulgan harakatlar aslida maslak va e’tiqod butunligidan kelib chiqadi. Muallif qahramon shaxsiyatiga xos turfa qirralarni detallashtirish vositasida tasvir to‘laqonliligiga erishadi. Tor manfaat va izzattalablik illatiga duchor bo‘lgan Otaqo‘zi “yuzingda ko‘zing bormi?” deya ayamay haqiqat ko‘ziga tik boqadigan, ijtimoiy munosabatlarni sergak kuzatib boradigan domla fe’l-atvorini hazm qilolmaydi. Engil hayot tarzini ma’qul bilgan inson uchun aynan bu holat tabiiy hodisa, albatta! Shunga qaramasdan, Otaqo‘zilar fojeasi hukmron mafkura qatidan sizib chiqadi. Adib muhitning odamzod hayotiga rahna solishini mashhur rais faoliyati timsolida badiiy umumlashtirishga intiladi. Odil Yoqubovning poetik mahorati qahramon tabiatida shakllanayotgan illatlarning tub ildizlarini aniq hamda haqqoniy tarzda belgilashda namoyon bo‘ladi.

Romanda inson borlig‘i hamda davr ruhiyati izchil va teran, yaxlit va tugal ifodalangan. Roman qahramon ruhiy dunyosini batafsil ochish barobarida, voqelikka ongli ijodiy munosabatni ham ifodalaydi. Estetika va adabiyotshunoslik nazariyasi insonni bilish, xarakter tadrijini yoritishni doimo etakchi muammo deb bilgan. Inson fitrati haqida Sharq-musulmon falsafasi, nafosatshunosligida ko‘p yozilgan, odam o‘z rizq-nasibasi, taqdiri bilan dunyoga kelishi ham diniy, ham dunyoviy asarlarda o‘z isbotini topgan.

Adib ana shu mazmuniy butunlik orqali hayotiy material talqiniga munosabatini bildiradi. Odil Yoqubov asarlarida maishiy tafsilotlar uzviy aloqadorligi voqelikni badiiy tadqiq etish miqyosi va adib fitratida mavjud insoniy haqiqatlarni asoslashga yo‘naltiradi. Bu konseptual qarashlar romanda qo‘yilgan ijtimoiy – axloqiy masala va uning zalvorini ikir-chikirlar bilan qamrab olishga zamin hozirlaydi. Aniqrog‘i, ma’no takomili san’atkor olamidan qahramon nutqiga ko‘chadi. Buning samarasi o‘laroq mono-dialogik ong ijodkor tamoyillarini boshqaradigan shakliy, uslubiy izlanishlar ko‘lamini ta’minlaydigan bosh atribut darajasiga ko‘tariladi. Etakchi poetik tasvir yozuvchi ijodiy niyati bilan erkin birikib, tasviriy yaxlitlikni jonlantiradi. Birinchidan, nutqiy faoliyat matnlararo rishtalarni bir-biriga bog‘lab turadigan ichki omildir. Ikkinchidan, personaj bayoni hayotni asl holicha, xolis ifodalash imkonini tug‘diradi. Uchinchidan, nutqiy rang-baranglik badiiy voqelikka turfa yondashuvga yordamlashadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat va millat talab-ehtiyojlarini estetik nuqtai-nazardan to‘g‘ri baholash hamda umumlashtirishga imkon beradi. To‘rtinchidan, personajning ruhiy dunyosi shaxsiy kuzatuv maydoniga aylanib, konsepsiya ichidagi konsepsiyani yaratadi. Beshinchidan, ichki va tashqi monolog mohiyatan bir-birini to‘ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan yaxlit ijodiy uslub birligini ifodalaydi. Oltinchidan, dialogik ong ifoda tarzini belgilash bilan birga tasvirning aniqligi, ixchamligi, qisqaligi va yorqinligini xolis gavdalantirish vositasidir. Negaki, ruhiyatshunoslarning ta’kidlashicha, siqiq nutq keng tafsilotga nisbatan kitobxon tasavvuriga sakkiz – o‘n barobar tez etib boradi. Nutqni ifodalash tarzi o‘zida ham tashqi muhitning shamoyilini, ham qahramonning faoliyat ko‘lamini, ham milliy estetik qadriyatlarni aks ettiradi.

M.M.Baxtinning badiiy makon va badiiy zamon cheklanganligi haqidagi ta’limoti o‘z hayotiy asosga ega ekanligi ayonlashadi. Millat romaniy tafakkur madaniyati ufqlarini yangilashga intilgan Odil Yoqubov ijodiy tajribasi rang-barangdir. Adib har bir asarida o‘ziga yangi so‘qmoqlar ochishga intilganligi, mavjud an’analar asosida, xos badiiy ohangini yaratishga harakat qilgani bilan individuallik kasb etadi.

“Adolat manzili” romanining kompozitsion tuzilishi ko‘ptarmoqlilik hamda yo‘nalish rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Badiiy vaqt birligi kengayishi hodisot sabab va oqibatlarini o‘zaro bog‘liqlikda teran tadqiq etishga zamin hozirlaydi. Xarakter ijodiy tadrijiga turli rakurslardan yondashuv mifologik, diniy, ma’rifiy, falsafiy qarashlar, inson borlig‘iga xos tuyg‘u – kechinmalar qorishiqligini izohlash imkonini beradi. Asar kompozitsiyasi ikki muhim halqa – qahramon shaxsiyati va davr ruhiyati ma’naviy-axloqiy to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi. Demak, taqdirlararo o‘ziga xoslik va jamiyat hodisalari yonma-yon harakatlanadigan to‘ldiruvchi komponentlarni izohlaydi.

Resume: Comments on the development of Turkish novelization, the nature of poetic image, creative individuality and connections in the creative process, and the study of poetic issues are included. Analytical approach to creative traditions from the point of view of the influence of Eastern and Western traditions in the formation and emergence of Turkish novels. The formation processes of Turkish novel writing, views on the features of taking place of the epic image traditions in the artistic interpretation from the novel genre are noted.

Резюме: Включены комментарии о развитии турецкой новеллизации, характере поэтического образа, творческой индивидуальности и связях в творческом процессе, изучении поэтических вопросов. Аналитический подход к творческим традициям с точки зрения влияния восточных и западных традиций на формирование и возникновение турецких романов. Отмечаются процессы формирования турецкого романописания, взгляды на особенности места традиций эпического образа в художественной интерпретации из жанра романа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TRANSTEKSTUALLIKNING ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Mirzayeva Aziza Shavkatovna,
Buxoro Davlat universiteti doktoranti

XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan postmodernizm shu asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon adabiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylana oldi. "Postmodern", soddaroq qilib aytganda, "moderndan keyingi modern" demakdir. U jahon san'ati va adabiyotida inson huquqlarining buzilishiga, urush va zimdan taraqqiy etgan oligarxiyaga qarshi paydo bo'ldi. Postmodernizm, o'z vaqtida paydo bo'lgan boshqa har qanday oqim kabi, ma'rifatchilik, realizm, modernizm kabi oqimlarni inkor etish zaminida vujudga keldi. Bu vaqtda modernizm ham gullab-yashnayotgan, hatto ayrim xalqlar san'at va adabiyotiga (jumladan, o'zbek adabiyotiga ham) endi kirib kela boshlagan edi. Modernistlar shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda insonga hayot ma'nosini topishga yordam berishni maqsad qilgan edilar, postmodernizm esa tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning ma'nosizligini e'lon qiladi. Postmodernchilar hayotni xaosdan iborat, hamma narsa tasodiflarga bog'liq deb hisoblaydilar. Hayotga kinoyaviy munosabat, borliqni xaosdan iborat deb bilishda mujassamlangan mazmun postmodern adabiyotida mos ravishda yumor, kinoya, matn parchalanishi va janrlar aralashmasida ifoda topdi. Binobarin, transtekstuallik, jumladan, intertekstuallikka oid nuqtai nazarlar ham aynan postmodern adabiyotiga parallel ravishda paydo bo'ldi.

Darhaqiqat, XX asr adabiyotshunosligi ham turli-tuman qiziqarli qarashlar, nazariyalar, yondashuvlari bilan e'tiborli. Jumladan, asrning ikkinchi yarmida adabiyotshunoslikka transtekstuallik, intertekstuallik singari atamalar ham kirib keldi. Har ikki atama fanga fransuz olimlari tomonidan olib kirilgan. Transtekstuallik atamasini J.Jenett, intertekstuallik atamasini esa Yu.Kristeva olib kirdi. Yu.Kristeva rus olimi M.Baxtinning dialogizm va polifoniyaga oid qarashlarini chuqur o'rgangan va rivojlantirgan. M.Baxtin, ma'lumki, adabiy matnda muallifga tegishli bo'lmagan nutq ham mavjudligini aytib, uni "begona" deb ataydi. V.Xalizevga ko'ra: "F.Dostoevskiyda "begona" so'zlar bildirmasdan, ammo dadillik bilan muallif nutqiga suqilib kiradi: "Raskolnikov ... "bema'ni orzu"ni hatto g'ayriixtiyoriy ravishda, garchand hali o'zi ishonmasa-da, bo'ladigan ish deb hisoblay boshladi.

U hatto o‘sha bo‘ladigan ishni *sinab ko‘rmoqchi* ham bo‘ldi va daqiqa sayin hayajonlari oshgandan-oshib bordi”.[1] Olim davom etib yozadiki, olingan parchada qo‘shtirnoq va kursiv bilan ajratib ko‘rsatilgan “bema’ni orzu” jumlasi, “sinab ko‘rish” so‘zi va ajratib ko‘rsatilmagan “bo‘ladigan ish” jumlalari mohiyat e’tibori bilan muallifga emas, qahramonga tegishlidir. Bu yerda muallif xuddi qahramondan iqtibos keltirayotganga o‘xshaydi. Muallif nutqiga kiritilgan bu so‘z va jumlalar muallif tomonidan begonaning so‘zidek, chetdan turib aytilgan bo‘lsa-da, ular ayni vaqtning o‘zida bir-biridan keskin farqlanadigan Raskolnikov va Dostoevskiy ovozlarini o‘zida birlashtiradi. M.Baxtin shu kabi matniy so‘z-jumlalalrni *ikkiovozli so‘zlar* deb ataydi. Mana shu yondashuv asosida keyinchalik Baxtinning shov-shuvli polifoniya nazariyasi yuzaga keldi.

Yu.Kristeva M.Baxtinning shu xil fikrlarini rivojlantirib, “intertekstuallik” atamasini qo‘lladi; J.Jenett esa Yu.Kristevaga tayanib “transtekstuallik” degan tushunchani tavsifladi. Transtekstuallik muayyan muallif yaratgan matnda boshqa mualliflar ovozining birlashuvi, muayyan matnga begona matnlarning, matnatrofi unsurlarning, boshqalarning munosabatdorligidir. Binobarin, J.Jenett nazariyasi zamirida R.Bart, Yu.Kristeva qarashlari yotadi. Transtektuallik, J.Jenettga ko‘ra, matn ustiga qurilgan bino kabi bo‘lib, har qanday matn ko‘rinib turganidan kengroq, chuqurroq va mana shu holat muayyan matnni butun adabiyotga daxldor qilib qo‘yadi. Uning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

1. Intertekstuallik. Adabiy matn tarkibida ikki yoki undan ortiq boshqa matnlarning mavjud bo‘lishi, matnlar uyg‘unlashuvi. Bu iqtibos, allyuziya, reminessensiya ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin. Hatto plagiat ham intertekstuallik hisoblanadi.

2. Arxitekstuallik. Matnlarning janrga ko‘ra aloqadorligi, soddaroq qilib aytganda, muayyan asarning janr mansubiyati, shu janrdagi boshqa asarlar bilan munosabatdorligini ko‘rsatadi.

3. Paratekstuallik. Matnlaaro aloqadorlikning sarlavha, taglavha, so‘zboshi, kirish, epigraf shakllarida namoyon bo‘lishi. Asosiy matnning matnatrofi (sarlavha, epigraf, so‘zboshi, so‘ngso‘z, annotatsiya, muallifning va boshqa tanqidchilarning shu asarga bildirgan fikrlari kabilar) unsurllar bilan munosabatdorligi.

4. Gipertekstuallik. Asosiy matnning boshqa bir bus-butun matnga munosabatdorligi, ikki matn o‘rtasidagi mohiyatan davomatga asoslangan bevosita munosabat. Mutaxassislar bunga parodiya, davom ettirish kabilarni kiritadilar, hatto tarjimani ham gipertekstuallik doirasida qaraydilar. Masalan, Usmon Azim “G‘oz” hikoyasida “Alpomish” dostonidagi g‘oz obrazi bilan bog‘liq epizodni bevosita davom ettiradi. Bunda boshqa matnning ta’siri yoki taqlid aniq ko‘rinib turadi, muallif buni yashirmaydi, ammo o‘sha ta’sir yoki taqlid yangi, original matnga asos bo‘ladi.

5. Metatekstuallik. O‘z matniga sharh yoki tanqidiy havola berish.[2] Bunda ko‘pincha boshqa matn aniq sezilib turadiyu, leking undan iqtibos keltirilmaydi, nomi tilga olinmaydi.

Muayyan matn boshqa matnlar bilan qay tarzda: ochiq (bevosita kuzatishda berilgan) yoki yashirin (bevosita kuzatishda berilmagan) ekanidan qat’i nazar, bunday bog‘lanish J.Jenett tomonidan transtekstuallik doirasiga kiritilgan. Yana bir narsani alohida qayd etish lozimki, transtekstuallikni faqat adabiyotga oid hodisa deb o‘ylash ham to‘g‘ri emas, bu tushunchada “matn” deganda o‘zga tomonidan bayon qilingan har qanday matn (falsafiy, ilmiy, publitsistik kabi) tushuniladi.

J.Jenett intertestuallikni transtekstuallikning bir ko‘rinishi o‘laroq tavsiflaydi. “Intertekstuallik” atamasining o‘zi esa fanga 1967-yilda tilshunos, poststrukturalist-adabiyotshunos, yozuvchi va psixoanalitik Yuliya Kristeva tomonidan kiritilgan: “Intertekstuallik – matnlarning umumiy xususiyatini ifodalash uchun matnlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar mavjudligida ifodalangan bir butun matn sifatida qaraladigan ijtimoiy butunlik”.[3] Intertekstuallikda matnlaaro aloqa aniq yoki bilvosita (bevosita ko‘rinishda berilmagan) bo‘lishi mumkin. Yu.Kristova har qanday adabiy matn boshqa matnlarning mozaikaviy uyg‘unlashuvidan iborat, har qanday matn boshqa matnlarni o‘zida singdirgan, transformatsiyalagan bo‘ladi, badiiy adabiyotdagi so‘z matniy tekisliklarning kesishuvidan iborat deb hisoblaydi.[4]

Matnlararo aloqadorlik adabiyot paydo bo‘lganidan buyon mavjud va u ancha oldindan mutaxassislarni qiziqtirib kelgan. Hatto o‘rta asrlar Sharqida ilmi bade’da aniqlangan iqtibos, aqd, irsolu masal, talmeh kabi vositalar ham bevosita intertekstuallik ko‘rinishlaridir. Keyinchalik – XX asrning ikkinchi yarmida bu boradagi kuzatish, izlanish va tadqiqotlar transtekstuallik, intertekstuallik maxrajida birlashtirildi, shu atamalar bilan tavsiflandi. Hozirgi vaqtda bu atamalar anglatadigan hodisalar nafaqat adabiyot-

[1] Хализев В. Теория литературы. – Москва, Высшая школа, 2004. – С. 262.

[2] См.: Пшеничная М. Транстекстуальность и интертекстуальные референции в романе Дж.М.Кутзее «Элизабет Костелло» // https://cyberleninka.ru/article/n/transtekstualnost-i-intertekstualnye-referentsii-v-romane-dzh-m-kutzee

[3] Kristeva Y. Baxtin, so’zlar, dialog va roman // Fransuz semiotikasi: Strukturalizmdan poststrukturalizmgacha / frantsuz tilidan tarjima, komp., kirish maqola. G.K.Kosikova M: IG Progress, 2000. S. 27.

[4] См.: Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог, роман (1967) // Французская семиотика. От структурализма к постструктурализму. – Москва, 2000. – С. 428-429.

shunoslik va tilshunoslik, balki madaniyatlararo aloqadorlik doirasigacha kengaygan.

Biz yuqorida transteksuallik va intertekstuallikka oid qarashlar rus olimi M.Baxtinning “o‘zinikida o‘zganing so‘zi” qabilidagi qarashlari zaminida paydo bo‘lganini aytgan edik. U haqli ravishda muallifning o‘z so‘zi va o‘zganing so‘zi o‘rtasidagi chegara aralashib ketishi mumkin, deydi. Uningcha “har bir aytilgan gap – nutqiy muloqot zanjirining bir halqasi va to‘lig‘incha boshqalar aytgan gapga javob reaksiyasidir”..

1960-yillarning ikkinchi yarmida Baxtinning qarashlariga fransuz poststrukturalistlari Yu.Kristeva va R.Bart e’tibor qaratdilar. Yu.Kristeva har qanday matn boshqa mualliflar, boshqa asarlardan olingan parchalarning mozaikaviy uyushishidan, transformatsiyasidan, sintezidan iborat deydi. Uningcha, mana shu manzarada yozguvchining shaxsi xira tortadi, o‘zga matnlar muallifning ixtiyoriga bo‘ysunmasdan mozaika hosil qiladi.

Postmodernizm, transtekstuallik va uning mag‘zini tashkil qilgan intertekstuallik sohasida Rolan Bartning “muallif o‘limi” g‘oyasi ham muhim ahamiyatga ega. “Postmodernchilar o‘z g‘oyalarini qanday asoslashadi? Bu maktabga mansub bir qator vakillarning qarashlari quyidagi iqtibosda yaqqol ifoda topgan: “Baynalmatniylik (intertekstualnost – T.M.) konsepsiyasi M.Fuko tomonidan ilgari surilgan “sub’ektning nazariy o‘limi” g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqki, buni Rolan Bart “muallif(ya’ni yozuvchi)ning o‘limi”, shu bilan birga turli ayon va noayon iqtiboslar ichida aralashib ketgan individual matnning ham “o‘limi” deb atagan. L.Perron-Muazes esa ushbu muammoni boshqalarga qaraganda ravshanroq ifodalab, mutolaa jarayonida uchala narsa: muallif, matn va o‘quvchi yagona narsa – “xat o‘yini uchun bepoyon maydon”-ga aylanadi, deydi… Rolan Bart “Muallifning o‘limi”-ga esa yanada ko‘proq e’tibor qaratadi: “Muallifning o‘limi” – postmodernistik matnshunoslikning paradigmal figurasi bo‘lib, unda matn ma’no anglatish jarayoni uchun kifoya, degan g‘oyani ifoda etadi”.[1]

Shu o‘rinda aytib ketish lozimki, T.Masharipova “intertekstuallik” atamasi o‘rnida “baynalmatniylik” so‘zini ishlatadi. Bu, albatta, til sofligi, milliy tilga o‘zga tillar bosimini kamaytirish uchun qilingan tanlov. Ammo “baynalmatniylik” ham “intertekstuallik” singari turkiy-o‘zbekcha so‘z emas, har ikki qismi arabcha so‘z. Umumjahon bilan uyg‘unlashish uchun, bizningcha, “intertekstuallik” atamasini qoldirish ma’qulroq. Chunki ilmu fan rivojlangan ko‘pgina xalqlarda shu atama ishlatiladi, binobarin, hodisaning o‘zi ham o‘sha mamlakatlarda aniqlangan va nomlangan. O‘zimizda ham “baynalmatniylik”dan ko‘ra “intertekstuallik” ko‘pchilikka tushunarliroq, “baynalmatniylik”ni izohlash uchun baribir o‘sha baynalmilal “intertekstuallik” so‘ziga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Rolan Bart “Muallif o‘limi” (1968) essesida har qanday matn dialog, parodiya yoxud bahs-munozara kabi shakllarda o‘zaro munosabatda bo‘lgan turli madaniyatlarni tajassum etgan matnlardan tashkillanadi, deb hisoblaydi. Bartning fikriga ko‘ra, “intertekstuallik tushuncha o‘laroq muallif matn mazmunining yagona manbai bo‘lolmasligidan darak beradi”. U Balzakning “Sarrazin” hikoyasida ayol libosini kiygan artist haqida yozilgan “Bu – ayolning o‘zginasi edi, uning nogahoniy qo‘rqishlari, anglab bo‘lmas injiqliklari, g‘ayriixtiyoriy tashvishlari, besabab tersliklari, sho‘x qiliqlari va maftunkor nozik tuyg‘ulari haqiqiy ayollarga xos edi” degan gapni tanlab oladi va “bu gapni shaxs sifatidagi Balzak, yozuvchi Balzak yoki novella qahramoni aytyaptimi, yoki bu umuman insonga xos hikmatmi” – buni hech qachon bilolmaymiz, deb hisoblaydi. Uningcha “chunki **yozuvda** (ta’kid bizniki – A.M.) ovoz, manbaga oid har qanday tushuncha yo‘q bo‘lib ketadi. Yozuv – mavhumlik, har turlilik va mujmallikning shunday bir jihatiki, bunda bizning o‘ziga xosligimiz yo‘qola boradi, yozuv oq-qora labirint bo‘lib, bu yerda har qanday ayniyat, birinchi galda, yozayotgan kishining jismoniy ayniyati yo‘qoladi”.[2]

Rolan Bartga ko‘ra, muallifning o‘limi ko‘proq shunchaki hikoya qilish vaqtida sodir bo‘ladi, chunki bu vaqtda yozuv paydo bo‘ladi va ovoz o‘z manbaidan uzilib qoladi. Biz shartli ravishda buni “badiiy asar yaratilayotganda” deb olishimiz mumkin.

Trantstekstuallik nazariyotchilari oldindan mavjud bo‘lgan, ammo ikkinchi va hatto undan keyingi planlarda qolib ketgan muallif-matn-o‘quvchi munosabatlarini birinchi o‘ringa olib chiqdilar. Rolan Bart “badiiy matnni yozuvchi shaxsi, hayoti, u mansub bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy muhitdan kelib chiqib tadqiq etish, baholash kitobxonning taafkkur mustaqilligini bo‘g‘adi, o‘quvchi muayyan asarni qabul qilishda erkin, hatto bir qadar ijodkor bo‘lishi lozim” qabilidagi nuqtai nazarni ilgari suradi. Rolan Bart shuning uchun ham muallif-avtor so‘zi o‘rniga “skriptor”, ya’ni kotib so‘zini qo‘llaydi. Chunki avtor (inglizcha authority – avtoritet, ya’ni mavqe, hokimlik ma’nosida) so‘zining zamirida baribir avtoritarizm (ya’ni bir shaxsning hokimligi, ustunligi) ma’nosi yotadi. Alohida ta’kidlash lozimki, bu sxemalarning barchasi syurrealizm, postmodernizm adabiyotiga tadbiq qilgandagina tom ma’noda o‘z isbotini topadi. Buni Rolan Bartning quyidagi so‘zlari

[1] Машарипова Т. Ғарб назарий манбаларида “муаллифнинг ўлими” концепцияси // “Жаҳон адабиёти” журнали, 2015 йил, 11-сон.

[2] Барт Р. Муаллиф ўлими. Рус тилидан Рисолат Ҳайдарова таржимаси // “Шарқ юлдузи” журнали, 2015 йил, 2-сон.

ham tasdiqlaydi: “Muallifni yo‘q qilish bu – shunchaki tarixiy fakt yoki yozuvning kuchi emas: bu bilan butun bir zamonaviy matn tubdan o‘zgarib ketadi. **Hozir matn shu tarzda tuziladi va o‘qiladiki** (ta’kid bizniki – A.M.), muallif matnning barcha bosqichlarida yo‘q qilib yuboriladi (bu yerda Bartold Brextga ergashib, haqiqiy “begonalashuv” haqida gapirish mumkin – muallif adabiy “sahna”ning eng ichkarisidagi jimit odamcha kabi jisman kichiklashib ketadi). Avvalo, vaqt bilan bog‘liq istiqbol o‘zgacha bo‘lib qoldi. Muallifga ishonuvchilar uchun muallif hamisha o‘zining kitobiga nisbatan o‘tmishda, o‘tgan zamonda fikrlaydi, kitob va muallif avval va keyin o‘rtasini mo‘ljal qilib olgan umumiy o‘qda joylashadi. Muallif kitobni xayolida ko‘tarib yuradi, ya’ni fikrlaydi, iztirob chekadi, kitobi uchun yashaydi, go‘yo ota o‘z farzandidan avval dunyoga kelib, keyin uni yaratgandek, o‘z asarini dunyoga keltiradi. Zamonaviy skriptorga kelsak, u yozuv bilan bir vaqtda tug‘iladi, u yozuvdan tashqarida mavjud emas, yozuvdan avval ham mavjud emas edi, u kitobi o‘ziga nisbatan predikat bo‘ladigan sub’ekt emas, u faqat birgina vaqtda – nutqiy akt vaqtida qoladi, **har qanday matn hamisha shu yerda va hozir yoziladi**”.[1] Iqtibos oxiridagi ajratib ko‘rsatilgan jumlalar postmodernizmning metamatn tushunchasiga mos keladi.

Lekin baribir an’naviy qarashlar tarafdorlariga muallifning butunlay chekkaga surilishi, muayyan matn va uni yaratgan shaxs o‘ratsidagi aloqaning butunlay mavjud bo‘lmasligini idrok etish, qabul qilish qiyinroq. Ilmu fanimizdagi quyidagi kabi fikrlar ham bizning mulohazamizni tasdiqlaydi: “Nazarimizda, R.Bartning qarashlarini boshqacha talqin etish ham mumkin. U **muallifning individualligiga emas, u haqda adabiy tanqid rejaga solib qo‘ygan tushunchalarga qarshi chiqmoqda** (ta’kid bizniki – A.M.). Hatto muallifларning o‘zlari ham asarlaridagi bir talay jihatlarning talqini borasida – g‘oyadan tortib, janrlar masalasiga qadar munaqqidlar bilan hamfikr bo‘lavermaydilar. Adabiyotshunoslar o‘z tanqidlari, mantig‘i, qotib qolgan an’analari yoki stereotip ilmiy yondashuvlari bilan auditoriyaning tafakkur yuritishiga xalaqit beradilar”.[2] Mazkur iqtibosdan, bizningcha, tadqiqotchi T.Masharipovaning R.Bartning “muallif o‘limi” konsepsiyasini imkon qadar an’anaviy yondashuvlarga moslashga, o‘sha rakursdan turib talqin qilishga moyilligi ko‘rinib turibdi.

Biz esa boshqacharoq yondashuvni ilgari suramiz. Bizningcha muallif va matn o‘rtasidagi bunday aloqa butunlay mavjud emas, deyishdan ko‘ra, ular o‘rtasidagi aloqa avval mavjud bo‘lganu, bora-bora xuddi umuman hech qachon bo‘lmagan kabi uzilgan deyish to‘g‘riroq. Chunki muallifning o‘limiga oid qarashlarning sharpasini dastlab Zigmund Freydda ham ko‘ra olamiz. U “San’atkor va faantaziya” ma’ruzasida deydiki, faqat bitta qahramon – bosh qahramon ichdan turib tasvirlanadi. Avtor xuddi o‘sha qahramonning ichida turib boshqalarni kuzatayotganga o‘xshaydi. Zamonaviy yozuvchi o‘z-o‘zini taftish qilish orqali “men”ini bo‘laklarga bo‘lib yuboradi, natijada o‘sha bo‘laklangan “men” turli qahramonlarda ifoda etiladi. Qahramonlarning bir-biriga zid va qarama-qarshi ekanligi “men”ning ichki ziddiyatlarini ifoda etadi.

Shu tariqa Kristeva ham, Rolan Bart ham ilmiy izlanishlarida Mixail Baxtin g‘oyalariga tayanadilar, o‘z nuqtai nazarlarini J.Derridaning ishlari fonida qaralashi lozim deb hisoblaydilar. J.Kleyton, Ye.Rotshteyn, I.Ilin, N.Fateeva, G.Allen kabi tadqiqotchilar ham J.Derridaning nazariyalari adabiyotshunoslikdagi intertekstuallik konsepsiyasi uchun asos-zamin bo‘lib xizmat qilganini ta’kidlaydilar.

Resume: This article explores the concept of transtextuality primarily from a theoretical point of view and analyzes the concept of transtextuality and its further development. The article focuses on the types of transtextuality and their definitions based on the opinions of modern writers.

Резюме: В данной статье исследуется понятие транстекстуальности прежде всего с теоретической точки зрения и анализируется концепция транстекстуальности и ее дальнейшее развитие. В статье основное внимание уделяется типам транстекстуальности и их определениям, основанным на мнениях современных писателей.

[1] Ўша жойда.

[2] Машарипова Т. Ғарб назарий манбаларида “муаллифнинг ўлими” концепцияси // “Жаҳон адабиёти” журнали, 2015 йил, 11-сон.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK DRAMATURGIYASIDA IJODKORLAR OBRAZI (Izzat Sulton ijodi misolida)

Badalova Jamila,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

O'zbek adabiyotining maydoni nihoyatda keng bo'lib, unda qanchadan qancha buyuk ijodkorlar o'z asarlari bilan o'chmas iz qoldirganlar. Ular yaratgan asarlar adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarini qamrab oladi. Adabiyotimizda nisbatan yosh, kenja adabiy tur dramaturgiyadir. Bundan deyishimizga sabab shuki, dramatik turda asarlar yozila boshlaganiga endigina yuz yildan oshdi. Milliy dramaturgiyamiz tarixi XX asr boshlaridan M. Behbudiyning "Padarkush" dramasi bilan boshlanadi. Bu davr tarixan nisbatan qisqa vaqt hisoblansa-da, shunga qaramasdan, ushbu yo'nalishda ham iste'dodli dramaturglar yetishib chiqdi va o'lmas asarlar yaratildi.

Alohida ta'kidlash lozimki, qanday adabiy turdagi, qaysi mavzuda bitilgan asar bo'lmasin kitobxonning yodida qoladigan va unga eng kata ta'sir o'tkazadigan jihat bu asardagi voqealarning kitobxonga estetik ta'sir ta'sir o'tkazishi, yaratilajak obrazlarning miqyosi bilan belgilanadi. Yuqorida so'z boshlaganimiz dramaturgiyada ham obrazlarni yaratish asar muvaffaqiyatining bosh me'zonlaridan biridir. Obrazlarni nazariy jihatdan bir qancha turlarga ajratish mumkin. Tadqiqotimiz davomida biz o'zbek dramalaridagi inson obrazi – personaj haqida, yanada aniqroq qilib aytganda, ijodkorlar obrazi haqida o'z kuzatishlarimizni bayon etamiz.

Taniqli adabiyotshunos olim, adib va dramaturg Izzat Sulton ijodida drama janriga mansub asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Adib dramalaridagi obrazlar xilma-xil бўлиб, ular orasida ijodkorlar obrazi ma'lum bir tizim darajasiga ko'tarilgan. Bularadan eng taniqlisi shoir Uyg'un bilan hamkorlikda yozilgan "Alisher Navoiy" dramasi.

"Noma'lum kishi" dramasida ham ijodkor obrazi ishtirok etgan bo'lib, bu Nurbobo ismli shoirdir. Drama kompozitsiyasining qahramonlar ro'yxatida unga xalq shoiri deb izoh berilgan. Asar voqealari 1905-yilda Buxoro amirligida bo'lib o'tadi[1]. Oddiyn халқнинг амалдорлар, zodagonlar va xon zulmiga qarshi Niyoz botir boshchiligida qo'zg'oloni voqealari asarning asosiy mavzusi qilib olingan.

Asardagi ijodkor obrazi, ya'ni, Nurboboning o'rni alohida ahamiyatga molik. Nurbobo xalq dostonlaridagi baxshilar, ertaklardagi hikoya qilib beruvchi donolar qiyofasida ko'rinadi, lekin u asar syujetidan tashqarida emas. Asarda bevosita ishtirok etadi. Dramaning ekspozitsiyasi ham Nurboboning she'rlari bilan boshlanadi. Bu she'rlar asardagi prolog vazifasini bajargan. Dramaning markaziy qahramoni Niyoz botirning zulmga qarshi mazlumlarni erk va ozodlik yo'liga boshlagani asarning asosiy syujet chizig'ini belgilaydi:

Yomonlikning umri mangu emas hech.
Yomonlikni dono mangu demas hech.
Asrlardan beri zulm pichog'i —
Bota-bota suyakka yetgan chog'i —
Sabri bitgan mazlum boshin ko'tarur,
Yangi zamon, yangi davron boshlanur,
Mana chiqmish Niyoz degan bahodir,
Mazlumlarni yoqlamoqqa u qodir.[2]

Nurbobo asarda donolik ramzi sifatida beriladi. Asar bosh qahramoni Niyozning unga pirim deb murojaat qilishi, maslahat so'rashi, Nurboboning ko'zi ojiz bo'lib qolganda ham ko'p narsani bilishi va his qilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Nazarimizda, Nurboboning nabirasi Turg'unoyning tilidan chiqqan quyidagi so'zlarda ham bunga ishora qilinganini sezish qiyin emas:

Mardlik qayda bo'lsa, dono shu yerda.
Yoshlik borur dono borsa qayerga[3]

Bu yerda Niyoz – mardlik, Nurbobo – donolik, Turg'unoy – yoshlik timsoli deb talqin qilinsa o'rinli bo'ladi.

Izzat Sulton qalamiga mansub "Shoir qalbi" opera librettosi haqiqiy ijodkorlar obrazini jamlagan asardir. Librettoning bosh qahramoni Furqat bo'lib, uning atrofida zamondosh shoirlar Muqimiy, Zavqiy, Nisbat kabi boshqa ijodkorlar obrazlari berilgan. Asarda Furqat atrofni o'ragan dindor ulamolar va ayrim rus kishilari bilan konfliktda tasvirlanadi. Furqat obrazini ochishda uning she'riyatiga va ulardagi gumanistik fikrlarga muxlis bo'lgan insonlardan unumli foydalanilgan. Furqat qayerda bo'lmasin uni iliq qarshi oladiganlar doim topiladi. Asardagi qolgan shoirlar obrazlariga batafsil ta'rif berilmagan. Ular Furqat bilan hammaslak, safdosh sifatida bosh qahramonning xarakterini to'laqonli namoyish qilishga hissa qo'shgan. Bundan tashqari asarda Furqatning shogirdi Farzinjon ismli hofiz yigit obrazi ham bor bo'lib, uning musiqa yo'nalishida iste'dodli ijodkor ekanligi mavzuga aloqador jihatdir. Chunki ijodkor deganda faqatgina shoir yoki yozuvchi emas balki san'atning har qanday turi bilan shug'ullanuvchilarni ham tushunish mumkin.

Izzat Sulton dramaturgiyasida ijodkor obrazi haqida gap ketar ekan, "Alisher Navoiy" pesasiga alohida

[1] Султон Иззат. Асарлар 4 томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 210 б.

[2] O'sha manbaa. – B. 211.

[3] O'sha manbaa. – B. 259.

to‘xtalish lozim bo‘ladi. Biz tadqiq etayotgan mavzu uchun eng boy material beruvchi asar ushbu dramadir. Asarda ko‘plab ijodkorlar obrazi uchraydi – Jomiy, Binoiy, Sohibdoro kabilar. Bu aytilganlar ikkinchi darajali obrazlar bo‘lib, asarda bor e’tibor Navoiy obraziga qaratilgan.

Asar syujeti ko‘pchilikka tanish, chunki bu dramaning adabiy asar va sahna versiyalari ommalashgan. Bundan tashqari 1947-yilda suratga olingan “Alisher Navoiy” badiiy filmi syujeti shu nomdagi drama bilan deyarli bix xil. Buning sababi film ssenariysi drama mualliflari – Izzat Sulton va Uyg‘un tomonidan yaratilgan. Dramada Navoiy doimiy ravishda konfliktlar girdobida tasvirlanadi. Uning konflikti Sulton Husayn Boyqaro, Majdiddin, Shayxulislom kabi kimsalarning siyosat va ijtimoiy sohadagi noto‘g‘ri ishlari sababli yuz beradi.

Asardagi obrazlar ikkita tizimdan iborat. Birinchisi, Navoiy atrofidagi obrazlar tizimi. Bu tizimga Jomiy, usta Jaloliddin, Sohibdoro, Behzod, Abdulmalih, Turdiboy kabi obrazlar kirsa, ikkinchisi, Majdiddin tomonidagi obrazlar sistemasiga Qutbiddin, Shayxulislom, Muzaffar, Mansur va Munajjim kabilar kiradi. Husayn Boyqaro shu ikki qarama-qarshi kuchlar orasida turadi va ko‘pincha Navoiyga qarshi bo‘lgan kuchlarga yon bosadi. Bu ikki obrazlar tizimi bir qarashda ijobiy qahramonlar va salbiy qahramonlar kabi ko‘rinadi. Chunki asar yaratilgan davrlarda adabiyotda ijobiy qahramon va salbiy qahramon terminlari ko‘p ishlatilgan, asar personajlari, albatta, yaxshi yoki yomonga ajratilgan. Bu holat sho‘rolar davri adabiyotining asosiy estetik prinsiplaridan biri edi. O‘zbek adabiyotida istiqlol yillariga kelibgina badiiy asarlarda ijodkor o‘z estetik idealidan kelib chiqib tasvirlash, inson xarakterini butun murakkabligi bilan ko‘rsatish boshlandi.

Navoiy personajining xarakteri o‘z xatti-harakatlari, gap so‘zlari, ijodi orqali ochiladi. Bosh qahramonga nisbatan xalq ishonchi, yon atrofdagilarning cheksiz hurmati kitobxonda Navoiy obraziga nisbatan simpatiya paydo qiladi. Navoiyning do‘stlari tugul uning dushmanlari ham shoirlik iste’dodiga va mahoratiga tan berishadi. Ayniqsa, Navoiyning davlat arbobi sifatida xalq dardi bilan yashaganligi, bu yo‘lda uning chekkan ranju mashaqqatlari kitobxonda ulug‘ shoirga nisbatan chuqur mehr-muhabbat uyg‘otadi.

Asarda bir ijodkor obrazi borki, uning ijodkor ekanligini oddiy kitobxon bilmay o‘tib ketishi mumkin. Bu tarixda Husayniy taxallusi bilan she’rlar yozgan iste’dod egasi – sulton Husayn Boyqarodir. Husayn Boyqaro obrazi asarda maishatparast va bir qadar kaltafahm, beburd qilib tasvirlangan. Unga yaxshi fazilatlar singdirilmagan, ijobiy jihatlari ko‘rsatilmagan. holatlar tarixiy haqiqatga mos kelmaydi. Dramaturg nega bunday yo‘l tutgani haqidagi fikrimiz quyidagicha:

dramadagi obrazlarga yozuvchining hissiy munosabati yaqqol seziladi. “…obrazlar tizimidagi har bir konkret obrazning hissiy tonalligi turlicha bo‘lib, bu narsa birinchi galda muallifning ijodiy niyati bilan bogliq bo‘ladi”[1]. O‘ylashimizcha, shoh va uning atrofidagi amaldorlar, din peshvolarini “qora bo‘yoq” bilan tasvirlash yozuvchining ijodiy niyatlari qatoridan joy olgan. Chunki sobiq sovet davri adabiyotida hukmron mafkura belgilab bergan yo‘ldan og‘ishmaslik talab etilgan. Bu talabga qarshi chiqqan ijodkorlar qismati aksariyat hollarda fojia bilan tugagani hech kimga sir emas. Nafaqat sovet adabiyotida, balki butun ijtimoy hayotda barchaga, barcha san’at asarlariga sinfiy jihatdan yondashilgan. Boylar, shoh-u sultonlar, diniy ulamolar doim yomon; ishchi, dehqon va kambag‘al xalq doim yaxshi qilib tasvirlangan. Shu sababli ham drama mualliflari Husayn Boyqaro, Shayxulislom, vazir va beklarni birorta yaxshi fazilatga ega bo‘lmagan obraz qilib tasvirlagan. Yuqorida tilga olingan asarlarning barchasida mafkuraviy ta’sir elementlarini uchratish mumkin. Lekin bizning vazifamiz asar badiiyligi, obrazlarning xususiyatlari haqida izlanishlarimiz natijasini bayon qilish, asarga mafkuraviy baho berish emas.

Obrazlar xarakterini ochishda personajning o‘z nutqidan ko‘proq foydalanilgan. Bu usul dramada anchayin qo‘l keladi, sababi, dramada voqelik harakat va dialoglar ustiga quriladi, muallifning ortiqcha izohlari uchun o‘rin berilmaydi. Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, ijodkor obrazining nutqi alohida ajralib turadi. Unda she’rlar va qofiyalar, so‘z o‘yinlari ko‘p uchraydi. Tasvirlanayotgan ijodkor shoir bo‘lsa, uning ichki dunyosini, hislarini ifodalashda she’rlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Agar tasvirlangan ijodkor prototipi mavjud taniqli shaxs bo‘lsa, uning o‘z she’rlaridan foydalanish yanada ma’qul yo‘l bo‘ladi. “Shoir qalbi” va “Alisher Navoiy” dramalarida Furqat va Navoiy tilidan o‘z she’rlari berilgan. Bu usul qo‘llanilganda dramalarda qahramon ruhiy holatini ifodalovchi shartli ichki monolog o‘rnini ham shu she’r bilan to‘ldirib ketish mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, I. Sultonning “Abdulla Qodiriy”, “Abdulla Qodiriyning so‘nggi kunlari” dramatik asarlari ham alohida tadqiqotlarni taqozo etadi.

Izzat Sulton o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida o‘zining o‘rniga ega bo‘lgan otaxon yozuvchi edi. Bugun biz uning istiqlolgacha yozilgan dramalaridagi ijodkorlar obrazi haqida kichik kuzatishlarimizni bayon etdik. Ularning har biri alohida tadqiqot uchun yetarli manbaa bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Resume: The article analyzes the role of Izzat Sultan in Uzbek dramaturgy and the image of creators in his works. The author’s dramas “Unknown Person”, “The Poet’s Heart”, “Alisher Navoi” were taken as objects for the article.

Резюме: В статье анализируется роль Иззата Султана в узбекской драматургии и образы творцов в его произведениях. В качестве объектов статьи были взяты авторские драмы “Неизвестный”, “Сердце поэта”, “Алишер Навои”.[1]

[1] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 93.

Termiz davlat universitetining 70 yillik yubileyiga



SATTOR MAHMATQULOV
(1942-2005)

XXI asr boshlari, aniqrog‘i 2004-yilning 24-sentyabrida Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, dotsent Sattor Mahmatqulov O‘zFAning A.Navoiy nomli til va adabiyot instituti huzuridagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi. Shundan so‘ng yana bir quvonchli xabar qulog‘imizga chalindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Qo‘mitasi ushbu ilmiy ishni tasdiqladi va Sattor Mahmatqulov Termiz davlat universitetida o‘zbek tili yo‘nalishida birinchilardan bo‘lib filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi diplomini olishga musharraf bo‘ldi.

Xushxabarning qanoti bor, deydilar. Fan yo‘lida zahmat chekib, maqsad cho‘qqisini zabt etgan olimning muvaffaqiyati uning do‘stlari, hamkasblari, ustozlari va shogirdlarini g‘oyat mamnun etdi.

S.Mahmatqulov 1942-yil 12-aprel sanasida Sho‘rchi (hozirgi Oltinsoy) tumanidagi Qorluq qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Jobu qishlog‘ida tug‘ildi. Tarixiy-ilmiy ma’lumotlarga qaraganda, Jobu turkiy etnonim, ya’ni o‘zbek urug‘laridan birining nomi. Aytishlaricha, g‘arbiy turklarning oliy hukmdorlik unvonlaridan biri yobg‘u deb atalgan. Qadimgi turklarda bu unvon qabila va qabilalar ittifoqi boshlig‘iga berilgan.

O‘lkamizda urug‘, qabila nomlarini saqlab kelaytogan joy nomlari ko‘plab uchraydi. Gapni joy nomlarining kelib chiqishi bilan boshlayotganimizning boisi bor. Chunki S.Mahmatqulov ularni miliy qadriyatlarday hurmat qiladi, ular haqida suhbatlashish, izoh berishdan erinmaydi. Ularda xalq tarixi, urf-odatlari, ezgu maqsadlari mujassam deb biladi. Har kishi o‘z elining tarixi, qadriyatlarini yaxshi bilishi, e’zozlashi darkor deya yoshlarga nasihat beradi. Darhaqiqat, kishining komillikka intilishida, ijtimoiy hayotda fazilat kasb etishida el-yurtning nafasi, ruhiy ta’siri benihoya kattadir. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz tarbiyasida kishining o‘z yetti avlodini bilishi talabi ham mavjuddir.

Sattor domla ham ana shu tuyg‘ular og‘ushida yashagan. O‘tgan kunlarini xotirlaydi. Otasining mehnatsevarligini, halolligini, soddaligi va o‘z e’tiqodiga sadoqatliligini, dehqochilik va bog‘dorchilik sir-asrorlarini puxta egallab, bolalariga va nevaralariga o‘rgatganligini, ularga ham bu kasbga mehr uyg‘ota olganlarini hurmat bilan eslaydi. Va bu fazilatlar ajdodlardan qolib kelayotgan meros, qadriyat ekanligini tushunadi.

Ilmga hurmat ham ota-bobolari qonida bor edi. Shuning uchun ham uning maktabda, oliy dargohda (hozirgi O‘zMU) o‘qishi ibratli bo‘ldi. Maktabda Soatmurod Jo‘raqulov, Abduvosi Abdusattorov, Chori Jo‘raqulov kabi mohir pedagoglardan, universitetda esa Ayub G‘ulomov, Shavlat Rahmatullayev, Karim Nazarov, Siddiq Fuzailov, Yoqub G‘ulomov, Iristoy Qo‘chqortoyev, Ozod Sharafiddinov, G‘ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Laziz Qayumov, Umarali Normatov, Ahmad Aliyev singari taniqli olimlardan saboq oldi. Ularning o‘z kasbiga mehri, ilmiy salohiyati, donoligi, har qaysisining o‘ziga xos fazilatlari shogird ko‘ngliga bir umrga naqshlanib qoldi.

1966-yili oliy ma’lumot olib qaytgach, dastlab maktab o‘qituvchisi bo‘ldi, so‘ng harbiy xizmatni o‘tadi. 1967-yildan e’tiboran uning pedagogik faoliyati hozirgi Termiz davlat universiteti bilan bog‘landi. Bu yerda u yoshlarga ona tilidan saboq vera boshladi. Bo‘lajak filologlarga ta’lim-tarbiya berish barobarida jamoat ishlarida ham faollik ko‘rsatdi.

Pedagogik faoliyati barobarida ilmiy izlanishlarini kuchaytirdi. Markaziy va xorijiy nashrlarda, ilm-

iy to‘plamlar, ilmiy jurnallarda, shuningdek matbuot nashrlarida muntazam ravishda ilmiy va ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop xarakterdagi maqolalari chop etilib bordi. Mamlakat va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda ma’ruzalar bilan chiqdi. Ularda muallif o‘z izlanishlari yuzasidan ma’lum ilmiy xulosalarini ifoda etdi.

1980-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgach, ilmiy izlanishlarini yanada kuchaytirdi. Va nihoyat, filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Aytish mumkinki, dissertatsiya o‘zbek tilshunosliging dolzarb masalalariga qaratilgan. Buning uchun dissertant uzoq izlanishlar olib borgan. Z.Harris, N.Xomskiy, O.S.Axmanova, L.S.Barxudarov, Y.V.Paducheva, V.G.Admoni kabi g‘arb va rus olimlarining, M.Sh.Sheraliyev, N.A.Baskakov, E.V.Sevartyan, N.Z.Gadjiyeva va boshqa turkshunos olimlarning asarlarini, ularning mavzuga oid qarshlarini jiddiy o‘rgandi. (Mavzuni yoritish uchun Oybekning “Qutlug‘ qon”, Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘z’lar”, Hamid G‘ulomning “Feruza” romanlaridan sidirg‘asiga ko‘chirish yo‘li bilan maxsus materiallar to‘plab, tahlil qildi.)

- Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi bayoni” asarida kuyunib aytilgan bir gap bor, - deydi olim biz bilan suhbatda. – Men bu fikrlarni shogirdlarimga vaqti-vaqti bilan eslatib turaman. Unda shunday deyiladi: “Inson nimagaki erishsa, harakatining natijasidan topadi. Agar intilmasa hech narsaga erisha olmaydi. Albatta, sizning aql va bilimingiz tufayli mahluqlarning eng oliysi qilib, barcha mahluqlarni esa sizga tobe qilib yaratgan ekan, demak, siz o‘z bilim va iqtidoringizni ishga solishingiz lozim. Agar intilmasangiz xudodan nima gina? Xudodan ne shikoyat?

Demak, intilganga tole yor, sendan harakat – mendan barakat kabi xalq iboralari bejizga aytilmagan. S.Mahmatqulov ilmiy ishlarini shu tarzda jiddiy olib borib, dissertatsiyasini yozish davomida mavzuga oid monografiya, ko‘plab maqolalar e’lon qildi. Ular ilmiy jamoatchilik tomonidan xuhsnudlik bilan kutib olindi. Masalan, monografiyaga tilshunos olimlar X.Xolyorov, H.Ne’matov, Yo.Tojiyev, B.Bafoyev, D.Qulmamatov, Yo.Abdurasulov, P.Bakirov, I.Mirzayev, M.Shukurov, N.Panjiyev, B.Umurqulov kabi olimlar ijobiy munosabat bildirib, matbuot va ilmiy to‘plalarda taqrizlar e’lon qilindi.

S.Mahmatqulov ham o‘zining qirq yildan ortiq umrini pedagogik faoliyatga bag‘ishlagan fidoyi inson. Yoshlarga ona tilining jozibalarini, ma’no tovlanishlarini, milliy tafakkur ifodalarini qiziqarli tarzda o‘rgatgan.

Avval o‘zing qil amal, so‘ngra
Nasihat elga de,
Ey Huvaydo, so‘zlama, senda
Amal bor o‘lmasa,

deydi mumtoz shoirlarimizdan biri. Agar kishining o‘zida ona tiliga hurmat, muhabbat bo‘lmasa, bu haroratni, bu samimiyatni o‘zgalarga singdira olmaydi. S.Mahmatqulov ona yurtini, ona xalqini, ona tilini jon-dilidan sevardi, bu haqda ko‘tarinki nafas bilan, yuksak e’tiqod-u ixlos bilan so‘zlardi. Uning bu jonbozligi matbuot orqali chiqishlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Olimning mehr quyoshidan bahramand bo‘lgan yoshlar bugungi kunda ta’lim tizimi yoxud xalq xo‘jaligimizning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular orasida oliy toifali o‘qituvchilar, fan doktorlari, fan nomzodlari, turli rahbarlik lavozimiga munosib ko‘rilgan kishilar bor. Ular o‘z ustozlari orasida S.Mahmatqulovdek dilkash, fidoyi, ona tilimiz taraqqiyotining jonkuyari, shogirdlarining fan yo‘lidagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlovchi va ardoqlovchi samimiy ustoz bo‘lganidan mamnundirlar. U kishi o‘tayotgan ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar hamisha biz uchun bayramga aylanardi. Har bir so‘zning ma’nosini erinmasdan tushuntirar, savollar yog‘ilavergandan hech qachon xunobi chiqmasdi. U kishi hikmatga aylanib qolgan “Dunyoni go‘zallik qutqaradi”, degan so‘zlarni takrorlashni yaxshi ko‘rardi deb shogirdlaridan Ahad, Iskandarlar guruhi eslashar edi (1980-yilning talabalari). Shuningdek, fikrimizning dalili sifatida, ayniqsa, S.Mahmatqulovning kursdoshlari orasida akademik B.Nazarovdek, shoira Tursunoy Sodiqova kabi elga ma’lum va mashhur insonlar bor ekanligini eslab o‘tish joiz.

S.Mahmatqulovning xotirasi uning safdoshlari, do‘stlari, shogirdlari, qarindoshlari, uni yaqindan bilgan kishilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

***Shukurov Ahad Ahmadovich**,*
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori